



ALISHER NAVOIY

LISON UT-TAYR

(QUSH TILI)



ALISHER NAVOIY

LISON UT-TAYR

(QUSH TILI)



«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT - 2021

KBK: 84(50)1
UO'K: 821.512.133-1
N 14

Navoiy, Alisher.

Lison ut-tayr [Matn]: doston / A. Navoiy. – Toshkent:
“Tafakkur” nashriyoti, 2021. – 224 b.

Hozirgi o'zbek tiliga nasriy bayon qiluvchilar:

Sharofiddin SHARIPOV, filologiya fanlari nomzodi.

Vahob RAHMON, O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi.

*Muqovada **Alibek ABDURAHMONOV**ning
“Lison ut-tayr” dostoniga ishlangan rasmidan foydalanildi.*

“Lison ut-tayr” (“Qush tili”) dostoni Alisher Navoiy ijodida muhim o'rin tutuvchi asar hisoblanadi. Ushbu doston mazmuni kuylangan Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini bola Alisher to'qqiz yoshida yod oldi. Va bir umr unga javob yozishni niyat qilib, oltmish yoshga qadam qo'yganidagina bu qutlug' niyatni amalga oshirdi.

Tasavvufning ramziy talqinidan iborat bo'lgan bu ajoyib doston qiziqarli mazmuni, qoliplovchi syujeti tarkibidagi ellikdan ortiq axloqiy-ta'limiy va ma'rifiy ruhdagi jozibali hikoyalari bilan kitobxonni o'ziga rom etadi.

ISBN: 978-9943-24-221-0

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV No 2023/7-08

© «Tafakkur» nashriyoti, 2021 yil.



KO'NGILLAR HAMROZI

Galaktikamizning Yer shari degan jahonida odamlar olami, hayvonlar olami, hasharotlar olami va boshqa olamlar bor. Shu olamlar orasida bolalarga ko'proq yaqini qushlar olami desak, xato qilmaymiz. Shuning uchun bo'lsa kerakki, 9-10 yoshlardagi Alisher Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") nomli dostonini juda yoqtirib qoldi va muttasil shu doston mutolaasi takroriga ruju qo'ydi va butun boshli dostonni yod oldi.

Hamma asarlar: dostonlar, devonlar ham Alisher Navoiy uchun bir bo'ldiyu "Mantiq ut-tayr" ham bir bo'ldi. U "Xamsa" dostonlariga javob yozdi. Kamol Xo'jandiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy g'azallariga tatabbular bitdi. "Mantiq ut-tayr" esa unga umrbod yo'ldosh bo'ldi. Uning bosh g'oyasi - vahdati vujud (vujud yagonaligi) va tajalliy (asl moyaning olamdagi zuhuroti) Alisher Navoiy ma'naviy hayotining mag'zini tashkil etdi. Buni atroflicha tadqiq etishni "Lison ut-tayr" falsafasini tushuntirishdan boshlagan ma'qul ko'rinadi.

"Lison ut-tayr" dostonidagi bosh qoliplovchi hikoya: jahon qushlarining yig'ilishib martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashishlari voqeasidan tortib, qushlarning Hudhud boshchiligida Semurg'ni izlab yetti vodiydan (Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano) o'tishlari va Semurg'ni topolmay, Semurg'ni izlashga chiqqan si murg' (o'ttiz qush)ning o'zi ekanligini bilishlarida ham; dostondagi Shayx San'on qissasi va o'nlab hikoyalardan chiqadigan xulosa ham bitta: olam -

borliq Allohning zuhuridan iboratdir. Qushlar (odamlar) Semurg'ni izlab (ya'ni Xudoga yetishish uchun) yo'lga chiqadilar. Xudoni izlashga umr sarflaydigan darveshlar yetti riyozat bosqichidan (Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano) o'tadilar va ruhga aylangach, Xudo bilan qovushadilar. Go'yo Alloh – quyoshdir, olamdagi barcha narsa va odamlar – uning nur zarralaridir. Tug'ilish – zarraning quyoshdan uzilib, biror narsa yoki odamga aylanib ketishi; o'lim esa – zarraning asliga qaytib quyosh bag'riga yetishidir.

Riyozat bosqichlarining ma'nosi nima? So'fiy (Xudo jamoli shaydosi, ya'ni Xudo fidoyisi) talab yo'lga kiradi. Xudoni topishni istaydi. U talabda shunchalik izchil va fidoyiki, muttasil Alloh yodi bilan band bo'ladi. So'ng "Alloh nima?" degan masalani hal etishga urinadi va Alloh haqida bilim hosil qiladi. Allohning husn va ma'no jihatdan mislsiz vujud ekanligini bilgach, u o'zining oliy tilagiga yetib, qanoat hosil qiladi. So'fiyga husn va ma'no jihatdan Alloh o'zi kifoya qiladi. Allohning hamma sohada tengsiz va yakkeyu yagona ekanligi unga kashf bo'ladi. Borliq, barcha go'zalliklar va eng yuksak aql-tamiz faqat Allohda va undagina yog'ilishi, uning asllarning asli, o'zaklarning o'zagi, moyalarning moyasi ekanligi; faqat u hamisha borligi, yakka-yagona ekanligi so'fiyni hayratga soladi. Bu hayrat shunchalik kuchliki, endi uning aqlida, ko'nglida va ko'zida faqat Xudo jilvalanadi va o'sha jilvadan hayratlanish nihoyasiga yetmaydi. Shu hayrat manbai uchun u hamma narsadan: boylik, davlat, kishilar, o'zligidan voz kechadi: Xudo fidoyisi o'z izlanishlarining cho'qqisiga yetib jisman Alloh uchun faqirlikni tan olib, vafot etadi, fano bo'ladi. Ya'ni so'fiylik istilohi bilan aytsak, Alisher o'ziga ikkinchi taxallus qilib olgan so'z Foniyy – tasavvufda eng oliy kamolot bosqichiga yetgan kishidir.

Dostondagi ana shu bosh falsafiy masala Shayx San'oning sevgi qissasida qisqaroq bo'lsa-da, yaqqol ifodalangan. Majnun alhaq, ya'ni Alloh devonasi nomi bilan mashhur bo'lgan hikoyada esa, Allohning odam uchun o'zi bilmasa ham mehribonligi, uning g'amini yeyishi aks ettiriladi.

Tasavvuf ta'limoticha, olam: yulduzlar, oy, quyosh, odamlar, hayvonlar, qushlar, kapalaklar va boshqa jami narsalar Xudoning zuhurotidan iborat. Go'yo Xudo o'z qudratini namoyish etish uchun o'z husnini olamdagi narsalarda ifodalagan. Milsiz aqlini mutafakkirlarda, mislsiz husnini gul-chechaklar, go'zal qiz va yigitlarda namoyish etgan. Shuning uchun Laylini sevgan Majnun Laylida Alloh yuzini ko'rgan... Shayx San'on tarso sanamga ko'ngil berib, Ka'badan voz kechib "Qur'on"ni o'tda yoqib, otashparastlar ibodatxonasida o't yoqib yurganida, ya'ni islomga qarshi xatti-harakatlarini uchiga chiqarganida u Xudo husni fidoyisi edi: tarso sanamga Alloh husniga mahliyo bo'lgandek boqar va hamma narsadan uning uchun voz kechgan edi.

Tasavvufdagi ana shu o'zak masala - olamning Alloh jilvasidangina iboratligi, odamning Alloh quyoshining zarrasi ekanligi haqidagi ta'limot Farididdin Attor ijodi, Alisher Navoiy ijodi va Mashrab ijodida o'zak tomir sifatida yashaydi. Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Mashrab Mansur Hallojning "anal haq" (men Xudoman, men Xudoning bir zarrasiman) degan ta'limotidan o'sgan mutafakkir mutasavvuflardir.

Tasavvuf ahli ishqning uch xilini bir-biridan farq etadilar. Birinchisi, haqiqiy ishq yoki ishq ilohiy: insonning Allohga muhabbatidir. Ikkinchisi, majoziy ishq: - insonning insonga muhabbatidir. Uchinchisi, pok ishq, ya'ni: yuksak ma'naviy kamolot egalari pok ko'z bilan (g'arazsiz) pok go'zal vujudga boqib pok lazzat olishlaridir.

Shoirlar adabiyotning ramzlar ifodasi uchun qulayligidan foydalanib, o'z asarlarida uch xil ishq haqida ham so'z yurita beradilar. Navoiy lirik qahramoni Xudo ishqida yonyaptimi, majoziy muhabbatga giriftormi yoki pok muhabbatda o'rtanmoqdami... O'quvchi ana shularni o'zi farq eta bilmog'i lozim.

Gap shundaki, tasavvuf ahli majoziy ishqni inkor etmaydilar. Ular majoziy ishqni haqiqiy ishq yo'lidagi ko'prik deb biladilar va faoliyatlarida ishq talablariga rioya qiladilar (go'zal vujudan hech narsa ta'ma qilmaydilar va buni ko'ngillariga ham keltirmaydilar).

So'fiy sevgilisiga ko'ngil qo'yganida mahbubi yuzida Alloh jamolini ko'radi, uning ishqida yonarkan, men Alloh ishqida yonyapman deb o'ylaydi, bu yo'lda u jisman va ruhan pok bo'lishga harakat qiladi: mahbubasiga pok nazar bilan boqib, pok lazzat olishni o'ylaydi (quchish, o'pish va boshqa shu kabi istaklarni o'ziga yaqinlashtirmaydi), xolos.

Bu jihatdan Alisher Navoiyning muhabbati qissasi eng yaxshi namunadir. So'fiydan talab qilinadigan birinchi narsa tan va fikr (ko'ngil)ning pokligidir. Tan pokligi – zohiriy bo'lgani uchun, uning eng yaxshi usuli tozalik va bo'ydoqlikdir. Ko'ngul pokligi – biror vujudga va narsaga nisbatan g'araz saqlamaslik. So'fiy nazarida go'zaldan jismoniy bahramandlik va boylikka hirs – dunyo iflosligiga bulg'anish demakdir. Alisher Navoiy bir umr o'zini tasavvuf talablari – riyozat bosqichlari sinoviga tashladi. Barcha bosqichlarini umr bo'yi o'z boshidan kechirdi: yolg'izlik dahshati va bo'ydoqlik azoblarini bir umr tortib o'zini foniylikka tayyorladi va umrining so'nggi yillarida yaratgan asarlaridan biri – “Lison ut-tayr”ni, garchand bu asar o'zbek tilida yozilgan bo'lsa-da, Foniyl taxallusi ostida e'lon qildi. U oltin yoshida tasavvufning so'nggi bosqichiga yetayozganini o'z dostonida taxallusi bilan muhrladi.

“Lison ut-tayr” – oʻrta asr haqiqat izlovchisi uchun yozilgan ilmiy va amaliy dasturdir. Doston yosh talaba uchun taʼsirchan va badiiy jihatdan goʻzal, oʻqishli asardir. Tasavvufdan xabari boʻlmagan kishilar bundagi qissa va sheʼriy hikoyalarni dunyoviy adabiyotning yaxshi namunasi sifatida maza qilib oʻqiyveradilar va maʼnaviy lazzat topadilar.

Biz “Lison ut-tayr”ning falsafiy magʻzini ang-lashga urinar ekanmiz, bu asar oʻz ijodkori falsafiy dunyoqarashining badiiy lavhalaridan iborat ekanligini, doston zamondosh yoshlarimizning maʼnaviy va hissiy kamolotlariga jiddiy ijobiy taʼsir qiladi, fahm-farosat va chin muhabbat qoʻllanmasi boʻladi, degan yaxshi niyatimizni bildiramiz.

Siz “Lison ut-tayr” dostonidan Alisher Navoiyni qanday diniy va dunyoviy masalalar band etgani bilan tanishasiz: inson olamga kelgan ekan, hamisha talab yoʻliga kirishi, izlanishi, oʻz mahbusasi yoki sevgan kasbiga chin muhabbat bilan yondashuvi lozimligi, u haqda toʻgʻri bilim hosil qilishi – maʼrifatli boʻlishi kerakligi, kamolotga yetish zarurati kabi muhim masalalar sizni chuqur oʻylantiradi.

Shu maʼnoda biz “Lison ut-tayr”ni bugungi kunimiz uchun, zamondoshlarimiz uchun zarur kitob, degan mulohazadamiz.

Alisher Navoiyning falsafiy, axloqiy, maʼnaviy dunyosidan xabardorlikning oʻziyoq bugungi oʻquvchi uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Vahob RAHMON,

*Oʻzbekiston Respublikasida
xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi*

MEHRIBON VA YORLAQUVCHI ALLOHNING NOMI BILAN

Jon qushi o'z sirlarini bayon qilar ekan, so'zini Tangriga madhiya o'qish bilan boshlaydi. Chunki Tangri barcha mavjudotlarning yaratuvchisidir. U mangu barhayot bo'lib, undan boshqa hamma narsalar o'tkinchidir.

Yaratuvchi olamni qudrat qalami bilan aniq bir reja ostida bunyod qildi. U to'qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va uning sirini tushunishda inson idrokini ojiz etdi. Ko'kni tun va kun bilan yarqiratib, uni quyosh va yulduzlar bilan bezadi. Unda oy go'yo osmon tirnog'iga o'xshash bo'lib, yangi oy esa o'sha tirnoqdan olingan bir bo'lakni eslatadi.

Osmonni muttasil harakat qilishga bo'ysundirdi, yerni esa uning bo'shlig'ida turg'un qilib yaratdi. Yer yuzini yomg'ir bilan yuvdi, natijada chang va kirlar undan tozalandi. Quruqlikni dengiz yuzidagi kemaga monand qilib yaratdi. Tog'lardan bu kemaga uning muvozanatini saqlab turadigan langarlar yasadi. Quyosh o'tidan suv qaynab ketmasin degan maqsadda dengiz yuziga bug'lardan parda tortdi. Suvda mavjud bo'lgan qurt va qushlar g'amini yeyishda adolat olamini ko'rsatdi. Bahorning nayson yomg'iriga katta sharaf ato etdi: uning ehsoni tufayli sadaf ichida gavhar hosil bo'ldi. Injuga u juda katta qiymat bilan rivoj berdi, oqibatda u taxt ahlining toji uchun zebu ziynatga aylandi.

Hamal oyi bilan bahorni boshlab berdi, uning o'lchovida kecha va kunduz teng bo'ldi. Tong nasimini Iso alayhisallom hayotbaxsh nafasidek estirib, bog'lardagi barcha jonsiz narsalarga jon bag'ishladi. Bog' aro xilma-

xil ra'no chechaklarni yoyib, chaman go'zalliklarini jilvalantirdi. Yelga huzurbaxsh hid ato etdi, uning tufayli daraxtlarga qaytadan jon kirdi. Tongni oppoq rang bilan yoritdi, shomni mushkin qora libosga o'radi. Quyoshni kunduzi porlatib, oyni kecha shamiga aylantirdi.

Agar u quruqlik yuzasida har xil g'aroyibotlarni yoygan bo'lsa, dengiz bag'rida esa ularning sanog'i bundan ham ortiqroqdir. U dashtlarda qancha jonivorlarni yaratgan bo'lsa, suvda suzuvchilari bundan yuz baravar ko'pdir. Quyunni dasht aro aylantirgan bo'lsa, suv yuzida ham girdobni to'lg'antirdi.

To'rt unsur tarkibidagi suvni olovga dushman qilib yaratdi, shamolni esa tuproqqa zid qildi. Yaratuvchining qudrati bilan ana shu bir-biriga zid to'rt narsa inson vujudida bir butun holda birlashdi.

Allohning butun olamni yaratishdan maqsadi Inson bo'lib, u hamma mavjudot ichida tengi yo'qdir. Inson ko'nglini turli bilimlar xazinasini qildi va bu tilsim ichida Tangri o'zini yashirdi. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasini bo'lib, o'zida ana shu xazina tilsimini saqlaydi. Bu tilsim jon bo'lib, u o'sha xazinada turadi va unga posbonlik qiladi.

Ey, jon yaratuvchi! Seni bu xildagi qudratingga cheksiz ofarin!..

Alloh o'z sirining xazinasini ochmoqchi bo'lganida, uni na samo, na yer qabul qildi. Insondan o'zga narsalar jaholatga botib, uning xitobini anglamadi va bu sirni qabul etmadi. Shuning tufayli inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi va Kalomullohdagi "Men maxfiy xazina edim, insonni va ruhlarni meni bilishlari uchun yaratdim" oyati siridan xabardor etildi. Uning boshiga to'g'ri yo'ldan borish toji qo'yildi, sharaf osmoniga yuksalish esa uning qismati bo'lib qoldi.

Hatto olam ichra butun malaklarga peshvo bo'lib, ularga sajdagoh bo'lgan hamda ularni o'ziga

bo'ysundirgan, dunyodagi barcha jinlar va malaklar boshlig'i vazifasini bajargan shayton, garchi u butun olamga egalik qilib, necha ming yil zuhdu toat bilan Xudo amriga itoat aylagan bo'lsa ham; va hatto Yer yuzida va moviy osmonda u sajda qilib bosh urmagan biron qarich bo'sh joy qolmagan bo'lsa ham; u shunday yuksak saodatga erishib, Haq yodidan o'zga biror nafas olmagan bo'lsa ham o'z xizmatlari va Xudoga yaqinligiga suyunib ketdi hamda bundan unda g'urur paydo bo'ldi. Natijada u bu ajoyib Insonni ko'zga ilmadi, unga barcha farishtalar sajda qilsa ham, u sajda qilmadi. Yaratuvchining bu amriga bo'yin egmay, insonga ta'na ko'zi bilan qaraganidan uning bo'yniga shu on la'nat halqasi solindi. Zeroki, uning ko'ngli itlikni havas qilgan edi, shu sababli ham bo'yniga itlar kabi la'nat tasmasi bog'landi. Shuning uchun ham u Inson zotiga doimiy raqib bo'lib, uning imonini yo'ldan uruvchi ashaddiy dushmanga aylandi. U qiyomatga qadar ana shu xil isnodga duchor bo'lib, do'zax olovi, makr va adovat qo'zg'atuvchi nomini oldi. Xullas, u shunchalik katta sharaf bilan maloikalar boshlig'i bo'lsa ham, takabburligi uchun abadiy rad qilinib, mal'unlikka muhtalo bo'ldi. Uning bu qismati butun osmon va Yer yuzidagilarga yomonlikda ibrat bo'lib qoldi.

Shunday qilib, Tangri Inson jismini bir hovuch tuproqdan chiroyli qilib yaratdi, unga odamiylikning ajoyib shaklini berdi. Ham uni o'z siridan xabardor qildi, ham yerda Xudoning o'rinbosari bo'lishday xalifalik sharafiga muassar etdi.

Agar shayton bosh tortish bilan ofatga giriftor bo'lgan bo'lsa, inson o'zini tuproqdek past olish bilan e'tiborga loyiq bo'ldi. Insonning sajdagoh bo'lishini ta'minlagan ham, shaytonning haydalishi va rad etilishini munosib ko'rgan ham Allohning O'zi! Shaytonni nuqsonli aylagan ham, insonni suyuqli aylagan ham – O'sha! U nima qilgan,

bu nima qilgan bo'lsa, Uning O'zi biladi, o'zga bu ishni qila olmaydi, har ne qilsa – U qiladi. Allohning hikmatlaridan kishi voqif emasdir. Zeroki, bu ish kishining qo'lidan kelmaydi. Hamma ishni Uning O'zi qiladi va Uning O'zi biladi – butun hikmat ana shundadir! U o'xshashi yo'q bir podshohdirkim, uning na sherigi, na tengi, na vaziri bordir.

– Ey, yaratuvchi, qudratingga yuz ofarin! Sendan o'zga yo'qdir, bor desalar ham, U – sensan! Faqat sen mavjudsan va borliq ko'rkisan, ham birlik, ham qadr etuvchilik arzandasisan. Birlik ham, borliq ham senda; tiriklik, qodirlik va shafqatlilik ham sening O'zingda!

Agar shafqat dengizingda mavj ko'tarilsa, u har qanday katta gunohning ham bahridan o'ta oladi.

II

O'z kamchiliklaridan sharmanda bo'lib, bu uyatdan boshi tubanlik tuprog'iga egilganligi yuzasidan barcha hojatlarni amalga oshiruvchi Hakam oldida munojot

Yo Rabbiy! O'z holimga nihoyatda hayronman, o'ta gunohkor va mastu parishon holga tushgan bir kimsaman! Chunki nafsim tufayli kibru havoga mag'lub bo'ldim, to'g'rilikni nomaqbul bilib, poklikdan uzoqlashdim. Jonimga isyon mayidan mastlik paydo bo'ldi, ko'nglim buzuqchilarga hamdamlik qildi. Shum nafsim boshimga har xil havoyi kayfiyatlar soldi, shayton galalari har yondan menga hujum boshladilar. Bu yovuz to'dadan men voqif bo'lgunimga qadar, ular ko'nglim mamlakatini ostin-ustun qilib yuborishmoqda.

Bir zulm qiluvchi ko'zimga chiroyli ko'rinib, o'zimni unga oshiq, uni esa o'zimga mahbuba degan edim. Bu fe'li yomon ma'shuqadan menga har xil sitamlar yetardi. U ko'zimga ko'ringach, hatto oh urib o'zimdan ketib qolgan paytlarim ham bo'lardi.

Uning olovli lablaridan jonimga o't tushdi, gajagi va xolidan ro'zg'orim qorayib ketdi. U so'zlaganida tilim lol qolar, nozli jilvasi esa aqlimni olar edi. Uning vasliga yetishmoqni o'zim uchun hayot, ayrilig'ini esa o'lim deb hisoblardim. Ularning biridan jonim osoyish topsa, ikkinchisidan jabr tortar edi.

Judolik g'amida may ichar edim. Agar visol jomi qo'lga kirkudek bo'lsa, jondan kechishga ham tayyor edim. Usiz tiriklikni o'lim deb anglardim, ayrilig'idan doim jonim yuz turli ofatga muhtalo edi.

Uni hayotimning maqsadi deb bilardim, undan boshqa biror narsa ko'nglimga sig'mas edi. Undan ayriliqda yurgan chog'larimda boshqa hamma narsalar yodimdan ko'tarilardi. Chunki sen o'zing voqifsan, men ham chin so'zni aytayin; undan judolikdan ko'nglimga shunchalik ko'p jabru sitam yetardiki, hatto faqat uning vaslini so'rash uchungina Seni yod etar edim...

Alloh-Alloh! O'zimning bunday bandaligimni eslasam, meni sharmisorlik o'ldiradi. Johillikda shunchalik yuziqarolikka yo'l qo'ydimki, bular ko'zimga olamni qaro qilib ko'rsatmoqda.

Ey, hech narsaga ehtiyoji yo'q, Tangrim! Umrimda biron bir rakat namozni o'tinchsiz qilmadim. Hargiz keraklik tosh bo'lmasa, tuproqqa bosh qo'ymadim. O'zimni karam sohibi ko'rmagunimcha gadoga biron-bir chaqa tutqazmadim. Donolik bilan emas, balki qo'limda yuz donalik tasbeh ushlagunimcha nomingni tilga olmadim. Biror ishni o'z foydamni ko'zlamay qilmadim; o'zimni munofiqlikdan xoli deb bildim. Shu sababli men kabi inson, insongina emas, devu shayton ham bo'lmasin! O'zimning bu yanglig' fe'l-atvorimdan juda aziyatdaman. Bular uchun har doim ko'nglim tushkunlikka tushadi, dilim mudom g'ash. Bu xil xijolatpazliklardan men uchun hayot yo'q, chunki har dam uyat o'ldirib tashlayapti.

Aytib o'tgan bu illatlarimni, o'zim hech bir ilojini qila olmayapman. Shunchalik musibatga duchor

bo'lganmanki, agar Sendan muqarrar qazo yetsa, keyin nima bo'lishini bilmayman. Garchi bu dardlar men uchun davosiz bo'lsa-da, lekin ularning darmoni Senga osondir. Dardimga darmon inoyat qilgin. Haqiqiy komil tavbaga erishmoq yo'lini ko'rsat. Adolat va ehsoningga meni sazovor qil va zolim nafs dastidan meni xalos et! Jonimda shavqing shu'lasini yarat, undan o'zga hamma narsani ko'nglimdan chiqarib tashla!

Garchi ruh badan ichra tutqin bo'lsa ham uni mushohada etiladigan kun qo'yib yubor. Toki bu jon qushi safarga moyil bo'lib, asl gulshan tomon parvoz qila olsin. Chunki jon qushi jannat sari intilgani, tuproq – vujud esa tuproqqa qo'shilgani ma'qul.

Qilgan ishlarimdan so'roq qilib, xitob etgan chog'ingda Sen bergan savollarga javob topa olmay qolsam, meni hazin ahvolga qo'ymasdan, o'zing "gunohkorlarning himoyachisi" deb atagan azizingni tezda qoshimga yetkaz.

III

*Bu dostonga baxtiyorlar payg'ambari vasfi bilan
sarlavha qo'ymoq va gunohkorlar homiysi madhi bilan
ziynat bermoq*

Muhammad (s.a.v.) nabilar sarvari va payg'ambarlar sulтони bo'lib, uning tufayli ulug' va mayda narsalar yaratilgandır. U Odam Atodan ham ilgari mavjud bo'lib, ham nabi, ham sirlar ogohi edi. U olti kunda yaratilgan olamdan burun ham nur holidan bor edi. Bu shunday nurki, u yuz izzat va sharaf egasidir. U – ma'shuq, yaratuvchi – unga ishqiboz edi. Alloh Abulbasha – Odam Atoni yaratguniga qadar, bu nur uzoq yillar Haq nazaridan bahramand edi. Abulbasha vujudi yaratilganda uning yuzi shu yulduz nuridan kamol topdi. Bu nur Havvoga o'tganida, uning manglayi porloqligidan quyosh xijolat chekardi.

Shish¹ payg'ambar vujudi shakllanganida bu quyosh uning manglayida balqidi. So'ng bu nur uning suyukli mahbusasiga va undan farzandiga o'tdi. U bu sharaflini nurni jufti haloliga yetkizgach, shunday gavharga u o'z vujudini sadaf qildi.

Ana shu qabilda bu nurni bir-birlariga o'tkazar edilar. Nihoyat, bu nur Abdullohga yetib keldi. U ham shu yo'sinda nurni uzatganida xonadoni shu nur bilan yoridi. Nihoyat, shu uyda quyosh balqib, u farzand chehrasida payg'ambarlik nuri zohir bo'ldi.

Bu nur emas, Haq taoloning o'z soyasi bo'lib, uning martabasi quyoshdan ham yuksaldi. Din bayrog'i oftobdek ko'tarilgach, kufr zulmati undan bartaraf bo'ldi. Bu quyosh Baytulharamdan chiqib, falakdan ham oliyroq martabaga erishdi. Bu yulduz nuri Makkada ko'ringach, barcha butlar tuproqqa bosh qo'ydilar. Kofirlardan kim bo'lsa, yuz tuban tushdi. Din bayrog'i falakdan yuqori yuksaldi, shariat tig'i qilichdan ham keskirroq bo'ldi.

Uning ta'bi payg'ambarlikka qat'iy mayl qo'ygach, uning dini boshqa barcha dinlarni bekor qildi. Ra'yi mo'jiza shamini ko'rsatganda, uning yolqinidan koinot ravshan bo'ldi.

Johiliyat buti – Lotning o'z nuqsoniga yarasha holi xarob bo'ldi. Kofirlarga Allohdan boshqa Xudo yo'qligi ma'lum bo'ldi. Shundan boshlab xalqqa Allohdan boshqa Tangri yo'qligini fasohatli tili bilan bayon etdi. "Allohdan boshqa Tangri yo'q" degan gapni atrof-tevarakka yuborgan Alloh payg'ambarining o'zidir.

Uning zoti olam qutichasidagi toza injudir, balki u Haqdan olamga yuborilgan Alloh rahmatidir. Uning o'zi pok, xotinlari pok, avlodlari pokdir: zoti pok, suhbatdosh izdoshlari pok va yaqinlari pokdir. Olam ahlidan to qiyomat kunigacha unga pok avlodi va izdoshlariga,

¹ Odam alayhisalomning o'g'li.

so'ngra xizmatchilari va do'stlariga ham har lahza yuz maqto'v va ming salomlar bo'lsin!

IV

U payg'ambarlik Qof tog'ining anqo qushining balandparvozlighi va haqiqiy mahbub visoliga yetib qush tili bilan so'zlashgani va sirlashgani

Martabasi falakka yetadigan shohni Haq ko'k sari javlon qilishini istaganida, u tuban falak tashvishlaridan forig' bo'lib, Ummahoniy² hujrasida hushhol kayfiyatda o'tirardi. Uning oldiga ruhlar amini – Jabroil kelib, olam Xudosining xabarini yetkazdi. Farishtaning bir qo'lida yashinday tez uchadigan buroq bo'lib, bu ulov bilan yashin bahslasha olmasdi. U dedi: "Ey, Tangriga joning bilan yaqin zot! Suyukli bo'lganing uchun vujuding bilan ham Xudoga yaqinlashgan. Buroq keltirdim, suvori bo'lgin, toki bu feruza osmon gumbazi yo'ling gardi bo'lsin".

Shoh – Muhammad (s.a.v.) otga mindi. Chunki u hukmning kimdan ekanini yaxshi bilardi. Qutli ulovi havolanganida, uning qadamidan falak eli bahramand bo'ldilar. Bu suvoriy sharafi tufayli yangi oy to'lin oyga aylandi. Ikkinchi osmonga bayroq sanchganida, Atorud qalamidan injular sochila boshladi. Uning zotidan uchinchi maydon – osmon sharaf topgach, Zuhra musiqachilik qilib kuylay boshladi. U to'rtinchi samoga ot surganida, yulduzlar shohi – quyosh undan o'ziga nur oldi. Buroqini beshinchi ko'kka surganida, Nahsi Asg'ar shu zahoti Sa'di Akbar bo'ldi. Sa'di Akbar tomon yo'li tushganida, uning nazaridan saodat nuri yo'naldi. yettinchi ko'kka o'tganida, bechora hindu "Xudo nuri!" deb yubordi. Yana ikki vodiyni sayr etgach, sakkizinchi osmon qiblasini ko'rindi. Suvoriy nuri ta'siridan Savr (Sigir)ga Asad (sher) xususiyati yuqdi. Javzo uning

² Muhammad alayhisalomning qizi.

xizmatiga shaylandi, Saraton esa to'g'rilik mevasini berdi. Arslon it kabi uning oyog'i ostiga o'zini tashladi, boshqoq urug'lari javohirga aylanayozdi. Tarozi (Mezon) o'z o'lchovligini ko'rsatdi, Chayon esa zahrini zaharni kesuvchi doriga aylantirdi. Yoyni qoshi ishorasi hilol qildi. Qadami xosiyatidan Jadiy - tog' echkisi zarrin kiyikka aylandi.

Dalv (Qovg'a) Uning so'zlaridan jon suvi topdi. Hut (baliq) Uning nutqidan ob-hayot topdi. Yo'lda uchraganlarga shunchalik sharaflar yetkazib, ulovini barchasidan yuqori surdi.

U Arshu Kursiga tabarruk bayrog'ini yetkizganida, Lavhu Qalam undan muhtaram bo'ldi. Lomakon maydonida javlon qilib, undan ajoyib bir maydonga yo'l oldi.

Bunda xabarchi bilan ulovi sayrdan to'xtashdi: go'yo qushdan ikki par tushib qolganday bo'ldi. Tarkibiy unsurlar azobidan qutulib, jahon tashvishlaridan ozod bo'lib, egnidan manmanlik to'nini tashlab, olovdan odamlilik uchqunini ayirib, o'zni o'zlik asoratidan qutqarib, o'zdan o'zgalikka aylandi. yel, tuproq, o't va suvdan tozalanib, men, sen, va u bo'lishdan tozalanib, yaqinlik dargohida o'rin topib, hatto undan ham yaqinroq bo'lishga harakat qildi. Yetmish ming pardani bartaraf etdi, o'rtada parda qolmadi. Oradagi bor-yo'q to'siqlar ko'tarilib, u do'st oldida suyuqli bo'lib qad ko'tardi.

Limaolloh bo'sag'asiga yastandi, xuddi ikki yoydek bir-biriga yaqinlashdi. Man etish va moneliklar barham topib, ruxsat bo'lgach, monelik bo'lmaydi demakdir. Ko'zlarini mislsiz o'tkir nur bilan yoritdi. Soyalik andishasi bartaraf bo'ldi.

Hech bir kishi topa olmaydigan martabani topdi: bu ish kishilik qo'lidan keladigan ish emas edi.

Bu damda o'zi va o'zligidan xabari yo'q, balki o'z va o'zligidan asar ham yo'q edi. Yotlikdan nishon qolmay,

hatto o'zlik ham oradan ketib, faqat jonon qoldi. U jonon jamolini ko'z bilan ko'rib, uning visolidan so'z orqali bahra topdi. Har lahzada yuz ming hurmat ko'rsatib, to'qson ming so'zni idrok etdi. Gunohkor ummatning gunohini so'radi, barcha og'ir ahvoliga chora istadi. U nimaniki istagan bo'lsa, mutlaq tirik Allohdan topdi: haq tiladi, Haqdan tiladi va Haqdan topdi.

O'z orzusi imkoni darajasida murod hosil qilib, ko'kdan juda masrur va shod bo'lib qaytdi. Yuksak dargoh ham uning visolidan masrur bo'ldi: amridan bu qabulxona ajoyib tarz jihoz topgan edi. U ko'kka otlanganida qimmatbaho inju edi, u yerdan jo'shqin daryo bo'lib qaytdi.

Bir kiprik qoqilgan muddatda anglab bilgani shuki, ajoyibi ham shundaki, shu vaqt ichida u yerga borib keldi. Boshqa olamdan yerga qaytib kelgach, ushbu olam ishiga tartib o'rnatdi. Biz har qancha gunohkor va gumroh bo'lsak ham, bu voqeadan voqifligimiz uchun hadiksiramasak bo'ladi. Chunki tong-la qiyomatda shunday homiy va qo'llovchi kishi gunohlarimizni Allohdan tilaydi.

Ey, Tangrim, payg'ambar oraga tushgan kuni, u kimning gunohini tilasa, sen uning istagini qabul qilasan.

Yuz minglab gunoh va tug'yon ahli Ilohiy fazli bilan uning rahmatiga sazovor bo'ladilar. O'sha guruhda Foniylar ham bo'ladi, uni ham zora noumid qilmasang.

V

Mo'minlar amiri Abu Bakri Siddiq (Xudo uning ruhidan rozi bo'lsin) ta'rifida

U payg'ambarlar sultonining do'stidir. Mushkulot g'oridagi ikkinchi odam shu edi. U Muhammad (s.a.v.) ning sidqidildan sodiqi va hamrozi, har yaxshi-yomonda hamdamidir. U olam eliga yo'l boshchi edi. Chunki

Abu Bakri Siddiq (r.a.) nomidagi

viloyat AKM

INV No 2023/7-08

hammadan ilgari kelganlardan ham ilgari bor edi. Haqiqatparastlar guruhi boshlig'i udir va sobiq islom ahliga sodiq udir. G'orda u do'sti Muhammad (s.a.v.)ga jonini fido qilishga shay turgan. Shuning uchun do'sti uni "g'ordagi do'stim" degandir. "Xazina" (payg'ambar) g'orda yashiringanida, u ajdahodek unga soqchilik qilgan.

U g'or zulmatida azob chekkani uchun u yerdan obihayot va xazina topdi. Bu shunday xazinaki, Ilohiy g'aznasi bilan qo'shilgan bo'lib jahon vayronasida yashiringandir. Agar u obihayot topmagan bo'lsa, jahon boqiy ekan, nega uning nomi tirik qoladi? Uning oyog'ini ilon chaqqanida, obihayot ichib uning zararini daf etdi.

Payg'ambar uni o'z o'rniga imom qilib qoldirdi: oy shami quyosh o'rnida qoldi. Oftob botishga kelganida, din uyi uning nuridan yoridi.

Ey, Xudo, oy shami to hisob-kitob kunigacha islom uyidan o'z nurini va jilvasini olib ketmagay.

VI

Hikoya

Mustafodan keyin Abu Bakr Siddiq xalifalik taxtiga o'tirganida, dindan qaytgan bir guruh kishilar din yo'lida adovat qilib, janjal boshladilar. Ular islom ustunlarini qulatish uchun zakotni bekor qilishni talab qildilar. Xalifa g'azab bilan shunday xitob qildi: "Payg'ambar qonunidan biror ip miqdoricha narsani ham o'zgartirish mumkin emas. O'zgartirmoqchi kishilarga javob: qilich va o'q bo'ladi!"

Shariat ishiga shunchalik qat'iyligi uchun ham uning nomi to bu zamongacha yetib kelgandir. Bunday qat'iylilikni kim qila oladi? Faqat g'orda payg'ambarga do'stlashgan Abu Bakr.

VII

Mo'minlar amiri Umari Foruq (Alloh uning ruhidan rozi bo'lsin) vasfida

Payg'ambar hamdamlaridan biri buyuk Foruq edi. U haqni xatodan farq qila olgan va adolati bilan g'arbu sharqni ravshan etolgan kishidir. Bu jahonda, balki bu oliy qasrda bundan o'zgasi, bunga teng keladigani yo'q edi. Shariat ishida u payg'ambarlar shohining izdoshi bo'lib, u adolat va din asosini kuchaytirdi. Uning saxovati dasturxonidan jahon ahli nasiba olib to'yar, o'zi esa, o'zini to'ydirish uchun qorniga g'isht qo'yib bog'lar edi.

Yer yuzining insoniyat yashaydigan qismi uning adolati me'morchiligi oldida past bo'lib, jahon uning uchun bir g'ishtday narsa edi.

U toza zahar ichib nafsini so'ndirgan va shariat nazoratida o'g'lini o'ldirgan odildir.

Uning dinidan mehrobu minbar va adolatidan mamlakat va o'lka rivoju ravnaq topdi. Qilichining damidan shariat bo'stoni yashnab, kofirlarning mamlakat va ibodatgohlari vayron bo'ldi. Uning qahri Kisrolar boshidan tojini oldi va haybati Qaysarlarga xiroj yukini soldi. Uning davrida Ajam (Eron) mamlakati egallanib, uning shaharlarida arab bayroqlari hilpiradi.

Uning yordamchilari shohlar mamlakatlarini oldilar, dinparvarlari esa kufr uyini buzdilar.

VIII

Uning kishilari Madoyin shahrini egallab, mol-mulk va xazinalarini oldilar. Bir necha yuz yillar davomida sultonlar qiynalib yiqqan xazinalarni yuklab yo'lga tushdilar. Bu katta xazinalar tomoshasiga aql ham lol edi. Hazrati Umar keltirilgan bu mol-dunyo va xazinalarga ko'z qirini ham tashlamay, davlat xazinasiga topshirishni buyurdi: bular g'azotga chiquvchilar uchun yetganicha bo'lib beriladi.

Bu ish shunday qonunni yo'lga qo'ygan Umardan boshqa kimning qo'lidan kelardi!

IX

Mo'minlar amiri Usmon Zunnurayn

(Alloh uning ruhidan rozi bo'lgay) sha'nida

U hayo koni va ko'zlar nuri edi. U ikki ko'z kabi Zunnurayn deb ataldi. U sidq koni va muruvvat xazinasini, muloyimlik dengiziyu olijanoblik koni edi. Ham Madina ahliga shayxu imom, asl shayxining munosib o'rinbosari bo'ldi. Alloh uni "Qur'on"ni yig'uvchi qildi, xalq Usmon binni Affon deb atadi. Kalomullohni Jabroil olam ahli gunohkorlari homiysiga olib kelganidan beri, u maxfiylik zindonida saqlanardi. Har bir arab bir necha oyatlarni yig'ib yurardi. "Qur'on"ni jamlash va tartibga solishga u sababchi bo'ldi. Har bir sura o'rnini belgilab, bir ajoyib to'plamni tartib berdi.

Bu sharaf unga kifoyadirki: hozirgacha u ummatlarning eng sharaflisi hisoblanadi. Afv etuvchi Alloh uning uyiga ikki nur solgan kishi yana birorta bormidi?!

X

Hikoya

Shunday bir naql bor: xaloyiqqa saodat yulduzi bo'lgan payg'ambar bir kuni eldan farog'at istab, bir xilvatga kirib bir oyog'ini uzatib o'tirib edi. Uning huzuriga ba'zi zodagon suhbatdoshlardan, ba'zi aziz va ayrim sharif do'stalaridan kirib borishdi. Payg'ambar avzoida o'zgarish bo'lmadi. U bemalol yaxshi xayollar surib tin olib o'tirardi.

Biroq xonaga Usmon kirgach, millat sham'i uzatgan oyog'ini yig'ib oldi. Chunki Usmon juda hayoli kishi bo'lib, Rasulning u holidan ahvoli o'zgarishi mumkin edi. Payg'ambar hurmatini joyiga qo'ygan shunday zot haqida har qanday kimsalar har nima desalar behudadir.

XI

Mo'minlar amiri Ali

(Alloh uning ruhini yarlaqasin) maqtovida

U ilm daryosi va valilik gavhari bo'lib, olam ahli orasida noyob bir kishi edi. U payg'ambarlar boshlig'iga farzand, odamlar ichida tengi yo'q zotdir. Makka tomidan Hubal butini tushirayotganda, egni hazratning oyog'iga zina bo'lgandir. Payg'ambar qatldan qochgan paytda, u jonidan kechib, uning o'rnida turgan edi. Uning zoti olam vasflari bilan ziynatlidir. Zotan birov biladi, birov kashf etadi.

U din ahli orasida mo'minlar amiri va taqvodorlar orasida taqvodor imomdir. Ilm shahri va nabilikda yetukligi uchun uning vasfida Ali bebaho deyishgan. Duldulining yugurishi yashinga o'xshaydi, zulfiqoridan yov qon ichra g'arqdir. Nabiylar sham'i bilan uning ahdi shunday bo'lgan: men senikiman, sen menikisan. "Go'shtim go'shtingga" iborasi ham uning sha'nida aytilgan. U taqdir o'rmonining haybatli sheri bo'lib, uning oldida sher qo'rqa-pisa titroqqa tushadi. U kofirlarga tegishli javobni bergan va pahlavonlik na'rasini urgandir. Payg'ambarning farzandi buning payvandi va buning farzandi uning farzandidir.

XII

Hikoya

Shunday naql qiladilarki, g'azot janrlarining birida, shoh - Ali ibn Abu Tolib dushmandan o'q yebdi. O'qning uchi suyagiga botib, hech tortib olishning iloji bo'lmabdi. Bu holni payg'ambarga aytganlarida, u to'g'ri yo'l ko'rsatish g'aznasi shunday debdi: "U namoz o'qiy boshlagan paytda o'qni tortib olish payida bo'lingiz. Jarohatning o'q uchi joylangan joyidan kuchingiz yetganicha o'qni tortib olishga harakat qiling. U namozga

shunday berilgan bo'ladiki, o'qni tortib olganlaringni bilmay qoladi".

To'g'ri yo'l ko'rsatish sham'i shu so'zni degach, kishilar bu ishga kirishdilar va Alloh kushoyish berdi. Aytilganiga amal qilinib, shoh shom namozining salomini aytishi bilan o'qni shunday tortdilar, bir lahzada jarohatda na dardu, na o'q uchi qoldi.

U hayron bo'lib voqeani surishtirgan edi, unga payg'ambarlar shohining ko'rsatmasini aytdilar.

Haydari Karror bunga shukr qilib, bu ish sirini shunday aytdilarki: Ajal o'qining uchidan faqat nabi ehsoni bilangina qutilish mumkin. Bizga har qanday g'amdan najot, balki hayot rasmi u tufaylidir.

XIII

Oliyjanoblik egasi va poklik qiblisi

Shayx Farididdin Attorga (Alloh uning ruhini ezgulikka buyursin) madhu sano aytmoq va o'z o'tinchini bayon qilmoq

Olamdagi barcha dengiz va konlarda nimaiki bor bo'lsa, yuzlab o'shancha narsalar Attor do'konida – asarlarida mavjuddir. Uning ma'nolar dengizidagi gavharlar xuddi kechasi jilva qilayotgan yulduzlarga o'xshaydi. Konlardagi yoqutlar esa kechki paytdagi shafaqqa, balki tong paytida endi yoyilib kelayotgan quyosh nurlariga monand. Ularni sen duru gavhar dema, balki hodisalar toshi degin, bu toshlardan zaifu notavonlar boshi yorilgusidir. Ularni yoqut ham dema, balki olam ahli qatlidan oqqan qonlar deb atagin.

Garchi vasfini aytishda qalam ojizlik qilsa-da, endi uning do'konini sharh qilay. Agar odam ta'bini jaholat mag'lub etib, unda har xil yomon axloqsizliklar paydo bo'lsa, bu do'konda bunday illatlarni davolash uchun turli sharbatlar muhayyodir. Undagi sandal, mushk, abir va za'faron kabi dorivorlar kishi ta'bini jaholatdan

davolaydi. Fayzli bog'idan yetishtirilgan gulob va xushbo'y mushklarning har biridan ta'bga yuz fayzli umid hosil bo'ladi. Uning qand va novvotga o'xshash shirin so'zlaridan o'lgan ko'ngil ham hayot topadi. Asal va shakar kabi bu so'zlarda ma'rifat haqida fikr yuritilganki, ulardan bechoralar chora topadi. U nazm va nasrda har xil asarlar yaratdi, ularda vahdat (birlik) sirlari tafsir etilgan. Xalq uchun u shunday gul va qandlar yetishdirdiki, ular kishilar ta'bi uchun shifobaxsh gulqand kabi foydalidir.

Ulardan biri "Musibatnoma" dostoni edi. Unda nafsning yuz xil musibatga duchor bo'lganligi bayon qilingan. Agar ko'ngilga biron musibat tushgan bo'lsa, u "Musibatnoma" dan o'ziga taskin topadi.

Yana "Ilohiynoma" asarini yozdi va qalamni vahiylikka³ muallif qildi. Unda ilohiy sirlarni shunday sharh qildiki, bunday tugal talqin kamdan-kam uchraydi.

Yana "Ushturnoma" ("Tuyanoma")ni yozib, unda har xil nozik ma'nolarni go'yo nortuyalar kabi qator tizib qo'ydi. Bir necha ming tuya ham undagi duru gavharlarni ko'tarishga ojizlik qiladi.

Yana "Lujjai hiloj" ("Umr bulog'i") dostonida g'avvos kabi sho'ng'ib, pok durlarni qo'lga kiritdi va har bir durni shohlar boshiga toj etdi. Balki uni shoh tojining ziynati qildi. Ulardan har birining qiymati butun bir mamlakat xirojiga tengdir.

Yana qasidalar dashtiga chopqir ot soldi va bu vodiyni kesib o'tguncha har xil ajoyib baytlarni qo'lga kiritdi. Undagi har bir vodiya yuz xil g'aroyib mamlakatlar bo'lib, bu yurtlarning har birida ming xil ajoyibotlar bor.

Yana g'azal gulzorida guldastalar yasadi, bulbul kabi ming xil qo'shiq kuyladi. Lekin uning har bir tarannumida vahdat-birlik sirlarining sharhi ravshan bayon etilganligi ayon bo'ladi.

³ Vahiy – Allohdan Jabroil orqali payg'ambarga yuborib turilgan xabar.



Yana ruboiydan devonga ziynat berdi va butun olamga g'avg'o soldi. Ular ma'nolar olami bo'ylab maxsus bo'limlarga bo'lingan bo'lib, har biri bir necha mintaqadan xabar beradi.

Yana avliyolar ruhini xushnud etuvchi "Tazkiratul avliyo" asarini yozdi. Uning har bir so'zidan yuzlab noma'lum zotlar xuddi tiriklik suvi ichganday jon topdilar.

Yuqorida eslatilgan asarlarning hammasi qanchalik sharaf va maqtovgga sazovor bo'lsa, uning yolg'iz "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") dostoni ham shunchalik sharaf va maqtovgga loyiqdir. Unda qushlar haqida o'zga tilda, o'zga so'zda va o'zgacha yo'sinda so'zladi. Buni fahmlash uchun kishi maxfiy tillarni bilishi kerak. Yo'q, maxfiy tillarni biluvchigina emas, balki naq Sulaymonning⁴ o'zi bo'lishi kerak!

Yuz tuman qush nutqini o'ziga mos ravishda bera olish, albatta, juda mushkul ish. Ammo bu kitobda har bir qushning kuylash va sayrash tartibi o'zgacha, bundan kishi aqli nihoyatda hayron qoladi.

Ammo Haq madad bersa, mendek bir gado ham Shayx ruhidan yordam olib, qushlar nutqini izhor qilmoqchiman, xuddi bulbul yoki to'tiga o'xshab so'zlamoqchiman. Shu tariqa xaloyiqqa qo'shiq kuylab, qush tili bilan so'zlamoqchiman.

Lekin ma'noni to'ti misol shirin-shakar qilib aytish, albatta, har kimning qo'lidan kelavermaydi. Chunki to'tining yemishi shakar bo'lib, bu shakarni quruq xayol qilish bilangina hosil qilib bo'lmaydi. Shoyad Tangri lutfu inoyat dasturxonidan nasib etsa, Attor do'konidan bunday shakarning qo'lga kirishi hech gap emas.

⁴ Sulaymon – Isroil hukmdorlaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi 962 (ba'zi rivoyatlarda – 976) yilda vafot etgan. Afsonalarga ko'ra Sulaymon o'z davrining fozil kishisi bo'lgan va shaharlar bunyod etishda katta shuhrat qozongan. Bundan tashqari, u olamdagi barcha hayvonlar va qushlar tilini bilgan emish.

XIV***Qushlarning bir yerga to'planishib, o'rin talashib birlari bilan nizo qilishlari hamda bir shohga muhtoj bo'lganlari***

Bir kun guliston, o'rmon, dengiz va biyobon qushlari har biri o'z guruhi bilan bir yerga jam bo'lib, majlis tuzdilar. Ular muhabbat bilan navo tuzib, bazm tugagach, osmonga parvoz qilmoqchi edilar.

Ammo bu yig'inda ulardan hech qaysining tayin bir o'rni yo'q edi. O'tirishda tartib bo'lmagani uchun Kalog' (olaqarg'a) To'tidan, Zog' (go'ngqarg'a) esa Bulbul va Qumrillardan yuqoriroqda o'tirdi. Xod (kalxat) Shunqordan to'rga chiqdi. Yurtachi (o'laksaxo'r) esa Tovusni ham nazar-pisand qilmay yuqoriga o'tib ketdi. Hunarliklar o'rnini behunarlar egalladi. Tojsiz qushlar to'rga chiqib olishdi, tojdor qushlar esa poygakda qolishdi.

Nihoyat, pastdagilar nizo chiqardilar, to'rdagilar esa ularning so'ziga quloq osmadilar. Natijada qushlar orasida g'avg'o-to'polon ko'tarildi. Ular sodir bo'lgan ahvolni mojarolasha-mojarolasha qizg'in muhokama qila boshladilar. Vaqt o'tgan sari bu mojaro tobora kuchayib bordi.

Oxir-oqibat ular shunday bir shohga muhtoj bo'ldilarki, u shoh insofli va diyonatli, yaxshi tartib o'rnata oladigan va adolatli bo'lsin. Toki uning davlati soyasida pastdan a'loga shikast yetmasin, yuqori tabaqadagilar esa o'rta tabaqalar oldida xor bo'lmasin. Har bir qush guruhi o'ziga aziz bo'lgani holda, hamma bir tamizli, aqlli va dono shoh bo'lishini istadi.

Ammo bunday odil shoh ular orasida yo'q edi. Shuning uchun ham qushlar zoru mahzun bo'lib, har biri o'zining yomon holidan afsus chekmoqqa kirishdi. Ulardan motam ohanglari eshitila boshladi. Bunday shoh topilmasligidan ularning barchasi noumid bo'ldilar. Bu



hodisa ular qalbida og'ir iz qoldirdi. Ular chala so'yilgan qush kabi iztirob cheka boshladilar.

XV

Qushlarning o'zlariga shoh istab, uni topa olmay hayron bo'lib turganlarida Hudhudning Semurg' haqida xabar bergani

Hudhud aql nuridan bahramand va rahbarlik jig'asi bilan ziynatli bir qushdirki, uning zotida sharaf va izzat nihoyatda yuksak bo'lib, boshini to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi toj bezaydi. U Arsh oldida parvoz qiladi va Jabroil kabi unga ham yuz xil sirlar ayon bo'lib turadi.

U maqsad sham'i vasfini kuylash uchun parvonadek yonib, bu yig'in ichiga o'ta qizg'in holda kirib keldi va shunday dedi:

– Ey, g'ofil va bexabar guruh! Sizning ushbu holingiz g'aflat aro ostin-ustun bo'lib yotibdi. Chunki siz uchun olamda tengi va o'xshashi yo'q bir shoh borki, uning vasfini aytishga yuz ming til ham ojizlik qiladi. Siz undan bexabarsiz!

U olamdagi barcha qushlarga shohdir, holingizdan doimo ogohdir. U sizga yaqin, ammo siz undan yiroqsiz. U sizning vaslingizga yeta oladi, biroq siz uning firoqida qolgansiz. Uning har parida yuz minglab ajoyib ranglar jilva qiladi. Har bir rangning o'zida yana ming xil go'zal naqshlar bor. Uning bu naqsh va ranglaridan aql xabardor emas, tafakkur uni mushohada etishga ojizdir. Chunki u aql bilan idrok qilishdan ustun bo'lib, shu bois aql uni idrok qilishga yo'l topa olmaydi.

U Qof degan tog'da yashaydi, o'sha yerlarda uni Anqo deb ham ataydilar. Butun olamda u Semurg' nomi bilan shuhrat topgan, zoti esa bu oliy va yagona osmon peshtoqi aro to'p-to'liqdir.

Siz u shohdan benihoya uzoqdasiz, ammo u sizga bo'yin tomiringizdan ham yaqinroqdir. Har kishi tirik

bo'la turib, undan yiroqda bo'lsa, bu tiriklikdan o'lim ko'p yaxshiroqdir!

XVI

Hudhud Semurg' haqida xabar bergach, qushlar xushhol bo'lib, u haqda surishtirganlari

Barcha qushlar qiy-chuv ko'tarib, Hudhud atrofida shunday g'avg'o boshladilar:

– Ey nafasi jonbaxshu nutqi dilkash! Ularning har ikkisi ham jonu ko'ngilga foydalidir. Sen Sulaymon bazmiga qabul etilgansan va u seni elchilikka yuborgan. Uning xizmatida yaqinlikka erishgansan, yo'lida necha bekatlarni kezib chiqqansan. Uning amri bilan qanchadan-qancha vodiylardan uchib o'tib, oliy manzillarga yetishgansan.

Sen xuddi Muhammad Mustafo yonidagi Jabroil singari Sulaymon qayerga borsa, o'sha yerda hozir bo'lding. Har qanday yaxshi-yomon paytlarida unga hamdamlik, ayshu ishrat chog'larida hamrozlik qilgansan. Agar u sevgilisi Bilqis⁵ holidan xabar olishni xohlasa, sen darhol Bilqis turgan Sabo shahri tomon yo'lga ravona bo'lgansan. Yoridan xabar yetkazib, iztirob ichra turgan damlarida unga orom bag'ishlagansan.

Shunday qilib, sen payg'ambarga mahramlik, har qancha g'am yuzlangan taqdirda ham hamdamlik qilding. Agar u shahar yoki dashtu biyobonlarda bazm tuzgudek bo'lsa, biz barcha qushlar qanotlarimiz bilan unga soyabon bo'lganmiz. Yuz minglab qush unga chodir o'rnini bosib turganida, sen o'sha soyada u bilan birga hamxona bo'lar eding. U shu tariqa bazm ichra seni baxtiyor etib, o'zining pinhoniyl sirlariga mahram etgan edi.

⁵ Bilqis – rivoyatlarga ko'ra, Sabo degan mamlakatning malikasi va Sulaymonning ma'shuqasi bo'lgan.



Chunki Haq senga baland martaba ato qildi, natijada har bir par va uzvingda biron-bir xosiyat hosil bo'ldi.

Bizga esa gumrohlik mone'lik qiladi, binobarin bizni o'sha shoh siridan ogoh qilsang. Uning sifatlaridan bizga rivoyat aytib, zotiga erishish uchun to'g'ri yo'l ko'rsatsang. Bizni bu g'aflat tuzog'idan qutqarib, zulmat va tubanlik shomida qoldirmasang. Bizni shoh sirlaridan voqif etsang va bu sir izhoridan bahramand etsang. Jahlga mukkasidan ketishdan saqlasang, shohimizni izlamoqqa yo'llasang. Agar biz bu ishda o'z maqsadimizga yetsak, sendan g'oyatda minnatdor bo'lar edik.

XVII

Qushlar diqqat bilan so'raganlaridan so'ngra Hudhud Semurg'dan nishonalar aytgani

Hudhud nafasidan shakar sohib, bu shakardan shirin so'zlar hosil qildi. Qushlardagi bunday iztirobni ko'rgach, Hudhud ularga shunday javob berdi:

- Uning ahvolidan bilganimni, sirlaridan ko'nglimga kelganini aytayin. Ammo afsona aytish bilan ish bitmaydi, el quruq so'z bilan visol xazinasini topmaydi. Chunki oldimizda turgan ish nihoyatda ulug'dir, shoh ulug'dir, uning dargohi ulug'dir. Yo'l esa mashaqqatli, vodiy uzun, dil xohlagan Zot ulug'dir. Albatta, siz shoh haqida so'zlagin deysiz, ammo men uni ming yil aysam ham gapim tamom bo'lmaydi.

Hech bir kishi uning zotini idrok eta olmagan, ammo doim uning otini tutish shartdir. Buning uchun avval og'izni tiriklik suvi bilan yuvish kerak; o'n marta, balki yuz marta, balki cheksiz marta tozalash zarur. Til va og'izni shu tarzda pok etgach, o'ta ehtiyotkorlik bilan Uning nomini tilga olish mumkin.

Ammo u shoh bulardan ham a'lo darajada turadi. Uning dargohi shu darajada go'zalki, men u haqda biron fikr aytish, til qalami bilan biron so'z tahrir etishga



ojizlik qilaman. Lekin qushlar u haqda eshitishni orzu qilgan ekanlar, mayli, shoh sifatleri haqida bir-ikki og'iz so'z ayta qolay. Shunda ham men sizga mingdan birini bayon qilsam, birdan minggacha ayon qilgan bo'laman.

Bizning shohimiz barcha shohlarning shohi bo'lib, hamma holatlarimizdan doimo ogohdir. Uning zoti birlik yo'sinidadir, lekin u mingdan ko'p sifatlarga ega. Undagi bu sifatlar butun dunyoga yoyilgan va olamdagi hamma narsalar zot jihatdan undan kelib chiqadi. Agar uning irodasi amr etmasa, biron-bir kishi, hatto nafas olishga ham imkon topa olmaydi. Siz garchi buyuk yoki past, shakl va xislatda katta yoki kichik bo'lsangiz-da, hammangiz unga tobedirsizlar.

Uning har bir qanotida necha minglab parlari bor. Uning qanotlari uchun hammayoq torlik qiladi. Ularning barchasida ilm dengizi mavjud. U garchi murakkab yoki oson bo'lsa ham ko'zga ko'rinmaydi.

Sizga uning nash'asidan hayot berilgan, shu sababli har tarafga qanot qoqib uchasiz. Uni o'z uzvingizdagi qon yanglig' va tirik jisingizdagi jon kabi biling. U sizga tan ichidagi jondan ham yaqin, siz uchun undan yaqinroq hech bir narsa yo'qdir.

Lekin siz ming yilchalik undan yiroqsiz. Ming yil u yoqda tursin, balki imkondan tashqari yiroqsiz. Undan uzoqda bo'lgan kishi uchun jonning nima keragi bor?! Agar jon usiz bo'lsa, undan nima foyda?! Kim uning vaslidan bir dam bahramand bo'lsa, ikki olam shohligidan ham yaxshiroq fayz ko'radi. Ammo undan ayriliqda yashash o'limdan ham xatarliroqdir; uning firoqida sakkiz jannat ichida bo'lish yetti do'zaxga tushgandan ham battarroqdir.

Ammo bunday shohning vasliga erishmoq oson ish emas. Ko'p mashaqqat chekib, intilmay, unga yetishib bo'lmaydi. Bu yo'lda ming turli qiyinchiliklardan tashqari talabgor uchun sidqidillik ham kerak.

Lekin u yashaydigan vodiy benihoya olis joyda. Uning yo'lida juda ko'p ofatlarga duch kelinadi. Uzoq yillar tinmay qanot qoqib uchish kerak bo'ladi. Bunga eng uzoq umr ko'radigan Karkasning bir necha umricha hayot berilsa ham kifoya qilmaydi.

Bu yo'lda qonu zardobdan iborat daryolar bor, qonu zardob emas, balki zahar-zaqqum, deyilsa yanada to'g'riroq bo'lar. Tog'lari ham osmonga tig' tortgan, bu tig'larining barchasi shafqatsiz ravishda qon to'kaman deb turibdi. Har tomonida olov tutashgan dashtlar yolqinlanib, osmonga bosh uradi. O'rmonlari har xil dahshatli balolar bilan to'la, undagi har bir daraxtning shoxi g'amdan, bargi esa balodan iboratdir. Osmonda charx urib yuruvchi bulutlar kishi boshiga yomg'ir o'rniga tosh yog'diradi. Bulutlaridan chaqnagan chaqmoqlar olovidan olamga o't tushadi. U yerda bir tun qo'nish uchun maskan yo'q. Tanga mador beruvchi suv ham, don ham topilmaydi. Yuz minglab qush u tomonga safar qilib, havoda ming yil qanot qoqsa ham, bu yo'lni bosib o'tmog'i va maqsadiga yetmog'i ma'lum emas.

Ammo kimki bu talabda jon bersa, yuz abadiy hayotdan ham afzaldir. Jahon bo'stonidagi har turli qush necha kun uchib yoki qo'nib, fano bog'i qo'shig'ini kuylamog'i va u tomonga parvoz etmog'i kerak. Ular hijron vodiysi yo'lida o'z jonini jononiga fido qilsa yaxshi. Bu o'lim zavqi yuz ming jon o'rniga o'tadi. U shunday jonki, o'rnini mangulik umr bosadi.

Agar davlatu iqbol yor bo'lib, tole, baxt va sharaf rahbarlik qilib, bu aytib o'tilgan hadsiz va cheksiz dasht bosib o'tilsa, undan o'tgan qushga, shubhasiz, abadiy visol gulzori nasib bo'lg'ay. Shoh bilan abadiy birlikka erishadi va o'zini Haq soyasiga vosil etadi. Uning mavqei Arshi a'lo kabi yuksak bo'lib, o'z soyasi bilan Boyo'g'lini Humoga aylantira oladi.

XVIII

*Qushlarning Hudhuddan Semurg'ning zuhur etish
ibtidosini so'ragani hamda Hudhud ularga bu haqda
afsona va bu sirli qushdan nishona aytib bergani*

Barcha qushlar dedilar:

– Ey, yo'l boshchi, bizga bu ishning qanday boshlanishi haqida xabar ber. Agar u sulton bo'lib, barcha qushlar unga sipoh bo'lishsa, u xalq orasida, avvalo, qay tarzda ko'rindi? Uning holati, fe'li, nomi, sifati va zotini kim biladi? Uni qanday qilib ziyorat qilish mumkin? Bu yo'lda nimalar buyurilganu nimalar man etilganligi to'g'risida xabar ber. Chunki bularni aytish qiyin, aql esa o'zlik qiladi, yuzta donishmand ham bundan devona bo'lishi mumkin.

XIX

*Chin shahrining sifati va Semurg' parining
u yerga tushgani voqeasi*

Hudhud qushlarga shunday dedi:

– Bu voqea Sharqdagi Chin degan bir shaharda bo'lib o'tgan. U shahar emas, kenglikda butun bir jahonga teng kelar, uning ichida o'n jahon aholisi joylashgan edi. Bu shaharning ko'rinishi afsonaviy Eram bog'i gulzoridan yaxshiroq, suvi esa jannat anhoridan dilkashroq edi.

Bir tun u davlatmakon shoh olam bo'ylab parvoz etishga kirishdi. Ittifoqo, o'sha jannatsifat Chin shahriga yo'li tushdi.

O'sha kecha u shahar ustidan uchib o'tayotganida, shahar boshdan-oyoq yorishib ketdi. Bu ishdan xabar topgan xalq shuursiz bo'lib qoldi. Semurg' silkinib uchib borayotganida, undan bir par tushib qoldi va bu par butun Chin mamlakatini bezak-hashamga o'rab yubordi. Bu parda turli rangi naqshlar haddan tashqari ko'p ediki, ularni so'z bilan sharh etish qiyin.



Ertasi kuni el yana o'zining avvalgi holiga qaytdi va parning shakli va rangiga boqa boshladi. Har bir kishi g'ayrat bilan qo'liga qalam ushlab, bu pardagi naqshlarni o'z xayolida jonlantirar va qog'ozga tushirardi. Hamma undagi suratlarni chizishga kirishdi va bu elning barchasi shu ish bilan mashg'ul bo'ldi.

Bu kishilar orasida o'z suratlari bilan bir kishi yuqori kamolot darajasiga erishdi. Uning oti Moniy⁶ bo'lib, qalami mo'jizakor, san'ati ko'rgan kishilarni hayratga solardi. Shuning uchun ham ma'no ahli Moniyning suratxonasi Chinda deb ataydilar. O'sha par hali ham mazkur jannat sifatli Chin shahrida emish va u yerdagi aql bovar qila olmas darajadagi barcha go'zallik o'sha parning paydo bo'lishi tufayli emish.

Hech kim uni – Semurg'ni ko'rgani haqida og'iz ochmagan. U haqda bu qadar so'z aytilmagan. Uning asl zotidan hech kim, biror kishi biron so'z deya olmagan, chunki uning zotini har qanday o'tkir ko'z ham ko'ra olmaydi. O'sha par ustida har tarafga patchalar o'sgan, bu uning sifatini ko'rsatadi. Bu par holatidan cheksiz naqshlar paydo bo'ldi. Bu pardagi ranglar beqiyos darajada bo'lib, ismlarini uning yo'llarini biluvchilar aytib o'tdilar. Garchi biron kishi bu qushning sayru holati haqida gapirma-da, lekin, aslida, hech yer undan xoli emasdir. Uning amriga itoat qilish hammamizga, ham farz, ham qarz. Bu ishni bajarmasak, yuz xil balolarga giriftor bo'lamiz. Agar uning aytganlarini ko'ngildagidek bajarsak, u o'z visolidan bizni umidvor etadi. Bordiyu, osiylik qilib, bo'yin tovlasak, xavf-xatar yuzlanadi. Bunday shoh hech bir qavmda yo'q. Usiz yashash yuz ming ohu dard chekmak bilan baravardir.

⁶ Moniy ibn Fatak (216–276) – moniylik ta'limotining asoschisi, Sharq rivoyatlarida uni mashhur naqqosh va rassom deb ta'riflaydilar.

XX

*Hudhud Semurg'dan afsona aytgach, qushlar tabiatida
shavq o'tining alangalangani*

Bu so'zlar qushlarda faryod ko'tardi va ulardan har birining ko'ngliga shavq g'ulg'ulasini soldi. Ular Hudhudga shunday dedilar:

- Ey, peshvo! Bunday shohdan ayriliqda yashash mumkin emas. Olamda bizning turli holatimizdan ogoh bo'lgan shunday shohimiz bo'la turib, biz jaholatga giriftor bo'lmaylik. Uning firoqi bizni zor etmoqda. Aqlu hushi bor kishi oldida shu narsa ravshanki, hayotda bunday g'aflatda yashagandan ko'ra o'lim ko'p marta yaxshiroqdir.

Sen o'z so'zlaring bilan bizga yo'l ko'rsatding. Endi barchamizning sendan iltimosimiz shu: hammamizga bosh bo'lib, bu safarimizda bizga yo'lboshchilik qil. Biz shoh yo'liga o'z jonimiz bilan, balki jonimizni hovuchlab, jiqqa ko'z yoshlarimiz bilan kiraylik. Uning vasliga erishishga intilaylik-da, bu istagimizdan bir nafas ham chekinmaylik. Bu yo'lda qanot qoqib, har qanday dengizu sahrolardan uchib o'taylik. Yo uning visoliga yetgaymiz, yo bu yo'lda jonimizni tark etgaymiz!

XXI

*Hudhud qushlar iltimoslariga ko'nib,
ularni bu yo'lga targ'ib etgani*

Hudhud qushlarning bu so'zlaridan shodu xurram bo'lib, ularga shunday dedi:

- Ey, bechorahol to'da! Bizga falak baxtiyorlikka erishishda madad bersa, chindan ham bu safarni ixtiyor qilgan bo'lsangiz, men ham bu yo'lda jonim boricha, balki jism ichra darmonim qolguncha yordam berayin. Hammangizga hamrohlik qilib, sizni barcha manzillardan ogoh qilayin. Yo'lda har qanday g'am yetsa hamdamlik, biron yashirin dard bo'lsa, mahramlik qilayin. Oldingizda



mushkul ish ko'ndalang bo'lsa, jonim bilan uni hal qilay. Sizga har qanday yaxshi-yomon ro'para bo'lsa, uni daf etishga doim tayyor bo'lay. Uchayotgan paytingizda hamkorlik, qo'nar joyingizda esa posbonlik qilayin.

Hudhud qushlar qavmi muddaosini anglagach, ularga tahsin va duolar o'qidi. Mastona bir holda ularga har xil sirlarni bir boshdan ochib bera boshladi:

– Ey, siz hammangiz bilish sirlariga moyilsiz, zotingiz bu pinhon xazinaga qoyil bo'lgan. Siz yaratilish ibtidosida abadiy jannat bog'idagi daraxtlar shoxida yoqimli dostonlar kuylar edingiz. Hammangiz shoh siriga mahramlik qilmoqchisiz. Sizning yoqimli sayrashingiz uning tasbehidir, qo'shiq va dostonlaringizda ham uni ta'rif etasiz. Uning yodi sizga doimo baxt kabi; vaqtingiz esa uni eslab, fikrlash bilan o'tadi. Bir tuban odam sizning to'dangizni hurkitib yuborganda ko'zingizdan yorug' sham yashirindi.

Qushlar to'dasiga bundan qo'zg'olon yetishib, har biri ovorayu bexonumon bo'ldi. Asl gulshan sari yo'l topa olmay qoldi, balki u xotirdan butunlay ko'tarildi. Bu tuproqni oshyon aylagan ularga jahon bog'i sari mayl etishlikni ayon qildi.

– Bu g'aribistonda turg'un bo'lganlar ko'nglingizdan u nozu ne'matlar ketgan chog'da, Haq ko'mak bersa, men tezlik bilan g'ayrat qilib, yana sizni u bilan fikrdosh etayin.

Bu safarda qiyinchilik va azob-uqubatga bardosh berish kerak va ko'nglingiz unga chidash bersa, bu manzillardan o'tib, g'alabaga erishsangiz, jisingiz ruh kabi sof bo'lsa, sizda o'sha avvalgi hol yana jilva etadi va visol ayyomiga erishasiz. Shunda shoh sifatlarini bilib olasiz va joningiz abadiy barhayot bo'ladi. Sayr mashaqqatlarining voqifi, shoh bilan nafsingiz bilimdoni bo'lasiz.



XXII

*Hudhudning To'tiga xitob qilib, uni maqsad yo'liga
targ'ib etgani*

– Ey, o'z nutqining shuhrati bilan oliy maqom tutgan shirinso'z To'ti, – sayra! Egningdagi yashil libosing bilan shohni izla, yo'ldan ozganlarga Xizr⁷ kabi yo'l ko'rsat.

Eng avval o'z manzilingni yodga keltir va ko'nglingni bu umid bilan shod aylagin. Sening asl vataning Hindiston edi. Sen shoh bo'stonining maxsus ichkarisida yashar eding. U yerda shakarlarni yeb, shirin-shakar so'zlarding. Sayrashing – visol shakkaristoni edi. Shoh qo'li – maskanu manzilgohing, o'zi esa so'zlashning holidan ogohing edi. Endi sen bu g'urbat maskanidan ko'chgin va yana o'sha chaman sari parvoz et!

XXIII

Hudhudning Tovusga xitob qilib, aytgan chiroyli so'zlari

– Ey Tovus, davronni mastu alast qiluvchi jilvalaringni ko'rsat! Boshing uzra rahnamolik toji bor, taning latofat va go'zallikka kon. Qomatingga husnu jamoling shunday munosib tushganki, til uni vasf etishda loldir. Xilqatingga yaxshilik, zotingga esa mahbublik yarashadi. Lekin sen o'z maskaningni, shoh qoshida jilva qiladigan gulshaningni yoddan chiqaribsan. Birdaniga u jannatni unutib yuborma, bu xarobazor hibsxonani tark etgil. Shoh bazmiga erishish shavqida sayrab-sayrab, u go'zal bo'ston sari parvoz qil!

XXIV

Bulbul navosi ohangida Hudhudning xushovoz sayragani

– Ey, shavq gulzorining Bulbuli! Shunday navo chekkilki, sening kuylaringda ajoyib zavqu shavq

⁷ Xizr – afsonalarga ko'ra, “obi hayvon” (“tiriklik suvi”)ni topgan va undan ichib, hamisha tirik yuradigan sirli karomatlar sohibi. Adabiyotda Xizr g'oyibdan paydo bo'lib, yo'ldan adashgan musofirlarga ko'mak etuvchi sifatida ham tasvirlanadi. Xizr yaxshilik va idrok timsoli hisoblanadi. Bu yerda Navoiy shularga ishora qilmoqda.



sirlari yangrasin! Ishq kuyini ming xil navo bilan tuzgil, benavolik qo'shig'ini boshla! Shoh gulistonida gul husniga mast bo'lib, u gul ishqida mastlikning kayf beruvchi jomini ko'tar. Bahor chog'i olovrang gul jilva qilgach, uning har bir yaprog'i parlaringga o't yoqsin.

Hozir sen u toza gulshandan yiroqdasan. Firoq o'ti jismingni kul aylamoqda. Ko'm-ko'k osmon sari parvoz qilgil, o'sha qizil gul sari mayl ko'rgazgil. Shoh bo'stonida yuz gul jilva qilib turadi, sen esa bu yerda hijron shu'lasidan ming bor kuyib-yonasan!

XXV

Qumrining sayrashi usulida Hudhudning nag'masozligi:

– Ey, bo'ston Qumrisi! O'z ahvoling haqida bir sayrab bergin. Ajoyib kuylaring bilan qushlar to'dasini bir nafas lol qilib, ularni behol etgil. Yusr^B tasbehini bo'yingga solib olding, bu haqda so'z aytishdan til og'ir ahvolda qoldi. Chunki sen har bo'ston aro sarson kezasan, bu bilan goho qonga belanib, tuproqqa ham qorishasan. Goho ishq savdosida majnunlar kabi mahzun nolalar chekasan. Go'yo sen visol bog'ini yod etib, bu yanglig' oshuftahol bo'lgandeksan. Senga quvonchli xabar shuki, bu g'amda benavo qolmasdan, tezda o'sha asl gulshan tomon havoga ko'taril!

XXVI

Kaklik sayrashi yo'sinida Hudhudning kuylagani

– Ey, firoq tog'ining Kakligi! Ko'zingni ishtiyoq dardida la'lday qizartirib, xirom qil! Hajr tog'idagi Farhodga o'xshash bir yerda qaror topmay, yo'lga qadam tashla. Sening tumshug'ing lolaga o'xshash qizildir. Bu qon yutishlikdan aniq dalildir. Go'yoki yaqinlik Qofini yod aylab, uzoqdan turib faryod urayotgandeksan. Ammo bu baland sayrashlaring qahqaha emas, balki o'z

^B Yusr – daryo bo'yidagi bo'g'in-bo'g'in bo'lib o'sadigan o'simlik.

motamingga zaharli kulgidir. Chunki sen Qof tog'i sari azm qilding, endi vasl umidi bilan bazm tuz. Vasl umidi yaqindir, sen bundan shod bo'l, hajr tog'i toshidan ozod bo'l!

XXVII

Qirg'ovul xiromi tezligida Hudhudning sayrdan so'z ochgani

– Ey, noz bilan ishva qiluvchi ra'no Qirg'ovul.⁹

Ozod sarv gulshan aro sening qulingdir. Sening jamoling gulistonga ko'rkamlik baxsh etadi Hattoki gul ham sening qizil yuzing oldida xijolat tortadi. Sen goh bog'larda, goh o'tlog'larda jilva qilasan; bog'u rog'lar sening zeboliging bilan faxrlanadi. Sen ham chaman ahliga sevimlisan, ham vahshiy hayvonlar uchun yoqimlisan¹⁰

Garchi ra'noliging behad, husn ila zeboliging benihoyat bo'lsa-da, hech qachon o'z husningga mag'rur, o'z jamolingga masrur bo'lmagil. U benuqson husn(Semurg')ni¹¹ ham yod qilib, o't kabi u gulshan tomon yurish qilgil!

XXVIII

Qirg'ovul ravishi nisbatida Hudhudning qadam urgani

– Kelgin, ey Durroj! Sen nihoyatda go'zalsan, jon qushi kabi barchaga yoqimlisan. Sen – o'rmonlar bezagi, yurishing yashil maysalarga rivoj beradi. Mastona kuylaring dilni o'ziga tortadi, tinglovchilar ko'nglidan sabrni eltadi. Qomating chiroyliyu shakling jozibali, surating kelishganu nutqing mislsiz! Shuncha yoqimtoy ko'rinish, maftunkor tuzilish, chiroyli va ravon sayrashing bilan hammadan avval sen bu kishandan

⁹ Tazarv – tustovuq.

¹⁰ Bu yerda shoir tustovuqqa vahshiy hayvonlar o'ch bo'lishiga ishora qilmoqda.

¹¹ Semurg' ko'zda tutilmoqda.



ozod bo'lib, o'sha shohga ov bo'lsang arziydi. U tuzoq yoyganida joningni fido et, bu ishing bilan sen abadiy umrdan bahramand bo'lasan!

XXIX

Kabutar qanot qoqishi tarzida Hudhudning parvozi

– Ey, Kabutar! Osmonga parvoz qil, havoda charx urib, har xil o'yinlar ko'rsat! O'z uyingda – qorong'u xonada o'tiraverma! Axir kabutarxonada o'tiraverib, shabko'r bo'lib qolding-ku! Shoh qasriga borishni xayol et va bu orzuni amalga oshirishga qanot qoq! Chunki ko'ngling yuksaklikka parvoz qilishdan qolib, shoh qasrining tomiga qo'nishni unutib qo'yibdi. Qasr sultoni huzurida oliy maqom tutish xotirangdan batamom ko'tarilibdi. Endi sen u tomonga yo'l ol! O'sha tom uzra qo'n va bu ayyom gardishi uzra baxtiyor bo'lgin. Zora u seni o'z huzuriga qabul qilsa va sen kabutarlarning asl xoni tomon yo'l topa olsang!

XXX

*Lochin husnu o'ktamligi vasfida Hudhudning
rahnamoligi*

– Naqadar go'zalsan, ey shohlarga o'xshash Lochin! Sening ko'rinishing ham, jamoling ham juda chiroyli. Haq qushlar orasida seni sarfarozi etdi, sen go'zallik borasida qolgan barcha qushlarga saboq o'rgatasan. Sening maskaning doimo shoh qo'li bo'lib qolgan. U senga doimo ovqat topib yedirgan. U qo'li bilan sening qanotlarini silagan, tumshuq va changalingni ushlab ko'rgan. Shu orada falak orangizga nifoq solib, seni shohdan judo qildi.

Hijron tuzog'iga muhtalo bo'lgach, tabiatining firoq kunlariga o'rganib qoldi. Endi yana shohga ko'ngil qo'yib, uning qo'lini o'pish bilan baland martabaga erish!



Shunqorning shohlarga o'xshashligi ta'rifida

Hudhudning madh aytgani

– Ey, baland osmonni va shoh qo'lini o'ziga makon qilgan Shunqor, marhabo! Sen qushlar orasida xuddi shohlar kabi tojga egadirsan. Shoh boshingga oltin tojni loyiq ko'rgan. Sen tojli qushlarga boshliqsan. Shu sababli shohning sen bilan suhbat qurishga mayli bor. Shoh bazmida senga eng oliy joy, benihoyat ehtirom va e'tibor ko'rsatiladi. Chunki senda o'zgalarning o'ntasidagi jur'at bor, shunga ko'ra shoh senga o'zgalardan o'n barobar ortiq yaxshi qismatni ravo ko'rgan. Qo'li bilan bo'yningni silab-siypab erkalaydi, bo'yningni dur va gavharlar bilan bezaydi. Sen esa asl shohingdan ko'p yiroq tushding. Endi bu hijronni unutib, borib haqiqiy shoh qo'liga qo'n va u yerni o'zingga vatan qil!

XXXII

Qushlarning yo'lga yopirilib chiqqanlari va mashaqqat shiddatidan ba'zilarining safariga putur yetgani

Hudhud qushlarga shu tarzda ishq sirlaridan gap ochdi, qush tili bilan tarannum qilib, vasl va hijron haqida so'z yuritdi. Qushlarga o'zlarining hijronda ekanliklari malol kelib, vasl haqida yuz turli shirin xayollarga borishdi. Ulardan har birining yodiga hajr paytidagi qattiq ahvol tushdi, vasl davronini unutganliklari, judolik qiynog'ida qolganliklari ta'sir qildi.

Hudhud so'zlari esa ularni ajoyib sirlardan, ishq aro bu xil yashirin ramz-ishoralardan voqif etdi. Ular o'zlarining qanday saodatdan yiroq tushganliklari va qandayin to'g'ri yo'ldan chetga chiqib ketganliklarini his qildilar. Hudhud so'zlari ularni ogohlik sari boshlab, ularning nechog'lik jaholat va gumrohlikda qolganini anglatdi. Ular o'zlarining ishq yo'lidan yiroq ekanliklari va fiyoq girdobida qolganliklarini chuqur his etishdi.



Bundan ularning vujudi kuyib-o'rtandi, har birining jonidan alamli dud chiqib ketdi. Har biri cheksiz uyatga qolib, o'z hayot shamlarini o'chirish darajasiga yetdilar. O'z qilmishlaridan sharmanda bo'lishib, o'z guruhlari fe'lidan tushkunlikka yuz tutdilar.

Ular garchi ko'p hayrat xunobi yutgan bo'lsalar-da, o'tgan ishga salavot aytib, endi o'zlarining toki hayotlari bor ekan, tunu kun o'sha shoh yo'lida qanot urishga ahd etdilar. Ular bu yo'lda boshlariga ming turli balo kelsa ham, garchi bu balolarning har birida yuz ming azob-uqubatlari bor bo'lsa-da, o'zlari ixtiyor etgan bu talab vodiysidan voz kechmaslikka va u tarafga borishdan aslo qaytmaslikka qaror qilishdi.

Barcha qushlar shu tarzda ittifoq tuzib, gapni bir joyga qo'yishdi, davronga firoq ohangi chekdilar. Ular bu sohada Hudhudga boshdan-oyoq izdoshlik qildilar. Qushlar to'dasi yo'lga chiquvchiyu Hudhud ularga yo'l boshlovchi bo'ldi. Vasl umidida ko'p xursandchilik bilan yo'lga tushib, ko'kka tez parvoz qildilar.

Shu tarzda bir necha kun yo'l yurib, bir biyobondan uchib o'tishdi. Ammo yo'l davomida ularga juda ko'p qiyinchiliklar, ranju alamlar, shiddatu g'amu sitamlar yuzlandi. Bu masofani bosib o'tguncha ushbu notavonlarga har xil ofatlar duchor bo'ldi. Chunki ular avval bo'stonlarda noz-ne'matlar bilan kun kechirar, issiq yoz mahali to'bisimon soya-salqin daraxtlar orasida mazza qilishardi. Yo'l mashaqqati ularni qiyin bir ahvolga solib qo'ydi, har birida yuz xil malolliklarni keltirib chiqardi. Ular o'zlarining avvalgi tinch, osuda hayotlarini sog'inib, bog'u bo'stonlar va gulzorlar qo'ynidagi sokin uyalarini qo'msadilar. U yerlardagi dilxushlik, baxtiyor damlar, farog'atli go'shalar va ayshu ishrat gulshanlari ularning yodiga tushdi.

Bu yo'lda qushlardan ayrimlarining safariga putur yetib, ular safardan bo'yin tovlay boshladilar. Notavonlik

bilan Hudhuddan kechirim so'rab, ulardan har biri bir uzrni izhor qila ketdi. Bu uzrlar ularning o'zlariga ma'qul ko'rindi va ular safardan chetga yuz burdilar. Ularning hammasi Hudhudga shunday iltimos qilishdi:

– Ey, yo'l bilgich! Birpas to'xtagil! Bizdan ba'zilar juda nochor ahvolga tushdi; bu yo'lni kezishdan ba'zilarining joni xasta bo'lib qoldi. Ba'zilar oldida har xil mushkulot paydo bo'ldi, buning uchun ular sendan najot istaydilar. Ba'zilarining senga aytmoqchi bo'lgan gaplari bor, bu gaplar azob-uqubat ohanglari bilan to'la. Ularni senga bayon qilmoq zarur, aks holda safarni davom ettirishga putur yetadi.

Hudhud ulardagi bu o'jizliklarni ko'rgach, barchasini bir yerga to'plab, bir vodiy sahniga qo'ndi va ularning dardi holini eshitmoq maqsadida: “Qani, kimning qanday gapi bor, aytinglar”, dedi.

Shunday qilib, Hudhud qushlar arzini tinglamoq uchun yerga qo'ndi.

XXXIII

To'tining uzri

Hammadan avval To'ti uzr aytishni boshlab, o'z o'jizligi haqida shunday dedi:

– Men issiq o'lkalarda, chunonchi, Hindistonda sayr qilib yurgan qushman. Fasohatli, chiroyli so'z aytish bilan shuhratim el orasida yoyilgan. O'z so'zlarim bilan g'amgin elni ovutaman. Baxtiyor, davlatmand kishilar qafasni menga manzilgoh qilib, har qanday qiyinchiliklardan avaylab-asraydilar. Nozaninlar qo'lidan yemish yeyman, ular meni qand va shakarlar bilan parvarish qiladilar. Ro'paramda goh bir ko'zgu, goh bir ko'zgu chehrali oyjamol turadi. Umrimda shodu xurramlikdan o'zga hech narsa ko'rmaganman; nutqim elga yuz turli shodlik baxsh etadi. To' o'zimni bilgandan buyon qattqlik nimayu azob-uqubat zahridan achchiqlik nima ekanini



ta'tib ko'rmaganman. Sen aytgan joy shunday bir dargohdirki, u dargohda burgut pashshaga tengdir. U yerga bizdek pashshadan ham ojizroq el qanday bora olardi? U tomonga qanday borishni sira bila olmayman! O'zga qushlardek bu yo'lni bosib o'tishga hech bir aqlim yetmaydi! Shunday bir ahvolda senga hamrohlik qila olishim mumkinmi?! Mening bu holatimni o'zing bir o'ylab ko'r!

XXXIV

Hudhudning To'tiga javobi

Hudhud unga shunday javob qildi:

– Sening barcha so'zlaring yolg'on bo'lib, xato va norozilikdan iboratdir. Sen o'zingniig bema'ni aljirashlaringni fasohat deb bilasan, tuban gaplaringni esa balog'at deb hisoblaysan. Sen o'zingni maqtab, xilmal xil zid gaplarni aytding. Barcha aytganlaring uydirma, yolg'on va lofdan boshqa narsalar emas. Sen o'zingni o'ylaguvchi xudbinsan, bu bilan tubanlikka mansubsan.

O'z nutqing va qarshingda turgan ko'zgu bilan faxrlanding, aslida, sening bu gaplaring masxaralab kulishga munosibdir. Haqiqiy ko'zgu shu narsaki, u yuz balo mashaqqatiga chidab, zamiring lavhasiga jilo bera olsin!

Har hindu mening nazarimda shoh deb aytding, bu so'zlaring ham yolg'ondir. Aslida, sening shohing... sen yo'lidan qaytayotganing o'sha shohdir. Sen esa yo'ldan adashib, har xil bema'ni so'zlar aytmoqdasan. UZR aytish uchun keltirgan barcha dalillaring, xayollaring noto'g'ri. Senga g'aflat va gumrohlik monelik qilib, ko'nglingga ogohlik yetishmayapti. Bu holatdan uyg'onib, ko'z ochsang, o'z holingning nihoyatda yomon ekanligini tushunasan. Ammo u damdagi pushaymonliging senga hech foyda bermaydi. Qilgan ishlaring va aytgan so'zlaringdan yuz xijolat va afsus chekasan. Sening

naqdina deganing siyqa tangalardir. Nafs tufayli zoting shaytonga masxara bo'lgan.

XXXV

Dalillash uchun hikoyat

Butun vujudi yaramas nafsig qaram bo'lgan bir g'ofil kishi bozor tomon qadam qo'ydi. U hiyla bilan egniga Xizrnikiga o'xshash yashil chakmon tashlab olgan bo'lib, o'z nafsini ana shu yashil rang bilan xursand qilib yurardi.

U bozor ichida keta turib, do'konlarda turli ne'matlarning behisob ekanligini ko'rdi va o'zini tutib tura olmadi. Buzuq nafsi egri yo'lga boshlab, har xil ko'yga sola boshladi. U mohirlik bilan o'zini gado sifatida ko'rsatib, xalq ichida o'zi haqida har xil so'zlar ayta ketdi. U goho o'zining kamolotga erishganini izhor etar, goho karomat egasi ekanligidan afsona so'zlar, gohida esa shariat va aqlda mumtozligini ko'rsatar edi. Xullas, shu xil yuz afsun va makru hiyla bilan odamlardan yegulik ovqat yoki biron-bir tanga undirib olar edi. Shu tarzda u o'zini va o'zgalarni aldab, shum nafsi buyurgan narsalarni terib yurar edi. Yegan bangi har lahza uni yuz xil buzuq xayollarga yetaklar, ko'ngliga har xil bo'lmag'ur fikrlarni solar edi.

Shu payt nogahon uning oldiga ko'p manzillarni kezib o'tgan jahongashta bir sohibdil komil kishi yetib keldi. Hiylagar kishi uni ko'rgan zahotiyuq o'zining yomon holatini o'zgartirdi. Pir dedi:

– Oldimda qo'lga kiritgan narsalaringni ko'rsat. Qani, ko'raylik-chi, nimalarga erishibsan?

Boyagi ochko'z ziyrak kishiga to'rvasini ochib ko'rsatdi. Uning ichi zahar-zaqqumlar bilan to'la edi. U o'zi yiqqan narsalarning bari najosat va iflosliklar bilan to'la ekanini ko'rgach, bundan jismiga o't tushib, ko'ngli o'rtandi. Pir unga yerdan bir hovuch tuproq va tosh olib



berib, "Ularga qara", – dedi. U qarasa, qo'lidagi tuproq emas, oltin, toshlar esa la'l va qimmatbaho durlarga aylangan edi. Aldoqchi kishi bu holatni ko'rgan zamonAQ komil pir uning oldidan g'oyib bo'ldi. U xalq o'rtasida sharmandayi sharmsorlikdan xijolatda qoldi. Ammo endi bu xijolatpazlik va ohu voyni ko'kka yetkazmoqdan nima foyda?!

Ey To'ti, sen ham o'zing haqingda shunday so'zlarni aytdingki, bu so'zlaring xuddi o'sha yashil chakmon kiygan kishining ahvolini eslatadi.

XXXVI

Tovus uzri

So'ngra Tovus o'z uzrini boshlab, shunday dedi:

– Ey, barchamizning boshlig'imiz! Men qasr va gulshanlarga ziynat beruvchi qushman. Mening naqsh va ranglarimdan olam ahli hayratga tushadi. Agar suratim gulshanga oroyish bersa, yurishim ko'rgan kishiga osoyish bag'ishlaydi. Bog'lar men tufayli xazon paytlarida bo'stonga, o'rmonlar men tufayli qish fasli gulistonga aylanadi. Agar jilva qilib, rang-barang qanotlarimni yozsam, go'yo boshdan-oyoq Iskandar oyinasi¹² namoyon bo'lgandek bo'ladi. El-xalq husnimni tomosha qilib, Yaratganning qudratiga ofarin aytsin uchun Tangri menga beqiyos husnu zebolik, haddan ortiq zebu ra'nolik baxsh etgan. Chunki Haq har bir kishini bir ish uchun yaratgan: birov asal totish uchun yaratilgan bo'lsa, birovga ari nishi nasib etadi. Ana shu tarzda donolik bilan ish ko'rilib, har kim boshiga tushganini, "yo nasib!", deb ko'raveradi. Tangri amri bilan bari dilga yoqimli bo'lsa, shayton badbaxtlikka mahkumdir. Har bir kishi o'ziga buyurilgan ishdan

¹² Iskandar oyinasi – eramizdan avvalgi 358–323-yillarda yashagan makedoniyalik shoh Filipning o'g'li Iskandar tomonidan temirga sayqal berib yaratilgan oyina. U Misrda Iskandariya port shahrida sohilda baland joyga o'rnatilgan bo'lib, mayoq vazifasini o'tagan.

chetga chiqa olmaydi, undan o'zga taklifga esa toqat qilib bo'lmaydi!

XXXVII

Hudhudning Tovusga javobi

Hudhud uning gapini inkor qilish uchun nafasini rostlab, shunday dedi:

– Ey, jaholat ahli kabi har narsani havas qiluvchi havoyi! Sen shunday holatlarni bayon etdingki, bu ish faqat devonalar va yosh bolalar qo'lidangina kela oladi, xolos! Odam degan tashqi go'zallik haqida so'z aytmaydi. Kimki, undan faxr etar ekan, odam emasdir! Noz va husn faqat dilbar qizlargagina yarashadi. Er kishi esa dard va mashaqqat chekishi bilan xushdir. Barcha surat ahli uchun eng sharaflı ish ana shudirki, u suratdan ma'no tomon olib boradi. Sen o'z suratingga bino qo'yding, buning uchun kishilar tomonidan masxara etilishga loyiqsan. Chunki inson o'z tashqi go'zalligi bilan faxrlanmaydi, agar faxrlansa, u masxaralashga sazovordir!

XXXVIII

Hikoya

Bir hindu aftini turli bo'yoqlarga bo'yab, ko'p qiziq ishlar oshkor etdi. Bu masxaraboz o'z boshiga kunguralı toj qo'ydi. Toj va kiyimlarini tillasimon modda – kimson bilan zarhal berdi. Uning yonida nog'ora chaluvchi va qo'shiq aytib o'yin tushuvchi hindusi ham bor edi. Ular qo'li va boshlarini hindlarga xos bir yo'sında tebratib, raqs tushar edilar. Ko'rinishlari go'yo bo'stonga oroyish bergudek go'zal, jilvalari esa xuddi Hindiston tovusidek edi.

Ana shu tarzda bu masxaraboz maydonda zo'r hangoma ko'rsatdi. Uning atrofi bir gala beboshlar to'dasining g'ala-g'ovuri bilan to'ldi. Shu mahal tartib-



intizomni nazorat etuvchi muhtasiblar yetib kelib, bu davradagilar har yoqqa qarab qochib ketdi. O'sha davraning tasqarasi bo'lgan hinduni tutib olishdi. Uning nog'orasi bilan tojini urib sindirishdi va badanini yalang'ochlab, darra bilan savalashdi. Shu tarzda uning "san'at"i kishilarga ibrat bo'lib, ana shu xil qismat uning toji uchun "ziynat" bo'ldi.

XXXIX

Bulbul uzri

Bulbul shunday dedi:

– Ey bu yig'inga dalillik beruvchi zot! Men gul ishqida shaydoman. Undan ayriliqda oshiqu devona bir holatga tushaman; aqlu hushu sabr mendan begona bo'ladi. Usiz menda na sabr bor va na toqat! Men shunday bir holatda, uning firoqiga qanday chiday olaman! Negaki, gul bo'stonda jilva qilgan chog'da men ming xil navo bilan unga o'z sirlarimni sharh qilaman. Ishqidan har lahza shiddatim ortib boradi, husnidan dam-badam hayratga tushaman! U bog'dan ketgach, gungu lol bo'lib qolaman, bir yil davomida sayrashga ham majolim qolmaydi. Uning yodi bilan bog' ichida sokinman, hajriga yo'liqsam yuz dardu dog' ichida qolaman. Ko'nglimda ham, jonimda ham, o'ngimda ham, paydoyu pinhonimda ham – yolg'iz u!

Shohga komil yuz bilan boqish lozim. Mendek gulga oshiqqa bu ish yo'l bo'lsin!

XL

Hudhudning Bulbulga javobi

Hudhud bu afsonani eshitgach, shunday dedi:

– Sen o'z ishqing haqida bunchalik ko'p g'avg'o qilaverma! Aytganlaring ishq emas, boshdan-oyoq shunchaki bir havasdir. Bas, u havas bo'lgach, ey,



bexabar, u haqdagi gap-so'zingni yig'ishtir! Olamda sen kabi nafsga bo'yin eguvchi biron-bir nodon bo'lmagan.

Sen o'zingni zo'raki oshiq sifatida ko'rsatib, ishq aro har xil g'avg'olar ko'tarding. Yilda bor-yo'g'i besh kun chamanda ochilib turadigan, o'n kun o'tmay tuproq uzra xazon bo'lib sochiladigan vafosiz va umr bog'ida baqosiz bir chechak uchun shunchalik g'avg'omi?! Kishi bu xil go'zallikka oshiq bo'lmagani yaxshi, chunki u oshiq bo'lishga loyiq emasdir. Shunday narsani ma'shuq deb bilki, yuz xastahol o'lsa va yo'qolib ketsa ham u zavol nimaligini bilmasin. Garchi sening bu ishqing shaydolik bo'lib ko'rinsa ham, baribir, oxiri rasvolik bilan tugaydi.

XLI

Hikoya

Bir shoh otda sayr qilib o'tib borayotganda unga bir havoyi gado oshiq bo'lib qoldi. Xalq ichida ohu vovaylo bilan fig'on boshlab, g'avg'o-to'polon qila boshladi. Xuddi senga o'xshash u ham ming turli nolalar qilar edi. Bir maskanda telbalardek muqim tura olmas, o'zini gulxan kuliga bulg'ar edi.

Shohga bu xil ishq va devonalik ma'lum bo'lgach, oshiqni sinamoqchi bo'ldi. Bir kun u otiga chaqindek minib, imtihon qilish maqsadida otini gado yotgan gulxan tomon haydadi. Va mulozimlariga aytdiki: "U gumrohni sudrab oldimga olib keling va huzurimda bo'ynini uzib tashlang!"

Shundan so'ng gadoni sudrab, shoh oldiga keltirdilar, ishqida o'zi orzu etgan tilakka yetkizdilar. Baxtiyor shoh uni qatlga hukm etdi. Bundan gado vahimaga tushib, beixtiyor orqasiga qarab qocha boshladi. U qo'rqqanidan hushi boshidan uchib, har tomonga zir yugurar edi. Odamlar uning orqasidan tutmoq uchun halloslar edilar. U entikkan bir holda gulxan tomon chopdi va o'zini yo'qotgan holda o'tga tushib, kuyib ketdi.



Shohning bu imtihondan maqsadi shunday edi: agar gado chindan ham oshiq bo'lib, o'z da'vosida sodiq bo'lsa, qatl hukmini qabul etishi kerak edi. Shunda shoh otidan tushib, undan uzr so'ramoqchi, ahvolidan ogoh bo'lmoqchi va sadoqati evaziga uni o'ziga musohib va yaqin ulfat qilib olmoqchi edi.

Ammo gadoning ishq-i soxta bo'lgani uchun holi rasvolikda mashhur bo'ldi. Bordiyu, senga ham o'sha o'zing sevgan guldan bir tikan ozori yetsa, sening ham maskaning chaman emas, gulxanda bo'ladi.

XLII

Qumri uzri

Qumri aytdiki:

– Ey, dono! G'aflatda qolgan, yo'ldan adashganlar rahnamosi!

Men shunday bir qushmanki, umr bo'yicha hech qachon chamandan chiqmaganman, dashtu vodiylar bo'ylab zerikarli sayr qilmaganman. O'z zaifligim va ojizligim bilan mashhurman. Men o'z uyamni daraxt shoxlari va barglari orasiga quraman. Jahonda na sovuq ko'rganman, na issiq. Boshimga na mashaqqat tushgan va na qattqlik totganman. Doimo u bog'dan bu boqqa, u shoxdan bu shoxga o'tib ko'nglimni chog' qilganman. Shunday bir holatda bunday qiyin uzoq yo'lga chiqishga havas qilib, bu yo'l azoblarini ko'tarishga yaray olamanmi?! Agar jonimni bu mashaqqatga qo'ysam, majburan o'z qonimni o'zim to'kkan bo'lib chiqmaymanmi?!

XLIII

Hudhudning Qumriga javobi

Hudhud unga shunday dedi:

– Ey, ojizligi bilan yuz tuban ketgan Qumri, ko'nglingni dard va shavq bilan yaralagin! Agar sen ming yil bog' ichida manzil tutsang ham, bu tarzda shox va barglar

orasida uchib yurishingdan nima naf?! Baribir, yo'lingni biron-bir mushuk poylab, g'ippa bo'g'adi, qorningni yorib, qoningni ichadi. Yoki birov kamon o'qi bilan seni otib tushiradi, yoki palaxmon toshi bilan joningni oladi. Sen aytayotgan ayshu ishrat bundan o'zga narsa emas. Senga gulshan ichra shunday "ehtiom" ko'rsatishadi. G'aflatga botib, bu xil harom o'lib ketgandan ko'ra, o'zingni ayriliq shu'lasi bilan o'rtab, haqiqiy erlar kabi asl maqsadni istasang-chi! Yor vaslini izlab yo'lga tush! Agar sen bu yo'lda zor jismu g'amga payvand joningni fido qilib dardu mashaqqat ila o'lib ketsang, bundan hech bir afsus chekma, chunki sening shu vaqtgacha or qilishga sazovor ofatli ahvoldingan bu o'lim yuz qatla yaxshiroqdir!

XLIV

Hikoya

Bir uquvsiz bog'bon bor edi. U bog'bonlik san'atidan bexabar edi. U na daraxtga payvand qilib, undan huzurhalovat beruvchi meva olishni, na daraxtlarni parvarish qilib o'stirishni va na o'z vaqtida guli hosilga kira oladigan don sepishni bilardi. Bog'da xas-xashak terish bilan xursand edi. Aslida, uni bog'bon emas, xashakchi deyish kerak edi. U shu tarzda zahmat chekib, o'z umrini o'tkazardi. Yaqin o'rtoqlari unga bu xil samarasiz ishni tashlab, o'zingni foydali ish bilan ovut, degan tarzda pand-nasihatlar qilar, u esa bularga sira quloq osmas edi. Johil bog'bon bu mashaqqatli ish bilan shug'ullanishni tark etmadi. Kunlardan bir kun u jo'yaklar oralab tok kesib yurganida, uni ilon chaqib o'ldirdi.

XLV

Kabutar uzri

So'ngra kabutar o'z arzi holini shunday sharh etdi:

- Ey, to'g'ri yo'l ko'rsatish bobida kamolot sahibi!
Barcha qushlar orasida Tangri men uchun xalq qo'lidan



ovqat yeyishlikni qismat etdi. Xaloyiq men uchun maskan va koshonalar quradi, kishilar oldimga suv va donlar keltirib qo'yishadi. Jahonda men odamlar tuzog'ining mahbusiman, shu sababdan ularga odatlanib, o'rganib qolganman. Tangri menga bu holatni nasib etib, qismat dasturxonidan menga shu ish tushibdi. Haq shuni ravo ko'rgan ekan, undan bo'yin tovlash aql qonuniga muvofiq keladimi?! Xudo qismatiga shukur qilib, bu mashaqqatli safarga qadam qo'ymaganim avlo emasmi?!

XLVI

Hudhudning Kabutarga javobi

Hudhud unga dedi:

– Ey, turli bahonani o'ziga kasb qilib olgan! Senga makr va hiylalar uyasi maskan ekan! Qushlar sening bu holatingdan hayratga tushmoqdalar. Sen kabi birorta g'ayratsizni topib bo'lmaydi.

Tangri senga butun koinotni uchib o'tgudek qanot nasib etgan. Sen bo'lsang, xaloyiq oldida zoru intizor bo'lib o'tiribsan! Kishilarning bergan suvu donlariga asir bo'lding. Odamlar yog'ochning uchiga latta bog'lab, to'dangizni quvib yurishadi-ku! Ular sizdek befoyda galani quvlab, tomlarini sizdan xoli qiladilar-ku! Ular sizga shunchalik jabr ko'rsatishadiyu siz esa tamagirlik bilan ularning yonidan jilmaysiz, ularning tomidan bo'lak boshqa joyga bora olmaysiz!

XLVII

Hikoya

Xalq orasida bir ishyoqmas, tanbal kishi bor edi. Odamlar uning beg'ayratligidan hayron qolar edilar. U odamlardan musht, shapaloq yoki tepki yer, buning evaziga ulardan bir burda non yoki taom olib, kun ko'rardi. Kishilar uni quvib yuborsalar ham hech qayerga ketmay, o'zining yomon qiliqlarini tark etmasdi.

U tortadigan jafolarga ma'lum bir narx belgilab qo'ygan edi. Qaysi bir kishi uni bir tepsa yoki urisa, u o'sha kishidan buning haqini talab qilib olar, qo'lga tushgan narsani darhol og'ziga solar edi.

Kunlardan bir kuni kimdir uning qo'lga bir parcha non berib, shunday musht tushirdiki, natijada tanbal yer tishlab qoldi. Garchand u shapaloqlar yeb, qornini to'yg'azib yurgan bo'lsa-da, bir musht bilan endi qayta o'rnidan turmaydigan bo'ldi.

XLVIII

Tog' kakligi uzri

Yana tog' Kakligi ojizlik ko'rsatib, shunday dedi:

- Ey, barcha qushlarning yetakchisi! Men tog'da manzil qurgan qushman. U yerda tilim Tangriga madhu sano o'qish bilan banddir. Shu tariqa olam elidan etak silkib, tog' etagida orom va halovat topdim. Bu xil uzlat cho'qqisini ixtiyor qilish sababli menga tole o'rtoq, baxt yor bo'ldi, tog' xazinasi esa omonlik joyiga aylandi. Bas, shunday ekan, holimga bunday safar munosibmi? Yurishim doim kon ustida bo'lgandan keyin bu ishda orzum gavhardir. Ma'naviy gavharni qo'lga kiritish hamon qiyin ish bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, bu yo'l menga be'mani sayrdan boshqa narsa emas-ku!

XLIX

Hudhudning tog' Kakligiga javobi

Hudhud shunday dedi:

- Ey, behuda xayollarga berilgan! Dimog'ingda behuda xayoldan boshqa narsa yo'q ekan. Tog' orasida uzlatga chekinib, odamlardan uzoqlashdim, deb aytding. Aslida, bu uzlat emas, nafsu havoga berilishdir. Tog' va cho'qqilar ustida u yoqdan-bu yoqqa tinmay yugur-ganing-yugurgan! Har lahza telba kishilar kabi behuda qahqaha otishing ham o'rinsiz. Ma'naviy gavhar haqida

ham nomunosib so'zlar aytding. Ey, jahl bilan mast bo'lib, faqat o'zini o'ylovchi, sen qayoqdayu ma'naviyat qayoqda! Bu xil yolg'on so'zlar bilan muttahamlik qilib, ma'no gavhari haqida og'iz ochma! O'z so'zlaring bilan asl zoting pastligini, bema'ni va badbaxtligingni ko'rsatding. Sen shunchalik yolg'onga muhtalo bo'ldingki, ulardan boshingga yuz balo kelgusidir.

L

Hikoya

Bir elatning tolei past qallob kishisi bor edi. U bir shaharga borib, o'zini javhariy – qimmatbaho toshlarni ajratuvchi deb e'lon qildi. O'zi esa eshakmunchoqni firuzadan ajrata olmasdi. Nafsini quyushqondan tashqari chiqarguncha soxta gavharlar yasab, o'zini gadolikdan xalos etdi. Shishaga har xil ranglar surtib, ularni la'l va yoqut deb qalbakilik qildi. Xalq uning soxta ishlarini chin deb o'ylardi. Bir kuni o'sha qallob shu tarzda hunar ko'rsatib, bir boyga oddiy parcha toshni xushrang qilib bo'yab, juda katta pulga sotdi. Ko'p o'tmay u bu pulni ishlatib yubordi.

Gavhar olgan kishi qalbaki ishdan voqif bo'ldi: o'sha muttaham bir tillalik la'l billurni yuz ming tillaga sotgan ekan. Gavhar egasi savdodan aynib, soxta gavharfurushni ushladi va pulini qaytarib berishni talab qildi. Gavharfurushning to'lashga hech vaqosi yo'q edi. Shuning uchun u muttaham qallobni qiynab o'ldirdilar.

LI

Qirg'ovul uzri

Yana gulyuzli Qirg'ovul shunday arz etdi:

– Ey to'g'ri yo'l ko'rsatishda nom chiqargan! Men husn va chiroyga ega bir qushman. Gulshan ichida ko'rinishim nihoyatda go'zaldir. Tangri azaldan menga beqiyos husnu zebolik va lutfu ra'nolik nasib etgan. Benihoya

jamol va go'zallik meni kishilar nazdida sevimli qildi. Suyukli kishining ishi nozu istig'no qilish emasmi?! Chunki odamlar chiroyli kishilarning azob chekishini ravo ko'rmaydilar.

LII

Hudhudning Tazarvga javobi

Hudhud dedi:

– Ey xayoli, xulqi va so'zlari ajabtovur qush! Hech kim o'z husnu jamoli haqida senchalik lof urmagan edi. Bu so'zlarni, hatto jinnilar ham, go'l va sodda kishilaru hatto yosh go'daklar ham aytmaydi. Har xil rang-barang ko'ylaklar bilan yasan-tusan qilib yuruvchi suyuqoyoq xotinlar ham sening bu so'zlaringdan nomus qiladilar. Hech bir kimsa bu xil behuda da'voni so'zlamagan, er kishilar u yoqda tursin, hatto xunasalar ham bu xil da'vo qilishmagan! Bu kabi o'z kamolatini vasf etuvchi fikri ojiz kishining ushbu safarga chiqqanidan chiqmagani yaxshiroqdir. Sen o'ziga bino qo'ygan xotinlar kabisan, bundan erlik nomingga isnod yetadi. Er kishi himmat bilangina er sanaladi, ziynat bilan faxrlanuvchi er – er emas. Erning haqiqiy go'zalligi uning yaxshi fe'l-atvoridir. Bunday kishilar uchun yangi zarbof libos eski janda bilan bab-baravar turadi.

LIII

Hikoya

Bir yo'lda ikki o'rtoq ketib borardi. Ulardan biri gum-roh, ikkinchisi esa tariqat bilimdoni edi. Biri nuqsonli, ikkinchisi esa komil sifatlar egasi bo'lib, unisining oti Mudbir¹³, bunisining oti esa Muqbil¹⁴ edi. Ulardan har birining ismi jismiga munosib bo'lganidek, jismi ham ismiga mos edi. Muqbil xudojo'ylar haqida, dindagi komil

¹³ Mudbir – aynan: “ishi orqaga ketuvchi”, “baxtsiz”.

¹⁴ Muqbil – aynan: “baxtli”, “iqbolli”.



va ogoh kishilar to'g'risida so'z aytsa, Mudbir esa butni vasf etuvchi kofirlarga o'xshab faqat nuqson ahli haqida so'z yuritardi. Unisi dardu o'rtanishlardan gapirsa, bunisi yaltiroq tashqi ko'rinishlar haqida valdirar edi. Shu tariqa ular bir-birlaridan hech bahra topmay, yo'lda davom etishardi. Ular qarshisida bir go'zal shahar namoyon bo'ldi. Hamrohlar uni g'animat bilib, tezda bir-birlaridan ajralib ketdilar. Muqbil darveshlar turadigan ko'chaga, Mudbir esa ko'ngilochar uy – fohishaxonaga yo'l oldi.

Mamlakat shohi Muqbilga yuz hurmat va ehtirom ko'rsatib, uni ko'rgani keldi. Shoh u bilan suhbatlashib turganida yomon xulqli Mudbirni bir guruh odamlar sudrab kelishdi va uning qilmishidan arz etishdi. Aytishlaricha, bu kecha bir to'da bezorilar ichib, ayshu ishrat qurishibdi. Ulardan biri Mudbirga "Sen badbashaasan" degan ekan, shu so'zi uchun bu ablah o'sha odamga xanjar urib, halok qilibdi.

Shoh buni eshitgach, odillik ko'rsatib, Mudbirdan qasos olish haqida hukm chiqardi.

Kamtar Muqbil ana shu tarzda shoh suhbatiga musharraf bo'lib, oliy martabaga erishdi. Xudbin Mudbir esa shu yanglig' jazosini topdi. Darhaqiqat, uchqun yuksak osmon sari ko'tariladi, yaltiroq chivin bo'lsa axlat ustida qoladi.

LIV

Qarchig'ay uzri

Qarchig'ay o'z changali va tumshug'ini ko'rsatib, shunday dedi:

– Men boshqa qushlarga o'xshamayman, balki barcha qushlar egasi hisoblanaman. Shu paytgacha senga so'z aytib, uzr bildirgan qushlarning hammasi mening ovqatimdir. Men shohlar qo'lida orom olaman, ular har kun menga ovqat berib turishadi. Qaysi bir qush qasdida qanot yozsam, u menga o'lja bo'ladi. Hatto nasri

toyir – qirgʻiy boʻlsa ham mendan qutulishi maholdir. Shohlar oldida shunchalik eʼtibor topdim; shavkatim amalda shubhasiz, Semurgʻnikidan kam emas. Shoh qoʻli – mening taxtimu boshimda toj boʻlgach, Semurgʻ sari borishimga menda ehtiyoj yoʻq!

LV

Hudhudning Qarchigʻayga javobi

Hudhud shunday dedi:

– Ey, gʻurur qoʻlida past boʻlib, jahl va gʻaflatda tuban ketgan nusxa! Shuni bilki, shoh tugul oddiy bir ovchi ham sening oyogʻingga tushov solib, oʻz yonida saqlaydi. Ochlik va uyqusizlikdan shu darajaga yetgansanki, hatto eting suyagingga borib yopishgan. Oldingga bir luqma et tashlagunga qadar toqatsizlik bilan faryod qilib, odamlar qulogʻini qomatga keltirasan. Zoti past odamlarga muhtoj boʻlib, xor-zorlikda kun kechirib, Tangri ajratgan nasibangni yeb yurasan. Sen qaysi bir ovni qoʻlga kiritsang, oʻljangni ushlagan zahotiyoyq ovchi nogʻora chalib, seni quvib yuboradi. Sen oʻzingdan kuchsizroq bir oʻljaga hamla qilib, ochofatlik bilan uni ov qilasan. Ushlagan ovingni egangga topshirib, unga itoat etasan. Qushchi berganiga qanoat qilib kun kechirasan. Shunday ayanchli ahvolda boʻla turib, yolgʻon soʻzlar bilan lof urishdan uyalmaysanmi?! Agar senda zarracha vijdon yoki uyat boʻlganda edi, bu sharmandali hayotdan koʻra oʻlganim yaxshiroq, deb oʻylarding! Ammo senda nodonlik gʻolib kelib, nafsing seni aljirashga moyil qilib qoʻygan!

LVI

Hikoya

Bir togʻlik odam togʻdan ayiq tutib oldi va uni koʻp aziyat chekib, qoʻlga oʻrgatdi. Ilgari sayoq yurgan ayiq egasiga rom boʻlgunga qadar kunda ikki marta oʻlguncha tayoq yer edi. Ochlik azobi va yegan behisob tayogʻi ichi



va tashini ezib tashlagan edi. Shu sababli egasi unga bir yog'och ko'rsatsa, ayiq yuvoshlik bilan unga bo'yin egardi. Shu tarzda ayiq ko'cha-ko'ylarda o'yinchilik qilib yurar, egasining uyiga o'tin tashib keltirar edi. Xo'jasi unga haddan ko'p yuk ortar, ayiq yuk tashiyverganidan egnida hatto tuk qolmagan edi. Xullas, u bu dunyoda qancha jabru jafo bo'lsa, hammasini tatib ko'rgan edi. Ammo jaholati tufayli nafsida takabburlik ortib ketdi. Goh makru hiyla va xusumat toshi bilan qoplon boshini yanchib tashlayman, deb xayol qilar, goh dahshatli sher yo'liqsa ham, taom uchun uning qornini dadil yorib yuboraman, deb o'ylardi. U shu sifat har xil xom xayollarga berilib yurdi. Oxir-oqibatda uning o'zi bir kun itlarga yem bo'ldi.

Shunday almoiy-aljoyi xayollarning bilan xalq orasida sen ham xuddi o'sha ayiqning o'zginasisan.

LVII

Shunqor uzri

Shunqor shunday dedi:

– Ey, amriga ogohlar tobe' bo'lgan to'da rahbari! Haq menga marhamat ko'rsatib, meni hamma qushlardan qudratliroq qilib yaratdi. Barcha shohlar men bilan faxrlanadi. Mening nomimni qushlar podshohi deb ataydilar. Chunki menga toj nasib etgan, boshimda oltin tumog'a – zar tojim bor. Mening barcha ahvolimni: qushlar orasida zotimni ham, otimni ham yaxshi bilasan. Bir shohning boshida toji bo'la turib, o'zga shohni istashi yaxshi emas-ku! O'zim shoh bo'la turib, nechun o'zga shohga tobe' bo'lishim kerak?!

LVIII

Hudhudning Shunqorga javobi

Hudhud unga shunday dedi:

– Ey, bechora kaltafahm! Sening bu xayoling zotinga qo'rquvni orttiradi. Sen o'zingni shoh deb hovliqtirib



ketyapsan, bu behuda xayoldan o'zga narsa emas! Ko'pgina zangilar, aslida, qop-qora bo'lgani holda xalq orasida ular "kofur" (oq) deb ataladilar. Darvoqe, nomlar orasida "sulton" va "shoh" tushunchalari keng tarqalgan, ularni hatto past, tuban kishilar ham o'zlariga nisbatan qo'llaydilar. Ammo har bir kishi o'zini er degani bilan er bo'laveradimi?! Qo'lidan kelmaydigan ishni bajaraman deya oladimi? Nodon kishilargina seni shoh deb ataydi, xolos. Bu butni yoki olovni iloh deb atashga o'xshash bir narsa. Senga shaxmat shohini qiyos qilsa ham bo'ladi. U shunday bir shohki, uni har bir razil va pastkash odam istagan paytda havoga ko'tarib, yerga ura oladi.

U shoh (Semurg') bilan sening shohliging o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Senga o'xshab shohlik da'vo qilgandan gadolik ming marta yaxshiroqdir.

LIX

Hikoya

Bir podsho el ko'ngil yozsin degan niyatda butun mamlakatga katta to'y berdi. Unda ziynat har qancha gumon qilinganidan ham ortiq darajada edi. Butun mamlakat va shaharlarni bezab, aholi boshdan-oyoq yasanib, ko'chaga chiqa boshlashdi. Bu to'yda san'at ahli juda yuksak mahorat ko'rsatib, osmon quyoshi kabi porloq gumbazli yuzta to'rt burchakli chodir qurdilar. Hunarmandlarning barchasi ularni shunchalik bezashdiki, natijada bu chodirlar butun mamlakatning ko'rkiga aylandi. Ko'p ajoyibotlar kashf etildiki, hayot o'z sehriga o'zi rom bo'lib qoldi. Har bir kishi o'yin-kulgi deb nayrangbozlik qildi, g'am-hasratni dog'da qoldirish uchun ayshu ishrat ortib, g'amni kamaytirish uchun harakat qilishdi.

Shu odamlar orasida bir behayo razil kishi o'zini bo'yra shohi deb e'lon qildi. Uning ustidagi kiyimi boshdan-

oyoq bo'yradan bo'lib, sadoq, qalqon va bayrog'i ham bo'yradan yasalgan edi. U bir necha nokas masxaraboz do'stlarini ham o'ziga o'xshash yasantirdi. Shu tarzda ular bazm maydoni tomon yo'l oldilar. Yo'l-yo'lakay har xil buzuq, bid'at o'yinlar ko'rsatdilar. Ularning boshlig'i esa o'zini go'yo mamlakat shohi hisoblar, har nimaiki qilgan hazil ishlarini chin deb bilar edi.

Nihoyat, to'yu tantanalar, shodlik ayyomi nihoyasiga yetib, u ablah o'ziga ta'ziya tutdi. Uni ushlab olib, soyaboni va tojini boshiga urdilar, bo'yra to'nini esa buzib, kuydirib yubordilar. Bu hangomadan so'ng bildiki, uning shohligi masxara bo'lishdan boshqa narsa emas ekan.

LX

Burgut uzri

Burgut, ya'ni Uqob o'rtaga kirib, shunday dedi:

– Ey, qushlar xo'jasi! Mening holatim o'zga qushlardek emas. Kishilar qumri yoki bulbul kabi meni maqtab, vasf etmaydilar. Mening savlatim bahaybat, qahrim esa yomon, tog' mamlakati ichra qahramonman! Har kun bir necha kaklik menga ovqat bo'ladi, agar bu bo'lmasa, tunlari ko'zimga uyqu kelmaydi. yegulik izlab havoga baland ko'tarilsam, mendan qulon yoki kiyik qochib qutulolmaydi. Bo'g'zi shu qadar katta bo'lgan qush yo'lni ozuqsiz qanday nihoyasiga yetkaza oladi?! Men bu yo'lda ko'proq xo'p qanot qoqdim ham deylik, qornim ochgach, yiqilib qoldi deyaver!

LXI

Hudhudning Burgutga javobi

Hudhud shunday dedi:

– Ey, qudratli hukmdor! Olam ahli sendek kishini shu vaqtgacha ko'rmagan! Sening zotingga yigitlik maqtovi loyiq, otingga esa pahlavonlik yarashadi.

Ammo sening bu tumshuq va changalingga shavkatli va saodatli qanotlaringga hayf! Ey, badnafs pastkash! Sen asl maqsadni ista! Halitdan bunchalik ojizlik ko'rsatma, yo'lga tushmay turib qanotingni chetga tortasan. Shunday changaling, tumshug'ing va qanotlaringga bu uyat emasmi?! Sen shular bilan o'zingni tavsif etdingku! Zo'rlik va shavkating bilan o'zingni ta'rifladingku! Sen shuni yaxshi bilki, o'z shirin jonidan kechib, bu yo'lga kirgan kishinigina haqiqiy pahlavon va qahramon desa bo'ladi.

LXII

Hikoya

Bir kurash tushadigan pahlavon bo'lib, u hunarsizlikda yagona edi. U choshgohda o'n botmon, kechqurun ham xuddi shuncha ovqat yer edi. Bu ikki payt mobaynida yana shuncha ovqatlanib olardi. U shunchalik kuchli ediki, hatto mast filga ham shikast yetkaza olardi. Ittifoqo, hayot hodisalari tufayli mamlakatda buzg'unchilik yuz berdi. Shu sababli u yerning aholisi o'z joyini tark etib, o'zga tomonlarga bosh olib ketishga majbur bo'lishdi. Yo'l qiyinchiliklaridan bexabar pahlavon ham ularga hamroh bo'ldi. Yo'l uzoq bo'lib unda badnafs kishilar nafsini to'ydiradigan obod joylar yo'q edi.

Taom yemagan pahlavon birinchi kundanoq o'z ahvoliga aza tutishga kirishdi. Ikkinchi kun esa uning vujudida madori qolmadi. Ammo uchinchi kun u boyaqish biyobonda jonini topshirishga majbur bo'ldi.

Yana ikki-uch kun mashaqqat tortgach, yosh bolalar ham, hatto ikki bukilgan qariyalar ham sabr-toqat bilan yo'lni oxiriga yetkazishdi va obod bir manzilga yetib kelib, maqsadlariga erishdi. Pahlavon esa bu azobga bardosh bera olmay, ajal dastidan yo'lda nobud bo'ldi.



LXIII

Kuf uzri

Kuf (boyo'g'li) o'z ahvolidan shunday shikoyat qildi:
– Men zaif va ojiz bir qushman, yo'l esa qo'rqinchlidir. Umrimni boshimga qulab tushgudek bir vayronada o'tkazaman. Barcha vaqtim anduh va g'am tortish, motamsaro kishilar kabi ohu fig'on chekish bilan kechadi. Vayrona ostidagi xazinaga erishish umidida necha turli fig'onlar qilib, hatto o'zimdanda ketib qolaman. Umrimda shunchalik azob-uqubat tortdim, nasibam bir kun xazina bo'lsa, ajab emas. Men xazina umidida devonaman, kecha-kunduz vayronani o'zimga makon qilib olganman. Bu uzoq yo'lga meni undama! Men qaydayu Semurg'u Qof tog'i qayda?!

LXIV

Hudhudning Kufga javobi

Hudhud unga shunday dedi:

– Ey, ishi makr va hiyladan iborat bo'lgan kimsa! Sen bu qilmishing bilan o'z joningga qasd qilyapsan! Ko'nglingda amalga oshishi mumkin bo'lmagan puch orzu o'rnashib olgan. Uning qo'lga kiritilishi aslo mumkin emas.

Faraz qilaylik, sen xazina topgan taqdiringda ham, undan boshingga turli balolar yog'ilishini, yangi-yangi g'amlarga muhtalo bo'lishingni o'ylab ko'r. Ey, o'ziga o'zi dard orttiruvchi notavon. Sen o'sha balolar girdobida xoru zorlikda o'lib ketasan, xazina esa dushman qo'lga o'tib ketadi.

LXV

Hikoya

Bir mamlakatda bir devona kishi bo'lardi. Uning maskani kechayu kunduz bir vayrona edi. Doimo o'sha



vayronaning bir yonini qazib, o'z umrini xazinaga erishish umidi bilan o'tkazar edi. Ittifoqo, shuncha mashaqqatlar chekkandan so'ng, bir kuni baxti chopdi: u qazuvda xazina topib oldi. U qaziyotgan chuqurda bir eshik ko'rindi. Ichkari kirgach, katta keng saroyga duch keldi. U yerda Faridun¹⁵, yo'q-yo'q, balki Qorun¹⁶ xazinasiga teng qirqta xum saf tortib turar edi. Telba bu boylikni ko'rib, shodligi zo'rligidan hushidan ketib qoldi. Shu orada ko'p o'tmay bu yerga bir ablah kishi yetib keldi. U xazina oldida hushidan ketib yotgan devonani ko'rdi va hech bir taraddudlanmay pichoq tortib, uning qonini to'kdi.

Devonaning yashashdan maqsadi xazinaga erishmoq edi. Ammo u bu yo'lda boru yo'q sarmoyasidan – hayotidan ajralib qoldi.

LXVI

Humoy uzri

Izzatli Humoy o'z uzrini shunday boshladi:

– Ey, sarson-sargardonlar yo'lboshchisi! Menga iqbol shunchalik kulib boqqanki, hatto o'z soyam bilan kishilarga sharaf taxti ato eta olaman. Agar Alloh zotimga shunchalik sharaf baxsh etgan ekan, ya'ni mening soyam, hatto gadoni shoh darajasiga ko'tarar ekan, menga yana boshqa shoh izlamoqqa hojat bormikan?! O'zimni mashaqqatga chog'lamoqning nima keragi bor?! Undan ko'ra soyamdan shohlarga panoh berib, havoda chappor urib uchib yurganim yaxshi emasmi?!

¹⁵ Faridun yoki Afridun – qadimgi Erondagi peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh, Faridun zolim va odamxo'r shoh Zahhokka qarshi temirchi Kova – Kovayi ohangar isyoniga qo'shilib, Zahhokni o'ldiradi. Faridun yaxshi axloqi, odilligi va o'z xazinasining boyligi bilan mashhur.

¹⁶ Qorun – qadimgi yahudiy qavmiga mansub bo'lgan, nihoyatda katta boylikka ega afsonaviy shaxs, lekin o'ta xasis bo'lgan emish. Badiiy adabiyotda Qorun davlatmandlik va xasislik ramzi sifatida ishlatiladi.

Hudhudning Humoyga javobi

Hudhud unga shunday dedi:

- Sening bu so'zlaring afsonadan o'zga narsa emas. Sening bunday havoyi gaplaringni faqat devonalargina aytsa bo'ladi. Lofingga qaraganda, go'yo zoting baland bo'lib, seni Alloh ko'p sharafli etibdi. Hatto sen o'z soyang bilan kishilarni shohlikka erishtirar emishsan. Ol-a!!!

Axir shunchalik ham gumrohlik bo'ladimi? Shohlar tarixini varaqlab qara, bu xil voqea qaysi bir shoh tarixida ko'rilgan?! Sening soyang bilan shoh bo'lib ko'tarilgan biron-bir odam bormi o'zi?! Bu noto'g'ri afsona seni shod qilibdi, shunday buzuq e'tiqodga oshna etibdi.

Masalan, deylik: bu da'vong rost bo'lgan taqdirda ham, bordiyu senga bu sifat bexosdan kelgan bo'lsa ham, soyang tushgan kishi Alloh qudrati bilan shoh darajasiga ko'tarilsa ham bundan senga nima foyda?! Baribir, it kabi dashtlarda qolgan suyaklarni, to'g'rirog'i, g'ajib tashlangan qoqshol suyaklarni yeb tirikchilik qilasan-ku!

Ey, buzuq xayolga asir bo'lgan nusxa! Agar bilsang, ushbu holingga quyidagi voqea yaxshi misol bo'la oladi.

LXVIII

Hikoya

Ummon sohilida savdo ishlari bilan shug'ullanib, dengiz tijoratida boyishni ko'zlagan savdogarlar ko'plab uchraydi. Ular pastkash g'avvoslarga besh-o'n dirham berib, katta foyda umidida bo'ladilar. O'z jonlarini yuz azob-uqubatga duchor qilgan bu g'avvoslar dengiz qa'ridan sadaf izlaydilar. Agar ular topgan sadaf ichida xoh ming dona bo'lsin, xoh podshohlar tojini bezovchi duri shohona bo'lsin, baribir, bu g'avvosga haq to'lagan kishining mulki bo'ladi. Savdogar ana shu tarzda haqiqiy

gavharni qo'lga kiritadi, g'avvos esa arzimas bir-ikki chaqa bilan qolaveradi.

G'avvos-ku, shunchalik oz bo'lsa-da, o'z haqini oladi, ammo sen bechoraga o'sha ham yo'q. It kabi suyak bilan nafsingni to'q tutib yuraverasan. Oqil bo'lsang, bunday behuda so'zlar aytma, chunki bu gaplaring boshdan-oyoq haqiqatga xilofdir.

LXIX

O'rdak uzri

O'rdak o'z so'zlarini shunday boshladi:

– Ey, saodatli zot! Mening hayotim, tirikligim – suv bilan. Undan ayriliqda xuddi suvdan yiroq tushgan baliqday o'rtanaman. Zotim suv ichida taskin topib keldi, shuning uchun ham o'zimni pok tutib yurish odatimdir. Suv tufayli poklikni qozondim, shundan vasfimda husn egasi deyishadi. Agar bir lahza tiniq suv ichida bo'lmasam, undan judolikda dod-faryod qilaman. Suvga mavjdan joynamoz solaman va o'sha ko'zguda maqsadim yuz ko'rgizadi. Mening asl maqsadimga yetmoqlik suvdandir. Bas, shunday ekan, boshqa yoqqa uchib ketmoqlik men uchun xatodir.

LXX

Hudhudning O'rdakka javobi

Hudhud shunday dedi:

– Aytgan so'zlaringning hammasi xatodan iborat. Sening aqlingni suv mutlaqo yuvib ketibdi. Suvga joynamoz soldim, deding, Boyo'g'li ahvolidan g'ofil edingmi?! Men suvda doimo pokman deb lof urma! Suvda o'zingni gunohlardan xoli deb ham hisoblama! Agar chindan ham pok bo'lsang, unda nega kechakunduz suvga sho'ng'iysan?! Kimki o'z nafi uchun yomonlik urug'ini sepsa, ulardan qutulmoq uchun suvga sho'ng'iydi. Axir bu qanday gap, qanday holki, sen tun-



kun suvga sho'ng'iysanu pok bo'lmaysan?! Agar haqiqiy er bo'lsang, oldingda fano (yo'qlik) dengizi turibdi, unga sho'ng'iginu o'zingni yor visoliga yetkaz!

LXXI

Hikoya

Hind dengizida bir savdogar bo'lardi. U savdosotiq ishlarida juda mohir edi. Uning dimog'iga savdo vasvasasi o'rnashib olib, suvga g'arq bo'lish xayoliga ham kelmasdi. Bir mamlakatda o'n kun turmas, savdosi tugagach, yana suv yo'li sari yo'l tutar edi. U dengizni har xil ofatlardan xoli deb o'ylab, yillar shu taxlit safar qildi. U Makka atrofini suvda necha bor aylanib o'tgan bo'lsa-da, uning yaqiniga yetganda ham o'z farzini ado etmay qaytardi. Kishilar unga hajni ham bajarish kerak, deb aytar edilar. Ammo pul hirsini savdogarni u tomon borishga yo'l qo'ymas edi.

Bir kun dengizda bo'ron ko'tarildi. U tushgan kema goh osmonga sapchir, goh pastga tushib ketar edi. Savdogar savdo ishlariga g'arq bo'lganidek uning kemasi ham dengizda g'arq bo'ldi. Dengizda suzish xayoli haj sari yo'l bermadi. Oxir-oqibatda u katta bir baliqqa yem bo'ldi.

LXXII

Xo'roz uzri

Xo'roz o'z uzrini shu tarzda oshkor etdi:

– Ey, qushlar ichra rais va toj egasi! Ikkalamizga ham Haq taolo toj nasib etgan bo'lsa-da, lekin har birimizga boshqa-boshqa ishni belgilagan. Senga u rahbarlikni ato qilib, qushlarga raisu peshvo qildi. Menga esa elni tong va oqshomda muttasil toat qilishga chorlash uchun dilkash tovush berdi. Butun yovvoyi hayvonlar va qushlarni yaratuvchi meni bir yerda muqim yashaydigan, seni esa sayr qilib yuradigan qildi. Xo'rozning erlikda omadi

yurishib, bu sohada ilg'or bo'lganidan Alloh unga bir necha go'zal kelin ato etdi hamda uning uchun har tomonga kezib yurishni taqiqlab qo'ydi. Shunday bo'lgach, u kimu – Semurg'ni izlab Qof tog'iga borish nimasi?!!

LXXIII

Hudhudning Xo'rozga javobi

Hudhud shunday dedi:

– Agar kishi o'z holidan bayon qilib, bir so'z aytsa, bu besabab bo'lmaydi.

Darhaqiqat, shunday qush ham borki, u qanot qoqib uchmasdan turib, yettinchi osmondagi sidra¹⁷ daraxtining shoxi ustida makon tutadi. U yig'inni o'ziga ovloq – xilvat etadi, lekin sayr etadigan yeri doim o'z vatani bo'ladi. Garchi u zimdan Arshga parvoz etib, sidra daraxtiga qo'nsa-da, bu parvozini elga oshkor etmaydi. U Semurg'dan bir nafas ham ayriliqda emas, uning vaslidan ko'nglida o'zga olam jilvalanadi. Undan judolikda joniga shikast yetmaydi, shakli esa uning vaslida doim naqshlanib turadi. Boshi uzra ehsonli toju o'zi vasl osmonida jilva qiladi. Vasldan mamnun bo'ladi, ammo damini ichiga yutadi va o'zgalardan holini sir saqlaydi. Vaslning yuz ming durridan ko'nglida kuchli junbush bo'lsa-da, og'zi chig'anoq singari yopiq turadi.

Ammo sen, ey, ovozi yoqimsiz nusxa, unday qush emassan! Balki har xil yolg'on va behayo so'zlarni so'zlaguvchisan! Kecha-kunduz haddan tashqari fisqu fujurga berilib, behuda g'avg'o va qichqirishlar bilan vaqtningni o'tkazasan. Yuz xil yomonliklar ko'rsatasanu yana o'zingni yaxshilarga nisbat berasan. Bugun esa shunchalik sustkashlik ko'rsatdingki, bu ishing bilan, sen, ey makiyon nusxa, o'zingni xo'roz deb atama!

¹⁷ Sidra – yettinchi osmondagi daraxtning nomi.

Qushlar Hudhuddan o'zlarining Semurg'ga bo'lgan nisbatlarini so'raganlari

Shunday qilib, har bir qush Hudhudga bir uzr bilan murojaat etdi va Hudhud ularga tegishli javobni qaytardi. Hudhud so'zlari qarshisida qushlar ojiz qolib, ortiq uzr aytishga ularda imkon qolmadi. Ularning barchasi Hudhud oldida bechorahol bo'lib, unga shunday savol berdilar:

- Ey, zotiga raislik gavhari, boshiga to'g'ri yo'l ko'rsatish toji loyiq bo'lgan qush! Sen ko'p biyobonlarni kezib chiqqansan. Maslak yo'lida imkon boricha e'tiqodda mahkam turgansan va bu yo'lning xavf-xatarini boshdan-oyoq bilasan, xavfning oldini olishda yuqori darajaga erishgansan.

Biz esa zoru zabun va ojiz bir to'damiz, sho'rpesionaligimiz sababli qora baxtimiz hammamizni xor qildi. Bu oliy sir-sinoat ko'nglimizga ravshan bo'lmadi, chunki jaholatimiz ko'pdan-ko'pu ilmimiz ozdan-ozdir. Agar U kamolot osmonidagi porloq quyosh bo'lsa, biz zarra kabi sargashtayu sarsonmiz, ahvolimiz afsus chekarli bir holatda. U oliy charxdan ham yuqoriroqda o'rin tutadi; uning dargohi kenglikda Arshga qadar bo'lgan olis masofadan ham kengroqdir! U to'qqiz falakdan ham yuqori turadi, biz esa oddiy bir xasdan ham kamroqmiz. Biz bilan uning o'rtasidagi nisbat nimadan iborat? Yo bu nisbat ichra qanday hikmat bor? U podshoh shohlarning shohi bo'lsayu biz yo'lda yotgan tuproqdek gadolarning gadoyi bo'lsak. Bizga bu ishlar juda qorong'u: ularni bizga ma'lum et, aqlimiz uni idrok etishdan ojizlik qilmoqda. Biz bir haqir bo'lsagu U oliy bir zot bo'lsa, aytgin-chi, qatraning dengizga nisbati qanday bo'ladi?

*Hudhudning qushlarga javobi va Semurg' zuhuridan
xitobi*

Hudhud qavmga shunday javob berdi:

- U bir olijanob shahanshoddir. Uning butun olam go'zalligini o'zida saqlovchi zoti avval maxfiy bir xazina edi. Ammo uning bu go'zalligini namoyon qiluvchi ko'zgu yo'q edi. U o'z ko'rinmog'ini orzu qilib, asta-sekin jilvalana boshladi. Bu jilvalanish jarayonida quyosh kabi yuz tuman ming soyalar oshkor etdi. Soyalar qanchalik pokiza jilvagar bo'lsa, ularga shunchalik ko'p e'tibor berdi. Olamdagi barcha qushlarning shakli, bilgilki, uning hikmatga to'liq soyasidan iboratdir.

Sen bu hikmatdan voqif bo'lding. Sen bilan Semurg' o'rtasidagi nisbat ana shundaydir. Sen buning ma'nosini yaxshi tushunsang. Ey nozikfahm jondosh, uni o'zgalarga oshkor etib, fosh qilma. Bu sir kimga kashf bo'lsa, u xayolga cho'madi va o'zining Haq ekanligiga ishonchi komil bo'lib, hayratdan "Xudo saqlasin!" deydi. Haqqa cho'mib, u bilan bir butunlikni tashkil qilganni Haq deyish mumkin emas. Uni Haqqa qorishib ketgan deb aytish kerak!

Sen endi o'zingni kimga soya ekanligingni va o'zingning tub negizingga yaqin ekanligingni fahmlab olding. Agar Semurg' o'z soyasini istab, jilva etmaganda soya egasi bo'lmas edi. Bordiyu Semurg' o'zini yashirin tutishni xohlasa, uning soyasi hech qachon ayon bo'lmasdi. Zeroki, soyaning oshkor bo'lmog'i soya beruvchining vujudi haqida dalil bo'la oladi. Sening ko'zlaring Semurg'ni ko'ra oluvchi bo'lmaganida edi, ko'ngling ko'zgudek munavvar bo'lmas edi. Bunday ko'zga ega bo'lmasdan turib, uning yuzini ko'rish mumkin emas, bundan boshqacha bo'lmaydi. U o'z husniga oshiq bo'lishlarini istab quyosh kabi bir ko'zgu

paydo qildi. Toki bu ko'zguda o'zi jilva va noz aylab namoyon bo'lsayu husniga oshiq bo'lganlarni ko'rsa, bilsa. Ey, dil ahli, bu ko'zgu ko'ngil bo'lib, Haq unda muttasil jilva qiladi. U o'z husnining jilvasini namoyon etdi. Sen esa unga o'z ko'ngling bilan oyinadursan, ya'ni ko'ngling orqali uni ko'ra va bila olasan.

LXXVI

Husnini namoyish qilishga ko'zguni vosita qilgan shoh hikoyasi

Jamoli osmondagi to'lin oy kabi bir shoh bor edi. Dunyodagi barcha o'zjamol go'zallar unga lashkar edilar. U esa ularning shohi edi. Uning qomatidan sarv ham xijolat tortar, chehrasidan quyosh ham sharmanda bo'lar edi. Olamni uning go'zal yuzi ovozi tutib ketgan edi. Hamma o'sha halok qiluvchi husnni ko'rishga oshiqardi. Uning husnining g'avg'osi olamni tutib, ishqining talon-toroji jonlarga tutashgan edi.

Jahonga shunchalik chiroy baxsh etuvchi bu husn egasi bundan yuz ming marta ortiqroq nozu istig'noga ham ega edi. U goho maydonga ot o'ynatib chiqib qolgudek bo'lsa bormi, oldiga kelgan kishi uning husnini ko'rgan zahotiyoyq jon taslim etardi. Shu tarzda u javlongohdan sayr etib chiqquncha yo'li halok bo'lgan el bilan to'lib ketar edi. Xususan, husnidan olam xalqi aro g'avg'o, zulmidan jon mulkiga talon-toroj avjida edi.

Xalq uning qatlidan behad qirilgach, u o'z jamolini elga halokatsiz ko'rgazmoqni xayol qildi. Uning hukmi bilan bir katta ko'zgu yasab, taxti oldida o'rnatdilar. Qasryonida esa ko'zgu aksi tushadigan yulduzday charaqlovchi bir manzar yasatdi. U oynaga qarab, o'z husniga nazar solar va el ham o'sha manzar vositasida undan bahra olar edi. Toki bunday ko'zguni yasamagunlaricha, unga ko'z tashlagan kishi uning husnidan bahramand bo'lolmadi.

Shu yo'sinda endi ham uning o'zi o'z husnidan bahra topdi, ham unga qaragan kishilar bahra oldilar.

Sen bu ko'zguni ko'ngil deb xayol qil. Unda o'sha mislsiz jamol o'z aksini ko'rsatadi. Qasrni inson tanasi, undagi ko'zguni ko'ngil deb bil va bu ko'zgudagi shoh husniga nazar sol. Ko'zguga jilo berilmasa, shoh unga o'z aksini solmaydi. Uning husni aksini ko'zguda aks etmoqda deb anglagin va o'zingni uning qarshisida tomosha qilib turgan, deb hisoblagin. Ko'zgu qanchalik ravshan bo'lsa, aks ham shunchalik aniq namoyon bo'ladi.

LXXVII

Iskandarning elchilikka borganligi hikoyasi

Bir kun Iskandar shunday qarorga kelib, o'zini o'zi elchilikka tayinladi. Uning bu ishi xuddi Semurg' (qushlar podshosi)ga maktub eltuvchi kabutarni eslatardi: u shoh maktubini olib boruvchi elchi vazifasini bajarishi lozim edi. U o'sha elchi borishi kerak bo'lgan mamlakatga elchilarga xos tartibda yetib bordi va u yerdagi kishilarga "Iskandarning so'zi budir..." deb aytdi. Qizig'i shuki, uning o'zi Iskandar edi. U xuddi elchilardek so'z bayon etar, o'zi o'z hukmini ularga yetkazar edi. Xalq uning Iskandar ekanligini qayerdan bilsin?! Hamma uni mamlakat hokimining chopari deb hisoblardi. Elga sanoqsiz farmonlar yetkazib, elchi sifatida o'z maqsadini amalga oshirdi. Bu holatni xalqning mingdan biri ham bilmadi, hech kim bu parda naqshida qanday maqsad bor ekanligini payqamay qoldi.

Sen ham shoh haqida so'z yuritasan, unga erishmoqni istaysan, ammo quruq cho'pchak aytish bilan bunga erishib bo'larmidi?

Qushlar shu tarzda bu so'zlardagi pardali ma'no va sirlarni bilib oldilar. Hamma o'z maqsadlariga erishish yo'lini bilib, istagan narsalariga ega bo'lgach,



muhabbatlari yanada ortdi. Shunday qilib, peshvo Hudhud iliq soʻzlar aytib, yotlarni oʻz etdi. Yana qushlarning barchasi unga shunday savol bilan murojaat qilishdi:

– Ey, toʻgʻri yoʻl koʻrsatish ishida mumtoz! Biz haddan tashqari zor va zaif, tani ozgʻin va nimjon bir toʻdamiz. Oldimizda turgan ish nihoyatda ulkan, yoʻl esa juda olis, unda xavf-xatar koʻp. Biz bu yoʻlni qanday bosib oʻta olamiz?

LXXVIII

Qushlarning bu yoʻl ahvoli haqidagi savoliga Hudhudning javobi

Hudhud qavmga shunday javob berdi:

– Bu haqdagi toʻgʻri fikr quyidagicha: yaʼni bu yoʻldagi eng oliy sifat ishqdir, ishq ahli esa maslahat berishdan yiroq boʻladi. Kimki oshiq boʻlsa, u oʻz jonidan qoʻrqmaydi! Yoki imondan kechib, kofir boʻlishdan ham toymaydi! Agar oshiq oʻz jononiga erishmoqchi boʻlsa, bu yoʻlda jonu jahonidan voz kechmogʻi osondir! Goʻyoki birov yoʻlida choh uchrab qolganday jon ham oshiq yoʻlidagi toʻsiqdir. Oshiq kishi hatto tan va jondan ham, aqlu hushu kufri imondan ham ajralgan boʻladi.

Ishq olamga oʻt soluvchidir, jonni yondiruvchi ham – oʻsha! Uning shavqi oʻti kufr va imonni kuydiradi. Oshiq boʻlgan kishi oru nomusdan ham, mazhabu imondan ham, islomdan ham voz kechadi. Ishqqa faqat shavq, yonish va dard munosibdir. U chaqmoq kabi jahonni qamraydi. Kimni dard va ishq istilo qilgan boʻlsa, uning uchun jon tark etmoq avlodir! Kimningki jonon tomonga rayi bor, jonga ofat yetmogʻidan ne parvosi bor?! Ishq ishi gʻamli kechalarda dard chekish va yonishdir; jahonni shuʼlalandiruvchi oh unga sham vazifasini oʻtaydi. Ishqda yonishdan faqat dard paydo boʻladi, chunki dardga ega boʻlmasdan turib, jonni fido qilish mumkin emas.

Ey ashulachi, dardli bir qo'shiq ayt! Soqiy, bedardligimdan halok bo'lmoqdaman! Meni zor etish darajasiga olib boradigan dard jomidan tut, toki undan ishq dardi ko'nglimga ta'sir etsin! Men uni ichib, jondan kechay, aqlu hushu, dinu imondan kechay! Kofirlar mayxonasida maskan tutay, belimga zunnor bog'lab, bo'ynimga but osay! Mayxona piri oldida o'zim mast bo'lib, Qur'onni o'tda kuydiray va butparast bo'lay! Ishq mayxonasiga o'zimni xos qilib, jonimni imon oridan xalos etay! Butxonada qo'ng'iroq tovushini tinglab, butga sajda qilish uchun yer o'pay! Belimga zunnorni¹⁸ mahkam bog'lab, kofirlarni o'zimdanda xursand qilay!

LXXIX

Hikoyat

*Shayx San'on*¹⁹ Haq dargohiga yetishganlardan bo'lib, ko'ngli g'ayb sirlaridan voqif edi. U Ka'bada avliyo kishilar va qavmni yetaklovchilar davrasida xuddi payg'ambar o'z sahobalari bilan turgandek turardi. U xaloyiqqa to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi bo'lib, Ka'badagi barcha shayxlarning shayxi edi. Uning ostonasida shohlar gadolik qilar, ogoh kishilar ham unga qullik qilishdan faxrlanishardi. U biron-bir g'amgin kishi haqiga duo qilmoqchi bo'lsa, malaklar qo'l ochib, "omin", derdi. Uning maqsadi qarshisida ular yuz ko'rsatib, ko'nglining ko'zgisida jilvalanib turar edilar. Unga yaqin kishilar va muridlarining soni to'rt yuztaga yetar, ularning har biri Junayd²⁰ va Boyazidlarga²¹ teng kelardi. Agar u bir duo qilsa bormi, hatto ofat dudidan qorayib ketgan

¹⁸ Zunnor – nasroniy dinidagi kishilarning belga bog'laydigan chilviri.

¹⁹ Shayx San'on (ibn Saqqo) – XI–XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs bo'lib, uning otashin sevgisi haqidagi qissa Sharq mamlakatlarida mashhurdir. Badiiy adabiyotda bu qissani birinchi bo'lib Farididin Attor 1221 yilda "Mantiq ut-tayr" asarida nazmda bergan.

²⁰ Junayd Bag'dodiy – mashhur shayxlardan, 910 yili vafot etgan.

²¹ Boyazid Bistomiy – to'liq ismi Tayfur binni Iso binni Odam. Yirik shayx, tayfuriya tariqatining asoschisi, 961 yilda vafot etgan.

olam ham yorishib ketardi. Agar biror kishi biron-bir dardga muhtalo bo'lgan bo'lsa, u duo qilgach, bu balo daf' bo'lardi. Uning shukuhidan yuksak falakka shikast yetar, Arshi a'zam ham uning himmati oldida past turardi. Aqliga Arshning o'zidan xabar kelib, ular vahiy yoki ilhom kabi voqelikka aylanardi. U tushida biror narsa ko'rsa, bu voqea boshdan-oyoq o'ngida ham yuz berardi.

Unga bir necha tun bir tushni qayta-qayta ko'rgizdilar. Bu tushdan uning sabru qarori ipini uzdilar. Uyg'onib, o'zining bu holiga tavba qilar, ko'zini yumib, uyquga ketsa, yana o'sha tush qayta takrorlanardi. Tushida bir begona joyda sayr qilib yurar, ma'lum bo'lishicha, bu joy Rum²² mamlakati ekan. Bu yerda u bir butxona ichida mast holda turar, mastlikdan o'sha ibodatxona ahli kabi butparastlikka yuz tutgan edi.

Bu tush ana shu tarzda bir necha marta takror bo'lgach, sirlar xazinasi bo'lgan shayx:

– Bu balodan saqlanib bo'lmaydiganga o'xshaydi. Agar kishi Ka'bada yoki otashparastlar ibodatxonasida bo'lsa ham, peshonasida yozilganini ko'rmasdan iloji yo'q. Tezroq o'sha mamlakatga yo'l olish, taqdir qayoqqa yetaklasa, o'sha tomonga ketish lozim. O'sha yerga ham bir borib ko'raylik. Boshimizga nimaiki kelsa, “yo nasib”, deb qismatdan ko'ramiz, – dedi.

Shu tarzda u o'z holiga nazar solib, o'sha yurtga borishdan o'zga chora topa olmadi. U keta turib, Ka'baga yuzini qo'ydi va yuz hayajon bilan vidolashmoq uchun uni tavof qildi. Ming hasrat bilan haram tavofini qilib bo'lgach, Rum mamlakati sari yo'lga tushdi.

Suhbatdoshlari uning bu holidan xabardor bo'lgach, bu safarda unga hamrohlik qildilar. Tariqat piri yo'l

²² Rum – Kichik Osiyo, Qadimgi Rum davlati va uning xalqi Sharqda shu nom bilan yuritilgan. Keng ma'no u musulmonlar yashamaydigan G'arbiy yevropa mamlakatlarini ham anglatadi.

bosib borar, to'rt yuz muridlari unga hamroh edilar. Yo'lda halok qilgulik har xil vasvasalar Shayx ko'ngliga g'ulg'ula solardi. Har dam u o'zga bir holatga tushar, bu og'ir ahvoldan qutulish chorasini topa olmas edi. Uning bu holiga do'stlari hayron qolishar, ularning aqlu hushi boshidan uchardi. Yaqin kishilari undan "Senga nima bo'ldi?" deb so'rashar, ammo shayxning bu g'alati ahvoli sababini bilolmas edilar. Ular o'z savollariga javob topa olmagach, Shayxdan ham ko'proq iztirob chekardilar.

Ular shu tarzda maqsad sari, qaysi maqsad, balki behad shiddatli ko'rgilik sari yo'l bosdilar. U yurtga yetib kelgan zahotiyuq Shayx ko'nglida yuz xil tug'yonlar boshlandi.

Har nafas bir joyni kezib yurganlarida nogahon g'alati bir butxona ko'rindi. Uning toqi osmon gumbaziga yetar, juftu toqida esa ko'pgina sirlar yashiringan edi. Bu binoning toshlari g'am va mashaqqat tog'idan keltirilgan bo'lib, g'ishtlari dardu balo tuprog'idan yasalgan edi. Bu g'ishtlar yuz xil murakkab usullar bilan har xil rangdagi bo'yoqlar berib pishirilgan va turli go'zal naqshlar bilan terilgan edi. Bino boloxonasining ayvonchasidan fitnalar qarab turar, ular kishilarni chorasiz holga solib, ulardan qutilishning sira iloji bo'lmasdi. Binoning har bir darchasi ishq nuridan yorishib turar, lekin bu darchalarda turli balolar maskan tutgan edi. Kunguralari imonga raxna solar, barchasi ishq ko'rgiliklarini oshkor etar edi. Har kunguraga terilgan toshlar ishq xanjarida kesilgan boshlarga o'xshardi. Bu toshlar din ahli boshini uchirib yuborish, olam uzra toshbo'ron qilish uchun mo'ljallangandek edi. Darvozasi fitnalar to'dasi yurib o'tadigan joy, fitnachi toqi esa bu hunarda falakdan andaza olardi. Bu darvozaning halqa va zanjirlari yuz ming nayrangdan iborat bo'lib, ular savdo halqasiga o'rab, devona qilar, telbadek zanjirga bog'lab tashlar edi.



Bu binoning ichida ishq o'ti yoqilgan yuzta otashkada bor bo'lib, ularning har birida yuz tuman savdoyi mavjud edi. Ulardan chiqayotgan qora tutunlar butxona ustini xuddi kufr va isyon zulmatiday qoplab yotardi. Bu ko'hna dunyo shuncha aylangani bilan bu xil ajib butxonani hanuzgacha ko'rmagan edi.

Bu yerga kelganda Shayx jismida harorat ko'tarildi, ko'ngli iztirobdan betoqat bo'la boshladi. U har tomonga parishonhol qarab yurganida, ko'zi beixtiyor bir tarafga tushdi. Uning qarshisidagi ravoqda yuziga parda tortgan bir go'zal paydo bo'ldi. Bu parda go'yo uning quyoshdek yuzini bekitib turgan ufqdagi kamalakka o'xshardi. Shu payt shamol kelib, uning yuzidagi pardani ko'tarib yubordi va bu quyosh nuri har tomonga yoyilib ketdi. Uni quyosh deb atama, balki quyosh ham unga devona bo'lib, uning husni shami atrofida parvonadek edi.

Bu go'zal qizning qaddu qomati go'yo suratdagi ruhning o'zginasi bo'lib, undan har lahza ruhda o'zga holat yuz berardi. U hur suratli ajoyib bir parizod, gul yonoqli ozoda bir sarv edi. Ko'rinishi ruhni o'ziga maftun etar, shaklu shamoyili esa kishini yuz xil holatga sola olardi. Suratidan hur va parilar ham xijolat chekar, siymosidan sharq quyoshi ham uyalardi. Yuzi nur sochib turar, sochi zulmat kabi qop-qora edi. Bu nur va zulmat go'yo kufr va imondan nishona berardi. Yuzi uzra mushk taratuvchi zulfi yoyilib turar, go'yo bu zulmat ichra nurning yashiringanini eslatardi. Sochi nur ahliga zulmat olami bo'lib, unda savdoyilarning buyuk bir o'lkasi berkingandek edi. Xuddi yangi oy devonani hayratga solganidek, uning qoshi ham savdoyi kishilar uchun yangi oy kabi tuyulardi. Qoshining toqi – qabog'idagi ko'zi xuddi o'sha butxona toqisi ostida turgan go'zal qizning o'zginasidek ofatli edi. Ko'zi tevaragida fitna ahli kabi kipriklari har tarafga saf tortib turardi. Ko'zining pastida "balo" so'zining ostida yozilgan nuqta kabi bir

xoli bor edi. O'sha balo ostida va yuz ustidagi xollarni bu ikki so'zga qo'yilgan nuqtalardan misol deb bil.

Og'zi g'ayb sirlaridan nishon berar, ammo o'zi g'ayb ahli kabi nom-nishonsiz edi. Labi xasta jonlar uchun malham bo'lar, nutqida Isoi Ruhulloh nafasi²³ bor edi.

Uning kayf beruvchi labi yoqut kabi qizil rangda bo'lib, uning shirin so'zlaridan xasta jon oziq olardi. Uning kulgichlarida yuz ming jon asir, bag'baqasining chuqurchasida esa yuz Yusufi²⁴ Kan'on tutqun bo'lar edi. Agar u bu chohga tushganlarni qutqarish uchun zulfidan kamand tashlasa, bu kamand ularni yanada ko'proq o'ziga bandi etardi. Iyak aylanasi xuddi bag'baqa ostidagi "nun"ga o'xshaydi, go'yoki obi hayotga gumbaz bo'lib xizmat qiladi. Ham uning qaddi niholida jon jilvalanadi, ham xirom aylab yurishida obi hayot jilolanadi. Ko'zi bilan labi ajab san'atlar ko'rgazishar, agar biri kishilarni o'ldirsa, ikkinchisi o'sha o'lganlarni tiriltirardi.

Jismi gulgun bo'lib, kiygan ko'ylagi go'yo gul uzra gul edi. Uni ko'rgan zahotiyuq yuz ming ko'ngil toqatsizlanib, o'zini yo'qotardi. Ko'ylagiga rang-barang go'zal naqshlar solingan bo'lib, ularda Rum va Farang²⁵ ustalarining jon chekib mehnat qilganligi ko'rinib turardi. Ko'ylakdagi qatl etuvchi qizil ranglar necha kishilarni o'ldirsa, lekin undagi atirdan o'lgan kishilarga qaytadan jon kirardi. Din ahliga qirg'in keltiruvchi kofirdek qotil ko'zidan barcha bahra olishni istardi. Kimki uning sochi zunnorini xayol

²³ Iso – Masih laqabli payg'ambar. Diniy afsonalarga ko'ra u o'z nafasi bilan o'lganlarni tiriltirish, ularga jon bag'ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan deyiladi. Sharq she'riyatida sevgilining lablari jonbaxshlikda Isoga o'xshatiladi.

²⁴ Yusuf – mashhur "Yusuf va Zulayxo" dostonining qahramoni. Diniy rivoyatlarda kan'onlik Yusufning og'alari hasad yuzasidan uni quduqqa tashlab, ko'ylagini bo'ri qoniga bulab, Yusufni bo'ri yedi, deb otalariga eltadilar. Bu yerda Navoiy go'zal qiz yuzidag'i zanaxdon – chuqurcha – kulgichni Yusuf tashlangan quduqqa o'xshatmoqda.

²⁵ Farang – bu so'z butun Yevropani anglatgan; ba'zan "Fransiya" ma'nosida ham keladi.

qilsa, bu soch uning dinu imonini poymol etardi. Husnu latofatda jon aro yer tutgudek yoqimli, balki bir qultum suv bilan yutgudek so'lim va go'zal qiz edi. Husnining shu'lasi davronga o't solsa, otashin la'lidan jonga o't tushardi. Aqlu hush egalari undan otashgoh ishqini topardilar, ishqida zohidlar kuyib kul bo'lardilar.

Nullas, ana shu tarso²⁶ qizi shunday bir go'zal shaklda xuddi quyosh ayvonidagi Iso qizi kabi yolqinlanib turardi. Bundan Shayx ko'ngliga chaqmoq chaqilgandek bo'lib, uning joni shu'la dengizida g'arq bo'ldi. U qattiq hayajondan "lohavl!"²⁷ duosini ichida qayta-qayta takrorlab, "tavba" deb yoqasini ushladi. Ammo u sho'x o'z chehrasining shu'lasi bilan Shayxning tavbayu duosini kuydirib yubordi. Shayx o'zidan ketib, tuproqqa yiqilayozdi. Bu damda qo'lidagi hassasi uy ustuniga o'xshab uning gavdasini suyab qoldi. U shundan so'ng birpas orqasini devorga tirab, bu g'aroyib vujuddan hayratga cho'mdi. Ammo hayajonning zo'ridan hassasi va jismiga shikast yetib, holdan ketganicha yerga quladi.

Oxir-oqibatda uning toza joniga ishq tushdi, ishq unga qon kabi kirib, butun vujudini qoplab oldi. U goh behol bo'lar, goh o'z holiga kelar, yo'ldoshlari esa uning bu ahvolidan lol qolishardi. Ular bir-birlariga hayrat bilan boqishar, Shayxning bu holatidan boshlarini quyi solishar, goho umidsizlarcha qarsak urardilar. Shu tarzda uning holi oqshom tushgunga qadar hayron qolarli darajada kechdi, balki bu holdan uning o'zi ham sargardon edi.

Tun mamlakati kunni qoraytib, atrofni butxonadagi kufr zulmati kabi qorong'ulik qopladi. Uning keksa boshiga shu tun kabi qora qismat tushgan, unga tobe' kishilari hayotiga ham qora musibatingan edi. Ularning hammasi o'sha mug' butxonasi tuprog'ida, qaysi tuproq,

²⁶ Tarso – nasroniy diniga mansub kishi.

²⁷ Lohavl – qo'rqqanda yoki qattiq hayajon paytida o'qiladigan duo.

balki balolar tog'ida qolishdi. Shayxning boshiga juda og'ir kun tushdi; bu kabi qora tunni hali hech bir odamzod ko'rgan emasdi.

Tun osmonda baxtsizlik pardalarini yoydi, har yonga yulduzlardan mixlar qoqdi. Falak ko'z yoshini oqizishga dud xizmatini o'tab, ko'k atrofida aralash-quralash bo'lib ketdi. U aylanishdan to'xtab, tog' kabi o'rnidan tebranmay qoldi. Charx dard ahliga zulm ko'rsatib, tog'-tog' qayg'ularni yaratib turardi. Dunyoni o'sha tog'lar bilan yashirib, unga yuz tuman ming toshlar ham yog'dirardi. Osmon ko'zlaridan yulduzlar sochib, Shayx ahvoliga motam izhorini bildirardi. Bundan barcha olam ahliga motamsarolik tushgan, ular qora kiygan edilar.

Shayxning boshiga bu kabi qattiq ish hech tushmagan, u nihoyatda ezilgan va g'oyat zaif edi. U zolim ishq zulmidan zor va behol bo'lib, butxona tuprog'ida xoru zor bir ahvolda yotardi. Ishq uning jism ila joniga o't yoqqan, kufr dinu imoniga o't solgan edi. U ko'z yosh to'kkancha yotar va lekin har damda og'zi qurir, chunki ko'nglidagi o'tning shu'lasini og'zidan chiqmoqda edi. Ishq uning ro'zg'orini qaro qilgan bo'lsa, tun bor-yo'g'ini ham qoraytirgan edi.

Shu tariqa yuz xil balo uning joniga nasib etganidan, u g'arib o'z holiga yig'lab, shunday dedi:

- Har dam qayg'u-musibatim ortib bormoqda. Ey falak! Menga nelar qilmoqdasan! Tinchligimni buzib, ishq sari boshlading, yuz yonar o't ichra meni tashlading! Ko'nglimga avval ravshan quyoshni ko'rgizib, keyin uni yashirgancha, g'am shomiga tutqun etding! G'am shomigina emas, balki butun borliq chehrasini qaro qilding! G'am do'zaxining dudi olamni tutib ketdi, uning shu'lasini ko'nglim o'ti bilan yoritding.

Alloh-Alloh! Ne kechadur bu kecha?! Yo Rabbiy! Shunday ham mashaqqatli kecha bo'ladimi?! Men boshimdan ko'p qiyin kechalarni o'tkazganman, ammo



bu kabi uqubatli kechani hargiz ko'rmaganman! Bu tun emas, balki do'zax o'tining dudidir. Yo falak tortgan qopqora ohidir. Bunday tun, yo Rab, hech kimning boshiga tushmasin, unga hech kimsa muhtalo bo'lmasin!..

Bilolmay qoldim: tun balosidan gapiraymi yoki menga tushgan kun balosini aytaymi?! Jismim, a'zoyi badanim, sezgilarim va aqlu hushim ishqdan shunday parda yopindilarki, go'yo ularning hech biri mavjud emasdek, ishq zulmidan hammasi nobud bo'lgandek tuyulmoqda. Hatto gavdamda tobu toqat qolmaganidan ko'yida ko'z yoshi singari ravon bo'lishga madorim yetmaydi..

Boshimni g'am xurujidan qutqarmoq uchun toshga urib tilka-pora qilmoqlikka quvvat qani?!

U quyosh nurlaridan nur olmoqqa, u oy yuzlikka nazar solmoqqa ko'z qani?!

Qul shohga iltijo aylagandek, o'sha dargohga surtmoqqa yuz qani?!

Ko'ksimga tosh urgudek, boshimga tuproqlar sovurgudek qo'l qani?!

O'zimni qo'lga olishga, aqldan ozishimga to'sqinlik qiladigan hush qani?!

Ish tadbirlarini qiladigan, vayron bo'lgan ko'ngilni tiklaydigan aql qani?!

Dardimga chora qiladigan yoki bag'rim yarasiga davo beradigan sabr qani?!

Holim g'amini yeguvchi ko'ngil qani?! Axir u ham hozir o'lik hisobida-ku!..

Bir nafas urguchalik tag'in jon qani?! Ko'ngil kabi uni ham izlab topa olmayman!..

Menga bu yo'l ne balolik yo'l edi? Axir bundan battarroq'i bo'lishi mumkin emas-ku! Umrni bunday xoru zor ko'rguncha, koshki hargiz tirik bo'lmasaydim! Bir halokat chaqmog'i tushib, vujudimdan asar qoldirmasa nima qilardi?!

Do'stlar, menga madad bersangiz, jam bo'lib, men zorni o'ldirsangiz, nimangiz ketardi?! Toki bu olam

orimdan, bashariyat esa fig'onu zorimdan qutulsin edi. Birodarlar, jonimga qatl xanjarini uring! Kuydirib, kulimni har tomonga sovuring! Toki jahonda bunday rasvo bo'lmayin! Har dam yuz marta o'lgandan ko'ra bir o'lay!

Shayxning bu musibatli holiga do'stlari hayron yig'lashar, uning dardidan har dam qon yig'lashar edi. Bu g'amgin va chorasiz kishilar bir yerga to'planib, har biri Shayxga turli nasihatlar bera boshlashdi. Shayx ular pandini fahmlamas, nozik so'zlar ma'nosini ham anglamas edi. Ular Shayxga aql mezoni bilan xitob etsalar, Shayx ularga ishq yo'sinida javob qaytarar edi.

Ulardan biri dedi: – Ey, din arboblarning sardori! Sening izlaring tuprog'i Alloh do'stlariga surma o'rnidadir. Kishi hayotida shunaqa ko'rgiliklar sodir bo'lib turadi, axir undan o'zini qo'lga olgan kishigina najot topadi.

Shayx dedi: – Ey, farzand! O'zlik qayoqda deysan, u bo'lganda men ham uni zabt etmasmidim?

Biri dedi: – Bu shaytonning ishi. Undan kishi faqat zikr tushish yo'li bilangina qutiladi.

Shayx dedi: – U holda jamiyat bo'lishi shartdir, men esa parishonhol odamman, parishonlik qandog'am xosiyat berardi?..

Biri dedi: – Ey, sir ahlining peshvosi! Bu baloni daf' qilish uchun namoz o'qish shart.

Shayx dedi: – Bu ma'nida so'z aytma! Men telbaman, telbaga qonun, jazo yo'qdir.

Biri dedi: – O'rningdan tur-da, tahorat qil va kishilarni toat-ibodat qilishga da'vat qil!

Shayx dedi: – Ko'z yoshimdan o'zga suvim yo'q, bag'rimdan har dam ko'zimga qon yoshlar keladi!

Biri dedi: – Cho'milish kerak. G'usl ko'ngilni pok etishdan tashqari g'amdan ham qutqaradi. Eng to'g'ri yo'l ana shudir!

Shayx dedi: – Men yo'qlik dengizida g'arq bo'ldim. Mendan yana nima istaysan?!

Biri dedi: – Tasbehingga mashg'ul bo'l-da, bu parishon holatdan o'zingni qutqar.

Shayx dedi: – Tasbehinning tori uzildi, uning o'rniga zunnor chilvirini bog'ladim!

Biri dedi: – Misvok – tish kovlagichga iltijo qil, uni og'zingga solib, sunnat bajo keltir!

Shayx dedi: – Agar misvok havas qilsam men uchun og'zimdagi hayrat barmog'i kifoyadir.

Biri dedi: – Biror xatolik yuz bergan bo'lsa, uzriga yer o'pib, Allohga sajda qil!

Shayx esa ko'zlaridan qon yoshini oqizib shunday dedi: – Bari bir bu eshikdan boshimni olib ketolmayman!

Biri dedi: – Rumga safar bo'ldi, tugadi. Endi Ka'bani maskan tutmoq darkor.

Shayx dedi: – Men u yerda izlaganimni bu yerda topdim. Endi nima uchun orqaga qaytib, behuda mashaqqat chekishim kerak?!

Biri dedi: – Sahro sari yuzlanib, Batho – Makka tomon yo'lga chiqish vaqti yetdi.

Shayx dedi: – Men uni bu yerda topdim. Rum borida Bathoni nima qilaman?!

Biri dedi: – Safarimiz tamom bo'ldi. Vatan sari yo'lga tushsak yaxshi bo'lardi.

Shayx dedi: – Ehsanli tangri go'yo o'zi muruvvat ko'rsatib, ushbu butxonani menga haqiqiy vatan etibdir.

Biri dedi: – Agar boshqa shayxlar bu ishdan xabar topsalar, bizga ta'na-malomat qiladilar-ku?!

Shayx dedi: – Ular bilan ishim yo'q. Istagan kishim xarobot ichidadir.

Biri dedi: – Sening avvalgi vajdu holating – e'tiqodning qani? Zuhd va ibodatda o'tkazgan pokiza vaqtlaring qani?!

Shayx dedi: – Holatim – butxonada turmoqdan iborat. Sobiq ibodatlarimning yuztasi bunga sadqa!

Muridlar qavmi o'sha kechasi yuz to'lg'anib, Shayx ahvolidan iztirob chekardi. Ular Shayxga ta'nalar qilishar, ammo Shayx bularga parvo qilmasdi. Ular Shayxga o'gitlar berishar, ammo u bularni fahmlashdan yiroq edi.

Ertalabgacha butxonadagi kishilar g'avg'o qilib, din ahlining bu holini tomosha qildilar. Ular din ahli rasm-rusumlarini hazil-masxara qilish bilan o'z dinlari tariqatidan lofurib, maqtanib qo'yishardi. Ulargumrohlik xayollariga borib, o'z Lot (but) laridagi "lo" ni "illalloh"²⁸ so'zining "lo" si bilan teng deb hisoblashardi. U kishilar uchun o'zlarining baxtsizlikka duchor bo'lganliklari bir tomonu butxona ahlining bu savdodan sevinishi yana bir tomon bo'lib tushmoqda edi. Shayx o'z yaqin kishilari bilan butxona kishilarining yonini olar, bundan din ahli xijolat tortardi. Tong yorishgunga qadar bunday mudhish hol musulmonlarga ko'p malollik yetkazdi.

Yorug'lik qorong'ulikni yenggach, butparastlar o'zlarining katta qo'ng'irog'ini chaldilar. Nasroniy qizi o'z chehrasini namoyish etganidek, charx quyosh nurlarini olamga ko'rgizdi. Butxona ahli orasida Shayx ishqi va ahvoli haqida gap-so'z mojarosi qo'zg'aldi. Ular butxona ichiga to'planib olib, butxona ahli diniga quvvat bag'ishlovchi bu holdan shod bo'lishardi.

Islom ahlining bunday xijolatlari tobora ortib, nihoyat, ular nomusga chiday olmay, Shayxni yolg'iz tashlab har yoqqa tarqalib ketishdi. Bechora Shayx butxonadagi bolalarga ham ermak – masxara bo'ldi. Ular Shayxning bu holidan mazza qilib kulishardi.

Keksa Shayx oshiqu zor, g'arib bir holda ko'zini tarso qizi uyi tomoniga tikkancha yo'l uzra yotardi. Kishilar uni tahqirlab va masxaralab bosib o'tsa ham u mutlaqo parvo qilmas edi. Chekkan azobiga g'oyibu hozirlarning ham, ingrashiga mo'minu kofirlarning ham rahmi kelardi.

²⁸ "Illalloh" – "bir xudodan boshqa" (oyatdan olingan).



Ammo Shayxning kunduz kunini shu tariqa qaro qilgan va uni din yo'lidan chiqarib, kofirlar butxonasi ichida rasvo qilgan o'sha olamga o't soluvchi tarsozoda parda orqasidan oshiqu zoriga, giriftoriga yashirincha boqib turardi. U Shayxni g'aflatda qoldirib, oyoqosti bo'lib yotganini ko'rsa-da, o'zini bilmaslikka solar, uning holini tushunishni o'ylamasdi. Garchi u Shayxning diniga qasd qilib, uning jonini talon-toroj etgan bo'lsa-da, o'zini go'llik va nodonlikka solib, go'yo hech narsa bilmagandek tutardi.

Uning firoqidan Shayx joni o'rtanar, balki boru yo'g'i shu o'tda yonardi. Ertadan kechgacha bag'ri chok-chok so'kilib, kechdan tong otguncha ayriliqdan halokat yoqasiga borib qolardi. Shu tarzda uning mashaqqatli har bir nafasi tobora og'irroq kechardi. Bir oy mobaynida ahvoli shunday bo'ldi. Unga ranju dard haddan tashqari yuzlanib, g'am ichida qolgan jismi tuproq bilan teng bo'layozganida, o'sha zolim kofir, ishvagar xulqli go'zal yana o'sha joyida ko'rindi. Nozli husni bilan butun olamga o't solgancha o'z muhtalosi holidan xabar olmoqchi bo'lib, shunday savol berdi:

- Ey, islom eliga yetakchi, din va islom ahliga to'g'ri hidoyat yo'lini ko'rsatuvchi pir! Senga Ka'ba tavofini qilish hunar edi, nechun butxona eshigida vatan tutding?! Seni din elining madadkori deyishardi, kofirlar butxonasiga nechun asir bo'lding?! Safarga chiqqan kishi biror yerga tushib, u yerni manzil etsa, bir kecha o'sha yerda bo'lib, ertasiga boshqa yoqqa jo'naydi. Sen Shayx esa bir oydan beri bu yerda turib, butxona tuprog'ini maskan etding. Kofirlar butxonasida yashashdan va sening ta'biring bilan aytsam, zulmat ahlidan tilagan maqsading nima ekan?

Shayx jahonni bezatadigan bu jamolni ko'rib, uning bu jon bag'ishlovchi so'zlarini eshitgach, hayajondan butun a'zosini qaltiroq bosdi. Jismi goh bukilar, goh

tikkayardi. Hushini yo'qotib, o'zidan keta boshladi, jismida hayotdan asar ham qolmadi. Butxona eli uni o'ldi, deb gumon qilishdi va ming yil oldin o'tganlar bilan teng bo'ldi, deb hisoblashdi.

Shayx shu ahvolda bir kecha-kunduz o'likdek yotdi. U sanam esa Shayxning bu holiga afsus bilan bosh chayqatardi, boshqa kofirlar ham hayronu lol edilar. Hattoki qon to'kuvchi o'sha qotilning ham unga rahmi keldi. Kufr va din ahllari Shayxning boshiga yig'ilib, komil ishqiga ofarinlar aytishdi. Uning boshini tuproqdan ko'tarib qarasarlar, hali badanida joni bor ekan.

Shayxning ishq el ko'ngliga nihoyatda ta'sir etdi, sanam holida ham o'zgarish yuz berdi. U o'z rayi bilan qatl etilgan Shayx oldiga qadam qo'ydi. Xastaning dimog'i maqsad isini sezgach, gulchehraga qarash uchun asta ko'z ochdi. Uning yuzida na rang, og'zida na so'z qoldi. Shu tariqa u bir muddat gung va lol bo'ldi, tili so'z aytishga ojizlik qildi. Visol zavqi uni o'z holiga keltirgach, zolim kofir unga shunday savol berdi:

– Biz Shayxdan hol-ahvol so'rab, uning qanday kayfiyatda ekanligini bilmoq uchun savol bergan edik. Ammo Shayx hiyla bilan o'zini behush ko'rsatib, bizga biron so'z aytish uchun og'iz ochmadi. Endi u yana o'z holiga qaytdi, bizning yuqoridagi savolimizga javob bersin.

Shayx bu so'zlarni eshitgach, oh urib, ko'zidan marjon-marjon yosh to'kib, dedi:

– Ey, ko'nglingma qiyomat dag'dag'asini solgan! Sen mendan hol-ahvol so'raganingdan keyin arz qilmoqdan o'zga choram yo'qdir. Iqrorimni biron takalluf bilan yashirib bo'ladimi, axir?! Chunki bu ish maxfiy sir bo'lishdan o'tdi. Endi dardimni ichimga yutgandan ko'ra, uni senga ayon qilaman. Butxona ichida shunchalar zor bo'ldim, ishq bandiga giriftor bo'ldim. Jonimga har turli balolar yuzlandi – hammasiga yuzingni ko'rish boisdir.



Ajab joyda chehrang jilvalanishi bilan xuddi to'rtinchi osmondan quyosh porlagandek bo'ldi. Menda ne chidam qoldi, ne sabru toqat. O'sha soatdayoq aqlu hushimdan ajraldim.

O'z holimni qisqacha izhor etib, seni dardimdan xabardor qildim. Agar chora qilsang – sen uchun oson. Agar qatl qilsang ham jonimning mangulik hayoti o'sha bo'ladi. Men o'z holimni bildiray, deb senga arz qildim. Qatl etasanmi yo rahm qilasanmi – sening o'zing bilasan!

Sho'x sanam unga dedi:

– Ey, oliy sifatlar egasi bo'lgan murshid! Musulmon xalqida uyat yo'q ekan o'zi! Axir sen kabi islom elining sardori ham shunday havoyi so'zlarni aytadimi? Senda na hayo bor ekan va na odob! Sen o'zi g'alatiroq odam ekansan, aytgan so'zlaring esa o'zingdan ham g'alatiroq!..

Ey, peshvo! Kimki, oshiq bo'lsa, uni odob va hayo koni deb bil! Ey, tariqat piri! Odobdan tashqari so'zlarni dadil aytish balki yosh bolalarga yarashar! Axir seni Shayx, deb ataydilar-ku, oppoq soqolingdan uyalsang bo'lmaydimi?! Yoshing to'qson bilan yuzga borib qolibdi. Seni qari desa ham, yosh desa ham bo'ladi... Yosh bo'lsang, hanuzgacha aqling kirmabdi. Keksa kishining bu xil so'zlarni umrining xazon faslida aytishi yarashmaydi. Axir sen yosh emassan, hayron qolarli darajada qarisan-ku, aqli hushi uchib, munkillab qolgan cholsan-ku!. Sen shunday so'zlar so'yladingki, ularni inson jinsidan bo'lgan bironta ham odam aytmaydi.

Ey, havoyi Shayx! Shak-shubhasiz: sening bu so'zlarindan tiling bilan ko'ngling bir emasligi bilinib turibdi. Chunki oshiqlar o'z sirlarini maxfiy tutib, uning fosh bo'lishidan ehtiyot bo'ladilar. Ayniqsa, ma'shuqa oldida bu xil so'zlarni aytib, ishqini shunday shoshib toshib bayon qilib bo'ladimi? Ishq dardiga yo'liqqanlar shunday yo'l tutadilarmi? Zuhdu taqvo elining viqori shunaqami?!



Go'zal tal'atli oyday suluv bunday so'zlarni aytgach, Shayx uyatdan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi... Bechora Shayx ko'p xijolatlar chekib, unga shunday dedi:

- Ey, inson sifatli hurzod! Ishq meni zoru shaydo qilib, aqlimni o'g'irlab oldi, o'zimni telba-devona qilib qo'ydi. El devona kishidan aql kutadimi? Yo savdoyi va sehrlangan odamdan odob talab qiladimi? Agar telbalik tufayli adabsiz so'z aytgan bo'lsam, meni kechir. Chunki u payt men o'zimda yo'q edim. Ammo nima degan bo'lsam, ularnng hammasi rost. Ishonmasang, imtihon qil! Ey, nigor, tanim zor bo'lib, yuragim parcha-parcha bo'lgan chog'da, qanday qilib senga sertakalluflik bilan so'z ayta olaman?! Sen so'rashgan paytda qay holatda bo'lsam, shunday javob qaytardim. Baribir, uni yashirib bo'lmaydi, boricha aytdim. Men oshiq emasman. Yor vaslini istamayman, deyinmi, axir?!

Shunday qilib, Shayx aytgan so'zlaridan tonmadi. Ma'shuqasidan uzr so'rash, yolvorishga o'tmadi. Shunda o'ynoqi qaysar qiz dedi:

- Ey, jaholatga yo'g'rilgan odam! Agar qismatga rozi bo'lsang: kimki mening vaslimni orzu qilsa, u to'rt ishni bajarishi shart: may ichmog'i, mast bo'lib, zunnor bog'lamog'i, Qur'onni o'tda yoqmog'i va butga cho'qinmog'i kerak.

Bu to'rt narsa ishqning sharti - oshiq shukronasidir. Uning yana ikkita jarimasi ham bor. Chunki bu foniylilikning to'rt yo'li bo'lsa, yana ikki yo'l o'sha to'rtning ifnosi (fanoda butunlay yo'qolishi, o'zini mahv etish) demakdir. Ulardan birinchisi - yil bo'yi cho'chqaboqarlik qilish bo'lsa, ikkinchisi - shu davr mobaynida otashgoh o'tining devonasi bo'lib, ya'ni otashgohda o't yoqishing lozim.

Agar Shayx bu butxonada chin oshiq bo'lsa va o'z ishqining da'vosida sodiqlik ko'rsatsa, isboti uchun shukrona ham, jarima ham ana shular. Bundan ham



ortiq balolar bo'larmikan? Agar vaslinga talabgor bo'lib, yoningda bo'lmoqlig'imni istasang, bu aytganlarimning hammasini qabul etmog'ing kerak. Shundagina sen visol manziliga qo'na olasan.

Bordiyu bu ishlarni bajarishga qurbing yetmasa, erta kunni kech qilmasdan, yo'lingdan qolma!

Shayx unga dedi:

– Ey, xasta jonim ofati! Yuragimni ishqing olovi o'rtamoqda. Shavqing shu'lası vujudimni chulg'ab, ishqing chaqmog'i o'rish-arqog'imni kuydirmoqda. Men g'aribu devonaman, aqlu hushu, sabr menga yot! Neki amr etsa pari-ruxsora yor, oshiqi devonaga ne ixtiyor?! Senga nimaiki ma'qul bo'lsa, buyur, oshiq bajaradi. Agar qilmasam, jafu xanjarini bo'ynimga ur!

Shayx o'z so'zlarini shu yerga yetkazganda, sho'x qiz va barcha butxonadagilarga uning bu so'zlari ma'qul tushdi. Nihoyat, butxona ichini jannat kabi yasatib, ko'p takalluf bilan bezadilar. Uning to'rida osmono'par taxt o'rnatdilar, undagi zebu ziynat haddan ziyod ko'p, qiyosdan tashqari go'zal edi. Sho'x nasroniy qizi unga shavq bilan chiqib o'ltirdi, uni ko'rgan Shayx har dam joni og'ziga kelardi. Imoni yuzini qora qilish uchun Shayxni izdihom o'rtasiga olib kirdilar. Butparastlar, xoh ular shu yerdagi turg'un kishilar bo'lsin, xoh sayr etib yuruvchi jahongashtalar bo'lsin, guras-guras bu yerga yig'ildilar. U yerda o'nlab xumlarda may hozir etib, uning har xil gazaklarini ham tayyor qilib qo'ydilar. Butxona qo'ng'irog'i va arg'anun²⁹ Shayx dini motamiga un tortib, kuy chalar edilar.

To'rt tarafda to'rt katta rohib kelib o'tirdilar. Hech qachon bunday katta izdihom bo'lgan emas edi. Ogoh murshiddan Qur'onni so'radilar, otashgohdan o't olib kelib qo'ydilar. Zunnor va salib³⁰ ham muhayyo etilgach,

²⁹ Arg'anun – musiqa asbobi (organ).

³⁰ Salib – nasroniylar bo'yniga osib yuradigan krest (xoch).

dilni ovlovchi tarso qizi yuz afsun bilan o'rnidan turdi. U yuz ming noz bilan taxtdan tushib, Shayx oldiga e'zoz bilan yurib keldi. Uning yonida o'tirib, qadah to'la may ichdi. Buni ko'rgan Shayxning hushi boshidan uchdi. Soqiy qadahdan sarxush bo'lgach, yana qadahni limmolim to'ldirib, uni Shayxga tutdi va shunday dedi:

- Bir qultum ham qoldirmay ich, ey olijanob kishi! Bilki, bir tomchi qolsa ham hisob emas!

Ishqqa berilgan Shayx noiloj dilnavoz tutgan mayni ichar ekan, ko'zlaridan yosh dumalar, islom va imondan qo'lini yuvgan edi. U shunday ichdiki, boshidan dud chiqib, may o'tida butun borlig'i kul bo'ldi.

Shayxga bir necha davra may tutganlaridan so'ng uning ishqiq aqliga jabr eta boshladi. Kayf uning hushini o'tmas qilib qo'ygach, u qizga visoldan muddao izhor etdi.

Sho'x tarso qizi unga: "Endi shartlardan birigina bajarildi, xolos", - deb aytdi. Shayx qizga: "Ey, sho'x, yana nima qoldi, aytgil, har nimani istasang, men bajaray!" dedi. Shundan so'ng oyjamol kufr eli ulug'lariga ishora qildi. Ularning barchasi kufr ishlari mohiri bo'lib, Shayxga kufrning imondan afzalligini aytib, uni o'z dinlariga kiritdilar. Uning egnidagi pirlilik xirqasini yechib oldilar. Har qanday kishi uning bu ahvolidan yig'lab turardi. Shundan so'ng uni may hovuzi ichiga solib, cho'miltirdilar. Shayx ham hech narsadan hayiqmasdan, mayga sho'ng'idi.

Keyin kofirlar kiyadigan kiyimlarni olib kelib, uni boshdan-oyoq kiyintirdilar. Beliga zunnorni mahkam tang'ib, bu tasavvuf vakili bo'lgan Shayxni kofir qildilar. So'ngra xor bo'lib ezilgan Shayxni butxonaga olib kirdilar. U mast holda but oldida sajda qildi. Egnidagi seryamoq xirqasini olovda kuydirdi va "Kalomulloh"ni o'tga tashladi. Shunday qilib, dam-badam uzatilayotgan

qadahdan mast bo'ldi, ham o'zini mastona butparast qildi. Falak uning boshiga solmagan jahondagi hech bir rasvolik qolmadi.

Ishq Ka'ba piri mushkulini ana shu tarzda hal etib, Shayxni butxona bolalariga masxara qildi-qo'ydi. Yosh farang bolalari mast-alast yotgan din peshvosi bilan hazil-mazax o'ynashar; qutluqqadam Shayx esa o'zini bilmay yotar; agar o'ziga kelib qolgudek bo'lsa, unga yana may tutar edilar. U tunu kun shu tarzda hushsiz, g'irt mast holda karaxt bo'lib yotar, unga na kun va na tun ma'lum bo'lar edi.

Oqibat ishq yana tug'yon urdi. U bir sahar o'rnidan turib, shunday afg'on qilib, faryod ko'tardi.

– Ey, ko'nglinga iztirob solib, vujudim binosini xarob qilgan! Ishqi zulm o'tkazib, dinu imonimni barbod etgan! Kufr elining dini shunaqa bo'ladimi?! Shartu ahd rasmu rusumi shumi?! Kishi maqsadini shu tarzda amalga oshiradilarmi?! Va'daga shunaqa vafo qiladilarmi?! Ko'ngling nimaiki istagan bo'lsa, hammasini bajartirding, yuz ming balo chaqmog'ini menga urding. Qani ayt-chi, qaysi istagingni amalga oshirmadim?! Qaysi shartingni o'rniga qo'ymadim?! Vafo qilish paytida o'zingni bilib-bilmaslikka solmoqdasan. Visolga erishuvimni paysalga solmoqdasan. Men ham g'aribu ham qari, ham xastaman, kufr zanjiri bilan oyog'i bog'langanman. Meni kecha-kunduz mayga tutib, va'da qilganlaringni unutding! Da'vongni bu tariqa isboti uchun o'zing cho'qinadigan Manot va Lotlardan³¹ qo'rqmaysanmi?!

Sho'x tarso dedi:

– Ey, Shayx! Buncha ko'p ta'na qilaverma! Shart boylashdingmi, uni nihoyasiga yetkaz. Visol shukronasi bo'lgan to'rt ishni bajarding. Endi ishqning ikki jarimasi qoldi. Ey, ulug'lar faxri, bu jarimalar quyidagicha: bu butxona atrofida ko'ngling jirkanmasdan roppa-rosa bir

³¹“Manot”, “Lot” – islomdan avvalgi arablar sig'inadigan butlarning nomi.

yil kechalari otashgohda o't yoqasan. Kunduz kunlari esa o'zingni horg'in tutmasdan, cho'chqa boqishga ravona bo'lasan va kechga qadar cho'chqaboqarlik qilib, bu yerdagilarga cho'ponlik vazifasini bajarasan.

Bir yil tugagach, visol sari yetib kelasan. O'shanda men visol bazmini muhayyo qilib, senga peshvoz chiqaman hamda kufr yo'sinida to'y boshlab, vaslim bilan sening joningni shod qilaman.

Agar ishq taomilida yetuk bo'lmasang, bu yo'lga qadam qo'ya olmasang, ya'ni aytilgan jarimalarni bajarmasang, kofirlikdan voz kechib, o'z diningni qabul qil, hamda ibodatxonani qo'yib, Ka'baga qayt! Necha kun muttasil aysh qilib, may ichganingni o'zingga bag'ishladim. Kuydirilgan eski xirqang bahridan ham o't, ularning o'rish-arqog'i haqida so'z yuritmay qo'ya qol. Yoki o'z kiyimlaringga muayyan baho da'vo qilsang, mayli, pulini olib, cho'ntagingga sol, yo'lda xarjlash uchun ishlatarsan. Bu yerda nimaiki ko'rgan bo'lsang, ko'rmadim deb hisobla yoki havas mayxonasi tomon ot surmadim deb o'yla!

Shayx mahvash so'zlariga quloq solgach, uning qalbida yana ishq tug'yon urib, shunday fig'on qildi:

– Ey, ishqing shiddati jonimda bo'lgan, xotirim oromi, ko'nglim quvvati! Har neki istaging bo'lsa, buyur, qulingman. Agar bajarmasam, mayli meni qatlga hukm et! Ammo hijron so'zini aytma, meni visol uyidan benasib etuvchi so'zga yo'lama!

Shunday deb u o'rnidan irg'ib turdi-da:

– Suruvni keltiring, qo'yni³² cho'pon huzuriga yetkizing! Men gumrohga madad aylab, iltifot qilib, otashgoh sari yo'l boshlang! – dedi.

Xullas, qo'yni cho'pon huzuriga yetkizdilar, uning ikkinchi tilagini ham bajo keltirdilar. Shayx kunduz kunlari cho'chqa to'dasidan ogoh bo'lib, ularni boqsa, kechalari uning manzili otashgoh bo'lar edi.

³² Qo'y – bu o'rinda “cho'chqa” ma'nosida ishlatilgan.



Kechqurundan tong otgunga qadar uning ishi o't yoqish bo'lib, ish-kuchi kufr olovini ravshanroq yondirish edi. Sahar payti butxonada qo'ng'iroq chalingach, ya'ni qaro zulmat tuni yorishgach, u devonalikdan gulxanga yiqilgan odamdek dudga belangan cha kuldan chiqib kelardi. Qo'ng'iroq ohangiga mos holda kufr elining odat va tartibida xirgoyi qilardi. Shu tariqa u to'ng'izlarga ro'para bo'lar, uning atrofida yuzdan ortiq to'ng'iz bo'lardi.

Shunday qilib, u bu xil zulmatga giriftor va asir bo'lib qolgan edi. Uning farmonidagi qavm bu ahvoldan Shayxni xalos etish uchun ko'pgina chora-tadbirlar qildilar, biroq bular unga qil uchichalik ham ta'sir etmadi. Ular pirni xalos qilishga hech imkon topa olmagach, chorasiz holda har yoqqa tarqab ketishdi. Shayxning o'zi yolg'iz qoldi. Ka'bage borgach, ularning har biri uyatdan bir tomon ketishdi.

Shayxning bir sodiq muridi bo'lar edi. U ishq jomidan haddan ziyod ko'p may ichgan edi. U ko'p manzillarni bosib o'tgan yo'lovchi bo'lganidek, har qanday karvonga karvonboshilik qila olardi. Ammo Shayx Rum sari yo'lga chiqqanida, u o'zga bir mamlakatda edi. Bu qutlug' qadamli yo'lovchi safardan qaytib, Ka'ba tomon ko'pgina manzillarni bosib o'tdi. Yo'ldanoq u Shayx atrofidan panoh topay deb, xonaqohga yuzlandi, qarasa xonaqoh xarob, uning piri yo'q edi. Undagi to'rt yuzta taqvodordan birortasi ham ko'rinmasdi. U bu holni yaxshilab surishtirib ko'rgandan so'ng unga sodir bo'lgan ahvolni boricha aytib berishdi. Shayxning Rum sari yo'lga chiqqani va u yerda uning boshiga ne ishlar tushgani unga ma'lum bo'ldi.

U shayx xalifasi - muridlarining boshlig'i bo'lgani uchun o'z do'stlarini olib kelishga kishilar yubordi. Shu tarzda himmat ko'rsatib, barchasini bir yerda jamladi hamda ulardan Shayx ahvolini diqqat bilan surishtirdi.

Unga tush bilan Rum voqeasini bayon qilib, butxona va tarso qizi zulmini aytib berishdi. Shayxning ishq ichra beqaror bo'lganini va holida beixtiyor qolganini, may ichib, rindu mast bo'lganini; dinni tark etib, butparast bo'lganini; yana otashgohni maskan etganini va "Kalomulloh"ni o'tga solganini hamda qanday qilib zunnorni beliga to'rt aylantirib bog'laganini, hozir u kechalari otashgohda o't yoqib, kunduz kunlari esa cho'chqa boqishini hikoya qilib berishdi.

Shunda dard sohibi bo'lgan haligi oqil rind ularga shunday dedi:

– Ey, hamiyatda to'ng'izlardan ham battar kimsalar! Shayx sizning piringiz edi, sizlar unga murid edingizlar. Uning ko'rsatmasidan barchaga najot umidi yetardi. Bizning mazhabda muridlik qilish sharti shunday: agar kimki qutlug' tabiatli bo'lib, murshid bo'lsa, uning muridlari ham unga o'xshash bo'lishi kerak. Biroq Allohga yuzlanmoq lozim. Agar pir o'zining yaxshiyomon kunlarida nima ish qilsa, siz unga taqlid etishingiz lozim. Siz vafosizlarga tasavvuf tartib-odatlarini hayf! Taqvodorlar kiyadigan xirqayu o'raydigan salla hayf!

Dorilomon payti Shayxga sodiqligingizdan lof urib, uning boshiga og'ir ish tushsa, o'zingizni undan chetga tortasiz. Shayxingizga bevafoqlik qilib, qiblagohingiz – piringizni butxona ichiga tashlab kelibsiz. Xudodan qo'rqmay, eldan uyalmasdan, bu ish uning boshiga tushganda, uni yolg'iz qoldirib, orqangizga qaytibsiz. O'z peshvongizni u yerga qo'yib, xizmatidan, balki diydoridan to'yib, qaytib kelibsiz. Shu sifat bilan yana o'zingizni yaxshi fikrli, to'g'ri ish tutuvchi deb hisoblaysiz, bir-biringizni yana "darvesh" deb ham ataysiz. Zuhdu tasbehu ridongizdan uyat sizga! Kavush, salla va hassangizdan uyat sizga! Agar Shayx itboqarlik qilib, bir necha it parvarish etganida edi, unga charxdan bunday jaf o'lgan paytda itlaridan vafo ko'rgan bo'lmasmidi?!



najot karomat qildi, quvon. Shukr qilib qayg'udan ozod bo'lg'in. Senga ko'p azob-mashaqqatlar yuzlandi. Sen tufayli Haq piringga iltifot qildi.

Alloh payg'ambari bu sirlarni sharh etgach, yolvorgan kishi ko'zlaridan shodlik yoshlari tirqirab ketdi. Shodligidan bir oh tortib hushidan ketdi: xastajonlik tufayli o'zidan ketib yiqildi.

Tong shamoli mushk hidini taratib esa boshladi. Tun mushki uzra yorug'lik yoyildi. Bemador shogird ko'ngliga hush yuzlanib, miyasiga jo'sh tushgancha, sakrab o'rnidan turdi. Xudo farzini to'g'ri ado qilib, piri tomon yo'lga tushdi. Yonidagi as'hoblar undan ahvolni so'rab, vaziyatdan ogoh bo'lgach, hammasi unga hamroh bo'ldilar. U maysalar va suv yuzidagi shamol kabi Shayx tomon oshuftahol yo'rtib borardi. Goh balandlik, goh pastliklarni bosib o'tib, oshiq Shayxi turgan manzilga yetib keldi.

Bu paytda Shayxda ham gumrohlik daf' bo'lib, unga g'oyibdan ogohlik yetgan edi. Madad gulshanidan esgan shabada uning ko'ngliga katta ta'sir ko'rsatgan edi. Ko'zlaridan xijolat yoshlarini oqizib, ohu nadomat alangasi gurkirardi. Kofirlar kiyimini tashlab, beliga bog'langan zunnorni uzib tashlagan edi. Kufr putur yetkazgan tiyra ko'ngliga to'g'ri yo'l ko'rsatish shami nur yetkazgan edi.

Shu asnoda u guruh yetib keldi. Ular kelgach, Shayx ko'ngliga shukuh yetishdi. Shayxni bu holatda ko'rgan zamonAQ ularda ham o'zgarish hosil bo'lib, yuz shukr aytib, shodmon bo'lishdi. Ular shunday dedilar:

– Ey, visol sohibi bo'lgan murshid! Senga quvonchli xushxabar shuki, rasul (Muhammad MustafO) madadkoring bo'ldi.

Shayx yuz bergan bu holdan voqif edi. U o'z jamoasiga bu haqda so'zlab berdi hamda birdamlik bobida

mardona bo'lgan ana shu sodiq dono shogirdini bag'riga bosib, quchoqladi. Shayx unga shunday dedi:

– Ey, saodatli farzandim, jonim chilviriga payvandim! Sadoqat ko'rsatishda o'z holingni o'zgartirmading, yorlik bobida kamchilikka yo'l qo'ymading. Ne til bilan senga o'zinning uzrxohligimni bayon qilayin? Bu sadoqating ajrini Ilohning o'zi bajo keltirsin!

Shogird ham ko'zlaridan sevinch yoshlarini oqizib, pir oyog'idan boshini ko'tarmas edi. Bu ikki oshuftaxotirlar tinchlanmaguncha barcha iztirob chekib, nima qilishni bilmas edilar.

Hamfikir do'stlari shunday dedilar:

– Ey, boshliq! Bu davlatni bizga Xudoning o'zi nasib etdi. Endi bu xatarli manzildan ketib, Ka'ba vodiysi tomon yurishimiz kerak.

Shayx yuvinib, egniga xirqa kiydi, buni ko'rgan muridlar zavqqa to'ldilar. Sidq bilan ular haram – Ka'ba sari yo'lga chiqib, sahroni bosib o'tish uchun qadam urdilar.

Shayx Batho sari yo'lga tushaversin, biz endi tarso qizi sari qaytaylik. U pari noz uyquda yotar edi. Uyqusida bir tush ko'rdi. Tushida Sharq quyoshi osmondan pastga tushib, sho'xga Iso payg'ambardan shunday xabar yetkazdi:

– Ey, vafo yo'sinida xomu noraso! Zamona ahlining murshidi bo'lgan Shayx San'on sening butxonangga mehmon bo'lib keldi. Ammo sen mezbonlik odatini bilmasdan, mehmonning boshiga ne kunlarni solmading?! Hozir u butxona mehmonligini tark etib, mezbonlik qilish uchun Ka'baga yo'l oldi. Uning orqasidan yetib, diniga musharraf bo'l, undan kechirim so'rab, uning jufti haloli bo'l!

Nasroniy qizi Shayx oyog'ining izi bo'lishni istagan holda uyqudan uyg'ondi. Qilgan ishlari yodiga tushib, xafa ko'ngliga o'tlar tutashdi. U oh urgancha o'rnidan



turib, Ka'ba tavofi uchun yo'lga tushdi. Uning ko'zlaridan osmondagi yulduzlar kabi yoshlar to'kilar, Majnunning ma'shuqasi Layli kabi zor yig'lab borardi. Shayx o'z odamlari bilan jo'nab ketgan tomon xuddi yel uchirgan toza gulbarg kabi tez yurib borar edi. U behol bir holatda qadam tashlar, charx esa uning qilgan ishlari uchun qasoskorlik qilar edi. Ayniqsa, bu kek va xusumatning biyobon ichra shiddati haddan oshib, qizni vahima, qo'rquv va hayrat bosib kela boshladi. Unga bu nihoyasiz dala-dashtda xastalik va ojizlik yuzlandi. U shunday dedi:

- Yo Rabbim! Ojizu sargashta bir holda ko'z va ko'nglim qoniga belanganman. Zaifu bechoraman, rahm qil! Bekasu ovoraman, rahm qil! Garchi mening gunoh va jinoyatdan o'zga narsam bo'lmasa-da, sendan boshqa panohim ham yo'qdir!

Shunday qilib, u o'zining kimsasiz va yolg'iz qolib, buning chorasini topa olmasligiga zor-zor yig'ladi. Nozaninga azob shiddati shunchalik o'z kuchini ko'rsatdiki, u holsizlanib, tuproqqa yuztuban tushdi. U yiqilgach, hushi tamom ketdi. U tuproq ustida xoru dardmand bo'lib yotardi.

Yuqori martabali Shayxga bu hodisa ayon bo'ldi. Unga hamrohlik qilgan murid ham bu sinoatdan xabar topdi.

Oy yuzliga, ojiz va g'am chekuvchi oy jamolga ana shu holat yuzlandi. Bu paytda undan uzoqda, yo'lda ketib borayotgan qudratli rind - Shayx birdan ortiga qaytdi. Unga hamroh guruh ichidagi kattayu kichik ham Shayx bilan birga orqasiga qaytdi. Bu g'ofil kishilarning har birida yuz xil xayol paydo bo'ldi. Ular: "Yo Rab, bu orqaga qaytishning sababi nima ekan?" - deb o'ylar edilar.

Shu tariqa Shayx va uning sirdoshlari o'sha sarvinoz yotgan joyga yetib kelishdi. Garchand Shayx bu holni to'la fahmlagan bo'lsa-da, lekin yig'lamoqdan o'zini asray



olmadi. U tezlik bilan hushsiz yotgan nozanin boshini o'z qo'yniga oldi. Qiz yuziga Shayx kipriklaridan yoshlar oqib tusha boshladi. Gul barglari uzra gulob sochilgach, mast uyquda yotgan nargis ochilgandek bo'ldi. Qiz Shayx qo'ynida o'z boshini ko'rgach, yuziga hasrat yoshlarini to'ka boshladi. Zaiflikdan uning nolasi og'zidan bilinar-bilinmas chiqar, yuzi uzra bag'rida sizg'igan parcha-parcha qonlar oqar edi. Qiz Shayxga dedi:

– Ey, shiori taqvo va din panohi bo'lgan kishi! Sendan qaysi til bilan kechirim so'ray olaman?! Badbaxt bebosh bolalar daraxtga tosh otishadi, yuksak daraxt ularga soya solib turadi. Agar gul butasida yuz ming tikan bosh ko'tarsa, har bir tikandan bahor bulutlar tufayli gul ochiladi. Garchi gunohim haddan tashqari ko'p bo'lsa-da, lekin sendagi lutfu ehson undan ham ortiqroqdir. Qilgan beadabliklarimni bilib, sening uzringni istab, qora yuz bilan huzuringga keldim. O'sha paytda nimaiki yomon ish qilgan bo'lsam, bular mening o'zimning yomonligim, tabiatim va dinimning yomonligi tufaylidir. Oldingda yana ancha sirlar aytmoqchi edim, ammo umr oshiqib shoshilmoqda, fursat esa nihoyatda oz...

Shu taxlit u o'zining islom diniga bo'lgan shavqini bayon etib, Iso payg'ambar aytgan nishonalarni birma-bir bayon qildi va nihoyat, shunday dedi:

– Poyma-poy so'zlarimni shu joyda to'xtataman. Tezroq imonim kalimalarini aytki, bir nafaslik vaqtim qoldi...

Shayx yuziga ko'z yoshlarini oqizib, o'zining tarso yoriga imon arz etdi. Qiz yashirin imonga oshno bo'lgach, oh urgancha Shayx oldida o'z jonini topshirdi. Bundan yana din ahli aro g'avg'o tushib, ular faryodu vovaylo cheka boshladilar. Kufr va din ichra shundayin bir-birini tushunish sabab bo'lib, shundayin g'aroyib hodisa yuz berdi.



Ishq aro bu xil ajoyibotlar, qiziq holatlar ko'pdir. Bu ajoyibotlar turfa o'yinlar ko'rsata oladi. Ishq shunday bir dengizdirki, uning poyoni yo'qdir. Undagi har bir pufakcha bepoyon osmonni eslatadi. Ishq bir olamdir, ammo nihoyatda kengdir; ishq bir osmondir, ammo juda yuksakdir. Unda eng kichik Suho yulduzi falakni teskari qiladi, unda pashsha anqoni ojiz eta oladi. Agar ishq o'tidan biror uchqun yetsa, u yuz yashindan ko'proq zarar yetkazadi. Bu dengizdagi har bir qatra hech bir shaksiz olam yuzini balo seli bilan xarob qila oladi. Agar ishq xanjari yuz ming qirg'in zohir etsa, uning oldida na qasos olishning, na xun puli to'lashning ma'nosi bo'ladi! Ishqdan ko'p ofat chekkan kishi o'z joniga minnat qo'yish bilangina chora topadi.

Ko'rgilki, ishqning bo'stoni ajablanarlidir, undagi suv va ranglar begunoh kishilar qonidandir. Undagi har bir kiprik yuz minglab jonga nish uradi. Bilgilki, o'sha qotil hinduning odati o'zi shunaqadir. Uning bir turfa xoli yuz tuman ko'z qorachig'ini xuddi ortiqcha nuqta misoli yo'q qilib yuboradi.³³ Ishq mulkida gado va shoh birdir, mayxona ichida rahbaru gumroh teng hisoblanadi. Ishq aro dardu balodan, zulmu sitamu jafodan o'zga narsa yo'qdir!

Ishq Shayxni shunchalar shaydo etib, olam ahli ichra rasvo qildi. So'ngra u menga ham o'z g'avg'osini solib, ko'nglim mulkini talon-toroj etdi. Agar holimni kishi undan ortiq demasa ham, har holda undan kam ham emas. Kel, Navoiy, so'zni shu yerda to'xtat, ishq aro ko'p da'volar izhor qilmagil. Agar umrimdan bir necha kun omonlik topsam, ishqim sharhini nazmga solib, bir doston yozayin. Shunda so'zimning chinligi yoki lof ekanligi insofli kishiga yaqqol bilinadi.

³³ Arabcha yozuvdagi "ko'z" so'zidan nuqta olinsa, "ko'r"ga aylanadi. Bu o'rinda shoir ana shu xil harf o'yini yordamida "Ishqning ko'zi ko'r", "Sevgi ko'zni ko'r qiladi" degan maqollarga ishora qilmoqda.



Alqissa, Shayx ayriliqqa uchragach, butxonadagi ishlarini tugatdi va Ka'baga borishga hozirlik ko'rdi. U yorini ishq ayvonida dafn etib, din va imon ahli go'ristoniga qo'ydi. Ka'badan butxona tomon yo'lga qanday chiqqan bo'lsa, xuddi shunday holda butxonadan Ka'baga tomon qaytdi. Bu yerda u Tangriga o'tmishdagi ishlaridan uzr so'rab arz qildi va nihoyat, uzrlari qabul bo'lib, qismat qazosi uni o'z yoriga qo'shdi.

LXXX

Qushlarning yo'l boshchilikka qur'a tashlaganlari va qur'a Hudhud nomiga tushgani

Qushlar bu ajoyib so'zlarni eshitgach, hayotdagi barcha horib-charchashlari yodlaridan ko'tarildi. Ishq ularning qo'llaridan ixtiyorlarini tortib olib, barchasi shavq o'tidan beqaror bo'ldilar. Ular yashin kabi tezlik bilan yo'lni bosib o'tishar edi. G'arbdan Sharqqa borish ular uchun go'yo bir sakrashlik masofa edi. Barcha oshiqib, shoshilinch ravishda harakat qilar, ularga har damda bir xavfli vodiy ro'para kelardi.

Ammo ulardan ba'zilari bu qattiq yo'lni bosib o'tishga qodir bo'lsalar, ayrimlari zor va zaif, ojiz edilar. Bundaylari to'dadan ayrilib, yo'lda qolib ketar, ba'zi birlari esa adashib, o'zlarini turli tomonga urishardi.

Qavm orasida sardor bo'lmog'i shart. U qavm holidan xabardor bo'lib turadi. Agar bunday boshliq bo'lmasa, qavmning holi parishon bo'lib, barcha o'z holiga hayron qolishi turgan gap. Agar cho'pon qo'yni o't va suvga yo'llab turmasa, bu suruvni halok bo'ldi deb hisoblayver. Har bir jamoatda peshvo yo'q ekan, uning yo'lga qadam qo'ymog'i mumkin emasdir.

Yo'l nihoyatda og'ir va yiroq bo'lgani sababli qushlarning hammasi ittifoqlik bilan shunday dedilar.

- Bizga bir aqlli, es-hushli boshliq kerak. U barcha qushlar hokimi bo'lsin. Chunki biz zaifmiz, yo'l esa



juda mashaqqatlidir. To'daga ham rahbar, ham hamroh bo'ladigan bir sardor lozim.

Safarga chiqqan qushlarning past va oliy tabaqasi bir ovozdan bu ishni Hudhudga yuklashdi. Uni bu vazifani bajarishga undadilar, ammo uning ta'bi amaldor bo'lishni istamay, qushlarga shunday dedi:

- Mayli, men to'dani yo'lga boshqarib, qavmni o'z bilganimcha olib borayin. Bundan o'zga taklif etsangiz, qabul etardim, ammo bu ishni o'z bo'ynimga ololmayman. Agar bajara olmasam, oramizga ayriliq tushadi, deb qo'rqaman.

Shunday deb Hudhud bu ishni qabul qilmadi. Undan o'zga qushlarning barchasi esa avom edilar.

Qushlar ko'rdilarki, barcha ish rasvo bo'lmoqda. Shunda qur'a tashlashga qaror qilishdi. Ular har bir qush nomini yozib qur'a tashladilar. Qur'a Hudhud otiga tushdi. Shundan so'ng unga endi uzr aytish uchun uydirma to'qish, yo'q demoqlikka bahona topish uchun hech bir asos qolmadi. Chunki uning ilmi hamma qushlarnikidan ko'p edi. Uning boshliq ekanligi va unga bo'ysunishlikka ahdu paymon qilib barchasi qo'l tashlashdi. Hudhud sardorlikni qabul qilgach, qushlarning hammasi o'z muddaosiga erishib, shunday deyishdi:

- Biz endi senga tobemiz, sen bizning boshlig'imizsan. Qanday maqsading bo'lsa, biz uni bajaraylik. Sen bizga bosh qo'mondonsan, bizlar esa senga qo'shinmiz. Sen bizni qayerga boshlasang, o'sha yoqqa orqangdan ergashib boramiz.

LXXXI

Bir vodiy boshiga kelib qushlarni hayrat lol etgani va bir qushning Hudhudga savol bergani

Shunday qilib, Hudhud ularga boshliq bo'lgach, ular uzoq yo'lni bosib o'tish uchun osmonga ko'tarilishdi.



Qushlar bir necha kun qanot qoqib, bir yerga yetib kelishdi. Oldinda bir cheksiz vodiy paydo bo'ldi. Uni ko'rgach, qushlar jonlaridan umidlarini uzishdi. Bu vodiyda kulfat benihoya cheksiz bo'lib, o'zi ayriliq tuni kabi cheksiz uzun edi. Hatto unga qarashning o'ziyoq umr va jonga ofat yetkazar, ammo qushlarning uni bosib o'tmoqlikdan o'zga choralari yo'q edi. Undagi haybatli, qo'rqinchli ko'rinish so'z bilan ifodalab bo'lmas darajada uqubatli bo'lib, qushlar bundan qo'rqib ketishdi. Bu yer hali hech kim borib yetmagan va hech bir qush uchib o'tmagan noma'lum bir vodiy edi. Buni ko'rgan qushlarning jismi susayib, qanot-quyruqlari shalpayib qoldi. Shunda bir qush Hudhudga savol berdi:

- Bu yo'l nima uchun bo'm-bo'shdir?

Hudhud bir oz fikr yuritib, shunday javob qaytardi:

- Bu yo'l xalq g'avg'osidan xoli bo'lib, shohning izzati, martabasi va ehtiyojsizligini ko'rsatib turadi.

LXXXII

Hikoya

Boyazid bir kecha o'z xilvat xonasidan chiqdi. U yumshoq tabiatli kishi edi.

Oydin bir kecha. Hammayoq oy nuridan ravshan. Osmon yulduzlar chamanidan gulshan yasagan. Ko'm-ko'k dengiz kabi moviy osmonda porloq yulduzlar charaqlar, ularning har biri nur sochishda go'yo pok injuni eslatardi. Yetti qavat osmon bir oliy qasrga o'xshar, koinot o'zining butun yuksakligi va kengligini unda namoyish qilardi. Uning sayr etib kezib yurishi va bir yerda orom topib turishiga ham, tuzilishi va chiroyi, idrokiga ham aql ojizlik qilardi.

Shunday oliy dargoh ichida ogoh pir etgan bironta jonli zot jinsini ko'rmadi. U qancha harakat qilib qidirmasin, shahar, tog' va dasht aro kezib yurmasin, biron-bir kimsaning mutlaqo nishonasini topmadi. O'zidan o'zga



notavon kishini uchratmadi. U shunday dedi: “Ey Iloh! Nima uchun bu manzil dard va shavq ahlidan xolidir?”

Shunda uning ko'nglidan hushini eltuvchi bu sirdan shunday voqif etdi: “Bu yer izzat va ulug'lik dargohi bo'lib, unga har qanday kishining yo'l topish ehtimoli yo'q. Shohga atalgan maxsus joy izzati poyonsiz bo'lib, har gadoning unga mahram bo'lish imkoni yo'q. Talab ahli bu yo'lda umrlar mobaynida jon cheksa-da, ulardan bittasining bu davlatga yetmog'i amrimaholdir”.

LXXXIII

Vodiy qiyinchiliklari haqida qushlarning Hudhudga savollar berishgani va uning javob aytgani

Yo'l biluvchi bu xil so'zlarni aytgach, sayohatchi qushlarni qo'rquv bosdi. Ular cheksiz baloga yo'liqib, nihoyasi yo'q og'ir dardga muhtalo bo'lishdi. Oldinda yo'l ko'rinib turar, ammo uning poyoni yo'q edi. Bu yo'lning dardi haddan ortiq edi-yu, ammo darmon topilmas edi. Ranj o'ti ko'kka tug' chekardi, alangasidan Arsh ham, Kursi ham kuyib ketgudek edi. Bu vodiya istig'no yeli shunday esar ediki, bundan hatto moviy osmonning beli sinib ketgudek bo'lar edi.

Bunday og'ir yo'lni jism bilan jonlari g'amga muhtalo bo'lgan bechora qushlar qanday ham bosib o'ta olar edi? Bunday bo'lishini hatto xayol qilish ham maholdir. Qo'rquvdan ularda jondan asar ham qolmadi. Bu qiyin ahvolga taslim bo'lgan qushlar bir yerga yig'ilib, Hudhudga ko'pdan-ko'p ojizlik va yolvorish izhor etgan holda shunday dedilar:

– Ey, ulug'vor sardorimiz! Haq seni bizga rahbar etib tayinladi. Ojizligimizni senga aytmog'imiz farzdir. Chunki sen bu yo'ldan yaxshi xabardorsan va biz kabi yo'l bilmaslarni yo'lga boshlovchisan.

Biz bu yo'lda ko'p mushkullarga duchor bo'lmoqdamiz, ularni sen bilan muhokama qilmoqchimiz.

Har birimiz senga o'z so'zlarimizni aytib, azobu mashaqqatdan o'zimizni qutqarishni xohlaymiz. Sen hammamizning mushkulimizni hal etib, ularni mufassal sharhlab bermog'ing kerak. So'zni durday soch va ular savol berganning yodida o'rnashib qolsin. Ular xotirimizdagi shubhalarni quvlab, ko'nglimizdagi chigalliklarni yozsin. Hammamizning ko'nglimizdagi ishkalliklarni tugatib, har xil mushkul holatlardan qutqarsin. Dilimizda qil uchichalik ikkilanishga o'rin qolmasin. Yo'lni bosib o'tuvchining ko'ngli tinch bo'lmog'i lozim. Birmuncha vaqt bir manzilga qo'nib, gala ko'nglini har xil xatarlardan tinchlantir. Har kim senga o'z mushkuli haqida gapirsa, uni hal etmoq uchun javob ayt. Ko'ngillarda hech bir xatar, xotirlarda xavotirdan hech bir asar qolmagandan so'ng tinchlanib yo'lga tushaylik va bu ulug' maqsad sari jazm etaylik. Yo'l bir-ikki kunlik emas, balki kishi uning poyoniga yetishi qiyin. Bunday yo'lni bosib o'tish uchun ko'ngil jam bo'lmog'i lozim. Bu xil yo'lga shubha bilan kirish mushkuldir.

Bu taklif peshvoga ma'qul tushib, u: "Hamma savol beruvchilar bir yerda jam bo'lsin", - dedi. Shu tarzda u galaning iltimosini qabul qilib, bir keng manzilni topib, unga qo'ndi. Boshqa qushlarning hammasi u bilan birga qo'ndilar. Bilim panohi bo'lgan murshid ulardan savol so'radi.

LXXXIV

Bir qushning savoli

Hudhud: "Kimda qanday mushkul bo'lsa, so'rasin", degandan so'ng bir savol beruvchi qush shunday dedi:

- Ey qushlar ichida aziz bo'lgan! Sen va biz barchamiz bir jinsdanmiz. Hammamizning qanotu patimiz bir-birimiznikiga tengdir. Ammo, ayt-chi, sen nima uchun yashirin sirlardan xabardorsan, biz esa bexabar qolganmiz. O'rtamizdagi bu tafovutni boshdan-oyoq



sharh qilib ber. Buning sababi nimadan iborat ekanligini bizga tushuntir.

LXXXV

Hudhudning javobi

O'z qarshisida turganlarga Hudhudning javobi shunday bo'ldi:

– Chunki menga Sulaymonning ko'zi tushgan. Haq taolo unga nazar solib, uni ham payg'ambar, ham toj egasi etgan. Unga lutf ko'rsatib, olamdagi barcha jinlar, insonlar, yovvoyi hayvonlar va qushlarga shoh etib tayinlagan edi. Shunchalik davlat sohibi va taxt egasining iltifotiga men kabi bir haqiru faqir sazovor bo'lgan edim. Mendagi bu qadar yuksak izzat, boshim ustidagi baland martabalik toji ana shu tufaylidir. Zeroki, pok yurakli azizlar kimgakim nazar tashlar ekan, bu nazar tuproqni oltinga aylantiradi.

LXXXVI

Shayx Najmiddin Kubroning so'zi va itga tushgan ko'zi haqida

Shayx Najmiddin Kubro³⁴ o'z zamonasining peshvosi hisoblanar edi. Agar u biron kishiga o'z nazaridan bahra yetkazib qarasa, ko'zi valilik nuri bilan yorishib ketar va shu ondayoq o'zligidan ayrilar edi. Bu sifatda uning ishi shu darajaga yetdiki, agar uning ko'zi kimga tushsa, o'sha kishi vali bo'lar edi.

Bir kuni ilohiy sarxushlik paytida uning nazari bir itga tushdi. U oshnolik ta'sirini ko'rgach, itlik siyratidan voz kechdi. Shayx oldiga o'z boshini qo'yib, umidvorlik bildirdi va shu tariqa itlar orasida sarfarozi bo'ldi. Bu it

³⁴ Shayx Najmiddin Kubro – asl ismi Ahmad binni Umar-al-Xivaqiy xorazmlik mashhur shayx Najmiddin Kubro laqabi bilan shuhrat topgan. 1221 yilda Urganchni himoya qilish paytida Chingizxon askarlar tomonidan o'ldirilgan.



shaharning qaysi tomoniga qadam qo'ymasin, boshqa itlar uning atrofini to'da-to'da bo'lib o'rab olishadi. U qayerda o'tirsa, itlarga shoh bo'lar, itlar esa uning tevaragida xuddi sipohlarddek halqa urib turardilar.

Kunlardan bir kun qazodan itning boshiga ajal yetib, u vafot etdi. Uni Shayx eshigi yaqinida go'r qazib, o'sha yerga dafn qildilar va qabrini xuddi odamlarniki kabi ko'zga ko'rinarli qilib qo'ydilar.

Itlar uning motamida ko'p uvullab, qabri atrofida makon tutdilar. Hozir ham uning qabriga sig'inuvchilar yuz qo'yib, sidq yuzasidan niyozmandlik qilishadi. Uning qabri shu kunlarda ham hokimi baxtiyor bo'lgan Xorazm mamlakatida mavjud.

Olamda bundan ham qiziqroq so'z eshitilganmi? Ya'ni saodat ahli itga ko'z tashlasayu bu nazar itga yaxshi natija yetkazib, uning zotiga kishilik asarini bersa! Bu inoyat unga faqat kishilikdan nishon beribgina qolmay, valilik nuri nash'asidan ham darak bergan bo'lsin!

Agar validan itga shunday tarbiyat yetgan bo'lsa, qushga ham payg'ambardan shunday tarbiyat yeta olishiga ajablanmasa ham bo'ladi. Agar qushga ham payg'ambar lutf ko'rguzsa, olamdagi barcha qushlar unga tobe' bo'lsa, ne ajab?! Shu qabildagi qissa qadimdan ham mavjud, bunga "As'hoobi kahf"³⁵ ("G'ordagi birodarlar") voqeasi dalil bo'la oladi. Chunki Tangri inoyat etsa, it yoki qushga bu nasib etsa, nimasi ajablanarli, axir!

LXXXVII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi faryod qildi:

– Ey, barcha qushlarga yetakchi va amir! Yo'l qattiq, men esa zaif va notavonman. Pashsha anqo tomon yo'lga

³⁵ Shu nomli rivoyatda aytilishicha, uch aziz kishi bir zolim podsho zulmidan qochib, g'orga yashiringan. Ular bilan birga bitta it ham bo'lgan. It mazkur kishilarga vafodorlik ko'rsatib, g'orga kirgani uchun nomi o'sha aziz kishilar qatoridan o'rin olgan.

tusha olmaydi-ku. Har nafas bu yo'lda yuz xil mashaqqat duchor bo'lmoqda, har dam unda yuz ming azobu uqubat yuz bermoqda. Unda balo tog'idan dovonlar bor. Yo'ldagi gardlar ko'zga ajal tuprog'ini sepadi. Undagi tog' uzra esgan shamollar toshlarni tuproq kabi sovuradi. Sher ham bu yo'l azmiga jur'at eta olmaydiyu zaif va xasta bir chumoli bu yo'lga qanday kira olsin?

LXXXVIII

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

- Ey zaif va muhtoj! Senda himmat pastu, o'zing razil va xor ekansan! Tana qanchalik majruh va zaif bo'lmasin, himmat yuqori bo'lsa, bundan nega g'am chekish kerak?! Zotan bu ish ishq ishidir, kimki oshiq bo'lmasa, u inson sanalmaydi. Bunda asosiy narsa ishq bo'lib, uni amalga oshirish har qanday havoyining qo'lidan kelavermaydi. Notavonlik, oshiqning ishqdan bexonumonliklari oshiqlar uchun dalildir. Oshiq'larga notavonlik kasbi kor bo'lib, jonini tark etish uning doimiy fikridir. U boru yo'qdan o'zini forig' bilib, faqat yor ishqini o'ziga tiriklik deb o'ylamog'i shart. Har kishiga ishq va himmat yor bo'lsa, unga tan sog'lig'i yoki xastalikning nima daxli bor? U faqat ishq ichra jon berishni o'ziga maqsad qilishi kerak, chunki ishq tufayli barcha mushkullar yechiladi. Agar uning ishqda o'lmoqlik maqsadi bo'lsa, joniga ofat yetishidan u naf' ko'radi. Kimda-kim bu dunyoga ko'ngil qo'ysa, bu xayol bilan dili xasta bo'lgan bo'lsa, u kishi uchun bu kasallik yaxshi emas. Ishq ahli bu xil zaiflikni ma'qullamaydi. Agar har bir kishiga ishq tufayli kasallik va ojizlik yetsa, bu uni o'z murodiga yetkazish vositasi hisoblanadi. Chunki ishqdan asosiy murod o'lish bo'lar ekan, kasallik ham o'limga yaqin bir holat sanaladi. Zero, kasallik kishining jon tark etishiga sabab bo'lib, undan

chekinish ajablanarli bir holdir. Ishq aro jon tark etish talab etilgach, unga nima bois bo'lsa, yoqimlidir. Agar kasallikning nihoyasi jon tark etish bo'lsa, bu xil o'lishga jonu jahonni fido qilsa ham arziydi. Agar sen jahonda ming yil umr ko'rsang ham oxir-oqibatda bir kun dardu hasrat bilan o'lib ketasan. Demak, o'limdan qochib qutula olmas ekansan, birato'la bu istak bilan o'lganing yaxshiroq emasmi?! Agar umid yor yo'lida o'lish bo'lsa, shuni bilgilki, bu abadiy hayotning naq o'zidir!

LXXXIX

Shayx Abusaid Abulxayr haqida hikoya

Bu yo'lda sayr qiluvchi mehnalik shayx Abusaid Abulxayr³⁶ yor vaslidan xayrli nasibaga erishdi.

Avvalida u ishqqa juda zor bo'lib, yuz xil balo xanjaridan azobda edi. Shu tarzda unga kasallik yuzlanib, butun vujudini qamrab oldi. Bu kasallikdan u doimo betinim ohu voh chekardi. Ishq chaqmog'idan uning joniga o't tushib, uning alangasi vayron jismini chirmab olgan edi. Tunlari u uyqu bilmas, kunduz kunlari ham orom topmas, ishq qayg'usidan o'zga dardi yo'q edi. Kunduzi uning fikru zikri yorda bo'lar, hajrida haddan ziyod zoru fig'on tortishni odat qilgan edi. Kechalari, shahar va bog'larda bo'lmay, o'zini dasht va tog'lar tomonga tortardi.

Tashlandiq joyda bir vayrona kulba bo'lib, u xuddi boyqushlar qasridek buzuq edi. U yerda behad chuqur bir quduq bo'lib, suviga xursandchilik kishisi g'arq bo'lgan edi. Shayx ana shu quduq ichida boshini past tomonga osiltirib yotar, ishq tug'yonidan zoru afgor bo'lardi. Shu taxlitda ko'zlaridan qatra-qatra qon tomguncha tongga qadar ishi ohu fig'ondan iborat edi. U ishqda o'lmoqni istar, ammo uni topa olmas, shunday

³⁶ Abusaid Abulxayr – xurosonlik mashhur shayxlardan, 1048 yilda vafot etgan.



bo'lsa-da, bu ishtiyoqdan ko'z yummay, o'z ahdidan voz kechmasdi. Bu azob uning jismini qiltirib qilib, nolalari esa jonini yomon holatga tushirib qo'ygan edi. U hijron ichida bir necha yil shu holatda kun kechirdi va nihoyat, uning og'ziga visol jomi yetishdi. Ishq aro o'zini er deb hisoblaganlarning ishi ana shunday bo'ladi. Kishi o'lmay turib, bu davlatni topa olmaydi.

XC

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Bir qush shunday dedi:

– Men umrimda ko'p gunoh ish qildim. Bu uyatdan holim juda tangdir. Iflos ishlar bilan mashg'ul bo'lish meni nobud qilib, bu g'am meni ezib yubordi. Endi shular yo'l bosishimga to'sqinlik qilmoqda. Chunki axlat ustiga qo'ngan chivinning qanchalik jirkanch ekanligi hammaga ma'lum. Uning pok Semurg'ga qanday aloqasi bo'lishi mumkin? Semurg'ning pok vasliga erishmoq uchun poklik kerakdir. Bulg'anch jinoyat ichida hayosizlik qilish bilan unga yetishib bo'lmaydi. U pok bo'lsa, mendagi sifat nopoklikdir. Uning vaslini istashimga uyat mone'lik qilmoqda.

XCI

Hudhudning javobi

Hudhud unga shunday dedi:

– Sen o'zingning gunohga botganligingni bo'yningga olding. Shuni bilgilki, bu dunyo abadiy turish manzili emas. Kimki mavjud bo'lsa, uning hosili oxir o'lim bo'ladi. Agar sen o'z gunohing bilan o'lmoqchi, xalq ahvoliga kulmoqchi bo'lsang, juda nodon va g'ofil, aqlli kishilar oldida johil ekansan.

Qilgan gunohlaringdan forig' bo'lishni orzu qilding, ey havasmand, bu ancha oson ishdir. Undan qutulish



iloji faqat tavba qilishdir. Isyon zulmati aro faqat ugina chiroq bo'lib nur sochadi.

Gunoh balchig'idan toza odam topilmaydi. Bunday begunoh kishi hali hech kimga ma'lum emas. Haq Odam avlodini gunohsiz qilib yaratmagan. Ey, bexabar kishi, agar sen gunoh ish qilmasang, Tangri avfu rahmat bilan kimning gunohidan o'tadi? Agar kimning yuzi gunohdan sariq bo'lsa, tavba uni bu sariqlikdan xalos etadi. Rahmat dengizi mavjlangan paytda sen ham xuddi men kabi yuz ming marta pok bo'lasan.

XCII

Odam Safiy alayhissalom haqida hikoya

Dunyodagi barcha insonlarning otasi bo'lmish Odam Atoni odil va mangu tirik Alloh vujudga keltirdi. Boshiga to'g'ri yo'l topish tojini kiydirib, bu tojga payg'ambarlik gavharini tikdi. Uni shu qadar yuksak izzat va martaba egasi qildiki, barcha farishtalar uchun uning oyog'i ostidagi tuproq sajdagoh deb aytili. Osmon cho'qqisi u yuradigan yo'l tuprog'i bo'lib, jannat bog'i uning jilvagohi edi. U shu tariqa yuksak sharaf va e'tiborga sazovor bo'ldi. Haqdan unga "Safiy" – "pok" degan laqab berildi.

Ammo qudratli yaratuvchi taqdir etib, uning yuzi gunoh va isyon bilan qora bo'ldi. Undagi shuncha hurmat va sajdaga moliklik qo'ldan ketib, ishi nomaqbul hisoblandi. Shunda uning ko'ksiga rad panjasini urib, jannat bog'idan haydab yubordilar. Unga bu xil yuz qaroliklar nasib qilib, Hindiston mamlakatiga g'arib bir ahvolda kelib tushdi. U umrlar davomida ayriliqda yosh to'kib, atrofga ohu noladan g'avg'o solib yurdi. Joni qilgan gunohidan xas kabi o'rtandi. Azob chekib yurgan mahalda tavba qilish uni bu qiyin ahvoldan qutqardi. Rahmat bog'idan yana mayin shabada esdi va u yuz ming azob-uqubatdan xalos bo'ldi. Tavbasi qabul etilib, u o'zining avvalgi hurmatli mavqeini egalladi.

Shunday bir kishining mushkuli oson bo'lgach, sen uning oldida kim bo'libsan, ey, murodiga yetmagan zaif. Tavba qil va undan o'z najotingga erish, yo'lga kirib, maqsadingga yet!

XCIII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

– Ey, toj ko'rki! Mening tabiatimda o'zgaruvchanlik mizoji bor. Ta'b u yoki bu sifatda raso emas. Ba'zan fisqu fasod ishlar bilan shug'ullanaman, ba'zan taqvodorlik qilaman. Gohida egri bo'lsam, gohida to'g'riman. Goho mayxona ahli bilan ulfat bo'lsam, goho Xudoga munojot qiluvchilar davrasiga qo'shilaman. Goh Ka'bani tavof qiluvchi Allohparasman, goh butxonada but oldida sig'inaman. Holatimda barqarorlik yo'q, shunga ko'ra haddan ziyod iztirob chekaman.

Bu o'zgaruvchan shum mizojim va bu xil nafratlanarli odatim bilan to'g'ri yo'l topa olmasam kerak, deb o'ylayman. Chunki bu yo'lda barqaror e'tiqodli bo'lmasam, bundan nima foyda?

XCIV

Hudhudning javobi

Hudhud unga shunday dedi:

– Darhaqiqat, bu xil bema'ni xislat barchaning zotida mavjud. Ularning barchasiga nafs va ruh sababchidir. Agar bularning biri yo'lni bog'lasa, ikkinchisi kushoyish beradi. Agar kimki nafsoniyatdan kecholsa, uning zotida ruhoniyat g'oliblik qiladi. Har bir kishida bu fazilat tug'ma bo'lsa, u kishi pok sanalib, o'z vaqtini xush o'tkazgan bo'ladi.

Bordiyu kishining mizoji o'zgaruvchanlikka moyillashsa-yu, sen kabi sharmandalikka duchor bo'lsa, bunday kishi riyozat chekish tufayli ushbu kasallikdan

davo topadi va tabiati barqaror bo'ladi. Agar nafs kishini shunday xatarga yo'liqtirsa, uning chorasi murshid tadbiri orqali topiladi. Chunki murshid har qanday illatlarga tabib bo'lib, xaloyiq uni "pir" deb ataydi, ey ziyrak kishi. Agar so'fiylik yo'lidagi tolibga nafsdan turli tubanliklar yuzlansayu natijada fe'lida yomonlik paydo bo'lsa (talab ahllari gohida bunga muftalo bo'ladilar), pir ularning har biriga turli davolar qilib, illatini daf' etadi va tolib shifo topadi. Sen aytgan narsa ham shunday kasalliklardan biridir. Buning tadbiri esa riyozat chekmoqdan iborat. Sen ham bu ishga o'zingni chog'lab, bu qattiqlikka belingni bog'lasang, umid uldirkim, bir oliy marhamat ko'rsatilib, seni bu xil nomusga qolishdan xalos etadi. Shunda sen u riyozatlaringdan xursand bo'lib, Haq yo'lida pok yo'lovchi bo'la olasan.

XCV

Shayx Abu Turob Naxshabiy haqida hikoya

Pok tabiatli haqiqatni aniqlovchilardan biri, haqqa vosil bo'lgan Abu Turob Naxshabiy³⁷ bir muridning holiga nazar solib, unda zebu ziynat nishonasini ko'rar edi. Chunki bu murid kiyadigan xirqasidagi yamoqlar toza matodan bo'lib, u qizil, yashil va sariq ranglarda edi. Uning nafi go'zallikka, kiyinishda zebolikka ko'proq mayl ko'rsatardi.

Pir bundan qutulish uchun unga ko'pgina riyozatlar buyurdi, ammo uning takallufi o'zgarmadi. Undagi bu sifatning daf' bo'lmaganini ko'rgan pir oxir-oqibatda shunday buyurdi: o'zining yomon nafsini tugatgunga qadar u har kun kushxonaga borsin! Murid bir savatga qo'yning ichak-chavog'ini barcha axlat va najosatlari bilan birga solib, boshiga qo'ysin va mahkam ushlab

³⁷ Abu Turob Naxshabiy – qarshilik yirik shayxlardan.



yo'lga tushsin. U bu mashaqqat va azobdan ko'p qon yutsin! Shu taxlitda sallasidan iflos tomchilar tomayotgan holda Nasaf³⁸ bozoridan o'tib qaytib kelsin.

Uning o'jar nafsini tuzatuvchi ushbu tadbir bir necha kunga cho'zildi. Shundan keyin uning xirqasida go'zallikdan asar ham qolmay, barcha zeboligi burnidin chiqdi. Bu mashaqqat uning nafsini halok qilgandan so'ng komil murshid yaxshilab yuvinish lozimligini buyurdi. Shu tariqa uni bu kasallikdan qutqarib, bu xatardan eson-omon o'tkazdi. Turar joyini vasl ayvoniga havola qilgach, keyin nimaiki istagan bo'lsa, o'shanga erishdi.

Sen ham nafsingni biror mashaqqat chekishga qo'y, buning evaziga xazinani qo'lga kiritasan. Aks holda o'zingni halok bo'ldim, deb hisobla va o'zgaruvchanlik do'zaxida o'ldim, deb sanayver.

XCVI

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Savol beruvchi qush shunday dedi:

– Ey, qutlug' tabiatli! Nafs menga zolimlik ko'rsatib, cheksiz dushmanlik qiladi. Nimaiki buyurilgan bo'lsa, u bunga xilof yo'l tutadi, uning nojo'ya ishlarini hech bir kechirib bo'lmaydi. Agar bu yo'lda nafsim menga dushmanlik qilaversa, men bu og'ir yo'lni qanday qilib bosib o'ta olaman?

XCVII

Hudhudning javobi

Hudhud dedi:

– Ey, ochko'zlikka berilgan notavon! Nafs zulmi ko'nglingni jarohatlabdi. Tunu kun nafsning mahkumi bo'lib, o'zingni shu bema'ni hangoma bilan ovutasan. Nafs neki amr etgan bo'lsa, unga bo'ysungansan. U

³⁸ Nasaf – hozirgi Qarshi shahrining qadimgi nomlaridan biri.

sendan baland kelib, sen unga mag'lub bo'lgansan. U buyurmasdan turib, biror marta o'zingcha nafas olmagansan. U nima havas etgan bo'lsa, sen o'shani bajarib kelgansan. Umringni uning farmoniga sarf etgansan. U qayerni orzu qilgan bo'lsa, uning orqasidan ergashgansan. Nafs seni xuddi eshak kabi no'xtalab, orqangga minib olgan. U seni qayoqqa yetaklasa, o'sha yoqqa ketasan, "yur" desa yurasan, "to'xta" desa to'xtaysan. Agar sen yosh bolalik chog'ingda uning asiri bo'lib, behuda o'yin-kulgi bilan g'aflatga cho'mgan bo'lsang, yigitlik chog'ingda ham undan ayrilmading, bir lahza o'z holingga boqib, o'ylab ko'rmading. Mana endi qarilikka qadam qo'yding, ammo o'z odatingni tashlamay, fisqu fujurdan voz kechmay va Alloh talablarini bajarmay kelasan. Butun umring ana shu g'aflat va itoatsizlikda o'tdi. Endi yuz ming armon bilan o'lish payti yetdi. Umring o'tib ketsa hamki, Tangri amrini sira yod etmading, gumrohlik va yomonlikdan boshqa yo'lni tutmading! Butun olamni qidirsan ham sen kabi umrini behuda o'tkazgan g'alati bir nusxa topilmasa kerak! Tiriklik chog'ingda bu xil g'aflatga botding, o'lganingdan keyin, o'ylab ko'r, qanday holatga tushar ekansan.

XCVIII

Hikoya

Bir zolim podshoh bo'lib, u doimo mast-alast yurar, nihoyatda behayo, bosqinchi va qonxo'r edi. Harom nafsi uni har xil yomon ishlarga buyurar, u esa hech bir bo'yin tovlamay, ularni bekamu ko'st bajarardi.

Bir kuni u aysh jomidan ichayotib, ko'chadan o'tib borayotgan janda kiygan ikkita darveshni ko'rdi. Ular bir-birlariga ham do'st, ham o'rtoq, ham hamdam, ham sirdosh, ham g'amxo'r va shafqatli edilar. Shoh ulardan



birini o'z yoniga chorlab, sherigi to'g'risida shunday savol berdi:

– Ayt-chi, sening o'rtog'ingga qanday yaqinliging bor?

Darvesh shohga shunday javob qildi:

– Bizning o'rtamizdagi munosabat bir-birimizga do'stlik, hamdamlik ko'rsatish va mazhabdoshlik, o'zaro hamkorlik qilmoqdan iboratdir.

G'ofillikdan mast bo'lgan podsho yana shunday savol berdi:

– Ey, tariqat yo'lovchisi! Aytgin-chi, men yaxshimanmi yoki sening o'rtog'ingmi?

– Menga ikkingizning holingiz haqida nimaiki ayon bo'lsa, o'shani bayon qilaman. Ey, toj egasi, har ikkalasidan xabardor bo'lgach, ulardan o'zing xulosa chiqarasan.

Garchi sen bir xalqqa shoh bo'lsang-da, lekin haq yo'lida gumrohsan. Haq nima buyursa, sen unga xilof ish qilib, kechayu kunduz umringni g'aflatda o'tkazmoqdasan.

Sherigim esa garchi darvesh va gado bo'lsa ham, Haq amrini joyida bajo keltiradi. U biror marta to'g'ri yo'ldan tashqari qadam qo'ymagan. Vaqtini Haq amrini bajarish bilan o'tkazadi.

Sen shohsan-u, ammo nafsingga mag'lub va xorsan, u gado bo'lsa ham, nafsini o'ziga asir etgan. To tirik ekansiz, har ikkingizning holingiz shunday kechadi. U gado va sen shohning yashash tarzingiz shundaydir. O'lganingizdan keyin esa u – shoh, sen esa – gado bo'lasan. Chunki sen mast eding, u esa to'g'ri yo'ldan boruvchidir.

Tariqat piri bu so'zlarni aytgach, shoh seskanib, uyqusidan uyg'ondi. U avval mast bo'lsa, endi unga hushyorlik yetishdi, uyqusi bedorlik bilan almashdi. Shundan so'ng u shohlikning zarbof kiyimlaridan orqilib, ularni yechib tashladi va o'rniga janda kiydi.



CI

Hikoya

Xirqoniy³⁹ qoshiga o'z tariqati va toatidan noumid holda bir murid kirib keldi va unga shunday dedi:

– Iblis menga ko'p hunarlar ko'rsatib, ko'nglimga har ishda yo'lto'sarlik qilmoqda. Undan namozimga qusur, bajargan barcha zikru tasbehlarimga yuz xil putur yetmoqda.

Komil murshid unga shunday dedi:

– Ey, zulmkor, jabring tig'i bilan shaytonning ko'ngli yaralandi! U ham sening ustingdan shikoyat qilib, jabru zulming haqida har xil so'zlar aytdi. U aytdiki: "Menga Haq avvaldan makr bilan kishilar holini tang qilishni qismat etgan. Men odamlarni Haqqa itoatsizlik sari boshlab boraman, ularni nuqson vodiysi tomon yetaklayman. Sen shunday bir murid tarbiyat qilibsanki, unda bu sifatlar mendagidan ham ortiqroqdir! Har qachon odamlarning eng yomoni bo'lgan ushbu muridning oldiga kelib, ko'ngliga bir vasvasa solay desam, menga maqbul tushgan har qanday yomon ish bilan uning dili oldindan mashg'ul ekanligini ko'rardim. Hatto mening xayolimga kelmagan iflos ishlar ham uning xotirida mahkam o'rnashib olgan bo'lardi".

Shayton sening haqingda ushbu gaplarni aytib, bizga ham ko'p "tahsinlar" o'qidi. Ushbu makr va hiylanayranglaring uchun senga ham ko'pdan-ko'p rahmat. Chunki shaytonning o'zi ta'lim bergan piringga rahmat deb aytib ketdi.

Murid:

– Shayton menga tuhmat qilibdi, aslida, uning o'zi meni yomon ishlar tomon rag'batlantirar edi, – dedi.

Shayx esa:

³⁹ Abulhasan Xirqoniy – xurosonlik mashhur shayxlardan, 1033–34 yilda vafot etgan.

– Juda yaxshi ishlar qilib, sen shayton bilan talashmoqdasan. Men esa oralaringizda uzringizni eshitib, hukm chiqaruvchi hakam bo'ldim. Senga ham shaytondan yuz marta uyat bo'lsin!!! Ham unga sen shum nodondan ming uyat bo'lsin! – dedi.

CII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Savol beruvchi dedi:

– Ey, qutlug' jamol! Dunyo molu puli mening ko'nglinga cheksiz muhabbat soldi. Unga erishmoq xayoli jonimga quvonch bag'ishlaydi, jaranglagan tovushini eshitsam, ko'nglim huzur topadi. Qo'limda agar bir nafas oltin-kumush bo'lmasa, meni o'sha zahotiy o'lim qo'rquvi bosadi.

CIII

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

– Ey, haqiqatdan yiroq! Joningga pul firoq dog'ini solib qo'yibdi. Hirs jomi ko'nglingni mast aylabdi, sen bu mastlikdan yer bilan bitta bo'libsan. Kishi ham shunday so'zlarni aytadimi?! Axir bu haqiqiy insonlarning ishi emas-ku! Asl insonlar bu ishdan or qiladilar.

Bu xil tuban ish bilan shug'ullanish faqat sichqonlarga yarashadi. U nihoyatda tirishib, yerni qazish bilan doimo tuproq ichra xoru zor umr o'tkazadi. Shum hirs tufayli yer tagidan turli teshiklar kavlab, bu yomon xislatidan nihoyat ko'p mashaqqat chekadi. Shu tariqa doimo uy sari teshik ochadi. Ammo nogahon burchakda pisib yotgan bir mushuk chiqib, uni rohat qilib ovlaydi va mazza qilib ishtaha bilan etini yeb, qonini simiradi.

Yoki yillar tuproq ichida xazinani poylab yotgan ilonga o'xshaysan. Falak buning evaziga unga loyiq

jazo beradi, ya'ni u kishilar ko'ziga ko'ringan zahotiyuq, boshini yanchib tashlaydilar.

Sening zotingda ham shunday xislat borki, ey iflos, bu bilan sen ilon yoki sichqonni esga solasan. Ularning oqibati nima bo'lgani o'zingga ma'lum. Bilgilkim, sendagi bu sifat yaxshi emas.

Kumush va tillani sevgan odam unga qul bo'lib, uning shavqidan ajoyib mast holatga tushadi. Yoki faraz qilki, faqat johil va nodon, mast kishigina kumushu zardan o'ziga but yasab, unga sig'inadi. Bunday kishini jaholat bilan islomni tark etib, do'zaxga ravona bo'lgan, deb aytish mumkin. U bu jahon bog'ida toki tirik ekan, o'z umrini shu yanglig' mashaqqat bilan o'tkazadi. Oltin-kumush uchun yuz xil hirs va shaydolik ko'rsatadi, ammo oxirida rasvolik bilan o'lib ketadi.

Mayli, men seni sichqon deb atamay, balki Qorun deb hisoblay; ilon demasdan, Faridun deb ham atay. Ammo oqibati nima bilan tugaydi? Ular nima qildilaru sen nima qila olarding?! Bari bir ular kabi butun boyligingni qoldirib, narigi dunyoga ravona bo'lasan! Shuning uchun bu behuda xayolni boshingdan chiqarib tashla! Miyangni ezib yotgan bu qattiq toshdan qutqar! Haqiqiy er bo'lsang, asl maqsadni ko'zlagil, nimaiki so'zlasang, o'shandan so'zlagil. Bu nomunosib ish bilan shug'ullanma, chunki undan senga zarar yetib, oxiri joningning zavoli bo'ladi.

CIV

Hikoya

Basra shahrida bir ochko'z kishi bor edi. U nodonlik bilan oltin-kumush yig'ishga mukkasidan ketgan edi. Hotam Toyi⁴⁰ saxovat va karam ko'rsatishda qancha

⁴⁰ Hotam Toyi – VI asrning ikkinchi yarmida yashagan: arablarning tay qabilasidan bo'lgan bu kishi saxiylikda shuhrat topgan, Sharq adabiyotida bu obraz saxovat timsoli hisoblanadi.

nom qozongan bo'lsa, u dinor va dirham yig'ishda undan mashhurroq edi. Ushbu xasis va pastkash kishi ko'p mashaqqat chekib bitta-bittalab kumush yig'ar edi. U katta bir xazina to'plagach, ularni yer tagiga ko'mdi. Bu tubantabiat yana shunga teng keladigan boylikni to'niga gir aylantirib tikib olgan edi. Yashirgan behisob oltinlari o'sha shum ochko'z kishining ko'ziga hatto kunduz kunlari ham osmonda yaraqlagan yulduzlar kabi ko'rinar edi. U o'zicha, tanimga quvvatgina emas, balki jonimga sihat ham ana shu oltinlarim tufayli, deb o'ylardi.

Ittifoqo, bir kuni u savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keldi. U yerda savdo qilgan molidan tushgan harom pullarga taom olib yedi. Shundan so'ng, qo'lini yuvmoqchi bo'lib daryo labiga engashdi. Ammo to'niga tikkan oltinlari og'irlik qilib, uni suvga tortib ketdi. Xasis kishi ana shu yomon fe'li tufayli daryoga cho'ka boshladi. U suvdan chiqmoqchi bo'lib, iztirob bilan chunon talpinar, birov kelib qutqarar, degan umidda baqirib-chaqirar edi. Ammo odamlar yordamga yetib kelgunga qadar u daryo tubiga cho'kib ketdi. Chunki uning oltindan bo'lgan langari behad og'ir edi. U suv tubida chig'anoq ichidagi gavhardek qolib ketdi.

Uning joniga ofat yetkazgan narsa, albatta, o'zi yiqqan oltinu kumush edi. Shuningdek, uning yashirib qo'ygan xazinasini ham talon-toroj bo'ldi. Oltin-kumush yig'ish ana shunday mudhish voqea bilan tugadi. Sen bunday jirkanch ishlardan qo'lingni tort! Ularga zinhor mayl ko'rsatma, chunki bu fano dengizi – dunyo doimo to'lqin urib turadi.

CV

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Bir savol beruvchi so'radi:

– Ey, oliy martaba egasi! Men jannat kabi bir maskanda yashayman. U yerdagi har bir daraxt jannat



to'bisiga o'xshaydi. U yerning har tarafida Kavsar kabi zilol chashmalar oqib turadi. U yerning suvi dilkash, havosi esa oromijondir; sahnida jonga oziq bo'ladigan mevalari ko'p. Maydoni jannat bog'i kabi keng bo'lib, o'rtasida ulkan bir qasr bunyod etilgan. Qasr ichi ajoyib naqsh berilib, zarhallangan, tashqarisi esa gavharlar bilan ziynatlangan. Bu qasrda xushsurat, siyrati yoqimli bir podsho dam oladi. Mening manzirim ana shunday ajoyib gulshan ichidadir. Bu yerda men shoh vasliga erishganman. Uning suhbatlari bir daqiqa ham mensiz o'tmaydi. Tunu kun men uning eng yaqin ulfati va suhbatdoshiman. Bu xil xursandchilikdan voz kechib, Semurg'ni istab yo'lga chiqish maqsadga muvofiqmi?

CVI

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

– Ey, xayollari puch! Sen aytgan barcha narsalar, aslida, hech narsaga arzimaydi.

Garchand gulshan zebo va dilkash bo'lib, uning suvi va havosi ko'zga xush ko'rinsa-da, shuningdek, u yerda to'biga o'xshash daraxtlar jilva qilib, gullari yuz xil ishva bilan kishini o'ziga maftun etsa-da, sen shuni bilki, u yerdagi oppoq ochiladigan nasrin va boshqa gullar vafosizdir. U yerning sarv bilan sunbuli muvaqqatdir. U joyning bahoriga bir kun kuz shikast yetkazadi va gullar qora tuproqqa qorishadilar. Bu falak gardishi u yerdagi qasrni ham xuddi xasta oshiq ko'ngli kabi vayron etib tashlaydi. Jafo keltiruvchi ro'zg'or esa bu qasr shohini taxtdan qulatadi. Uning bog'ida gulchehralardagi singari vafo yo'qdir, shoxi ham mehri tosh go'zallar kabi abadiy emasdir.

Bas, shunday ekan, sen bular oldida kim bo'libsang, ey zaif kishi. U bog'dagi biror gul bargicha ham qadring yo'q! Haqiqiy er bo'lsang, baqo Qofiga yo'l ol va u tog



cho'qqisida turuvchi Shoh vasliga erish! Chunki bu gulshan kamoliga o'sha sababchidir. Uning xazonga yuz tutib, zavol topishi ham o'shandan. Uning jamoli shohga zebolik va baxt ato etadi. Shohning taxtdan ag'darilishi va o'limi ham uning ulug'ligi tufaylidir. Shoh qasrining obod bo'lishi ham uning hikmatidandir, so'ngra vayron bo'lishi ham uning qudratidandir.

CVII

Hikoya

Karaxtlikdan dong qotgan bir qalandar bo'lar edi. U ertayu kech bang iste'mol qilardi. Ko'rinishdan bu olamdan etak silkigan darveshlarga o'xshar, ammo butun sir-asrori yonidagi nasha xaltachasida edi. Bang tortgan damlarida o'zini qo'yarga joy topa olmay, har doim aysh-ishrat haqida xayollar surardi.

Kunlardan bir kuni u bir vayronaga kirib, bangdan, odatdagidan ko'proq tortdi. Buzuq devorga suyangancha sirlar olamida sayr qila boshladi. O'zini xayolan go'zal gulshanda shod holda ko'rdi. Atrofida ayshu ishrat ashyolari muhayyo edi, go'yo yotgan maskani bir oliy qasr bo'lib, bu qasr binosi mashhur musavvir Moniy suratxonasidek bezatilgan emish. O'zi taxtda Jamshiddek xurram, yonida oftob jamolli bir gulchehra ham bor emish. U oliymaqom podsho ayshu ishrat bilan mashg'ul bo'lib, har lahza gulchehra yoridan bahra olayotgan emish. Shu xayollar bilan u o'zini koshonada his qilib, vayrona ichida yotar edi.

Vayronada nishi uchida ajal zahrini saqlaguvchi bir chayon bor edi. U vayronani aylanish uchun chiqib, nishini har tomonga sanchgan holda u yoq-bu yoqqa yurar edi.

Xomxayol qalandar xayoliy gulchehrasining labidan bo'sa olayotib edi, shu payt labiga chayonning nayzasi sanchildi.



Qalandar beqaror holda chinqirgancha o'rnidan turib ketdi. Iztirob va alam bilan qarasa, yonida na gulshan, na qasru taxt va na xushbaxt sohibjamol bor edi. Shu tarzda uning behuda xayollari barham topdi, biroq u labidan ajal nishini yegan edi. Qilgan barcha ishlari xato ekanligini angladi. Ammo bu pushaymonlik unga foyda keltirmadi.

Sen ham o'shanday ahvolga tushgansan. Miyangni bo'lmag'ur xayollar chulg'ab olgan. Ammo bir kun ajal nishini yeb, seskanganingcha g'aflat uyqusidan uyg'onasan. Biroq u payt qancha zoru faryod ko'tarma, qilcha naf yetmaydi. O'shanda o'zingning kimdan yiroq tushganingni yaxshi anglaysan, lekin joningda ayriliq dog'i muhrlanib qoladi.

CVIII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi dedi:

– Ey tengi yo'q! Ko'nglimni bir ishq asir etdi. Agar ma'shuqam ruxsorini bir on ko'rmasam, o'sha zahotiyoq olam ko'zimga qorong'u bo'lib ketadi. Usiz bir nafas ham qarorim yo'q, dard va g'am chekmakdan boshqa ilojim yo'q. Yuziga nazar tashlash mening maqsadimdir. Vaslini ko'rgach, ko'nglim orom topadi. U bilan shunchalik ulfatmanki, shu sababli undan ayrilish menga mashaqqat tug'diradi. Agar uning yoqimli ovozini eshitmasam, ruhim qushi jismim bilan vidolashadi. Ko'nglim judolikda xasta, hayotim vasliga bog'liqdir. Undan judo bo'lsam jonimga alam yuzlanadi, tunu kun ko'nglim ishi faryod chekmoq bo'lib qoladi. Bir daqiqa ham undan ayrila olmayman. Undan ayrilganim – o'lganim! U sanam ishqini men qandoq tark etay?.. Undan ayrilib qayoqqa ham borardim?!



Hudhudning javobi

Hudhud dedi:

– Ey, ishing yonish va kuyishdan iborat bo‘lgan! Ko‘nglingga majoziy ishq o‘t solibdi. Sen haqiqiy ishqdan yiroq tushibsan. Dilingni ayriliq dog‘i o‘rtabdi. Ko‘ngling asl yo‘ldan chekinib, so‘qmoqdan yurishni savob deb bilibdi. Tiriklik chashmasidan bebahra qolib, ko‘lmakdan tashnalikni qondirmoqchi bo‘libsan. Ko‘ngling porloq durdan g‘ofil qolib, do‘l donasiga moyillik ko‘rsatibdi. Osmonda charaqlagan quyoshdan yuz o‘girib, sham va mash‘al nurini qabul etibsan. Zohiriy shaklga aldanib, ma‘ni jamolidan benasib qolibsan. Yuz balg‘am va qondan oroyish topgandan keyin tashqi husnning ishi nima ham bo‘lar edi?! Chigil⁴¹ hurining yuzini ne uchun vasf etasan? Undagi oqu qizillik balg‘am va qon tufayli-ku! Tashqi go‘zallikning vafosi yo‘qdir, u doim birdek va abadiy emasdir. Shu sababli u oshiq va shaydo bo‘lishga, ishqidan rasvo bo‘lishga arzimaydi. Agar kimda-kim boqiy go‘zallikka ega emas ekan, undagi go‘zallik birovdan muvaqqat tilangandir. Agar bu kun chiroyli ko‘rinib, ertasiga xunuk bo‘lsa, bunday go‘zallik yoqimli hisoblanmaydi. Sen shunday barkamol husn egasini sevgilki, uning quyoshi hech qachon zavol topmasin. Agar uning sen kabi yuz tuman ming oshig‘i bo‘lsa ham, ular unga oshiqlikka loyiq emasdirlar. Unga ishq ahlining har biri yuz jonini fido qilsa ham ozlik qiladi. Chunki uning husni bundaylarning yuz mingiga arziydi.

⁴¹ Chigil – qadimgi turkiy qabilalar ittifoqidan birining nomi. Chigil qizlari o‘z go‘zalliklari bilan mashhur bo‘lgan.



CX

Hikoya

Arastuning⁴² bir shogirdi bo'lib, ustozining har bir darsida hoziru nozir edi. Donishmand faylasuf unga alohida ehtirom ko'rsatib, barcha shogirdlaridan ortiq hurmat qilar edi. Yoshlik chog'idan yonida ulg'aytirib, unga o'zida bor maxfiy ilmlarni o'rgatgan edi. U olimning to'rt yuz yirik donishmandi orasida barchasidan ortiq bo'lib, faqat Arastudan kam edi.

Donishmand o'zicha mazkur shogirdini kelajakda Iskandarga yaqin mulozim etishni xayol qilardi. O'zim bir yoqqa ketsam, u Iskandar huzurida farzandim kabi o'rnimni bosadi, deb o'ylardi. Xullas, bu shogird hikmat bobida yuksaklikka erishib, hatto yig'inlarda Aflotun⁴³ bilan ham bahslashadigan darajaga yetdi.

Kunlardan bir kuni u ko'chadan o'tib ketayotgan edi, nogahon birovning ishqiqi uning ko'ngli tomon yo'l topdi. Kofirlar ibodatxonasidan chiqqan bu go'zal oy yuzli va kumushbadan, toshyurak kofirlar kabi zolim bo'lib, noz bilan yuz dinni talon-toroj etuvchi va hikmat ahlini zoru shaydo qilgudek nihoyatda chiroyli qiz edi.

Faylasuf shogird uning tuzog'iga muhtalo bo'lganidan so'ng ko'ngli unga oshiqi zor bo'ldi. Vasliga yetishmoqqa bel bog'lab, oraga kishilar qo'ydi. Va nihoyat, ko'p molu mablag' sarflab, u dilraboni o'ziga moyil qildi hamda o'z nikohiga oldi. Bu qiz qo'liga kirgach, xuddi kofirlar kabi butparast bo'ldi-qo'ydi: ya'ni u go'zal qiz oldidan nari keta olmadi. Kechayu kunduz ko'zini undan olmasdan, unga maftun bo'lib, kitobga qaramay qo'ydi. U go'zal mahvashga shu qadar muhtalo bo'ldiki, hatto ustozidan saboq olishni ham esidan chiqardi.

⁴² Arastu – qadimgi yunon faylasufi Aristotel nomining sharqcha atalishi (eramizdan oldingi 384–322 yillarda yashagan).

⁴³ Aflotun – qadimgi yunon mutafakkiri Platon (eramizdan oldingi 427–347 yillar).



Ustoz uning bu holatga tushganini ko'rib, nasihat yo'li bilan chorasini topmoq istadi. Ko'p pand-nasihatlar qildi, ammo bu nasihatlar baloning oldini olishda yordam bermadi. Ustoz qarasa, ilmu hikmatlari zoe bo'lib, necha yillik chekkan zahmatlari bekor ketmoqda. Benazir faylasuf har qancha o'ylab ko'rmasin, bu dardni davolashning ilojini topa olmadi. Oxiri maxfiy chora qo'llab, u go'zalga kuchli bir dori berdi. Go'zal dorini ichgach, ohu fig'on tortganча yiqildi, ahvoli vaqt o'tgan sayin tobora yomonlasha boshladi.

Yigit uni tuzatish uchun turli choralar qo'llab ko'rди, ammo ular hech bir foyda bermadi, sanam kasallikdan tuzalmadi. Bu mushkulotga muhtalo bo'lgan yigit chora topmoqqa ojiz qolgach, ustozni huzuriga g'amgin bir holda kirib bordi. U boshini quyi solganча, ko'p xijolat chekib, o'z holini bayon qildi. Ustoz shogirdining bu xil ehtiyojmandligini ko'rib, davolash uchun bemor qoshiga keldi. U shogirdiga dedi:

– Tur, sen bugun xizmatga bor. Iskandarga qulligingni bajo keltir. Men bemoringni davolab, parivash yoringni tuzataman.

Shogird ustoz so'zlarini qabul qilib, yo'lga tushdi.

Ustoz kasalni davolashga kirishdi. U me'dani tozalaydigan behad kuchli bir dori tayyorlab, kasalga berdi. Xasta bu dorini ichdi. Ustod o'z mahramlariga, kasalning holidan xabardor bo'lib, tog'ora ushlab, eshik tagida turinglar; u nimaiki qayt qilsa, to'kib yubormasdan, bir idishda asranglar, deb buyurdi. U shu so'zlarni aytib, tashqariga chiqqani zamon dori o'z kuchini ko'rsatdi. Qiz ichidan kasallik keltirib chiqargan balg'amlarni surib chiqardi. Qiz uzluksiz qayt qila boshladi. Bu paytda ustoz tashqarida edi. Xastaning na bir madori, na jismida bir qatra qoni qolmadi. Undagi



balg'am, safro, savdo va qon daf' bo'lgach, sumanbar majolsiz bir holga tushdi.

Kechqurun yigit uyiga qaytdi. Donishmand unga: "Kirib, yoringga boq!" – dedi. Shogird uyga kirib, o'zining avvalgi sho'x va dilkash yorini ko'rmoq istadi. Ammo qarasa, mahbubasi o'rnida burishib ketgan bir noxush jism yotibdi. Yigit uni taniy olmay: "Mening yorim qani? Sarv bo'yli lola yuzlim qani?" – deb so'radi. Hamma narsani chuqur biluvchi donishmand olim buni eshitib: "Men bergan idishni keltiringlar, nozaninni oshig'iga yetkazinglar", – dedi. Bu so'zni eshitganlar idishni olib keldilar. Uning ichi turli axlat, makruh qusiqlar bilan to'la bo'lib, sassiq hid burqsib turardi. Shunda ustoz shogirdiga qarab:

– Ma, ol, sening parizoding shudir! Gul yuzli sarvqomating ham shu! Sen muftalo bo'lgan shundan bo'lak narsa emas, sen shunga oshiq va maftun bo'lgan eding, – dedi.

Bu so'zlarni eshitgan yigit ustodi oldida xijolatda qoldi. Ustoz uni bu qiyin ahvolda ko'rib, shunday dedi:

– Ey farzand, ehtiyoj tufayli unga emas, aslida, senga iloj topdim. Sen yana oshiqsanu u mahbubangdir. U yana seni shaydo aylagan yoring bo'lib qoladi. Ammo bu xil oshqlik, ey tushkunlikka uchragan kishi, pok ishq ahli oldida yatlidir!

CXI

Yana bir qushning Hudhuddan savoli

Yana bir savol beruvchi fig'on tortib, dedi:

– Ey, yashirin sirlarni biluvchi! Men bu yo'lda o'lib qolishdan qo'rqmoqdaman. Manzilga yetib bormasdan burun jon taslim etishim mumkin. Bu xil ulkan xavf qarshisida qanday bardosh bera olaman?

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

– Ey, xasta dilli ojiz! O‘ylab ko‘r, bu olamda abadul-abad qola olmaysan-ku. Kimki bu dunyoga kelgan bo‘lsa, oqibat etak silkib ketadi, ko‘ksi ajal tig‘idan yoriladi. Ma‘rifat ahli shuni isbotlaganki, bu jonli hayot oxir o‘lim bilan tugaydi. Faqat orif bo‘lmagan beaql kishilargina har bir kishi boshida muqarrar sodir bo‘luvchi bu voqeadan bexabardir. Agar jahonda ming yil yashasang, yoki bir zum umr ko‘rsang, baribir, ajal senga omonlik bermaydi. Avliyo ham bu girdobdan qochib qutulmaydi, payg‘ambar ham bu quyundan xalos bo‘lmaydi. Kishi qanchalik vahimaga tushmasin, qanchalik qayg‘urmasin, bari bir ozod bo‘la olmaydi. Unga chap berib qutulish yo‘q; pora berib ham xalos bo‘la olmaysan, ajal xanjari o‘z jallodligini qiladi. Yig‘lasang ham, yolvorsang ham bu yo‘ldan bormaslikdan o‘zga ilojing yo‘qdir. Zohid va razil kishi ham, shohu gado ham bu yo‘lni bosib o‘tadi. Shuning uchun undan qo‘rqish kishiga hech bir foyda keltirmaydi, balki ortiqcha tashvish chekkani qoladi. O‘lmoqlikdan boshqa iloj yo‘q ekan, uning farmoniga bo‘ysunmoq yaxshiroqdir.

CXIII

Hikoya

Naql qiladilarki, yuksaklik cho‘qqisining yulduzi, ulug‘ elchi Sulaymon payg‘ambar kunlardan bir kun taxt ustida dam olib o‘tirar edi. Dev va parilar uning farmoniga ilhaq turishar, olamdagi barcha maxluqot: insonlar, yovvoyi hayvonlar va qushlar uning xizmatida qo‘l qovushtirgan edilar. Bularning bariga uning farmoni o‘tar, barchasi uning ehsonidan umidvor edilar.



Oldida bir oqil odam xomush turardi. Shunday holatda payg'ambar qoshiga bir malak uchib keldi. U falak jallodi – jon oluvchi Azroil edi. U payg'ambarga ta'zim va salom bajo keltirgach, shunday arz qildi:

– Ey, karamli kishilar faxri! Ilohiyot hikmati nihoyatda maxfiy bo'lib, undan aql hayratga tushadi. Oldingda turgan mana bu aziz kishi o'lishga hukm etilgan. Umrining paymonasi to'lib, yuqoridan hukm keldi, men uning yonida shu soat qatl tig'ini sanchib, Hind iqlimida uning jonini olishim kerak. Ushbu ishdan bag'oyatda hayratdaman ham dam-badam o'zimdan vahimaga tushmoqdaman.

Azroil shu so'zlarni aytaverdi, payg'ambar oldida turgan boyagi notavon kishi kelib, yer o'pdi va ko'z yosh to'kkan holda shunday dedi:

– Ey, ulug' payg'ambar! Bugun o'z holimga behad hayronman, o'lim vahimasidan benihoya parishonman. Shunday bir chora qilki, men bu mamlakatda bo'lmayin, chunki ko'zim vahimadan qorong'ulashib ketmoqda.

Shunda Sulaymon shamolga: “Uni havas qilgan joyiga olib bor! Qayerda to'xtashni istasa, o'sha yerga qo'y va ko'nglidan xijillikni daf' qil!” deb buyurdi. Shamol uni barcha a'zoyi badaniga titroq solgancha tez uchirib olib ketdi. Boyagi kishi shamolga Hindiston tomonga uchishni ishorat qildi va o'sha yerga yetgach, undan nariga o'tmadi. Va shunday dedi: “Shu yerda menga dam ber, chunki bu yer menga yoqib qoldi”. Shu so'zlarni aytib, suvori pastga tushdi, uning tez uchuvchi oti – shamol o'z yo'lida davom etdi. Shu payt bu yerga Azroil yetib keldi va Tangri qudratiga ko'p ofarinlar aytib, uni marhumlar safiga qo'shdi. Kimdakim shamol bilan birga yelib-yugursa ham uning jonini olish Azroilning ishidir.

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

– Ey, zoti pok! Men umrim boricha tirishdim, ammo maqsadimga yeta olmadim. Ko'rgan-kechirganim g'amdan iborat bo'ldi. Bu yo'ldan boruvchi dunyo mashaqqatlarini kam tortgan xurramdil odam bo'lishi kerak. Ammo meni tirikchilik tashvishlari g'amgin qilib qo'ygan. Jonim har doim bir g'am bilan jarohatlanadi. Qaysi ko'ngilxushligim bilan bu yo'lni bosib o'tay, axir? Ko'ngli xushlar boradigan joyga men bora olamanmi?

CXV

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

– Ey, g'amgin tabiatli! Qismat sening zotingga g'amni bahona qilib ko'rsatishni yozibdi. Bu vodiyni bosib o'tish uchun, shubhasiz, haqiqiy erlar g'amga yo'l ozig'i deb qaraydilar. Yo'l g'amini chekish mard kishilarning ishidir. Yo'lda g'amsiz kishini kishi deb atamaydilar. Mardlar g'amginlikdan shod bo'ladi, bu xil tutqunlik ular uchun ozodlik bilan teng. Mashaqqat ostida yotgan bu jahon boshdan-oyoq g'am manzilidir, unda har bir toifadagi kishi biron-bir g'amga muhtalodir. Olam ahli ko'nglida g'ami bo'lsa, muhimi odamlar g'amidir. Ammo tariqat ahli yo'l g'amidan doimo hazir bo'ladilar. Agar kishilarga avvalgi g'am, ya'ni olam g'ami man etilgan bo'lsa, odamiylik uchun keyingi g'am – odam g'amini yeyish maqsadga muvofiqdir. Bordiyu sen burungi g'am qo'lida xoru zorlik tortgan bo'lsang, ey mahzun, bu yo'lga kirib, o'zingni xursand qil. So'nggisidan hazin bo'lsang, shod bo'l, chunki ko'ngil undan obod bo'ladi.

Ishq ahli g'amdan shod bo'ladi, negaki nomurod bo'lmoqlik ular uchun ayni murodning o'zidir. Murodu



maqsadiga yetishmoq uchun yo'l g'amini chekish kerak, faqat shu g'amgina ko'ngilga najot bag'ishlaydi. Kimda bu g'am yo'q ekan, u er kishi emasdir. Chunki g'am ozuqasi bilangina bu yo'lni bosib o'tish mumkin.

CXVI

Hikoya

Misrda bir oliy himmatli kishi bo'lib, u ma'no olamining sohib davlati edi. Unda aysh-ishrat qilish uchun barcha narsa tayyor edi. Bu borada nimani o'ylagan bo'lsang, unda bundan yuz marta ortig'i bor edi. U jannatmakon qasr ichida manzil tutgan bo'lib, hurlar kabi go'zal bir mahbuba bilan ulfat edi. Lekin u oliy sifatli pok zot bularning birortasiga iltifot qilmasdi. Hajr zindonda qolgan Yusuf kabi unga ham doimo dard va g'am chekish xos edi.

Undan so'radilar:

– Ey, ko'ngli qayg'uga sherik bo'lgan pok zot. Bizga bu yashirin siringni ravshan et! Senda shuncha ko'ngil ochuvchi shodlik asboblari muhayyo bo'la turib, nechun xotiring xurram emas? Nechun g'amdan o'zga narsani ko'ngling pisand etmaydi.

U shunday dedi:

– Yo'l ahli uchun bu jahon zindondir, chunki uning istagani ko'zdan yashirin. Asosiy ish shuki, inson ko'ngil istaganiga yetishga qadar barcha yo'lni bosib o'tishi lozim. Zindonda ham kishi xurram bo'ladimi?! Kishi g'amxonada beg'am o'tira oladimi? Men haqiqiy yorimdan⁴⁴ ayriliqda armon chekaman, shuning uchun garchand Eram bog'ida bo'lsam-da, o'zimni zindonda deb hisoblayman. Uning vasli gulzoriga yetishmagunimcha g'am-tashvishidan xalos bo'la olmayman.

⁴⁴ Xudo ko'zda tutilgan.

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

- Ey mislsiz zot! Men Haq amrini bajo keltiruvchiman. Men uning farmoniga doimo muntazirman, bundan u qahr qiladimi, ehson ko'rsatadimi, men uchun baribir. U har qanday ish buyursa, men uni ado qilaman, rad etsa ham, qabul qilsa ham uning o'zi biladi. U nima buyursa, yozu qish o'shani bajaraman, rad yoki qabul qilishi bilan mening ishim yo'q. Mening odatim amriga itoat etish bo'lib, uni ado qilsam, o'zimni baxtiyor deb bilaman.

CXVIII

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

- Bu so'zlaring yaxshi, ammo bu haqda sening o'zing aytmay, balki sen haqingda boshqalar so'zlaganida yanada yaxshiroq bo'lar edi. Chunki doimo barhayot Haq kishilar uchun bu yo'lda kamolotga erishmoqni nasib etgan. Kimki uning farmoniga itoat qilib, uni bajarsa, bu yo'lda uning martabasi ulug' bo'ladi. Kimki uning amridan bo'yin tovlasa, u rad etilib, uning izzatli qasridan uzoqlashtiriladi. Uning farmonini bajaruvchi esa kelajagi qutlug', maqbul banda sanaladi. U Alloh amriga itoat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va busiz bir soniya ham oromi bo'lmaydi.

Biroq har qancha itoat qilib, uning amru hukmi bilan toat-ibodat qilsa va o'zining bu ishi bilan faxrlanib maqtansa hamda kibru havoga berilsa, bundan joniga ofat yetadi. Uning ertayu kech qilgan ozu ko'p barcha toat-ibodati, boriyu yo'g'i - hammasi hech bo'ladi.

Kimki o'zining qilgan ishlarini ro'kach qilmasdan, uning oldida boru yo'g'ini teng tutsa va manmanlikka berilmasa, hamda qilgan toatlarini bir qora chaqadek



deb bilsa, u kishi baxt-saodat ko'chasiga kiradi va o'z taqvo hamda ibodatlaridan naf' topadi. Bunday kishi o'z toat va taqvodorligi mevasini totib, bu ish ma'nosidan bahramand bo'ladi.

CXIX

Hikoyat

Tangri Odamni yaratmasdan ilgari, uning tanasiga ruh shamini kiritmasdan burun barcha farishtalar toat va taqvoga ruju' qilib, uning odob va rusumlarini bajo keltirishar edi. Ularning barchasiga Azozil⁴⁵ boshliq edi. U bularning mushkullarini oson qiluvchi murshid edi. U Haq amriga itoat qilib, necha ming yil toat-ibodat bilan mashg'ul bo'ldi. Uning bu borada qilgan ishlarini tavsiflashda nutq lol qoladi, hatto aql bilan tasavvur qilish ham amrimahol. Naql qilishlaricha, butun yer yuzasi va koinotdagi to'qqizta oliy falakda u sho'rlik sajda qilib yuz qo'ymagan birorta bo'sh joy qolmagan emish.

Tangri Odamni yaratdi va uni o'ziga ma'shuq etib, o'zi unga oshiq bo'ldi. Barcha insonlar ichida eng yaxshisi hisoblangan Odamga hamma maloikalar sajda qilsin deb buyurdi. Farishtalarga shunday amr etilgach, ular hazrati Insonga sajda qildilar.

Biroq necha ming yil ibodat qilib, uning amri bilan taqvo va toat aylagan Azozil⁴⁶ g'ururlanib, Odamni pisand etmadi va unga sajda qilishdan bosh tortdi. Shu boisdan Tangri maloikalar to'dasi ichidan uni rad etdi. Ko'nglidan ibodat zavqini chiqarib olib, bo'yniga la'nat tasmasini bog'ladi. Uning necha ming yil qilgan ibodati zoe' bo'lib, o'zi Haq dargohidan quvildi.

⁴⁵ Shaytonning boshqa bir nomi.

⁴⁶ Shaytonning asl nomi.

Shuni yaxshi anglagilki, Iloh bu yo'lda faqat o'zini o'ylab, manmanlikka berilishdan ham ortiqroq gunoh yo'q deb hisoblaydi. O'zni ko'rmoq – toatni ko'rmoq bilan teng bo'lib, qilgan ishlarini ko'ngliga keltirish – minnat qilish demakdir.

CXX

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi shunday dedi:

– Ey sarafroz! Kimki haq yo'lida pok oshiq bo'lsa, uning foydasi nimadan iborat bo'ladi? Bu menga yashirin qolmoqda, shuni sharh etib bersang. Chunki men bu yo'lda poklikka erishdim. Ojizona sig'inib, shunga muyassar bo'ldim.

CXXI

Hudhudning javobi

Hudhud dedi:

– Bu ish mushkul bo'lib, Tangri kimning yori bo'lsa, o'shaning ishi oson ko'chadi. Har bir oliy tabiatli kishi bu davlatni qo'lga kiritrsa, bu yo'l uchun undan ortiqroq ozuq yo'q, ya'ni bu yo'lning ozuqasi ozuqasizlikdir. Kishi har qanday ozuqqa bandi bo'lishdan ozod bo'lmog'i lozim.

Lekin uning sharti shuki, agar bu yo'lga kirgan kishi boshdan-oyoq toat va zuhdini, foyda va ziyonini, boru yo'g'ini – hamma-hammasini jam etib, Haq yo'lida fano o'tida poklasin va o'zi zavq bilan ularni kuydirib, kulga aylantirsin. Bu kulni boshdan-oyoq havoga sovurib, ulardan hech asar qoldirmasin.

So'ngra ko'ngliga fig'on shamoli, balki bu chaman sari ko'klam shamolini esdirib, qilgan barcha ishlarini mutlaqo ko'nglidan chiqarib tashlasin. Nimaiki ish qilgan

bo'lsa, hammasi ko'nglidan chiqib ketsin. U o'z vujudini shu tariqa yo'q qila olsa, bu yo'lga qadam qo'ysa bo'ladi.

Aytadilarki, agar u yaxshi voqif bo'lsa, bu yo'l bir qadamdan iboratdir. Bu qadam yo'g'u borini hech bir asar qoldirmasdan yoqib yuborish demakdir. Bu qadam qo'yilgach, u matlubga yetishadi, judolik o'rtadan ko'tarilib, mahjubga qovushadi.

CXXII

Hikoya

Shoh Ibrohim ibn Adham⁴⁷ degan kishi bor edi. Uning ishi bu yo'lda taslim bo'lishdan iborat edi. U haq yo'lida din murshidi bo'lib, sadoqatli oshiq va pokiza inson edi. Bu yo'lda u mulki, taxti va mamlakatini tikib, boshidagi tojini tark etdi. Yuz ming iltijo bilan egniga janda kiydi.

Halol oshiq bo'lgan bu rind safarga chiqdi. Balxdan Nishopur tomon yo'l olib, u yerni qarovsiz qoldirib, bu yerni obod qildi. Gavhar kabi o'sha konda – shaharda maskan tutib, yetti yil bir tog'da yashadi. Bu yerda u kunduz kunlari ro'za tutar va shomdan to azongacha ibodat qilardi. Kunduzlari vodiydagi o'tin va xaslarni bir quchoq qilib bog'lar edi. Uni yelkalab, bozorga olib borib sotar va tushgan pulga shom uchun iftorlik olar edi. Shu tarzda ko'p riyozat chekish oqibatida, jismi qiltiriqday bir holga kelgan edi.

Kunlardan bir kuni u o'tin orqalab, azob-uqubat chekkancha shaharga borayotgan paytda bir guruh maslakdoshlar uning tariqatda nimaga erishganini imtihon qilish uchun yo'lini to'sdilar. Ulardan biri uni bir musht urdi. Shunda faqirlik va yo'qlik yo'lga kirgan kishi ularga shunday dedi:

⁴⁷ Ibrohim ibn Adham – shohlikdan voz kechib, tasavvuf yo'lini qabul qilgan balxlik mashhur shaxs, 777 yilda vafot etgan.

- Siz istagan narsa Balxdan buyoqqa yo'lga tushganimda o'sha tomonda qolib ketdi!

Imtihon qiluvchilar: "Hali yetilmagan ekan, bu o'tin ostida hanuz xom ekan. Chunki Balx hali ham uning yodidan chiqmabdi. U yana bir necha yil shunday mashaqqat chekishi zarur, zora mamlakati uning xayolidan ko'tarilgay", - deyishdi.

Oradan bir yil o'tdi. Yana o'sha ikki-uch kishi uni sinamoqchi bo'lib, yo'lda ketayotgan holda uchratdi. Ular imtihon shartini bajo keltirib, unga bir musht tushirdilar. Ammo bu safar Ibrohim Adhamdan hech bir sado chiqmadi. Bu holni ko'rgan imtihon qilguvchilar uning dodiga yetib "U endi o'z maqsadiga erishibdi, endi o'z maslagida kamolga yetibdi", dedilar. Shukrlar izhor qilib, o'zlarini unga tanishtirdilar. Keyin ular bir-birlariga hamdamu hamkor bo'lib, Ka'ba ziyoratiga jo'nadilar. Shundan so'ng shohga shohlik yo'qoldi, maslakdoshlar ham bundan ogoh bo'ldilar. Uning ko'nglida o'zga yodi bo'lganda, ilohiy sirlarni bilishga parda tortilardi. G'ayr yodi ko'nglidan batamom yo'qolgach, parda ko'tarildi, u uyning to'riga yo'l topdi. Kimki, ana shu xil yo'qlikka erishsa, ey yengil-yelpi havas egasi, bilgilki, uni chin oshiq deb ataydilar!

CXXIII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

- Ey hushyor! Men behad baland himmat egasiman. Agar yuqori himmatli bo'lishlikning kishilarga nafi bor ekan, unda menga ham biror foyda oshkor bo'lmog'i kerak. Men o'zim zaifmanu, ammo himmatim nihoyatda ulkan. Ma'nolarning mag'zini chaquvchi bu ma'nida nima deydi?

Hudhudning javobi

Hudhud unga shunday javob berdi:

- Agar bu da'vong chindan ham rost bo'lsa, undan ushbu yo'lda ko'p naf' topasan. Agar kambag'al kishilarning himmati baland bo'lsa, shunga yarasha izzat va martabalik bo'ladi.

Agar himmat bir gavhar bo'lsa, insonni sadaf deb hisobla, bu sadafga asl sharaf o'sha gavhar tufaylidir. Agar kishida himmat bor bo'lsa, unga taxt va amalning keragi yo'qdir, mulk va mol-dunyo ham uning ko'ngliga yoqimli tuyilmaydi. Kimning naqd molu mulki bo'lmasa ham himmati bo'lsa bas, shuning o'zi uning uchun katta davlatdir. Zotan, himmati baland kishi har qanday ishni bajara oladi. Himmat haqiqiy er kishini e'tiborli qiladi, bunga mansab, mulk va xazinaning hech bir daxli yo'q. Agar insonda mol-dunyo bo'lsayu, himmat bo'lmasa, u aqlli kishilar nazdida hech qanday obro'-e'tibor topa olmaydi. Kimki, oliy himmat egasi bo'lsa, bu xislati unga iqbol ato etadi. Agar shohga Xudo past himmat ato qilgan bo'lsa, unday shohdan oliy himmatli gado yaxshiroqdir. Agar shoh himmat bobida past bo'lsa, u himmatli gadodan mag'lub bo'ladi.

Insonlardagi go'zallik himmat tufaylidir, yomon nafsning jazosi ham himmatdandir.

Past himmatli baland baxt topsa ham, u tog'lik tole'i past kishidek qadri bo'lolmaydi. Yollanma cho'pon mingta qo'yni boqqani uchun ma'lum haq olib, qo'ylarga posbonlik qiladi. Agar bo'ridan bu qo'ylarga xavf-xatar yetishsa, bunday cho'pondan bir it yaxshiroq! Xazinasi boru himmati yo'q kishi ana shu cho'ponga o'xshaydi. Uning xazina qorovuli va qo'yga qo'yilgan cho'pondan farqi yo'qdir. Oqibatda bir rind tabiatli himmatli kishi

bu boylikni qo'lg'a kiritib, ularni bir gadoga hadya qilib yuboradi. Agar rind haqiqiy himmat va karam egasi bo'lsa, uning uchun butun bir xazinani hadya etish bir pulni xarj etishdek oddiy bir ishdir.

CXXV

Hikoya

Hikoyat aytuvchilar o'z asarlarida himmatli kishilar haqida shunday naql yozib qoldirganlar: qiyomat kuni har kim o'z qabridan bosh ko'tarib chiqar ekan. Taqvodor ham, buzuqi ham, gado ham, boy ham mahshar tomon yo'l olar ekan.

Bunda oliy maqomli murshid bo'lgan Jom Shayxi⁴⁸ mast Zinda Pil⁴⁹ kabi qadam tashlab, do'zaxda yotgan kishilarga ibrat ko'zi bilan bir-bir nazar solibdi. Qarasa, odamlar turli qiynoq va azoblarga duchor etilgan ekan, bundan uning himmat dengiziga iztirob tushibdi. U Tangriga kishilarni bu xil mashaqqatdan xalos qilmoq uchun shunday munojot qilgan ekan:

– Ey Iloh! Barcha do'zax ahlini: xoh u keksayu yosh, xoh u yuqori yoki quyi tabaqa vakili bo'lsin – barchaning qilgan gunohidan o'tgil! Ularni yorlaqab, marhamat ko'rsat va hammasini do'zaxdan ozod qil! Bu ishni qilish sen uchun oson, ularning boru yo'qligi senga, baribir.

Bunga rozi bo'lmasang, menga shunday jism ato etgilki, u bilan butun do'zaxni to'ldirib yuboray. Agar maqsading odamlarga azob berish bo'lsa, u holda bu notavonlar o'rnini, mayli, men egallay!

Yuksak himmat egasi bo'lgan olijanob rind shafolat kunida Haqqa shunday xitob qilar ekan.

Kimki bunday himmat egasi bo'lsa, unga buning evaziga shunga loyiq mukofot hadya etiladi. Himmat

⁴⁸ Yirik fors-tojik mutasavvuf shoiri Zinda Pili Ahmadi Jom (vafoti 1141-y).

⁴⁹ Ahmadi Jomning laqabi, "Tirik fil" ma'nosini bildiradi.



humoyi o'z qanotlarini yoygach, undan yuz tuman ming xalq najot topadi.

CXXVI

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

– Ey, pok sayr etuvchi, kishida insof bor bo'lsa, buning yaxshiligi nimada? Haq menga insofli bo'lishni qismat etib, jonimga ana shunday ne'matni ozuqa qildi. Agar kishida shu xil sifat bo'lsa, u Tangri huzuriga yetisha oladimi?

CXXVII

Hudhudning javobi

Hudhud shunday dedi:

– Bu yaxshi gap. Bu odat hamma kishilar oldida e'zozlanadi. Odam uchun yaxshi sifatlar ko'p, ammo ular ichida eng sharaflisi insofdir. Kimningki insofi yo'q ekan, u inson sanalmaydi. Kishining fe'l-atvorida insofsizlikdan ortiq nuqson bo'lmaydi. Bu sifat haqiqiy mardlarning ishidir, har qanday kishi ham unga yetavermaydi. Noinsof kishi – odam emas. Odam insof tilamaydi, ammo beradi. Haqiqat ahli kishilardan insof talab qilmaydi, chunki ularning o'zi insof egasidir. Agar kimki o'zi insofli bo'lmasdan, o'zgan insof talab qilsa, u haqiqiy noinsofning o'zginasidir.

CXXVIII

Hikoyat

Porso⁵⁰ laqabi bilan tanilgan oliy nasabli dinparvar Xoja Muhammad Makkani ziyorat qilmoq uchun islom Ka'basi tomon yo'lga chiqdi. Xoja Abu Nasr⁵¹ uning

⁵⁰ Porso – buxorolik mashhur shayx Xoja Muhammad Porso, Bahuddin Naqshbandiying shogirdi. 1419-yilda vafot etgan.

⁵¹ Xoja Abu Nasr – Xoja Muhammad Porsoning o'g'li 1460-yilda olamdan o'tgan.

xizmatkori, xodimi, farzandi va eng yaqin kishisi edi. Ular maqsadga musharraf bo'lgach, buning uchun Allohga shukrona bildirdilar. Har nimaki farz bo'lsa, bajardilar. Maqsad – xalqning hajini duo orqali qabul ettirish edi. Xalq hamjihatlik bilan bu ishga Xoja Muhammad Porsoni munosib deb topishdi. Olti yuz ming Haqni tanigan yo'lovchilar Xojaga bu iltimosni qilishdi.

“Qudsiya” va “Faslul-xitob” kabi asarlarning sohibi bo'lgan Xoja Muhammad Porso ahliga qarab shunday javob berdi:

– Menga bu ishni bajarishni topshirgan ekansiz, men aytganlaringizdan tashqariga chiqmayman. Ammo bu ishni bajaruvchi kishi, hech shubhasiz, fazlu kamolda yuksak va insof olamida yakkayu yagona bo'lishi kerak. Shuning uchun bu vazifa menga emas, balki Abu Nasrga munosibdir. Yaxshisi, asr kishilari haqiga u duo qila qolsin.

Xoja Abu Nasrni shunday ta'rif bilan elning duosini o'qishni unga taklif qildi. U ko'rsatgan bu insof va ehsonni kishilarning hammasi sidqidillik bilan qabul etishdi.

Xoja Abu Nasr minbarga chiqib, el haqiga duo o'qidi. Xalq hojatini chiqarish uchun Tangri oldida munojotlar qildi. Xoja esa minbar pastida chin dildan uzluksiz “omin” deb turdi.

Duo oxiriga yetgach, minbar ustidagi kishi shunday dedi:

– Ey, qudratli Alloh! Agar mening duolarim mustajob bo'lmasa, pastda turgan kishining “omin”ini zoe qilmagil!

Bu so'zlarni eshitgan olti yuz ming kishi faryod chekib, kattayu kichik zor-zor yig'ladi. Odamlar ularga ofarinlar aytib, ham otasi, ham o'g'li insofiga qoyil qolishdi.

Shunday qilib, inson uchun insofdan yaxshiroq sifat bo'lmaydi, buni faqat ma'rifatsiz kishilargina anglamaydi.



CXXIX

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

– Yig'in orasida bandasiga adabsizlik qilish ravomi? Sidra daraxti shoxiga oddiy bir qush kelib qo'nsa, bu xatti-harakati bilan burgut jur'atini namoyon etsa, natijasi qanday bo'ladi? Yo bu takabburlik deb hisoblanadimi?

CXXX

Hudhudning javobi

Hudhud dedi:

– Bu savolingga javob berishda ikki holatni ko'zda tutmoq kerak: kimki shohga beadablik qilar ekan, u bu dargohning o'z maxsus kishisi bo'lmog'i lozim. U o'zlik bandidan xalos bo'lib, "o'z"ga "u"lik bilan mansub bo'lmog'i kerak. Shunda bu har qanday so'z aytsa u degandek bo'ladi, ya'ni "bu"lik va "u"lik o'rtadan ko'tariladi. Chetdan qaraganda bu garchand o'rinsiz jur'atdek tuyulsa-da, lekin ma'no yuzasidan u vahdat – birlikni bildiradi.

Yoki kishi ishq savdosida past, ham oshiq, ham oshufta va mast bir majnun holatida o'z ixtiyori bo'lmasin. So'zlarida maqsadi kibru qaysarlik bo'lmasa ular faqat muhabbatdan iborat bo'lsa, unga loyiq keladigan narsa yo'q. Bunday kishi Haq bilan mutlaqlikka erishadi-da, Haqdan o'zga so'zni aytishga tili bormaydi.

CXXXI

Hikoya

Bir oliysifat devona kishi bor edi. Xalq unga "Majnun al-haq" ("Haq yo'lidagi devona") deb laqab qo'ygandi. Chunki Haq yodi unga mahbub, tun-kun bu yod ila mag'lub edi. Biror so'z aytmoqchi bo'lsa, doimo Haqqa xitob etar, javobini ham Haq tilidan berar edi.

Bir bahor ayyomida u – Ka’bani ziyorat qilish niyatida safarga chiqdi. Yo’lda ko’p mashaqqat tortdi, bundan jismi ozor topdi. U mingan ulov ham g’oyat zaif edi.

Atrofga qorong’ulik tushib, yomg’ir yog’a boshladi. Devona endi yo’lni davom ettirish qiyinligini bildi. Shu yaqin o’rtadagi bir vayrona joyni ko’rdi va eshagidan tushdi. Eshagini Hudoga topshirib: “Ey Tangrim, eshakdan xabardor bo’l!” – dedi.

Ulovini tashqariga qo’yib, o’zi vayrona ichiga kirdi. Birozdan so’ng uyqu g’olib kelib, boshi ostiga bir kesak qo’yganча ko’zi uyquga ketdi. Eshak tashqarida qoldi.

Devona uyquga ketgach, bahor bulutlari sharros quya boshladi. Vayrona ichiga har yondan tomchi o’tib, telbaning uyqusini o’chirib yubordi. U o’rnidan turib, yomg’ir tinishini vayronada kutdi. Nihoyat, yomg’ir tinib, eshagini yo’rg’alatish uchun telba tashqariga chiqdi. Qarasa, eshagi yo’q! Bundan u behad iztirobga tushib, Tangriga g’azab bilan xitob qila boshladi:

– Men senga eshagimni topshirib edim, sen esa menga bag’oyat yaxshi karam ko’rsatib, uni qoyil qilib asrading! El sening mehmonligingga bormasin ekan, eshagini vodiya qo’yib yubormasin ekan. Sening ixtiyoringga topshirsa, sen esa beparvolik ko’rsatib, g’aflatda unga qarashni unutib qo’ysang?! Eshagimni asramoqni o’zingga or bilib, qorong’u tunda uni ko’rinmaydigan qilib qo’yding!!!

Telba achchig’langancha g’o’ldirab, yo’qolgan eshagini pastu balanddan qidirardi. Shu payt juda ravshan bir chaqmoq chaqilib, butun olamni nurga to’ldirib yubordi. Qarasa, eshagi xas-xashakka og’iz urib o’tlab yurgan ekan. Telba uni ko’rib, quvonib ketdi va eshagiga minib yana yo’lga tushdi. Qahridan tushib, Haqni endi lutf bilan alqay boshladi:



- Ey mening jismimdagi jonim xudo, balki senga yuz jonim fido bo'lsin! Sen o'shanda eshagimga qaramay, ko'zdan yashirib, bo'yniga arqon bog'lamagan eding. Shu vajdan menda beqarorlik yuzlandi, qahrim bilan senga oliftalik qildim. Chunki men eshakni senga topshirgan edim-da, sen esa omonatni menga topshirishda hayallading. Ammo meni g'amgin holda ko'rib, tadbir ham topding. Chorasozlik qilib, chaqmog'ingni chaqib, ko'z yoritar mash'alingni yoqding. Ko'zimga eshagimni ko'rsatib, lutfu inoyat qilding.

Garchand men sening bu ishingdan g'azablanishga haqli bo'lsam ham, lekin sen ham juda ziyrak ulfat chiqding. Holatimni bilib, g'oyibimni hozir qilding. Bu bilan sen aytgan gaplarim uchun meni majolsiz bir holga solding, sharmandai sharmisor etding.

Sen nima ish qilgan bo'lsang, yarash uchun men tamoman unutdim. Sen ham o'tgan ishni unut. Men seni hech qachon xijolatga solib qo'ymayman. Sen ham meni uyaltirmagin. Men seni bu voqeada afv etdim, sen ham endi mendan ko'nglingni sof tut!

Devona shu so'zlarni aytib, har dam o'zini o'zi maqtar, Xudoni ham alqab qo'yardi. Telba aytgan bu so'zlar garchand nomaqbul bo'lsa-da, muhabbat tufayli sodir bo'lgani uchun maqbul edi.

Agar har bir majnun Xudoga shuningdek, sir aytsa, u beibolik va erkalik qilmog'i mumkin. Chunki bunday kishilar Tangriga suyuklidir. Suyukli kishining esa har bir qilgan ishi yoqimlidir.

CXXII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi dedi:

- Ey yo'l kezuvchi! Men o'zganidan butunlay ozod va xoli bo'lganman. Tangri xayoli bilan o'zimni doimo

xush tutaman, zora bir kun uning visoliga yetsam, deyman. Men undan shu tariqa bir nafas ham ayriliqda bo'lmaganim holda, qani ayt-chi, nima uchun u tomonga safar qilishim kerak.

CXXXIII

Hudhudning javobi

Hudhud unga shunday dedi:

– Sening bu so'zlaring quruq da'vodan iboratdir. Ularning ma'no bilan hech qanday aloqasi yo'q. Hech bir kishi o'zini madh qilib, bunchalik lof urmaydi. Buni qara-ya: sen shuni bilki, oyu yil mashaqqat chekib, o'z-o'zingni muttasil maqtamoqdasan.

Sen, Haq bilan bir butunman, bu uning uchun ma'qulmi yo noma'qulmi, deding. Ammo sen bu gaplarni aytganing bilan rost gapirgan bo'lmaysan. Uning oldida qanday holat bo'lishini ham bilmaysan. Sen bu xil quruq da'vodan lof uraverma. Chunki Unga bu so'zlaring hali ma'qul kelish-kelmasligi ham noma'lum. Sen nima degan bo'lsang, U bunga e'tibor qilmaydi. U nimani lozim ko'rgan bo'lsa, shuni mo'tabar tutmoq kerak. Agar U inoyat qilib so'zlaringni qabul qilmasa, har qancha quruq gap aytganing bilan foydasi yo'q. Bu xil bema'ni so'zlarni aytgandan ko'ra, Uning lutf va ehsoniga ko'z tikkan avlodir.

CXXXIV

Hikoya

Shayx Boyazid Bistomiy sirlar xazinasining pokdomoni va ma'ni ahli mamlakati taxtidagi yirik alloma edi. U bu dunyoni tark etdi va narigi dunyoning jannatmakon yerida bazm qurdi. Bir kun bir muridi uni tushida ko'rib, so'radi:



- Ey, Allohga yaqinlik mayidan sarxush bo'lgan zot! Hayot bag'ishlab, adolat ko'rsatuvchi Tangri senga nima qildi? Bizga holingdan xabar ber. Sendan ayriliqda ko'p alam chekdik, o'z ahvolingni aytib, bizlarni tinchlantir.

Komil murshid unga shunday dedi:

- Lahad ichi makon bo'lgan zamon so'roq qiluvchi farishtalar hozir bo'ldilar. Ular mendan: "Sening yaratuvching kim va abadiy murabbiyning kim?" deb so'radilar.

Men dedim: "Bu so'zni mendan so'rmang, agar savollaringizga javob bermasam, aybga buyurmang. Yaxshisi, Unga borib, so'rab ko'ring-chi, menga bandalik qilishga yo'l berarmikan? Agar U meni o'z qulligiga qabul etsa, shuning o'zi sizlar uchun javob o'rnida o'tadi.

Chunki siz meni Uning dargohida banda deb anglang, iqbol va yuksaklik taxtining quli deb biling. Agar u meni qabul etish baxtidan noumid qilsa, hajrida mudom ovoraman. Unda meni rad etilganlar qatorida deb biling va ko'nglingiz nimani istasa, o'shani qiling!"

Ular mendan o'z savollariga shunday javob olgani ondayoq yuqoridan oliy xitob keldi: "Ey, savol beruvchilar! U mas'uliyatli so'zlar aytdi va bu bilan bizning eng yaxshi, maqbul bandalarimizdan ekanligini isbotladi".

Xullas, uning nuriga ko'z ravshan bo'lmaguncha, o'z aytganimiz bilan so'zining rost bo'lib chiqmaydi.

CXXXV

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi dedi:

- Ey, rafiq! Men kamolot dengizida g'arq bo'ldim. Nafsdan kamolotga erishib, undan dilim istagan maqsadga muyassar bo'ldim. Bu yerda murodim hosil bo'lgan ekan, yo'l azobini tortmoq men uchun mushkuldir.

Hudhudning javobi

Hudhud shunday dedi:

- Ey, maqsadi nafratlanishga loyiq! Ko'nglingga g'aflat johillik va g'urur solibdi. Zero, sen o'z xayolingga mag'rur bo'lib, asl ishdan uzoqlashibsən. Sendagi bu xayol samarasiz xayoldir, balki mutlaq behuda xayoldir.

Nuqsonli kishigina o'zini komil deb hisoblaydi. O'z nuqsonini isbot qilgan kishi haqiqiy komildir. Kamolotga erishganlar o'z kamoloti haqida maqtanmaydi, aksincha, bu holat nuqsonli kishilarga xos.

Sen nuqson bobida yuqori cho'qqiga ko'tarilgansən, o'zingni olim deb ataganing bilan, aslida, johilsən.

O'z kamoloti haqida maqtanish jaholatdan o'zga narsa emas. Kimki o'zini komil deb hisoblar ekan, u, albatta, nuqsonlidir. Chunki undagi nuqson unga kamolotga erishish uchun yo'l bermaydi.

Chunki quyosh ham tush paytida o'zini barkamol ko'rib, eng yuksak nuqtaga ko'tarildim, deb o'ylaydi, ammo shu ondayoq unga zavol yuzlanadi, ya'ni u pastga qarab og'a boshlaydi. Negaki uning chindan ham kamoloti bor edi. Ammo uni o'zi ko'rgani zahotiy oq zavolga yuz tutdi.

O'zini komil deb hisoblagan nuqsonli kishi go'yo yomon odamning o'zini yaxshi kishiga nisbat etganidek bir gap. Bundaylarni tuzatish qiyin. Chunki ularning binosi kibr bilan g'ururdan qad ko'targan.

Ey notavon, shuni bilki, sen gumon qilgan kamolot sof nuqsonning o'zginasidir.

CXXXVII

Hikoya

Shayx Abu Bakr Nishopuriy⁵² ma'no mamlakatiga yo'l topganlardan edi. Bir kun u o'zining obod maskani

⁵² Shayx Abu Bakr Nishopuriy - ismi Abdullo ibn Muhammad. 853-935-yillarda yashagan. Mashhur shayx va qonunshunos olim.



bo'lgan Nishopur shahridan sayohat qilish uchun yo'lga chiqdi.

Uning shayxlik martabasi nihoyatda baland bo'lib, muxlis va xizmatkorlari g'oyat ko'p edi. Mahofa va tug' ko'tarib yuruvchilar va oliy nasabli xodimlari to'da-to'da edi. Shayx ularga shukuh bilan nazar soldi. Qarasa, oldi ham, orqasi ham – butun tevarak-atrofi son-sanoqsiz kishilar bilan o'ralgan. Bu g'urur fikri uning ko'nglidan o'tib, bir zum o'yga berildi. Xuddi shu payt bir eshak hangrab, nogahon orqasidan qattiq yel chiqib ketdi.

Bu ramz Shayxga xush yoqib, u shavqqa to'lgan holda jazava bilan raqsga tusha boshladi va o'zidan ketib yiqildi. Unda sodir bo'lgan bu holatni ko'rgan yaqin kishilari va muridlari ijirg'anib uning boshiga yig'ilishdi. U o'ziga kelgach, Shayxning bir mahrami tortinmay “Bu ne hol edi?” deya kayfiyatini so'radi.

Shayx aytdi:

– Ey, sir izlovchi o'rtoq! Menga shum nafsım hujum qilib atrofimdagi xalqni o'zimga tobe' deb o'yladim. Ko'nglimga keldiki, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchilardan, toliblar va solihlarga madad beruvchilardan na Junayd, na Shibliy⁵³, na Boyazid, na Ubayd⁵⁴, na Nuriy⁵⁵ va na Abu Said – ulardan qaysi biri bu xil obro'-e'tibor topib, tariqat yo'lida bunchalik ko'p odamlar guruhiga ega bo'lgan ekan?

Nafs mening ko'nglimga shu xayolni solgan payti o'sha eshak bunga to'g'ri javob berdi. Men undan kerakli javobni topdim. Zavq-shavqqa berilib, o'zimdən ketishimning boisi ham ana shu eshakning xatti-harakati edi.

⁵³ Sh i b l i y - yirik shayx, 945 yilda vafot etgan.

⁵⁴ U b a y d – Mashhur shayxlardan biri.

⁵⁵ Abulhusayn Nuriy – ismi Ahmad ibn Mahmud, taniqli shayxlardan 907-yilda vafot etgan.

Qizig'i shundaki, Shayxga eshak hangrab, bu xil tanbeh bilan unga to'g'ri yo'l ko'rsatsayu u bundan jazavaga tushib, behuda xayollari boshidan yel kabi chiqib ketsa! Bu ish faqat insofli kishilar qo'lidan keladi. Kimki insof egasi bo'lsa, bu ishning ma'nosiga tushunadi. Biroq har qanday mag'rur, pastkash va razil kishilar bunday ulug' davlatga yeta olmaydilar.

CXXXVIII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi dedi:

– Ey, muhtaram zot! Bu yo'lga qadam qo'yganimda, o'zimni ne mashg'ulot bilan shod etay? Agar g'am yetsa, undan qanday qutulay? Ne qilsam, ko'nglimga shodlik yetib, undan men har qachon huzur topa olaman?

CXXXIX

Hudhudning javobi

Hudhud unga dedi:

– Agar o'zingni shod ko'rishni istasang va har qanday qayg'udan ozod bo'lishni xohlasang, o'zingni Uning yodi bilan yashashga odatlantir. Agar shodlik istar bo'lsang, Uni yod qil. Uning yodidan tashqaridagi shodlik aqlga to'g'ri kelmaydi. Undan ayriliqdagi ayshu ishratdan g'am yaxshiroqdir. Bunday to'ydan aza yuz marta yaxshiroqdir. Undan g'am kelsa ham shodlik o'rnida ko'rgil, bu seni har qanday balo asirligidan xalos qiladi.

CXL

Hikoya

Xoja Abdulloh Ansoriy⁵⁶, aql u qilgan ishlarning mingdan birini ham sharh eta olmaydi, shunday degan

⁵⁶ Abdulloh Ansoriy – hirotklik mashhur shoir va shayx, 1005 – 1088 yillarda yashagan. Alisher Navoiy unga alohida ehtirom bilan qaragan.



edi: “Ko’nglixushligi va uning faqr yo’lida hurmatga sazovor bo’lishi dilda Undan o’zga, yodda Allohdan o’zga narsa bo’lmasligidir. Har bir ko’ngil shunday sifatga ega bo’lsa, uni ko’ngil deb bilgil. Yo’qsa, dengiz yoki kon bo’lsa-da, undan voz kechgil. Unga maskan bo’lgan ko’ngil-ko’ngildir, yo’qsa, gulshan bo’lsa ham gulxandir”.

CXLI

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so’radi:

– Ey, baxtiyor zot! Men uning ishqini ixtiyor etib, nogahon uning vasliga muyassar bo’lsam, undan yolvorib nima so’ray? Uning vasliga yetgan zamon avval undan nimani so’rashni bilmoqchiman.

CXLII

Hudhudning javobi

Hudhud shunday dedi:

– Ey, shiori xomlik, hush vodiysida beqarorlik bo’lib, aqlingdan ayrilibsan-da! Chunki u senga maqsadu maqsuddir, undan o’zga boru, yo’q nobuddir. Talab qilganing muyassar bo’lsa, sevikli yoring quchog’ingga kirdi deb bil. To yiroq ekansan, ko’ngling uni havas qiladi, joningga undan o’zga so’rov yo’q. Oradan firoq ko’tarilib, uning visoliga erishsang, bundan yaxshiroq nimani istaysan?! U-ku tan va jondan murod, undan o’zga yana qanaqa orzu bo’lishi mumkin? Uni topgudek bo’lsang, boshqa tilaklardan ko’nglingni uz, boru yo’g’ingni Uning ishq uchun sarf qil!

CXLIII

Hikoya

Abu Said⁵⁷ visol daryosiga g’arq bo’lgan kishilardan edi. Uni vasf etishda aql ojizlik qiladi. Uning sha’niga

⁵⁷ Abu Said Harroz -- ismi Ahmad binni Iso mashhur shayxlardan, 899-yilda

Xarroz – mahsido‘z laqabi nisbat berilgan, kecha-kunduz qiladigan ishi matlub Alloh bilan sirdosh bo‘lish edi.

Bir kun Makkada duo vaqtida bir guruh kishilar Haqdan murod istamoqqa mayl qildilar. O‘sha avliyosifat kishilar Haq sirlaridan ogoh bo‘lib, taqvo va toatibodatlar bilan Haqni istab munojot qilishar, barchalari u dargohga oshno bo‘lmoq uchun yuzlarini Ka‘baga surtar edilar.

Lekin haqiqat xazinasining siri va vasl bog‘i gullarining gulshani bo‘lgan Abu Said bu paytda talabgorlar ichra xomush, ko‘ngli birlik qadahidan behush edi. El duo o‘qiyotgan paytda nogoh ularga qarab, og‘ziga shu so‘zlar kelar edi:

– Iloho! Xalq har nimaniki talab qilayotgan bo‘lsa, men mashaqqat chekmasdan topishga erishdim. El seni o‘ziga matlub deb, senga yetishmoqni istaydi. Men esa Seni allaqachon topganman. Bu holatim bilan go‘yo Seni qidirishdan ko‘z yumgan kishiga o‘xshayman. Men Sendan bir nafas ham ayriliqda emasman, zotan, topilgan narsani orzu etish bema‘nilikdir. Men-ku vasling bilan maqsadimga erishganman, bu talabgorlarni murodiga yetkazgil!

CXLIV

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi dedi:

– Ey, bilimdon! Bu safar ko‘nglimizni jarohatladi. Endi yo‘l yurib shoh bazmiga oshno bo‘lsak, aytgandek, unga behad nafis bir sovg‘a ham olib borishimiz shart. Shohga qanday sovg‘a ma‘qul kelarkin, shundan bizni ogohlantirsang.

Hudhud dedi:

– Sening bu savoling juda ham o‘rinli. Darhaqiqat, shohning oldiga biron sovg‘a bilan borilsa, ko‘ngildagidek ish bo‘ladi. Sovg‘a qilish uchun shunday bir narsa topish kerakki, u nihoyatda noyob, la‘lu toza durdan ham qimmatbaho bo‘lsin.

Ammo u xazinada qimmatbaho narsalar shunchalik behisobki, ularning oldida bu duru gavharlarga yo‘l bo‘lsin? Qimmatbaho narsalar deganimiz bu malaklarning toatu taqvolari, o‘zini pok tutuvchilarning sharofatli nafaslaridir. U yerda zohid kishilarning ibodati ko‘plab topiladi. Taqvoyu toat javharlari u yerda bisyordir. Payg‘ambarlar chekkan riyozatlar ham, avliyolar qilgan ibodatlar ham u yerda behisob. Bu yerda sharafiga loyiq bo‘lgan narsalar u yerda tuproq bilan teng turadi.

Lekin u yerda eng yaxshi sovg‘a faqat yonish va dard chekishdir! Bir zumlik g‘amli oh chekishdan ortiq sovg‘a bo‘lmaydi. Chunki u joy izzat va ehtiyojsizlik koshonasi bo‘lib, yuz tuman ming Arshdan ham a‘lo turadi. Unda yuksaklik, istig‘no va noz haddan tashqari ko‘pdir. Faqat ojizlik ko‘rsatish va zaiflik bilan yolverish u yerda topilmaydi.

Sen o‘zing bilan birga yolverish va dard olib bor, zor jisingni va g‘amli joningni elt; chunki bu sovg‘alar u dargohda yo‘qdir. Bechoralik va notavonlik bilan shohdan ularni qabul etishini so‘ra. Agar sen o‘zingni Unga oshno qilmoq istasang, Uning huzuriga yonish, dard va fano olib bor.

Shohlarning shohi bo'lgan bir buyuk podsho bor edi. U go'yo olam ahli boshida Tangri soyasi kabi edi. U quyoshdek porloq toj egasi bo'lib, undagi gavharlar yulduzlardek porlar, mamlakati ham kunchiqishdan kunbotishga qadar cho'zilgan edi.

Uning bir o'g'li bor edi. Bu ko'hna olam uning kabi sarv niholni hanuzgacha ko'rmagan. U husn osmonining yorug' yulduzi, latofat qutichasining porloq gavhari edi. U go'zallik tunini bezaguvchi Toroz shami va malohat gulshanidagi sarvinoz edi.

Shoh uning husnidan zamonga o't tushmasin deb, uni bir qasr ichida yashirin saqlardi. Undan olamga ofat tushishini bilib, u o'tlanib chiqadigan yo'lni to'sib qo'ygan edi. U bir gulshanda maskan tutgan bo'lib, bog'dagi tovusdek xiromon yurardi. Shoh uning tashqariga chiqishini man etganidan shu chamanda o'z vaqtini vaqtichog'likda o'tkazish bilan qanoatlanardi.

Nogahon shoh taxtni shahzodaga qoldirib, ajal jomini sippordi. Davlat xutbasi shahzoda nomiga o'qildi, uning yuksak oti bilan pullar zarb qilindi.

Kunlardan bir kun u ko'ngil ochish uchun mamlakatini tomosha qilmoqqa otlandi. Bedovi bilan javlon urib, maydonga ofat solgani kirdi. Ot chopib maydonda chavgon o'ynadi, xalq boshini go'y qilib, jon o'ynadi. Tulporini qaysi tarafga surgan bo'lsa, o'sha shahar va mamlakat aholisida g'avg'o-to'polonlar boshlandi. Uni ko'rgan el devonayu zor, ishq domiga muftalo bo'ldi.

Shoh ularga shunday ulug' ofatlarni solib, xuddi shamol kabi tezlikda o'z gulshaniga qaytib ketdi. Shahar xalqi uning orqasidan g'avg'o chekib, "Yo Rab!" deyishar, ishqidan ohu faryodlarini ko'kka yetkazishardi.

Ular shaharda qolmay, uning orqasidan ergashdilar, hammalari uning qasr va bog'iga yetib kelishdi.

Zolim shoh o'z mulkini xarob qilib, qasridan pastga tushgancha, yasovullariga qat'iy buyruq qildi: "Bu g'avg'o ko'targanlarni har tomonga tarqatib yuboringlar. Ketmaganlarni esa jazolang!"

Shoh mulozimlari kishilarni tarqatishga qanchalik harakat qilmasinlar, odamlar bari bir ketishmadi. Ularning odamlarni tarqatish uchun qilgan barcha harakat va intilishlari foyda bermadi. Shahar xalqi boshdan-oyoq telba bo'lib, balki telbadan ham ortiqroq ahvolga tushib, kechayu kunduz oshufta va devonavor holda shoh bog'i atrofida qaror tutdilar. Qari va yosh, rind va zohid, oliy va past tabaqadagi barcha olomon ishq va telbalik ko'chasiga kirdi.

Shoh elning bu qiyin ahvolga tushganini ko'rgach, o'z holiga hayrati orta boshladi. Bu g'avg'oning poyoni yo'q ekanligini ko'rib, unga chora topish mumkin emasligini ham bildi. Xaloyiq tomon bir elchi yuborib, unga ushbu xabarni yetkazishni buyurdi: "Mening ishqimga asir bo'lgan kishilarning hammasi biron kasb egasidirlar. Har kim o'z sohasida mahorat ko'rsatib, o'z hunaridan bir ishni bunyod etsin. Hamma shu ish bilan shug'ullansin. Agar kimning ishi mening ko'nglimga xush kelsa, u kishini o'z mulozimim qilay. Uni bazmlarimda ulfatim etib, suhbatlarimda hamdardim va hamrohim qilay. Agar qilgan ishi ko'nglimga yoqmasa bo'ynini uzib, ko'p azob-uqubatlar bilan o'ldiray!" Kasbi kori zulm bo'lgan shoh shunday hukm etdi.

Oshiqlar oldida katta imtihon ko'ndalang bo'ldi. El uning va'dasidan umidvor bo'lib, o'z ishlarini bajarishga kirishdilar. Hamma fozillar, ilmu hunar ahllari barcha ishdan voz kechgan holda kecha-kunduz tinmay harakat qilib, shoh buyurgan ishga mashg'ul bo'ldilar. Olim

kitab yozmoq niyatida, bastakor yangi kuy yaratish payida bo'ldi. Shoir zamona shohi nazar qilishga arziri madhiya yozishga urindi. Munshiy men yozgan nomani shoh yoqtirarmikan, degan o'y bilan xat yozishga qalam olib, shohni vasf etishga kirishdi. Zargar o'z hunarini ishga solib, shohga loyiq oltin kamar yasamoqchi bo'ldi. Kiyim tikuvchi o'z ustaxonasiga borib, shoh kiyishi uchun zarbof to'n tikmoqqa yaroqli to'qish mato uchun dastgohga o'tirdi. Duradgor, shunday bir taxt yasayki, bu taxtga saodatli shoh chiqib o'tirsin, degan o'y bilan taxt hozirladi. Kamon yasovchi yoyim zora shohga yoqib tushsa, deb o'z san'atiga band bo'ldi. O'qchi ham ko'p mashaqqatlar ila ehtimol bu shoh ko'ngliga xush yoqarmikan, deb o'q yasashga kirishdi.

Xullas, shahardagi kattayu kichik – barcha kishilarning har biri o'z ishiga berilib, qilgan ishim zora shohga ma'qul tushib, u meni o'z mulozimligiga chorlasa, degan niyatda o'z ishiga zo'r berdi. Ular o'zlari chekkan shuncha mashaqqatlari natijasida qilgan ishlarining shohga yoqib, bundan murod-maqsadlariga erishmoqchi bo'ldilar.

Bir kecha shoh xalq shohga atagan ishlarni ko'zdan kechirish uchun o'z dargohidan chiqdi. Bir-ikki mahrami bilan xuddi o'g'rilar kabi yashirincha shahar tomon yo'l oldi. Shu tarzda u el qilgan ishlarni birma-bir ko'zdan o'tkazib, hamma ishni ko'rib chiqdi. U oliysifatli shoh qaysi bir narsaga nazar tashlamasin, o'ziga-o'zi: "Bundan bizning xazinamizda ham bor, balki u yerda bundan yaxshirog'i ham ko'p!" deb aytar edi.

Yura-yura oxiri u bir g'arib – bechora turgan joyga yetishdi. Bu kishi oshiq bo'lib, nihoyatda ozor chekkan, ayovli bir holatda edi. Ishq uni jonidan noumid qilgan, ayriliq zulmi sevgan kishisidan umidsiz bir ahvolga tushirgan edi. Bu notavon har zamon bag'ridan

tomayotgan qonlarni ko'z yo'llari orqali har tomonga oqizardi. Ko'zdan oqqan qon yoshlari bilan tuproqqa belangancha yotar, bu mushkul holatda qiynalgan ko'ngli go'yo yarim so'yilgan qushdek iztirob chekardi. Har dam o'zgacha bir nolayu fig'on qilar, u chekkan oh nola va faryoddan el ko'ngli buzilardi. Ishq tig'i uning xasta ko'nglini tilgan, ko'nglidan o'zligini siqib chiqargan edi, Ishq javridan u shunchalik uqubat chekkan ediki, bundan uning vujudi yo'q bo'layozgan edi. Bu fano uni tuproqqa qorib, hatto badanidagi har bitta tukka yuz shikast yetkazgan edi.

U shu holatda o'ziga-o'zi shunday derdi:

– Har kimsa o'z sohasida oshuftahollik bilan mahorati kamolotini ko'rsatadi. Ertaga ular shoh bazmida qatnashib, shoh ularning har biriga lutfu marhamatlar izhor etadi. Menda esa ohu dard chekishdan bo'lak o'zga hadya yo'q. Men ularga qanday qilib sherik bo'la olaman?!

Shohda yo lutf bo'ladi, yo siyosat. Men bechoraga ham u o'z dargohiga borish uchun ruxsat bersa. Ammo men uning lutfu ehsoniga loyiq emasman, hattoki siyosat qilishga ham arzimayman. Koshki edi u siyosat tig'ini surib, o'z qilichini bo'ynimga yetkarsa, menga shu sharafning o'zi kifoya! Bundan o'zga maqsadim ham yo'q...

Lekin men shunchalik e'tiborsizmanki, hatto uning meni qatl qilishiga ham ishonchim komil emas. E voh, mendagi dardu alam kuchayib, halokatli tus olmoqda, bundan o'z holimga motam tutmoqdaman!

Shoh bu g'arib ahvolni ko'rib, g'aribi zordagi bu holni bilgach, bu holat uning ko'ngliga qattiq ta'sir qildi va mehri tovlanib, bu vayronaga xuddi quyosh kabi kirib keldi. Unga lutf ko'rgizib, ko'nglini ovladi, balki ruhini

jismi uyidan quvlagandek bo'ldi. Bechora oshiq bu ahvolni ko'rgach, cheksiz hayratdan gung va lol bo'lib qoldi. Ko'ngli bu quvonchga tob bera olmay, mehmon huzurida o'z jonini unga tortiq qildi.

Bilgilki, bu xil o'lmoq jondan ham yaxshiroqdir. Jon nima degan narsa, balki ming mangulik hayotdan ham afzalroqdir. Agar kishiga bu xil qazo nasib etsayu u o'z jonidan voz kecha olmasa, u odam sanalmaydi. Ishq aro bu yonish va kuyish uning ruh shamini porlagan mash'alga aylantiradi! Qo'rki, ko'z yosh to'kib kuygani tufayli sham qorong'u kechalarda quyoshning o'rnini bosadi!

Ey, Foniy! Agar maqsadga yo'l topmoqchi bo'lsang, oh chekish, yonish va dard bilan o'zingni xursand qil!

CXLVII

Yana bir qushning Hudhudga savoli

Yana bir savol beruvchi so'radi:

– Ey poklik, rahbarlik bobida chechan qush. Bu yo'l shiddati haddan ko'p bo'ldi, oxiri ham nihoyasiz ekan. Ayt-chi, bu balo dashtini qachon bosib o'tamiz? Asl manzilga qay tarzda yetamiz? Bizni bu ishdan xabardor ayla, yo'lning sur'at va oromini izhor qil. Uning qanday boshlanib, nima bilan tugashini bizga tushuntirib ber. Avval biz chekadigan mashaqqatlar, so'ngra yetishadigan aysh va maqsadlar haqida gapir!

CXLVIII

Hudhudning javobi

Hudhud shunday dedi:

– Ey, bu yo'lda hamroh bo'lgan o'rtoq! Bu savoling nozik savol bo'ldi. Sen mendan bu safar shart-sharoitini, undagi manzil va vodiylarda duch kelinadigan qiyinchilik



va shodliklar haqida so'rating. Bilgilki, bu yo'l bir necha vodiy va manzillardan iboratdir. Endi men ularni senga birma-bir sharh qilib beray, sen voqif bo'l.

Oldimizda yettita katta vodiy turibdi. Ularning har birida xavfu xatar haddan tashqari ko'pdir. Bu vodiylarning har qaysisida son-sanoqsiz manzillar bo'lib, aql ularni sanab chiqishga ulgura olmaydi. Lekin bu manzillarning hammasi aslida yettita katta vodiy tarkibidadir. Men ana shu vodiylar sharhini bayon qilaman.

Avvalgi vodiy Talab vodiysidir. Unga kishini sharofatli to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi boshlab boradi.

Keyingi vodiy – Ishq vodiysi. Sen bu yerda ishq olovida boru yo'g'ingni o'rtashing lozim.

Ishq sening vujudingni yo'qotgach, Ma'rifat vodiysiga qadam qo'yasan.

So'ngra Istig'no (Ehtiyojsizlik) vodiysi keladi. Bu vodiy benihoya keng bo'lib, yuksak osmon ham uning oldida past turadi.

Undan keyingisi Tavhid (Yagonalik) vodiysidir. Undan o'tish uchun kishi yolg'iz bo'lmog'i zarur.

Undan o'tsang, Hayrat vodiysiga duch kelasan, bu yerda senga ko'p shiddatlar yuzlanadi.

Hammadan so'ng Faqru fano (Faqirlik va yo'qlik) vodiysi keladi. Sayr qilayotgan maslak vakili shu bilan yo'lni nihoyasiga yetkazadi. Bunda maslakdoshlar o'z maqsadiga erishib, ish o'zgacha bir holat bilan tamom bo'ladi.

Lekin bu vodiylardagi manzillardan hech kim xabar bergan emas. Bu yo'ldan ketganlardan hech kim qaytmagan. Hatto bu yetti vodiy ham nihoyatda qisqa bo'lib, uni mufassal aytmoqchi bo'lsak muammolar ko'pdir.

Talab vodiysining sifati

Talab vodiysiga qadam qo'ysang, oldingga har dam yuz ming dardu alam duch keladi. Har lahza unda yuz malollik, har nafas ming o'zga holat yuzlanadi. Istamoqlik azobi ko'ngulni zor etadi, lekin topa olmaslik ruhni abgor etadi.

Bunda jonni kuydirish mahrumlik, vaslga va'dasi muddati – noma'lumlik bo'ladi. Mashaqqat va kulfatlar jismingga nish sanchib, behad ulkan dard jismingni pora-pora qiladi. Sen noyob durni qo'lga kiritishni xohlaysan, ammo uni topa olmaysan. Buning uchun dunyo asbob-uskunalarini tark etmoq zarurdir.

Solik o'z yo'lida g'ov bo'ladigan molu mulk va boshqa narsalardan voz kechib, foniylilikning to'rt "Allohu Akbar"ini baland ovozda aytmog'i kerak. Bu yo'lda Unga bo'lgan ishtiyoqdan boshqa hamma narsani tashlab, o'zni maqsad manzili tomon boshlashi lozim. Agar olam matosidan biron ashyo qolmasa, senda u dam o'zgacha sifatlar paydo bo'ladi. U xazinadan vayroningga obodlik kelib, zoti nuridan joningga yorug'lik yetishadi. Bu yorug'lik sendagi shavq o'tini tobora alangalatib, talab otingni uchqur qiladi. Bunda o'zingda bir talab o'rnida yuz talab topasan. Bu payt tog'lar sening ko'zingga oddiy daladek bo'lib ko'rinadi. Joningga talab rohati yetadi, mashaqqat chekish shiddati sendan forig' bo'ladi. Ko'ngling dur topishga qanchalik muhabbat qo'ysa, sen uchun g'avvoslik qilish shunchalik oson bo'ladi. Visol quyoshi shu'la ko'rsatgach, shoming tongga ulanib ketadi. Agar bu payt oldingga mast fil kelsa ham sen uni pashshacha nazar-pisand qilmaysan. Agar yo'lingni yuz sher yoki arslon to'ssa, ularni sen cho'loq chumolidek ko'rasan. U xazinaga erishsang, ko'nglingga ajdahodan xavf yetmaydi.



Kufr va imondan qo'lyuvasan, shundan so'ng oldingda bir eshik ochiladi. Eshik ochilib, ichkari kirganingda, unda na kufr, na din qoladi, ularning barchasidan qutulasan.

Chunki kufr yoki imon bu yo'lga kirgan kishi uchun maslak emas. Bular asl yo'ldagi to'siqdan boshqa narsa emasdir.

CL

Hikoya

Bir qudratli podshoh bor edi. Uning xazina va boyliklari askarlari kabi son-sanoqsiz edi. Bu shohning bir chiroyli o'g'li bo'lib, uning go'zalligi oldida, hatto Yusuf ham qul bo'larli darajada edi. Sharq quyoshi uning husnidan sharmanda bo'lgani uchun oyog'i ostiga bosh qo'yardi. Sarv uning navnihol qaddiga soya kabi, oy esa uning yuzi quyoshiga bezak bo'lgudek edi. U ham quyoshdek husn bilan olamni zabt qiluvchi, ham oy kabi yonoq bilan qudratli podshoh edi. Ko'zi har boqishda olamni buzar, ishq ahliga o'zga olam ko'rguzar edi. Agar labi so'z boshlasa, jon olar, tabassum qilsa, jon kirgizardi.

Butun olam unga oshiqu shaydo bo'lgan, agar u qatl etmoqchi bo'lsa ham kishilar bundan g'am chekishmas edi. Kofir va mast ko'zi din va imon ahliga doim qirg'in keltirar edi. Chaqmoqdek uchqur bedovini har tomonga choptirar, bu chaqin bilan jahonni kuydirardi. Olam ahli unga maftunu shaydo bo'lgan, lekin u kishilarga haddan ortiq nozu istig'nolar qilar edi. U xalq sari ko'z qiri bilan bir qiyo boqsa, zulmi tig'idan tuman ming kishining qoni oqardi. Jahon elining o'lmog'iga u parvo qilmas, balki istig'nosining o'zi xalqni xarob qilardi. Uning ko'chasiga borishdan hatto shamol ham jon hovuchlar, u tomonga esmoqdan joniga qo'rquv tushar edi. Shamol uning gulshaniga essa gulbarglardan shapati yer edi.



Bir kuni u sahroda aylanib qaytish uchun ot surdi. Dasht uzra yuz tuman majnun zor yotar, ularning barchasi uning ishq shiddatidan beqaror edi. Lekin uning yuziga boqish uchun ularda imkon yo'q, u tomonga qarashdan ular bahramand bo'la olmas edilar. Hamma yaxshi-yomon uning vasliga erishmoqni istar, lekin bunga yetishmoq mumkin emas edi.

Nogahon saodatli shahzoda sahroda turgan elga nazar soldi. Ko'zi ular orasidagi ishq zanjiriga muhtalo bo'lgan ikki xasta oshiqi zorga tushdi. Shahzoda o'z mulozimlariga buyruq qilib, bu ikki devonasifatni huzurimga olib keling, dedi. Ular ikki muhtaloni ushlab, podsho qasri tomon ot soldilar. Shoh ulardan birini zindonga mahbus qilib, ikkinchisini o'ziga itboqarlik xizmatiga tayinladi. Unisi zindonda yotgan bandilar bilan hammakon bo'lsa, bunisi zanjirlangan itlarga muhtalo bo'ldi. Ular shu qiyin ahvolda bir qancha vaqt o'tkazib, kulfat tortdilar.

Bir dardmand kishi ularning biridan:

- Azob-uqubat ichra sizning holingiz qanday kechmoqda? - deb so'radi.

U dedi:

- Shu ham azob bo'ldimi? Turgan-bitgani rohat-ku! Mashaqqat chekish qayoqda deysan? Ishqidan ko'nglim to'lgan holda uning ko'chasida it bo'lishga ham rozi edim. Garchi men uning itlariga xizmatkor esam-da, uning itlariga boshliqman.

Unisi dedi:

- Uning ishq ko'nglimga zo'r kelib, bundan agar mening turar joyim go'r bo'lsa ham rozi edim. Garchi hozir zindonda kishanlangan holda yotgan bo'lsam ham, lekin uning vaslidan ko'nglim umidvor.

Oy chehrali shoh ularning bu so'zlarini pana joydan turib eshitmoqda edi. Ular shu tarzda o'z istaklariga



sodiq va ishq yo'siniga muvofiq edilar. Bu so'zlarni eshitgan quyosh kabi shoh cheksiz xursand bo'lib, bu so'zlar uning ko'ngliga bag'oyat xush yoqdi. Ulardagi bu ixlosni ko'rib, ikkalasini o'zining yaqin mahramlariga aylantirdi. Ular o'z talablarida sadoqatli bo'lganliklari uchun oqibatda ana shunday samaraga erishdilar.

CLI

Ishq vodiysining tavsifi

Talab vodiysini tamom qilganingdan so'ng Ishq vodiysiga qadam qo'yan.

Ishq so'nmas bir mash'aldir. Uni mash'al dema, butun olamni yondiruvchi shu'la degil. Ishqqa har kim munosib bo'lavermaydi. Samandardan bo'lak qaysi jonzot o't ichida yura oladi? Ishq aro botirlik va qalandarlik lozim, shu'la dengizida samandar bo'lmoqlik kerak. Shu'la ichra kuyayotgan parvona kabi oshiqu devonaning ishi kuymoqlikdan iboratdir. Donolikni ra'nolarning ishi deb aytma, parvona bo'la olishga kapalakning haddi sig'maydi. Kapalak yosh bolalarga o'z husni va zeboligini ko'rsatib, gullar uzra jilva qilib uchib yuradi. Ammo uning qo'lidan janda kiygan devonaning ishini qilish kelmaydi. U parvona kabi shu'laga o'zini ura olarmidi?! Garchi kapalak o'zining turli rang va xollari bilan ko'zga chiroyli ko'rinsa-da, u parvona kabi yonib kuya olmaydi. Azaldan ishq aro kul bo'lmagan har bir qushning otini bulbul deb bo'ladimi?

Ishq ichra kuyib-yonmaganni ishqboz dema! Kim jonini fido qilmas ekan: uni oshiq deb sanama! Ishq ahli o'rtanib yonish bilan o'zini shod etadi, bu ishni o'rganish bilan egallab bo'lmaydi. Ishqqa muftalo bo'lgan kishi ko'nglidan chiqqan o't vayronani yondirib yuboruvchi ajdar dami kabi qudratlidir.



Oshiqlar ko'ngli o'tli oh chekishdan begona emas, Axir otashgohdan tutundan boshqa yana nima chiqishi mumkin?! Ishqdan tushgan yolqin butun havoni yondirib yuboruvchi chaqmoq kabi olamni o'rtab yuboradi. Ishq o'tiga haqiqiy pok oshiq o'rtanadi, uning bu o'rtanishi go'yo chaqmoq yondirgan xashakka o'xshaydi.

Sen oshiq ko'nglini otashzada deb aytma, balki uni ishq ana shunday otashkadaga aylantirgan. Kishi agar otashkada ichiga tushsa, u yerda o'rtanmasdan boshqa iloji yo'q.

Kimki ishq aro o'tga aylansa, ajablanmang, chunki o'tga nimaiki tushsa, u ham o't bo'lib yonadi. Ishq bir o't kabi uning vujudini chulg'ab oladi, negaki, olov atrofida aylangan kishi o'rtanmay qolmaydi.

Ishq bilan o'ynashib bo'lmaydi. Jismingga o't tushsa, u seni quyundek sargardon qiladi. Ishq aro faqat o'rtanib yonish lozim, o't aro kuymasdan o'zga chora yo'q. Ishq osmonidan qaysi yoqqa chaqin tushsa, u shu ondayoq jonni shu'la seliga g'arq qiladi. Ishq chaqmog'i xonumonni kuydirib yuboradi, xonumon nima degan gap, butun jahonga o't qo'yadi!

Oshiq kishining asosiy ishi jon tark etish deb bilgil. Yor uchun o'lmoqni o'zing uchun arzimas ish deb anglagil.

CLII

Hikoya

Asma'iy⁵⁸ haj sari ketayotib, bir manzilda daraxtlar va gullar o'sib yotganini ko'rdi. Bu yerdagi maysazor va gulzor o'rtasidan bir chashma suv tiriklik suvidan nishona berib, sharqirab oqib yotar edi. Bu yerdan o'tgan ariq oshiq jonidek pokiza va ravshan bo'lib, undan oshiqlarning ko'z yoshlari kabi tiniq suvlar oqardi.

⁵⁸ Asma'iy – mashhur arab tilshunos olimi, to'liq ismi Abu Said Abdumalik binni Qurayb, 828 yilda vafot etgan.

Asma'iy suv yoqasida birmuncha vaqt o'tirib, hordiq chiqardi, ko'ngli g'amlardan xalos bo'ldi. Tab'i shu yerga naqshlanib, chashma boshida xat yozilgan bir toshni ko'rdi. Unda: "Ey Hijoz ahli⁵⁹, bu sirning chorasini topsangiz. Agar bir kishi ishqqa muhtalo bo'lib, ishq uning sabru qarorini olgan bo'lsa, ne qilsin?" deb yozilgan edi. Asma'iy qo'lga qalam va davot olib, bu xat tagiga shunday deb yozib qo'ydi: "Kimki, bu halokatli girdobga tushib, undan pok chiqmoqchi bo'lsa, behayolik qilib holatini fosh etmasin".

Asma'iy yuqoridagi savolga shu javobni yozib, bu manzildan jo'nab ketdi. Ertasiga yana shu joyga kelib: xat bitilgan toshga nazar soldi. Qarasa, oldingi kotib o'z qalami bilan yana quyidagilarni yozib qo'yibdi: "Agar ozurda jon oshiq o'zi pok bo'lsayu yana ishqini yashirin saqlasa, lekin uning qalbidagi muhabbatning shiddati tez bo'lib, uning toqati toq bo'lsa hamda vaslga ehtiyoj sezsa, bunday paytda u nima qilsin? Agar bu ishning ilojini topa olmasa, naylasin?"

Asma'iy bu favqulodda sirni ko'rgach, o'zining sehrli qalami bilan yana shunday deb yozdi: "Ishq ichra men nasihat qilgan o'sha dardli va notavon kishi bu nasihatlarimdan o'z maqsadiga erishmagan bo'lsa, o'lsin va ishq o'tidan o'zini xalos qilsin".

Berahm nasihatgo'y bu halokatli javobni yozib, chashma yonidan tezda jo'nab ketdi. U bir kun boshqa joyda hayallab, ertasiga o'z tuyasini yana o'sha tomonga haydadi va oshiq javobini bilmoqchi, g'oyibdagi hasratli oshiq yana nima deb xitob qilganini ko'rmoqchi bo'ldi. Kelsa, umridan voz kechgan, afti-angoridan zorligi oshkor bo'lgan, rangi-tusidan bemorligi ko'rinib turgan, o'z ahvoli bilan el ko'nglini buza olgudek ruhsiz bir kishi chashma yonida yotibdi. U ishq ichra chigallikni yechib,

⁵⁹ Hijoz ahli – hajga boruvchilar.

boshini toshga chunon uribdiki, bu zarbadan tosh sinib ketibdi. Qoni chashma suvini lolarang qilib oqar, suv tomondagi tosh ustidan boshi pastga tushgancha o'lib yotar edi.

Nasihatgo'y bergan o'git tufayli oshiq o'z jonini tark qilib, uni hijron azobidan qutqargan va ishq aro go'yo o'zidan borib yotgan ekan.

Asma'iy bu g'aroyib holni ko'rgach, ko'ngliga yuz xil mashaqqat nishlari sanchildi. To'nini yirtib, sallasini yerga urdi, o'z nasihatiga quloq solgan kishi uchun motam tutdi. U bundan ortiq biror qattiq holatni ko'rmagani tufayli faryod tortib, achchiq-achchiq yig'ladi. Bu ish uning ko'nglini g'ash qildi, yerni qazib, o'likni qabrga qo'ydi. Halok bo'lgan kishi shahid o'lgani sababli uning jismiga o'zining qonli libosi kafan bo'ldi.

Ey Foniy! Ishq ichra foniy bo'lish yo'li ana shunday bo'ladi. Agar sabru toqating tugagan bo'lsa, xuddi shu kabi jon taslim qil. Bu xil o'lmoqni Xudo kimga nasib qilsa, unga yuz tuman jonni fido qilsa ham arziydi.

CLIII

Ma'rifat vodiysining vasfi

Bilgilki, Ishq vodiysidan keyin Ma'rifat vodiysi keladi. Bu joyning nihoyatda bepoyon bir dashtligiga bir qara.

Kimki bu vodiya kirsa, u yerdagi ahvolning ixtilofli ekanligini ko'radi. Bu joy shunday bir vodiidirki, uni yuz tuman ming turli yo'llar kesib o'tadi, ammo ulardan biri ikkinchisiga sira o'xshamaydi. Butun va bo'lak o'rtasidagi qarama-qarshilik ham shu yerda mavjud. Taraqqiyot ham, tanazzul ham shu joydadir. Unda sen yuz tuman yo'lovchini beqaror bir tarzda, har birini o'zga bir yo'ldan ketib borayotgan holda ko'rasan. Ularning har biri o'zi ketayotgan yo'l bilan faxrlanadi, har biri yo'lni o'z yo'li tomonga buradi. Biri xush tutgan

yo'lni ikkinchisi xohlamaydi, har birining ko'ziga o'ziniki yaxshi ko'rinadi, boshqasini esa nazarga ilmaydi.

Unda pashsha ham, fil ham yo'lovchi. Unda pashsha ham, Jabrail ham uchadi. Muso ham, Fir'avn ham unda yo'lovchi, ammo bilgilki, ularning ikkalasi birdek emas. Mahdiy⁶⁰ va Dajjol⁶¹ ham bu yo'ldan o'z mazhablari bilan yuradi. Ammo Iso payg'ambar bilan u mingan ulovni tenglashtirib bo'lmaydi. Ahmad (Muhammad alayhissalom) va Abu Jahl⁶² ham u yerda ko'rinadilar, bunisi zulmatga tushgan bo'lsa, unisi nurga g'arq bo'lgandir.

Bu yerda barcha yaxshi-yomon sayr etadi; unda mo'min ham, kofir ham yo'lovchilik qiladi. Agar bu yerda otashparastlar o'z Lotiga talpinsalar, Ka'ba ahli - musulmonlar esa yolg'iz Allohga sig'inadilar. Kufri ahli Lotni ogoh deb aytsalar, lekin islom ahli "illalloh" deb aytadilar.

Bunda ish ziddiyatli bo'lmasdan iloji yo'q, chunki yo'llarning o'zi ana shunday bir-biriga xilofdir. Yo'lboshlovchi payg'ambar ham bu haqda shunday degan: "Kimki haqqa erishmoq uchun safarga otlansa va bu yo'lning son-sanoqsiz ko'p ekanligini ko'rmoqchi bo'lsa, uni xalq olayotgan nafasga qiyos etsin". Bu yo'llarning bari quyqali bo'lmaganidek, hammasini ham sof deb bo'lmaydi. Ulu ichra e'tiqodlarda bu xil ixtilof bo'lmog'i zaruriy bir holdir.

Agar gado yoki podshoh bo'lsin, ulardan har biri o'zga yo'l bilan maslagiga xizmat etadi. Nafs ziddiyatlar sababchisi bo'lgani uchun bunda sifat va kamolotga

⁶⁰ Islom e'tiqodiga ko'ra o'n ikki imomniig oxirgisi, go'yo u tiriklayin g'oyib bo'lgan, qiyomatda paydo bo'lib Dajjolga qarshi kurashadi va uni halok qiladi, deyiladi.

⁶¹ Afsonaviy vahshiy maxluq.

⁶² Muhammadga qarshi kurashgan kishi, jaholat va nodonlik timsoli sanaladi.

erishmoq lozim. Bunda yo'lovchiga tafovut sodir bo'lib, agar unisi mehrobga bosh qo'ysa, bunisi butga sig'inadi. Har kimning bilishi o'ziga sifat bo'lib qoladi. Ma'rifat shu xil turli tafovutlarni keltirib chiqaradi. Har bir kishi o'z sohasida kamolga intilib, bu vodiy ichida kezib yuradi.

Garchi suluk tartibida har xillik mavjud bo'lsa-da, lekin bu yo'lga kirganlarning hammasining maqsadi bittadir. Ular borayotgan yo'l agar egri yoki to'g'ri bo'lsa ham, yoki yiroq yoki yaqin bo'lsa ham, bu yo'lda ba'zilar o'lib ketgan, ba'zi birovlar yo'ldan adashgan, ba'zilar esa turli so'qmoqlarda ovorayu sarson kezsalar ham, bu yo'lni bosib o'tmasdan turib, maqsadga erishish mumkin emas.

Ma'rifat quyoshi balqigach, har kim o'z maqsadiga erishmoq uchun o'z suluki holiga natija istaydi va o'zi shug'ullanayotgan narsa orqali naqdni qo'lga kiritmoqni xohlaydi. Chunki u pokiza nur yorug' shu'la sochgach, bu shu'la har kimning kamolga erishuvini yoritib turadi. Kimki bu yo'lda mashaqqat chekkan bo'lsa, u o'z suluki nihoyasida xazinaga erishadi. Suluk ichra ixtilof ko'p bo'lib, ulardan ko'pi quyqali, sofi esa ozdir. Bu sof tabiat egalari sirasiga payg'ambar shariatiga tobe' bo'lganlar kiradi.

CLIV

Hikoya

Eshit, bunga ushbu mojaro juda munosib misol bo'la oladi. Naql qilishlaricha, bir guruh ko'rlar bir sabab bilan: musofirlik yoki asirlik tufayli Hindistonga borib qolishibdi. So'ngra falakning gardishi bilan ular yana o'z yurtiga qaytib kelishibdi. Bu yerda ulardan bir kishi: "Filni ko'rdilaringizmi? – deb so'rabdi. Ular: "Ha", – deb javob beribdilar. "Ko'rgan bo'lsangiz, dalil keltiring", – debdi boyagi kishi.



Ular aslida filni ko'rmagan, u haqda hatto yaxshi so'rab ham olmagan edilar. Har biri filning bir a'zosini paypaslab, undan bilim hosil qilib olgan edi. Shu sababli filning qo'llarini ushlagan kishi fil sutunga o'xshar ekan, desa, qornini paypaslagan, yo'q, u sutunsiz⁶³, dedi. Xartumini ushlagan, fil ajdahoga o'xshash bir narsa ekan, desa, tishlarini bayon qiluvchi kishi esa, fil ikkita suyakdan iborat, dedi. Quyrug'idan xabar bergan kishi filni osilib turgan ilonga qiyos etdi. Qo'li bilan filning boshini paypaslagan kishi uni bir cho'qqining tumshug'i deb sharh qildi. Filning qulog'iga qo'l tegizgan kishi uni qimirlatib turgan ikki yelpug'ich ekan, dedi.

Ularning barchasi shu tariqa ko'rlik yuzasidan turli so'zlar aytdilar. Garchi ular aytgan so'zlarning barchasi to'g'ri bo'lsa-da, ularning hammasi nuqsonli edi.

Shuning uchun ham filbonlik sohasida ustod hisoblangan yetuk faylasuf, o'zi hind naslidan bo'lgan kishi ular aytgan so'zlarni tinglab, naql qilganlarga ta'na qilmadi va shunday dedi:

– Har bir kishi fil haqida o'zi bilganini aytib, u haqda bir nishon berdi. Ular bir-birlariga zid fikrlarni aytib bahslashgan bo'lsalar-da, kechirarlidir. Chunki ularning har biri o'z bilganicha so'z aytdi. Ammo ulardan hech biri filni ko'rgan emas edi. Lekin ular aytgan bu sifatlarning barchasi yig'ilsa, ulardan fil haqida to'g'ri tasavvur hosil bo'ladi.

Ko'zi ochiq kishiga aniq bo'lgani uchun u to'g'risini rost aytdi-qo'ydi.

CLV

Istig'no vodiysining bayoni

Keyingi vodi y Istig'no vodiysi bo'lib, u yerda a'lo va past tabaqali kishilarning hammasi teng sanaladi.

⁶³ Bu o'rinda "besutun" ikki ma'noda – "ustunsiz" va "tog'" (Besutun) ma'nolarida qo'llanilib, so'z o'yini qilingan.

Istig'no yeli har dam shitob ko'rsatib, olamga to'polonlar soladi. Istig'no bulutidan yoqqan yog'indan yuz tuman olamni suv olib ketadi. yetti dengiz unda bir qatra yomg'ir kabi, yetti osmon uning oldida ko'knor urug'i kabi kichikdir. yetti do'zax olovi bu yashin oldida bir uchqunga teng bo'lsa, sakkiz jannat uning oldida bir shudring misolidir.

U yerdagi chumolilar sher bilan oziqlanadi, pashshasi esa filni ov qilishga qodir. U yerda yetti iqlimni zabt etgan qahramon shoh ham oddiy bir gadoga tengdir. Qotillik tig'i u yerda o'zining yuz ming qo'shini bilan saf tortib turadi. Qoqum terisidan tikilgan qimmatbaho kiyimlar u yerda nazar-pisand qilinmaydi. Ko'kni yutib yuborishga qodir ajdaho u yerda Bibi Maryamning nozik ipi bilan bab-baravar turadi. U yerda minglab maloikalar to'dasi e'tibordan qolib, nogoh Odam sharaf tojini kiydi. Yuz ming vujud o'z ruhidan begona bo'lganida, Nuh kemachilik bilan odamlar hayotini ofatdan saqlab qoldi.

U yerda Namrudni⁶⁴ son-sanoqsiz pashshalar chaqqanidan tortib, Halilning o'tni chechakka aylantirgani ham; yoki yuz ming begunoh bolaning bekordan-bekorga qoni to'kilishi yu Kalimullohning podshoh etilishi ham; yoki yuz minglab din ahlining o'z e'tiqodidan voz kechib, zunnor bog'laganiyu Masih nafasidan olako'zanning jon topganigacha; yoki bu ko'hna zolim dunyoning yuz ming qon to'kishidan Muhammadning bir tun Arsh uzra sayr qilganiga qadar – hamma-hammasi, boru yo'q barcha narsalar – din ahliyu kofirlar eli – barchasi birday teng hisoblanadi.

Agar Zahhok⁶⁵ ming yil xalq qonini to'kkan bo'lsa ham, yoki Masih o'lgan badanga jon ato etgan bo'lsa-

⁶⁴ N a m r u d – qadimda o'tgan zolim podsholardan birining nomi, naql qilinishicha, uni pashshalar talab o'ldirgan ekan.

⁶⁵ Zahhok – Eron mifologiyasida yelkasidan ilon o'sib chiqqan zolim shoh.

da, yoki Buxtunnasr⁶⁶ elga zulmu qasos solgan bo'lsa ham, yoki No'shiravon⁶⁷ adolat egasi bo'lsa-da, bu yerda ikkisiga bir xil hukm deb bilgin va kel, bu ehtiyojsizlikni tomosha qilgin!

Bu yerda yuz tuman quyosh yo'qolib ketsa ham osmonda bir zarra kam bo'ldi deb hisobla. Agar yerga yuz tuman chuqur dengiz singib ketgan taqdirda ham, sen uni bir qatra g'oyib bo'ldi deb sana. Agar yuz tuman huru pari kuyib kul bo'lsa, sen ularni bir pashshaning singan qanoti kuydi deb bil. yel bu to'qqiz qavat falakni sovursa, bir epkin xashakni uchirdi deb hisobla. Yoki Qof kabi yuzta azamat tog'ning yo'q bo'lishini yer yuzidan bir dona qumning yo'qolmog'iga tenglashtir. Agar jannatda o'sadigan sidra va to'bi daraxtlari yo'qolib qolsa, o'rmondan bir yaproq kamaydi, xolos, deb bil.

U yerda gumroh va ogohni teng ko'r. Mayxona maskani bilan Baytulloh – Xudoning uyi (Ka'ba) ham u yerda bir turadi. Obodmi vayronami, baribir u yerda Ka'ba bilan butxona bir hisoblanadi. Unda ming yashar fil ertalab tug'ilgan yosh filga yoki bu ulkan dunyo bir kichik ko'knor donasiga teng turadi. Kufr bilan din ham u yerda teng miqdorda bo'lib, bunda solikka behad qiyinchiliklar yuzlanadi.

CLVI

Hikoya

Shaxmat o'ynaguvchi ikki ustod shaxmat taxtasini ochib, ikki tomonga o'tirdi va o'rtaga shatranji kabir – katta shaxmat donalarini to'kishdi. Har tarafdan bir shoh taxtaga terildi, ularning rasmana shohlarga o'xshash xizmatkorlari, lashkarlari bor edi. Har birining bittadan

⁶⁶ Buxtunnasr – Quddusni vayron qilgan mustabid shoh.

⁶⁷ Nushiravon – (Anushirvon) – sasoniyalar sulolasiga mansub Eron shohi Xusrav ibn Qubod (531–589)ning laqabi, Sharq adabiyotida adolatli shoh timsoli sanaladi.

to'g'ri yuruvchi vaziri bo'lib, yana bittadan egri yuruvchi farzinlari ham bor edi.

U ikki shohdan biri Rum ahliga (oqlar donasi) shoh bo'lsa, ikkinchisi esa zangilarga (qoralar donasi) kishvarpanoh edi. Ustod shoh va boshqa donalarni terib, ularga zebu oroyish bergan holda taxtada saf torttirdi.

Shundan so'ng raqiblar maydonga ot solib, u yerda javlon urgan holda turli o'yinlar ko'rsatdilar. Bu yer go'yo urush maydoni va o'rab olingan qal'aga o'xshar edi. Bir tomon ikkinchi tomonni mag'lub etishga qattiq kirishgan. Urush saflarida fil ham, jirafa ham, ruh, ayiq va kashshofa⁶⁸ ham bor edi. Piyoda askarlar otliq suvorilar oldida tez va chaqqon urushmoqqa harakat qilishar edi.

Qo'shinlar urush nizomlariga binoan bir-birlariga turli o'yinlar ko'rsatib, jang olib bormoqda edilar. Bir tomon o'z lashkarlarini pistirmada berkitgan bo'lsa, ikkinchi tomon bu qo'shinni buzish tadbirlarini ko'rardi.

O'rtada ajoyib, qiziq o'yinlar namoyon bo'lmoqda, balki behad hiyla va tadbirlar ko'rsatilmoqda edi, Bunda pahlavonlar va qo'mondonlar ham bir-birlariga hujum qilishardi. Bu holat go'yo ikki qahramon shohning qo'shin tortib, bir-biriga qarshi urush olib borayotganiga o'xshash edi.

Buncha qo'shin va dabdaba, qal'a, maydon va ot choptirib, javlon urishlar, chekinib qochishlar, ham o'ng qanot, ham chap qanotda, ham qo'shinning ilg'or qismida ana shu xil g'avg'o-to'polonlar bilan jang bo'lmoqda edi.

Har bir qo'mondonning o'g'li jangning oldingi saflarida borar, otasidan oldin urushga kirar edi. Urush maydoni bosib o'tilgach, otasining o'rnini bosar edi. Bir piyoda bir yoqdan kelib, tez aylanuvchi charx yordamida maydonda qahramonlik ko'rsatar, yolg'iz o'zi butun bir qo'shinni daf' eta olardi.

⁶⁸ Kashshofa – hayvon va shaxmat donalaridan birining nomi.



Urush maydoni ana shu xil turli tasodiflarga to'la bo'lib, go'yo bir-biriga qasdman ikki shoh urush olib borayotgandek edi. Ularning har birida go'yo urush uchun tug'ilgan yuz tuman yosh yigit bor edi. Bu xil jang maydoni kamdan-kam uchraydi. Olib borilayotgan urushlarda bunchalik shiddat bo'lmaydi hamda el bunchalik qurol-tig' bilan ziynatlana olmaydi.

Shunchalik bunyodkorlik, maydon, o'zaro dushmanlik qilish va urush olib borishlar – hamma-hammasi, – agar o'yinchi donalarni yig'ishtirishga ahd qilsa va shaxmat taxtasining bir chetini ko'tarsa, – bularning barchasi o'rtadan ko'tarilib, yo'qqa chiqadi! Shunda na bu urush va na dushmanlikdan, na jang olib borish tartib-qoidalaridan asar qoladi. Ro'y bergan barcha holat va rusumlar, ya'ni jang maydonida ikki tomonning bir-biriga hujum qilishlari agar chuqur o'ylab ko'rilsa, o'tkir fikrli kishi oldida bularning barchasi hech narsa hisoblanadi. Chunki yuzga kirgan xasta bir kanizak ularni hatto bir parcha bo'zga bog'lab, o'tga ham, suvga ham tashlab yuborishi mumkin.

Chunki holat o'zgarib, uni o'ynaguvchi ustod uchun o'yin tugagach, ular hech qanday tafovutga ega bo'lmaydi. Shaxmat donalari xalta ichiga solingan, "shoh" quyi tushishi, "piyoda" esa yuqorida bo'lishi mumkin!

Bularning barchasi istig'no nishonasi, balki uning bir ko'rinishidir. Bas, sen bu tamsilga nazar sol, asl istig'noni bundan yuz ming marta ziyoda deb bil. Agar sen buning ma'nosi tomon yo'l topsang, barcha ishni shunga qiyos qilgil!

CLVII

Tavhid vodiysining ta'rifi

Undan so'nggi vodiyni Tavhid (Yagonalik) vodiysi deb bil. Unda yakka-yolg'iz bo'lib, ortiqcha narsalardan xoli bo'lish lozimligini ham angla.

Bu vodiya da sayr qilmoqchi bo'lsang, unda bo'ydoqlik sen uchun asosiy qoida bo'ladi. Bu vodiydagi sayring nihoyasiga yetgach, u paytda yuz tuman mingta qushni bitta qush deb bilasan. Bunda ularning barchasining maqsadi bo'ydoqlik, barchasining kuy va navosi yolg'izlik bo'ladi. Tarkidunyo qiluvchilar shu holatga erishsa, ular uchun birlikda yo'qolish asosiy ish bo'lib qoladi. Chunki bir karra bir bir bo'ladi, aqlning bu ishga haddi sig'maydi.

Bu qiyin ish sening qarshingda ko'ndalang bo'lsa, bilki, birdan o'zga barcha narsa hechdir. Bir bo'lu, bir ko'ru, bir de, bir tila! Bunda hech qachon ikkilikka moyil bo'lma! Chunki ikkilik bu yo'lda g'ilaylikdir va birlik sirlarini bilishdan chetga chiqishni anglatadi.

CLVIII

Hikoya

Mansur tavhidda yuqori darajaga erishib, uning tilida doim "anal-haq"⁶⁹ takrorlanardi.

Din arboblari unga sening bu ishing Allohga yaqinlar ishi emas. Ko'pgina suluk ahliga ham bu holat kashf bo'lsa-da, ular odob saqlab, mo'tadillikni ta'minlaganlar. Sen ham o'zingni ulardek tut, bu xil da'voni izhor qilma, joningni dorga sazovor etma, deb ko'p nasihat qildilar. Ammo u ichgan qadah nihoyatda mast qiluvchi bo'lgani sababli unga bu nag'mani takrorlashdan hech bir orom yo'q edi.

Bir kun unda qiziq bir holat yuz berib, xayolini har tomonga olib qocha boshladi. Uning xayoli Rasulullohga borib yetdi. Uning yodiga Muhammad payg'ambarning Buroq nomli otga minib, osmonni sayr etgani va unga birlik gavharidan toj nasib etib, vahdat pillapoyasi

⁶⁹ "Anal-haq" – "men haq (Xudo)" demakdir. Mansur Halloj (858–922) shu so'zlari uchun ruhoniyalar fatvosi bilan dorga osilgan.



me'roj bo'lganligini hamda unga yuksak osmon ikki qosh orasidek yaqin bo'lib, "li ma'ollo" – soflik yaqinligiga erishgani va Tangridan unga xitob kelib, "Ey do'st, istagan maqsading nedur?" deb so'ralganida, u tangri lutfiga uzrxohlik qilib, osiy ummatning gunohidan o'tishni tiladi. Unda ehson ko'pu lutf hammaga yetarlidir, unga lutf haddan ziyodu xulqi esa saxiy edi. Xuddi buni Haqning o'zi undan iltimos etganu "istagil" deb, beqiyos lutf ko'rguzgandek edi. U arablar shohi ana shu tarzda osiy ummatning gunohini afv etishni iltimos etgandan ko'ra, azaldan to abad har kimki egri yo'l bilan borgan bo'lsa, uning shafqat etuvchisi bo'lgin. Ehsoningni ayamay, barchani rahmat etgil va kechirim yuzasidan hammaning gunohidan o'tgil, deb aytsa bo'lardi. Nima uchun u sodiqlik va soflik koni faqat ummatlarning gunohini kechirishni so'rash bilan kifoyalandi ekan?

Mansurning ko'ngliga shu xayollar kelib, doimo shularni o'ylab yurar edi. Bu andisha uni ezib, ojizlik va hayrat qo'lida lol etar edi.

Bir kun uning tushida Rasululloh ayon bo'ldi. Unga shunday so'zlarni aytib, mushkulini hal etdi: – Ey telbalik ayvonida o'tirib, vahdat lofi bilan "anal-haq" – deyuvchi! Bilmadingmi, o'sha oqshom oliy burjlarda kezib yurganimda menda hech qanday "menlik" xayoli yo'q edi, balki bu so'zni aytishning hech bir ehtimoli mavjud emas edi! Chunki u dargohga eltgan ham, yo'l boshlagan ham, istagan ham, bag'ishlagan ham faqat uning o'zi edi.

Sen ajib bir uzoqni ko'rolmasligingdan bu borada o'zingning ko'rtingingni oshkor etding. Chunki Tavhid vodiysi yoki yakkalik va yolg'izlik gulshanida "menlik" va "senlik" tomon yo'l ochding, ammo u bu xil ikkilik vasfidan u pok turardi. Degan ham, bergan ham, in'om qilib sochgan ham, tergan ham uning o'zidir! U yozuv

“menlik” rangidan pok edi, nag‘masida ham ikkilik ohangi yo‘q edi.

U yerda “men” va “senlik”ni xayol qilish, ikkilik naqshidan aql yurgizish g‘ilaylikdan, bitta narsani ikkita qilib ko‘rishdan o‘zga narsa emas. Bu xayolni xotiringdan chiqarib, yo‘q qilib tashla!

CLIX

Hayrat vodiysining so‘zi

Tahvid vodiysi bosib o‘tilgach, shubhasiz, Hayrat vodiysi ko‘rinadi. Bu vodiya hali kishi boshiga tig‘ yetmasdan turib, ming oh va yuz ming afsus chekish yuzlanadi. Hayrat tilni gung va lol etadi. Aqli ketib, hushi toptaladi. Kishi kecha va kunduzga qancha boqmasin, uning kecha yoki kunduz ekanligini angalay olmaydi. O‘zining yo‘qligini ham, borligini ham bilmaydi, ertaga nima bo‘lishini ham anglamaydi. Har narsaga ko‘z tashlasa, hayratdan dong qotib, hayronlikda sarsonu sargardon bo‘ladi.

Yo‘l ahli bu vodiya qadam qo‘ygach, unda hayronlikdan o‘zga ish bo‘lmaydi. Agar tahvid borasida nimaga erishgan, yolg‘izlik va ajralish vodiysida nimaiki ish qilgan bo‘lsa, bu yerda ularning barchasi yo‘qolib ketadi. Hatto u o‘zining borligini ham unutadi. Agar undan, sen bormisan yoki yo‘qmisan, deb so‘rasalar, u bularning hech biriga javob bera olmaydi, boru yo‘qligiga xitob qilib, o‘zini bildir olmaydi. U o‘zining o‘rtada, yo bir tarafda yoki tashqarida ekanligini ham, chekkada yoki keyin, yoxud oldinda turganligini ham yaxshi bilmaydi, hayrat uni bularning barchasidan chetga chiqaradi.

U o‘zining foniy ekanligi yoki boqiyiligini ham, mast ekanligi yoki soqiyiligini ham anglamaydi, mavjudligi yoki mavjud emasligi ham, zotining ma‘lum yoki noma‘lumligini ham bilmaydi. Shu tariqa har yoqqa boqsa, cheksiz hayratga tushadi, o‘zini hayrat ichida g‘arq



bo'lgan holda ko'radi. O'ziga o'zi, oshiq ekanligimdan ajablanaman, ammo kimga oshiq bo'lganimni bilmayman, deydi. Har bir zarraga zarralar orqali boqib, ularning borligi yoki yo'qligini isbot etishdan hayratga cho'madi. Bu maqom ichra ana shu xil ajib holatlar bo'lib, ulardan hali bittasi tugamasdan turib, mingtasi yuzma-yuz keladi.

CLX

Hikoya

Jahongir bir podsho bor edi. Uning dargohida yuzlab sultonlar bosh egib turardi. Uning mamlakati Qirvondan to Qirvonga qadar cheksiz bo'lib, barcha uning hukmiga bo'ysunardi.

Uning parda orqasida hammadan yashirib yuradigan bir gavhari bor edi. Bu go'zalning husni oldida hur va parilar ham sharmanda bo'lib qolardi. U go'zallik bo'stonida bir noziknihol, bir nozikniholgina emas, adl qomatli sarv edi. U jon yotog'idagi dilkash sham, yo'q, sham emas, balki yorug' quyosh mash'ali kabi edi. Noz qilganida uning ko'zlari jonga balo keltirar, zamon ko'zi unday baloni hanuzgacha ko'rmagan edi. Zulfi va xoli fitnaning anbar hidlarini taratib turar, bu fitnaga duch kelgan kishi omon qolmas edi. Uning yuzidagi labi benihoya fasih nafas egasi edi. Bularni quyosh bilan Masihga qiyos qilsa bo'ladi. Uning vasli umidida necha davlatmand kishilar, balki taxt egalari bo'lgan oliy shohlar yurar, ammo bu murod hech kimga muyassar bo'lmay, hech bir ko'ngil hali uning vaslidan shod bo'lmagan edi. Bu go'zal qizning o'zi ham elga yaqin bo'lishni xohlamasdi. Ikkala tomon ham bundan o'zini tortar edi: ya'ni davron ichra toq bo'lgan shunday go'zal qizga kim ham juft bo'la olardi? U shu xil xislat egasi bo'lgach, el unga xaridor bo'la olarmidi?

Ittifoqo, bu go'zal qiz bir kecha tush ko'rdi. Tushida bir go'zal yigit uning ko'ngliga g'ulg'ula soldi. Uning turgan-bitgani ruhdan mujassam bo'lgandek pokiza va toza edi. Husn osmonida u go'yo sharq quyoshining o'zginasi edi. Husni sahifasiga mushk hidli bir xat bitilgan, undagi xol esa o'sha xat ustidagi nuqtaga o'xshardi. Uning sho'xligi va ra'noligi sarvning o'zginasi, nozikligi va zeboligi esa gulni eslatardi. Bu yigit agar quyosh chirog'i bo'lsa, u qiz yog'du sochib turgan to'lin oy edi. Ikkalasi bir taxt ustida o'tirib, dam-badam visol jomini ichishar, bir-birlarining vaslidan bahramand bo'lishar edi.

Gul yuzli bu uyqudan ko'z ochib, o'rnidan turdi. Ko'ngil mulkidan qarori yo'qolgan edi. Bundan uning har damda shaydoligi orta borib, bu ahvolda rasvo bo'lishi ayon bo'lib qoldi. U har doim bu tushni qayta ko'rishni orzu qilar, lekin ko'zidagi bu uyquni ko'z yoshi olib ketgan edi. Uning ko'nglida osoyish qolmagan, tinchligi buzilgan, kechasiyu kunduzi orom nimaligini bilmas edi.

Kunlardan bir kun u judolik dardidan ezilib, o'zining oliy qasri uzra oshuftahol chiqdi. Ko'ngliga taskin berish uchun har tomonga qarar, sabr va to'zimli bo'lishni istar edi. Nogahon o'tli oh tortganicha, shoh bazm qurgan tomonga ko'z tashladi. Bu yerda tushda ko'rgan kishiga ko'zi tushdi va oh urib, o'zidan ketdi. U ko'rgan kishi shoh xizmatkorlari ichidagi yosh bir yigit bo'lib, dunyoga fitna soluvchilardan edi.

Yigit ham xuddi shu payt qiz tomonga ko'z soldi va shu zahotiyuq ko'ngli ishq o'qiga nishon bo'ldi. Uning zor joniga hayajon tushib, bu hayajon uning majruh taniga ham ta'sir qildi. Ko'ngil mulki ichra qo'zg'olon tushib, joniga qasd qila boshladi. Unda na hush qoldi va na sabr, o'zi ham ularning orqasidan ketdi.

Oqshomgacha ahvol shu tariqa tahlikali davom etdi. U o'zining na o'lik, na tirik ekanligini bilardi. Tun



qorong'iligi yerga o'z pardasini qoplagandan so'ng undan yuz ming nola chiqa boshlardi. Tongga qadar ahvoli afg'on chekmoqlik bilan o'tar, to'kkan ohli ko'z yoshlari xuddi to'fonga o'xshar edi. Tong qushi sahar sirini fosh qilgach, yigit yana ertadan kechgacha o'z vaqtini ko'ksiga tosh urish bilan o'tkazardi.

Ishq ikki tomonga ham ana shu xil savdo solgan, go'yo ishq ikki mamlakatda talon-taroj qilmoqda edi.

Garchi yigit qiz ishqida o'zini zor sezsa-da, lekin o'zini ko'p sehr bilan saqlab turar edi. Ammo oy yuzli beqaror bir holga tushib, ishqdan behad zor bo'lgan cha bo'shshib borar edi. Qarasa, uning qo'lidan ixtiyori ketib, ishi rasvolik bilan tugaydiganga o'xshaydi. Ana bu bechoralik bilan qiyin ahvol yuz bergach, u buning chorasini topishga kirishdi. Chunki uning ishqiy yashirib bo'lmaydigan darajaga yetgan edi. Shuning uchun o'ziga o'zi biron tadbir topmasdan boshqa iloji yo'q edi.

Qizning ikki yaqin mahrami bo'lib, shodlik va g'amli onlarida doimiy hamdami edi. Ular har bir ishning chorasini topishga usta, har ikkalasi ham qiziq hunarlar ko'rsatuvchi ajoyib san'atkor va sehrGAR qizlar edi. Ular makr va afsunni puxta egallab, uni nihoyasiga yetkazgan, hatto pashsha bilan filni bir-biriga juftlay oladigan darajada mohir edilar. Ular bu ishni shunday bajarar edilarki, bunda pashsha o'zini kichik deb bilmas, fil ham o'zini yirik jussalik deb hisoblamas edi. Ulardan har biri ana shu xil hiyla, afsun va firib egasi bo'lib, hatto ishqni ham biryoqlik qilishga qodir.

Ulardan biri xushnag'ma, rud asbobining mohir chaluvchisi, ikkinchisi esa qo'shiq aytuvchi edi. Ular soz va kuyni mohirlik bilan ijro etganlarida, Zuhra o'z burjidan uchib ketgisi kelar edi. Agar ulardan biri soz kuyi bilan kishining jonini olsa, ikkinchisi o'zi aytgan ashula bilan o'lgan badanga jon solardi. Bunisi soz

chalib, unisi qo'shiqda avjiga chiqsa, buni eshitgan aqlli kishilar ham o'z hushidan ajralar edilar.

Oy yuzliga ishq shiddati ortgan fursatda, ana shu ikki kanizagini xilvatga chorladi. Achchiq-achchiq yig'lagan holda ularga o'z holini bayon etdi va ishq qanday qattiq ahvolga solganini bildirdi. Tushda ko'rgan yigiti uni mahzun qilganini ham, o'ngida ko'rgani esa devona etganini ham, u yigit ishqidan zor bo'lib, shaydoyu beixtiyor bo'lganini ham birma-bir aytib bergach, shunday dedi:

- Siz mening sevimli dugonalarimsiz. Meni bu ahvoldan qutqarishda yordam bering. Aks holda bu sirim tikani xalq o'rtasida gul bo'lib ochiladi. Ishq o'ti esa tanimni kulga aylantiradi. Ammo bu kuyib yonishdan hech g'am chekmayman, agar o'lib ketsam ham alamzada bo'lmayman. Biroq men shu vaqtga qadar taqvoda lof urib keldim, endi bu sirim elga oshkor bo'lsa nomusdan o'laman-ku! Otamning ham bundan nomusga qolishidan ko'p g'am chekaman, buni hatto sharh qilishga ham ojizman. Chunki u falakning shohidek bir kishi sharafiga bu ish katta or bo'lib tushadi. Axir otam uchun mendaylardan yuztasi o'lsa ham hech narsa emas, xuddi daryoda bir xas cho'kkanchalik gap. Shunday ulug' shohning benomus bo'lishiga toqat qila olmayman, shu tufayli g'amim tobora zo'rayib bormoqda.

Men sizga o'z holimni bayon etdim, endi o'zingiz bilasiz: xohlang o'ldiring, xohlang bu ishning ilojini qiling! Ilgari asov bo'lgan bo'lsam, endi ishq qo'lida xorman, ilgari shaddod bo'lgan bo'lsam, endi ojiz bo'lib qoldim. G'amli ahvolimga rahmingiz kelsin, nolayu faryodimga shafqat qilinglar!

U ikkalasi bu nidoni eshitgach, malika oldida jon fido aylab, shunday dedilar:

- Shunday bir chora topaylikki, u nozanin yigit sening eng yaqin ulfatingga aylansin! Biz qilgan bu ishni hech bir odam bilmay qolsin. Qaysi bir odam, hatto o'sha go'zal yigitning o'zi ham sezmay qolsin. Ammo sen bir necha kun sabr-toqat qilgin, har dam ohu nola bilan un tortaverma! Chunki sening maqsading ishni yashirin tarzda amalga oshirmoqdir, biz ham shu tarzda ish tutmoqchimiz.

Oy yuzliga visol umid paydo qilib, sabr va chidamli bo'lishga ahd etdi.

Ikki dono kanizak bu orada diqqat bilan chuqur o'ylab, ishga kirishib ketdilar va yigit bilan borish-kelishni yo'lga qo'ydilar. Ular yigitni o'zlariga oshno qilib, uning ko'nglida ham shunday dard borligini bildilar. Unga shunchalik makr va firib ishlatdilar, oqibatda bu bechora g'arib yigit ularni tuzog'iga ilindi. Ulardan biri unga ona, ikkinchisi esa singil tutindi. Yigitga: "Chorangni biz topamiz. Sen bizga o'z ahvolingni ayon qilmasang ham, biz sening nimadan notavon ekanligingni bilib oldik. Agar uning ishq ko'ngling mulkini poymol etgan bo'lsa, hajringga bizdan visol umidi yetadi!" - deyishdi.

Yigit bu so'zlardan xursand bo'lib, jon-dili bilan ularga muhtoj bo'ldi. Ikkalasi unga nima deb farmon qilsa, u bunga jon-jon deb itoat etar edi. Ishbilarmonlar hiyla va aldov bozorini ana shu tarzda qizitib, bu turfa qushni shunday ov qildilar. Ular bizning manzilga yur, deb yigitni o'z uylariga taklif qildilar. U notavon ularnikiga shod bo'lib bordi. U yerda dilga xush yoquvchi bir shohona bazm tuzdilar. Ishaq asiri bo'lgan yigit may icha boshladi. Qadah ta'sir etib, u mast bo'lib qolgach, qizlar ishq va oshliqlikning o'ti va dudi, vasl va hijronning foydasi va ziyoni haqida turli hikoyalar so'zlar edilar. Uni qiziqtiradigan sirlarni aytib, unga ko'p narsalarni sharhlab berardilar. U bu so'zlarni eshitib, xuddi maqsad

jomini ichgandek, baxtsiz kishi o'z murodigaga yetgandek bo'lar edi.

May ichish va suhbatlardan so'ng u yosh yigit ishq aro shunday bir notavon holga tushdiki, bundan unga gungu lollik yuzlanib, zum o'tmay o'z holidan behol bo'la boshladi. Shunda ular hush oluvchi xushnag'ma rudni qo'lga olib, bir dilkash qo'shiqni boshlab yubordilar. Notavon bu qo'shiqni eshitib, hushidan ketdi. Go'yo u hushni ketkizuvchi may ichgan edi.

Tun behad qorong'u edi. Hushidan ketgan yigit kanizaklar qarshisida yotar, ikki ziyrak qiz o'z maqsadlariga erishgan edilar. Ular ishda sustkashlikka yo'l qo'ymay, g'ayrat bilan tezda bir kajava hozirladilar. Yigitni kajavaga solib, tezlik bilan bu yerdan olib ketdilar va oy yuzli bazmiga yetkizdilar. Sarvni gul visoliga muyassar etdilar. Bu yerda shodlik qilish uchun kerak bo'lgan barcha asboblarni muhayyo bo'lib, shirin labli oyjamol ularga xilvatda intizor edi. Ikki chora topuvchi kanizaklar kajavada bir oq badanli sarvni uning huzuriga yetkizdilar. Uni mahvash taxti tomon olib borib, oyni xurshidga topshirdilar.

Oy yuzli vaslda o'z maqsadiga erishgach, yigit yuziga gulob sepishni buyurdi. Atir hidlari hushsiz dimog'iga yetib borgach, u ko'zini ochdi va jannatmisol bir joyni ko'rdi. Yonida hur va parilarga o'xshash bir go'zal qiz - o'sha ko'nglini zor aylagan oy yuzli jonona turar edi. U shu zahotiyuq o'rnidan sakrab turib, ajib bir holatda yana qayta yerga o'tirdi. Tevarak-atrofiga hayronlik bilan boqa boshladi. Ostida katta bir shohona taxtni, yonida baxtiyor holda kulib turgan bir dilbarni ko'rdi. Shunda u o'ziga o'zi "Yo Rab! Ne hol ekan bu hol? Tushimmi, o'ngimmi va yoki xayol?!" - dedi.



Oy yuzli unga shirin soʻzlar bilan taskin berdi va visol rasmini bajo keltirib: “Ey hushidan ajralgan, bu tush emas, shukr etib, endi vasl jomini ichgin!” – dedi. Shu soʻzlarni aytgach, pari qoʻliga bir jom tutib, uni oʻzi ichdi va yana qadah toʻldirib, undagi gulrang mayni yigitga uzatdi.

Nafis libos kiygan Uzro kabi goʻzal chehrali soqiy hushini yoʻqotgan yigitga qoʻsha-qoʻsha qadah ichirar edi. May jomi hayo oʻtiga suv sepib oʻchirgach, ular bir-birlariga pardasiz soʻzlar ayta boshladilar. Shu tarzda gʻamli oshiq va mungli maʼshuq ishrat uyida birga boʻldilar. Ular shunday birlikka erishdilarki, oʻrtadan ikkilik degan narsa koʻtarildi. Havas imkon beradigan har qanday koʻngil ochishni bu ikki hamnafas bir-birlaridan topdilar. Ular shunday adabsiz ishlar qildilarki, bularni sharhlab oʻtirish odobdan yiroqdir. Ham yigit mushtoq, ham qiz muhtoj boʻlib, ular yuzga yuz, ogʻizga ogʻiz qoʻygan edilar. Qolgan ishlarni ham shunga qiyos etsa boʻladi. Oxiri nima bilan tugaganini ham shundan bilib olish mumkin. Saharga qadar ular shu xil ayshu ishrat qurib, ikki tomonlama adabsiz ishlarga yoʻl qoʻyishdi.

Subhidam tun sirini fosh qilib, yer ustidagi mushkdek qorongʻulik ustiga oppoq nurlar sepa boshladi. Tong oqarishib kelmoqda edi. May ham ularga kuchli taʼsir qilib, bazm qiluvchilarning hushini olib qoʻygan edi. Bundan bezovta boʻlgan ikki kanizak parda orqasidan turib, kuy chalishni boshlab yubordi. Ular bazm qiluvchilarning aqlini oʻgʻirlab, yigitni yana behush holga keltirdilar. Xastalik unga taʼsir qilib, u behol boʻlgancha yerga yiqildi va idrokini yoʻqotdi.

Tadbirkor kanizaklar bunga erishgandan soʻng, oshiqni tagʻin kajavaga solib, oyogʻidan mahkam bogʻladilar. Uni oʻzlari olib kelgan oʻsha avvalgi

koshonaga olib borib qo'ydilar. G'am tikanidan ozor chekuvchi oshiqni yana o'z g'amxonasiga yetkazdilar.

Yigit mastlik uyqusidan xalos bo'lgach, dimog'iga tong yeli kelib urildi. U ko'z ochib, mulohaza yurita boshladi. Bo'lib o'tgan ahvol, yuz bergan hodisalar birma-bir uning xayolida gavdalanar edi. Mahbubasini eslab, ichidan mungli bir oh otilib chiqdi, a'zoyi badanini toshga urib, sog' joyini qoldirmadi. O'z-o'zi bilan ko'p mojarolar qilib, bu yorug' olam ko'ziga qorong'u ko'rinib ketdi. Ko'zlaridan yulduzlar kabi yoshlarini shashqator to'kib, ohu dard chekar, atrofga g'avg'o solar edi. Vasl bazmini xayoliga keltirib, jinnilardek nola qilardi. U o'z-o'ziga shunday der edi:

- Xudoyo! Ne tadbir aylayin?! Kimga o'z holimni bayon qilayin! Agar buni birovg'a aytmay, xomush turay desam, toqatim yetadimi?! O'zimni ushlab turishga quvvat topa olamanmi?! Holatimni yashirin tutishni yoki oshkor etishni ham, so'z deyishimni yoki tek turishimni ham bilmayman. Bu dardimni aytgan bilan ado qilib bo'larmidi! Menda uning mingdan birini gapirishga ham imkon yo'q. Agar uni maxfiy tutishni xayol qilsam, unda jon tark etishim mumkin.

U shu tarzda g'avg'oyu nola chekar, na tanida ruh, na boshida hush qolgan edi. Uning bu xil hayratlanishi har lahza jonga ta'sir qilar, el ham uning bu holiga hayron bo'lar edi. Har kishi uning bu ahvolini so'rasa, u javob bermay, faqat shunday der edi:

- Mendan, bularni so'ramangiz, kuyganim basdir, yana kuydirmangiz! Holatimni sharh etib bo'lmaydi, bunga erishmagan kishi uni his eta olmaydi.

Yo Rab! O'sha iqbol bilan vasl bazmida istiqbolga erishgan kishi men edimmi?! Agar men uni sharh qilmoqchi bo'lsam, boshqa kishi bunga ishona oladimi?!



Hayratim jonimni o'rtar – naylayin?! Jismi vayronimni o'rtar – naylayin?!

Avval vasl birligi ichra maqsadga erishib, ma'shuq bilan qovushdim. So'ngra hijrondan bu xil mashaqqatga duch kelib, hayrat ichra hayratga cho'mmoqdaman.

Yo Rabbiy! Shunday ajib cheksiz bir holatga tushib qoldimki, uni hech kimsaga nasib etmagin!

CLXI

Faqrु fano vodiysining bayoni

Hayrat vodiysidan o'tsang, Faqrु fano vodiysiga duch kelasan. Bu vodiйда xomush, gung, kar va behush bo'lishdan o'zga narsa yo'qdir. Chunki bu chuqur dengiz to'fon girdobida bo'lib, unda yuz tuman olam g'arq bo'ladi. Kuchli bo'ron o'zining yuksak to'lqinlari bilan ming xil naqshlar paydo qiladi. Dam-badam bu naqshlar yo'qolib, yana ming xil turli yangi mavjlar paydo bo'ladi.

Agar sen bu hodisaga yaxshi nazar solsang, mavjda vujud yo'q ekanligini ko'rasan, chunki dengizdan o'zga barchasi nobud bo'luvchidir.

Haq vujudi ana shu cheksiz dengizdir, uning yuzidagi mavjlar esa bu olamdagi turli-tuman narsalardir. Ma'no ahllari e'tibor qiluvchi ushbu o'n sakkiz ming olam ichida nimaiki narsa bo'lsa, ular shakl jihatidagina mavjud bo'lib, shaklda ko'rinuvchanlik xususiyatiga egadir.

Yer sathi uzra yuzlab ajoyib shakllar mavjud, har bir shaklning o'zi yana rang-barang tovlanishlarga ega. Faraz qil: tevarak-atrofdagi dengizlar yoki ma'danli konlar, yoki dasht-sahrolar, yoki gulshanlar, yoki to'rg'ay va bulbullarni o'ziga rom etib, ularni halok qila oladigan darajadagi rango-rang nafis gul va lolalar, turli iqlimlar va mamlakatlar, daryolar, buloqlar va tog'lar hamda ularni o'rab olgan o't va havo, balki o't va havodan boshqa yana bir qancha narsalar mavjud.



Bular atrofida yana to'qqiz qavatli osmon, sobitu turg'un va kezuvchi sayyora hamda malaklar to'dasi bor. Ular son-sanoqsiz, balki miqdor ichra cheksiz ko'pdir. Undagi ko'zga ko'rinmas darajadagi e'tiborsiz yulduzlar yer jismiga o'xshab ketadi.

To'rt unsur, yetti qavat osmon va olti tomon – bular koinotning nodir va eng oliy asosini tashkil etadi. Koinotdagi barcha narsalar ichida hammadan eng ulug'i Inson bo'lib, uning kamoloti oldida aql hayron qoladi.

Bunda sen yo yoxud avom deb gumon qil yoki u oliy tabaqaga mansub bo'lsin, yoki qudrat sohibi bo'lgan sultonlar, yoki ixtiyor egalari bo'lgan xoqonlar, agar faylasuflar, olimlar, yoki diniy qoidalarni o'zgartirib, yangi mazhablar tuzuvchi kishilar bo'lsin, yoki uyushmagan qavm, yoki ittifoqli jamoa bo'lsin, xalq orasida yetuk sanalgan valilar, yoki faraz qilki, Tangridan elchi bo'lib kelgan payg'ambar bo'lsin – bularning barchasini Haq zoti dengizining mavji deb bil, hamda o'sha vujudning mavji deb anglagil! Ammo ularning barchasi vaqtinchalikka naqsh etilgan bo'lib, o'tkinchilik xislatiga ega, boqiylik ular uchun xos sifat emas.

Dengizning chayqalishi ana shu xil turli mavjlarni hosil qilgan va har yoqqa turli-tuman naqshlarni vujudga keltirgan. Bu to'lqinli dengiz bir zum taskin topsa, u mavjlardan asar ham qolmaydi.

Agar har bir kishida aql mavjud bo'lsa, shuni bilsinki, azaldan to abad bu olamdagi mavjud barcha narsalar borliqqa ega emas, faqat shakl ko'rinishiga ega. Qudratli Haqdan boshqa hamma narsa foniy – o'tkinchidir, faqat yolg'iz Ugina mutlaq boqiydir. Unga vujud tartibi mahkamlangan bo'lib, borliq rasmi inkor etilmasdan ma'qullangandir. Haqdan o'zga har qanday zot, faraz qilaylik, obi hayot ichgan bo'lsa ham, bu olamda mutlaq

o'tkinchi hisoblanadi. Agar sen boqiylik istamoqchi bo'lsang, o'zingni foniy qilmog'ing zarur.

CLXII

Hikoya

Shayx Abul Abbos⁷⁰ qassoblikka mansub bo'lib, o'z zamonasining zabardast peshvolaridan biri edi. U fano vodiysiga qadam qo'yib, o'z vujudini unda yo'qotdi.

Bir kun u honaqohda o'tirar, tevaragida esa suhbatdoshlari yig'ilgan edilar. Bu mahalda bir g'alati devona beadablik bilan xonaqoh sahniga kirib keldi. Kirgan zahotiyoq, minbarga chiqib:

– Ey, xonaqohda turuvchilar! Menga quloq berib, so'zlarimni yaxshilab tinglangiz! Men uchun hozir suv to'la obdastani hozirlang! Men o'zimni poklab olganimdan so'ng tahorat qilmoqchiman, – dedi.

Oliy qadrli shayx bu so'zni eshitgach, unga obdasta eltib beringlar, dedi. Xonaqohdagi bir darvesh katta bir chiroyli obdastani suv bilan to'latib olib keldi. U zoti past bu obdastani sindirib, yana bitta idish olib kelishni buyurdi. Darvesh yana bir obdasta olib keldi. U shu zahotiyoq bu idishni ham urib sindirdi.

Darvesh shayxga bu holni ma'lum qilgach, shayx: “Boring, u nechta idishni sindirsa ham olib borib beravering”, dedi.

Unga nechta obdasta olib kelgan bo'lsalar, u hammani birma-bir tosh bilan urib sindirdi. Nihoyat, undan uzr so'rab, bu yerdagi idishlarning barchasini urib sindirding, xonaqohda yana senga keltirib bergudek bironta ham idish qolmadi, deb aytdilar.

Shunda u dedi:

⁷⁰ Abul Abbos Qassob Omuliy – mashhur shayxlardan, ismi Ahmad bin Muhammad bin Abulkarim, 921 yilda vafot etgan.

– Agar idish bo'lmasa, orqangizga qayting va borib bu so'zlarni shayxingizga aytingki, endi u o'z soqolini bu yerga olib kelsin, toki men buyurilgan farzdan qutulayin!

Shayx bu hayosiz so'zlarni eshitgach, o'rnidan sakrab turib, u tomonga qarab yurdi. U shunday der edi: "Eh, qanday xush soatu baxtiyor holat! Qarangki, bir qassob o'g'liga soqol bitsayu u yillar davomida u soqolga oro berib, yuvib tarasa va vaqti kelib uning bu soqoli shunday bir ishga yarab qolsa! Unga bir darvesh iltifot ko'rsatib, o'zini g'amdan qutqarsa!"

Shayxning bejirim oppoq soqoli bor edi. Uni hovuchiga tutamlagancha boyagi kishining oldiga yo'naldi.

Bu odam g'ofil va hayosiz, balki idroki yo'q telba bir kishi edi. U shayxdan bu xil fano xislatini ko'rgach, endi ortiqcha aljirash uchun o'zida quvvat topmadi. Shayx oyog'i ostida o'zini tuprog' etib, yerga bosh qo'yganча hushidan ketdi.

Foniylikka erishgan murshid unga nazar solib, undagi o'zlikdan asar ham qoldirmadi. Gumrohni shu tarzda kamolga yetkazib, misni oltinga aylantirdi. Har bir kishi rang naqsh va bo'yoqdan – o'zligidan chiqmay turib, bunday ishni qilishi mumkin emas.

Ey Foniy, sen ham Haqdan ana shunday yo'qlik tila! Bu xil yo'q bo'lish bilan abadiy borliqni qo'lga kiritasan!

CLXIII

Komil Fanoga erishmoq haqida

Xoja Bahovuddin Naqshband so'zlari

Oliy sifatlar egasi va mo'tabar zot, Shoh Baho ul – va din Naqshband⁷¹ bu mintaqada taxtidan ketgach, yo'qlik mulkida ham podsho bo'ldi. Bu Haqni biluvchi kishi pok sayr qilish paytlarida o'z vujudini turli narsalarga qiyos

⁷¹ Bahovuddin Naqshband – buxorolik mashhur shayx va mutafakkir, naqshbandiya tariqatining asoschisi; 1390 yilda vafot etgan.



etar edi. Ammo hamma narsadan o'zini kam ko'rib, o'zini sarvu gul oldidagi tikan va xas kabi tutar edi. Bir kun uning ko'ziga tozalikdan yiroq bo'lgan bir qo'tir it ko'rindi. Shayx uni o'zi bilan tenglashtirib, ko'ziga yosh olganча nola cheka boshladi. U shunday der edi:

– Bu it vafo qiluvchilar toifasidandir, men esa unday emasman. O'zimni u bilan teng deb ayta olmayman. U xudovandiga (egasiga) vafodan o'zga narsa qilmaydi. Men esa Egamga faqat jafo qilaman, xolos!

Nazar egasi bo'lgan shayx shunday degach, it uning oldidan yo'l solib, o'tib ketdi. Tuproq ustidagi it qoldirgan izlarni ko'rgan Shayx yana nisbat qilishda davom etib, shunday dedi:

– Men ortiqmanmi yoki bu iz?

Yana o'ziga o'zi dedi:

– Ey insofsiz kishi! Bu iz vafodorlar oyog'idan nishonadir, sen esa vafosizlik sari etak sudraysan!

U shu mazmunda so'zini tugallagach, yer o'pib, it izlariga ko'zlarini surta boshladi.

Haq ahli o'z vujudini ana shu xil inkor qiladi, borlig'ini shu yo'l bilan yo'qqa chiqaradi. Shu tarzda ularda o'zlikdan asar qolmagach, fano jomini sipqoradilar. Ular Haq vujudidan baqo topmay, birlik jomida uning yuzini ko'rolmaganlaridan so'ng yo'qlik ahliga qo'shilib, mutlaq borliqqa vosil bo'ladilar.

CLXIV

Haqiqiy sham sharhida parvonalar to'dasining fikrlari

Bir kecha parvonalar jam bo'lib, shamga yetishmoqqa harakat qilishdi. Qanotlarini o'tda yoqishga hozirlab, "Biz izlovchilarmiz, sham nuridan nishon izlaymiz. Agar undan nimaiki topsak, uni izhor qilaylik. Sharh etib, asl zotining nimadan iborat ekanligini aniqlaylik", – dedilar.



Bu soʻz aytilgach, parvonalardan biri qanotlarini qoqib, sham haqiqatini bilish uchun bordi. U yuqoridan qorongʻu kechada toʻda boʻlib turgan parvonalar guruhini koʻrdi, oʻrtada sham yoqigʻliq turar edi. Parvona sham nuridan koʻzini munavvar qilib qaytib keldi va sham haqidagi soʻzlarini ularga yoydi. U sham haqida soʻz yuritar, lekin boshqalar bundan xabardor boʻlmas, uning soʻzlari boshqa parvonalar qalbiga yetib bormas edi. Parvona har qancha ravshan yonib soʻzlamasin, eshituvchilar bundan hech naf topmadilar. U aytgan soʻzlar foyda keltirmagach, yana boshqa bir parvona shamga qarab parvoz qildi. U sham bazmiga kirib borib, nuriga diqqat bilan nazar soldi. U ham boyagi parvonadek qaytib kelib qanchalik soʻz aytmasin, parvonalar toʻdasiga maqsad ayon boʻlmadi.

Yana boshqa parvona ham bu ishga urinib, sham boshi atrofida koʻp aylandi. Undan ham murod hosil boʻlmadi, mushkul ochildi.

Bundan oʻzgalar ham iztirobga tushib, ular maqsad sari shitob bilan intildilar. Sham tevaragida koʻp qanot qoqib, har biri qanot quyruqlarini kuydirdilar. Har biri kuygancha, oʻzi istagan maqsadga erishdi, ammo buni sharhlash qiyin ish boʻlib, naql qilish esa harom hisoblanardi. Chunki kishi shuʻlani til bilan sharh eta olmaydi, kuymasdan turib, uning mohiyatini bila olmaydi.

Parvona bu ish haqiqatidan xabar topgach, aʼzoyi badani kul boʻlib, undan asar ham qolmadi. U qoʻrqmasdan oʻzini shuʻlaga urgach, aʼzosiga oʻt tushib, pok boʻldi va oʻzi ham shuʻlaga aylandi. Chunki istagan maqsadi unga ayon boʻlib, bundan ortigʻini bayon qilishga hojat qolmadi. Chunki u maqsad ichra nobud boʻldi va bu fanoda ayni muddaoning oʻziga erishdi. U



haqiqatdan xabar topdi, shuning o'zi unga yetarli bo'lib, boshqa so'z aytishga o'rin yo'q edi.

Agar kishilar parvonalarining bu holiga diqqat qilsa, ularning ko'nglida ikkita fikr kashf bo'ladi. Birinchisi shuki, kuymasdan turib, uning mushkuli ochilmaydi; sham bilan birlikka erishmasdan turib, murodiga yeta olmaydi. Toki fano o'tiga o'z vujudini solib, bu shu'lada boru yo'g'ini o'rtamas ekan, maqsad nuri uning qo'liga kirmaydi, tilagan visoli unga yuz ko'rsatmaydi.

Ikkinchidan, bu xil chaqmoq uni otash dengiziga g'arq qilgach, unda so'z aytish imkoni qolmaydi, bu ish sirini so'z bilan bayon etish uning uchun amrimahol hisoblanadi. Bunda kuymasdan turib, elga ish ochilmaydi, kimki kuysa, o'zgaralar uning holini bilmaydi.

Ey, Foniyl! Fano haqida lof urishni bas qil! Vaslga erishmoqchi bo'lsang, yaxshisi, fano o'tida kuy! Sham o'tiga aylangan parvona kabi o'zingni shu'laga devonalarcha ur! Vujudingdan asar, borlig'ing o'rish-arqog'idan nishon qolmagach, maqsad ichra tilaganingga yetasan! Bu mojaroni el bilmasa bilmay qo'ya qolsin!

CLXV

Shayx Sufyon Suriyning⁷² fanodan so'ngra baqoga erishmoq haqida aytgan so'zi

Shayx Sufyon Suriyki, u din hamsuhbatlarining peshvosi edi, Alloh uning joyini abadul-abad nurli qilsin. U ma'rifat haqida so'z yuritayotgan paytda bir shogirdi so'radi:

- Agar bir kishi Tangriga yetishmoqchi bo'lsa, bu maqsadga qay yo'sinda erishadi?

U shunday javob berdi:

⁷² Shayx Sufyon Suriy – mashhur shayxlardan, ismi Abu Abdullo binni Said, 783 yilda vafot etgan.

in - Buning masofasini ming manzildan iborat, deb bil. Ularning har birida dard va ofatlar bor. Bu o't va nur o'rtasidagi yetti dengizdan tashkil topgan bo'lib, ulardan har birining kengligi cheksizdir. Bu dengizlardan o'tmoqchi bo'lsang, qarshingda domiga tortuvchi ulkan baliq namoyon bo'ladi. U shunday dahshatli baliqki, bir dam tortsa, ikki olamni bus-butunicha barcha yaratilgan narsalari bilan birga qo'shib yutib yuboradi. U istig'no dengizida maqom tutib, Muhit atrofida suzib yuradi.

CLXVI

Qushlarning fano vodiysi so'ngida baqo mamlakatidan nishon topganlari

So'z yuziga shundayin yaxshi niqob tortilib, savol va javoblar tugadi. Bu so'zlarni eshitgan qushlar aql sharhlab bo'lmas darajada qiyin holga tushdilar. Ular bu ishning nihoyatda mushkulligini, bu jamoaning uni bajarishga qodir emasligini fahmlab yetdilar. Shu tufayli ular o'zlaridan umid uzib, tuganmas qayg'uga muhtalo bo'ldilar. Ular Hudhuddan bir xil halok qiluvchi so'zlarni eshitgach, barchasining qalbidan fig'on dudi ko'tarildi. Balki ular bu ish siridan voqif bo'lib, bundan cheksiz vahimaga tushdilar. Bu vahima shu onning o'zidayoq ularning bir qanchasini halok qildi. Jon vahimasiga duchor bo'lganlari yo'qlikka ketgach, qolgan qushlar hayratga cho'mgancha yo'lga tushdilar. Ular yillar tinim bilmay qanot qoqib, oldilariga duch kelgan balodan qo'rqmadilar. Shu tarzda ular o'zliklaridan chiqqunga qadar pastu baland ko'p yo'llarni bosib o'tdilar. Bu yo'lda ular shunchalik ko'p qiyinchiliklarga duch kelishdiki, ularni hatto yuz tuman til bilan ham sharh etib bo'lmaydi.

Agar sening oldingga ham bu yo'l ro'para bo'lib, uni bosib o'tsang, uchib o'tgan qushlarning tortgan qiyinchiliklarini mushohada eta olishing mumkin.



Ularning bu yo'l balosidan qanchalik qonlar yutganini o'shanda bilasan.

Pirovardida bu zor qushlar guruhidan qiynalgan ushbu majruh to'dadan ozchilik qism tanlari nihoyatda qiynalgan va jonlari o'rtangan holda maqsadga yetib kelishdi. Chunki yo'l cheksiz va uzoq bo'lib, unda ofat ko'p, dard, ranj va shiddat esa benihoya edi. Shuning uchun bu qushlardan ba'zilari yo'lda jon taslim qildilar, ba'zilari og'ir xastalikka duchor bo'lib, yarim yo'lda adashib qoldilar. Qushlar oldidan azob-uqubatning achchiq shamoli esib, bu musofirlarning umr iplarini kesar edi. Yo'lda ularni baloga duchor qiluvchi hodisalar hadsiz-poyonsiz edi, shu sababli ular imkoniyat darajasigacha ko'p nobud bo'lishdi.

Oqibatda yuz tuman ming qushdan faqat yuz minglab mashaqqatga duchor bo'lgan o'ttiz qushgina omon qolib, oxirgi manzilga yetib keldi. Ular shunchalik horib-charchagan edilarki, tanlarida hatto hayot nishonasi yo'qdek edi. Jismlarida birorta ham butun parlari qolmagan, patlari xuddi tarasha o'tinga o'xshash parcha-parcha bo'lib to'zib ketgan edi. Tanlari yo'l azobidan madorsizlangan, jonlari oziqsizlik, dard va mashaqqat chekishdan xarob bo'lgan edi.

Ular kelgan manzilda oliy darajadagi bir joyni ko'rdilar. Bu yer shunday bir joy ediki, aql uning kengligini idrok qilishga ojizlik qilardi. Butun osmon hatto u yerdagi oddiy bir xasdan ham kichikroqdir. U yerda ehtiyojsizlik bulutidan jala yog'ar; momaqaldiroq dahshatli gumburlab, tez-tez chaqmoq chaqilib turardi. Go'yo olamga balo to'foni yog'ilib, osmonni ofat chaqmog'i kul qilib yuborgandek edi. Bu yerda yetti ko'k bir hovuch tuproqcha, jannatda o'sadigan sidra va to'bi kabi daraxtlar esa xas kabi qadrsiz edi.



Qushlarning barchasi o'z holiga hayron qolishib, o'jizlikdan zoru parishon bo'ldilar. Ular yuzta yorqin quyosh ham bu yerdagi zarraning yuzdan biricha qadrsiz turishini ko'rdilar. Bundan ularning qanot-quyruqlariga o't tutashib, o'z hollariga cheksiz nadomat bilan "Hayhot! Hayhot!" deya boshladilar:

- Biz o'ttizta xomxayol qush ko'nglimizga bo'lishi mumkin bo'lmagan ish savdosi tushib, jonimizga har doim o'lim vahimasidan qo'rquv yopishib, bu yo'lni bosib o'tish uchun ulkan mashaqqatlarni boshdan kechirdik. Umrimizni o'tkazib, oh, shu maqsadga erishdik. Bu dargoh shunday azim va bepoyon ekanki, bu yerda bizga na son bor ekan, na salmoq!

Ular shu so'zlarni aytib, boshlaridan dud chiqaza boshlashdi. Bu hol sarsonlikda ovora bo'lgan qushlarning ko'nglini buzib, har damda yangi bir umidsizlikka yuz burdirar edi.

Xullas, ovora va sargashta qushlar o'z g'amlariga chora topa olmay, uchish uchun quvvatlari, og'ir dard tufayli qo'nish uchun toqatlari qolmagan bir paytda nogoh parda orqasidan izzat elchisi jilvalanib go'yo davlat qushi kabi ularning oldiga yetib keldi. U bu yuz balo ipi bilan bog'langan va hayratda qolgan xasta qushlar to'dasini ko'rib, ularning holini so'rashga mayl ko'rsatdi va shunday dedi:

- Hoy, bu to'da qanday jamoatdir?! Bu ming baloga muhtalo bo'lib, balodan bo'lak bahra topmaganlar kim ekan? Bu parishonhol va sargardon, qadru qiymatda tuproq bilan teng bo'lganlar kim bo'ldi? Bu xil tahqirlarga mahkum bo'lib, bu haqirlikdan ko'ziga hech narsa ko'rinmaganlar kim?!

Qushlar unga shunday dedilar:
- Biz xor va zor bo'lgan, behuda ish qiluvchi, o'jiz va bee'tibor bir guruhmiz. Shoh istab chiqdik va bu yo'lda



jonimizni turli azoblarga muhtalo qildik. Shunchalik ko'p mashaqqat tortib, uning dargohiga yetishni orzu etgandik.

Biz shohi bo'lmagan juda katta qo'shin edik. Agar qo'shinda shoh bo'lmasa, u qanday qo'shin bo'ladi?

Umr bo'yi yo'lda mashaqqat tortib, yuz tuman turli xorliklar ko'rib, ana shu tarzda necha yuz ming bu yo'lga mansub bo'lgan to'da (ular shunchalik ko'p ediki, bundan inson aqli ojiz qolardi) shu yo'lga kirib, halok bo'lishdi. Bu dargohga faqat biz o'ttizta qushgina yetib keldik. Istagimiz Semurg' bizga shoh bo'lib, barcha yaxshiyomonimizdan xabardor bo'lsin edi. Agar bizning bu taklifimiz shohga ma'qul tushsa, bizdek bir necha zoru asir uning qulligini bajonidil qabul etar edik!

Elchi qushlarning bu so'zlarini eshitib, ularga shunday dedi:

– Ey gumroh to'da! Sizlar aqlsizlikda nom chiqaribsiz. Sizlar oshuftahollikka tushib, dimog'ingizga puch xayollarni keltirmoqdasiz. Shu ahvolda qaysi tilingiz bilan shohning nomini zikr qilmoqdasiz? Nechuk bu fikr ko'nglingizga yo'l topa qoldi?!

Sizlar hech narsaga arzimaydigan, balki undan ham past turadigan bir guruhsiz. Shoh esa sizlarning bu poyma-poy andishangizdan yuksakda turadi. O'zingiz hech narsaga arzimaysizu yana qizishib, bekordan-bekorga hovliqasiz! Go'yo o'zingizni mavjudman deb tasavvur qilasiz! Sizda aslida na son bor, na hisob bor va na vujud! Borman deb tuhmat qilasiz, ammo yo'qsiz! Ko'nglingiz xomxayol bilan to'la, muddaoingizning barchasi amrimaholdir!

Bu yer shunday muazzam saroydirki, hatto bunda yuz ming quyosh ham kichik bir zarra kabi nur socha olmaydi. Bu yerda yuz ming quturgan fil bir o'lik



pashshadek gap! Shunday bir joyda siz na borsiz, na yo'qsiz, balki borligingiz yo'qligingizdan ham kamdir!

Bunday behuda so'zlarni aytmasdan, tezda orqangizga qaytinglar. Agar yana biror gapingiz bo'lsa, qaytayotgan paytda aytib ketinglar!

Bu so'zlarni eshitgach, qushlarning hushi boshlaridan uchib, ularga ojizlik yuzlandi, hatto tillari gapga aylanmay qoldi. Hammalari bir-birlarining pinjiga kirib, umidsizlik o'tida yona boshladilar. Ular o'zlariga o'zlari shunday der edilar:

- Hayhot! Zoe ketgan mehnatlarimizga ming afsus! Tortgan shuncha shiddatlarimizga ming afsus!

Agar shoh shunday oliy dargohga ega bo'lsa, biz kabi bir necha xaroblar uning oldida qanday ko'rinish beradi? U bizdek faqirlarni nazariga ilarmidi? Hayf shuncha umid bilan harakat qilganlarimiz! Hayf abadiy davlatga erishamiz deb qilgan orzularimiz!

Qushlarning barchasi chuqur qayg'uga, cheksiz hasrat va armonga muhtalo bo'ldilar. Ular:

- Biz kabi g'amli, orzu va umidlaridan yiroq tushgan bir guruh bor ekanmi?! - deya xitob qilishdi.

CLXVII

Qushlarning fanoga erishishdan umidsizlikka tushib turganlarida, Hudhudning to'g'ri yo'l ko'rsatgani tufayli ularda quvvat hosil bo'lgani

Shunda Hudhud ularga dedi:

- Ey bechora, xonumonu mulkidan ovora bo'lgan gala! Shoh marhamatidan noumid bo'lmang, chunki uning sifatlaridan bittasi karam ko'rsatishdir. Agar uning visoliga erishish qiyin bo'lsa, ishqida o'lmoq ham yaxshi ishdir.

Biz bu iqbolni qo'lga kiritib, bugun uning dargohiga yetib keldik. Shu saodatning o'zi ham biz uchun oliy

martabadir. Endi uning ishqida barchamiz halok bo'lsak ham mayli.

Bu so'zlarni eshitgan qushlarning barchasi yuraksizlik izhor qilib, Hudhudga shunday deyishdi:

– Ey, hikmatshior! Biz o'z oldimizga duch kelgan barcha balolarga sabr-toqat ko'rsatib, sening hamma buyrug'ingni qabul etdik! Sen qayerda qanot urgan bo'lsang, biz sendan ayrilmadik. Nimaiki amr etgan bo'lsang, qarshilik ko'rsatmadik. Ammo vasl chog'i bizga ayriliq g'ami yuzlandi. Bu sen aytgan so'zlarga to'g'ri kelmaydi-ku!

Hudhud ularga shunday dedi:

– Siz tushkunlikka tushmang va bundan aslo ozor chekib, ranju uqubat tortmang! Biz bu yo'lga qadam qo'yib, yuz xil balo-qazoni chekishga jazm etgan mahalimizda bizning bundan maqsadimiz shohga erishmoq va uning dargohiga yetishmoq edi. Endiki biz bu maqsadga yetib, uning dargohiga yo'l topgan ekanmiz, o'zingizni asl maqsaddan yiroqda deb gumon qilmang.

Agar oshiq o'z ishqida haqiqiy kamolotga erishgan bo'lsa, uning uchun hijron ham, visol ham teng hisoblanadi. Chunki yorning xohishi oshiq uchun orzu etilgan narsa bo'lib, u nimani istasa o'sha, ma'qul sanaladi. Yor vaslini qo'lga kiritmagan bo'lsangiz siz uchun uning yodi bilan yashash yetarli emasmi?! Har bir kishi yor yodi bilan jon bersa, uning bu o'limi mangu hayot bilan tengdir.

CLXVIII

Hikoya

Majnunni dashtda bir kishi uchratib qoldi. U o'zi bilan o'zi so'zlashmoqda edi. U kishi Majnundan so'radi:

– Sen kim bilan so'zlashmoqdasan?

– Ey, baxtiyor odam, men Layli bilan gaplashmoqdaman, – deb javob berdi Majnun.

– Axir u sendan ancha masofa uzoqda-ku!

– Ey g‘ofil, u mening jonimdadir! Uni yodga olish jonimga oziq bag‘ishlasa, yo‘l yiroqligiga uchun uni unuta olamanmi?

Kimki ishqda kamolot kasb etsa, uning vujudida ma‘shuq yodi mujassamlashgan bo‘ladi. Agar siz ham ishq borasida lof urmoqchi bo‘lsangiz, undan sizga dard kelsa ham shodlik o‘rnida qabul eting!

CLXIX

Qushlarning oliy fanoga erishib, baqo vasliga yetgani

Bu musofirlar ko‘pgina dengiz va quruqliklarni bosib o‘tib, ko‘zlagan manzilga yetib kelgan edilar. Ular tunu kun yo‘l yurishdan sira hormasdan oldilariga har qanday balo kelsa ham yuz qaytarmasdan o‘z istaklariga erishganlarida, bu mag‘lub to‘daga jamolni ko‘rishga to‘sqinlik qiladigan parda tutildi. U qushlarga o‘z ulug‘vorligini ko‘rsatib, qarshilik ko‘rsatsa ham, benavo qushlar o‘z fikrlaridan qaytmadilar. Garchi ulardan ba‘zilari ko‘ngilsizlik ko‘rsatgan bo‘lsalar-da, Hudhud to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi so‘zlari bilan ularning tushkunlik va ko‘ngilsizlikka tushishiga yo‘l qo‘ymay, bu xususda ancha va‘zlar aytdi. Hudhud aytgan so‘zlardan ularga jon kirib, mushkul ishlari yanada osonlashdi. Chunki ularga sodiqlik va ixlos qo‘yish yor bo‘ldi. Yorni istashda esa bu ikki holatning foydasi ko‘pdir. Garchi ular ulug‘lik oldida tuban, xor bo‘lgan bo‘lsalar-da, Hudhud ularni g‘am yemaslikka chorlab, ko‘pgina dalillar keltirdi. Ularda mardonalik mavjud bo‘lib, komil yo‘lboshchi ham oqil va dono edi.

Ulardagi bu sodiqlik va ixlos ikkinchi fanoga⁷³ erishish imkonini berdi, yorni ularga oshno qildi. Vasl bog'idan marhamat shabadasi esib yoki deylik Masihning pokiza nafasi kelib, ular oldida niqob bo'lib turgan barcha pardalarni birma-bir olib tashladi. Nur va zulmatdan iborat bo'lgan hamma pardalar bartaraf bo'ldi. Vasl bog'ida shodlik va maqsad guli ochilib, uning muattar bo'yidan ko'ngillar yayradi. Qushlarning dillaridagi shikastalik yo'qolib, vasl ichra bu xil maqsad va shodlikka erishdilar.

Bu gulshandagi har bir gul go'yo bir ko'zgu kabi edi. Qushlar qayoqqa qarasalar, o'zlari namoyon bo'lar edilar. Bu yerda bulardan boshqa yana nur va soflik, oshkora va yashirin narsalarning hammasi bor edi. Bu go'yo kishining ko'zguga qaragani yoki tiniq, pokiza suvga boqqani kabi edi. Hamma narsa boshdan-oyoq ko'zga tashlanib, ko'zgu yoki suvning kishi aksini ko'rsatganiga o'xshar edi.

Bu o'ttizta qushning shuncha ko'p mashaqqat va ranj chekib, bu yerga yetib kelganlaridan maqsad ularga Semurg' o'z yuzini ko'rsatib, bu fanolardan ana shunday baqoga erishmoq edi. Ammo ular qayoqqa qarasalar o'zlarini ko'rdilar. Alloh-Alloh! Bu qanday ajoyib so'zki, Semurg'ni orzu qilgan o'ttizta qush o'zlarini o'sha Semurg'⁷⁴ siymosida ko'rdilar!

Bunda xuddi sadaf gavharga aylangani kabi "man araf"⁷⁵ siri zohir bo'ldi.

Ey, ko'ngil! Bu nozik ma'noli so'zlar qushlar tilidir, balki ramzu imo mulkidan xabardor bo'lgan kishi-

⁷³ Ikkinchi fano – eng oliy darajadagi foniylilik. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra bu bosqichda so'fiy ruhan yor (Xudo) vasliga erishgan bo'ladi.

⁷⁴ Bu o'rinda "Semurg'" so'zi yordamida so'z o'yini qilingan. "Semurg'" fors-tojikchada "o'ttizta qush" degan ma'noni bildiradi.

⁷⁵ Shu so'zlar bilan boshlanuvchi hadisga ishora. Bu hadisda shunday deyilgan: "Kimki o'z aslini bilsa, u o'z xo'jasi (Xudo)ni ham biladi".

lar tilidir. Garchi bu so'zlarni tushunish qiyin bo'lib, muammoli bo'lsa-da, u riyozat chekish bilan ravshanlashadi. Chunki riyozat insondagi hayvoniy sifatlarni yo'q qiladi. Kishi shu xilda o'z nafsoniyatini inkor eta olsa, unda ruhiy poklikdan boshqa hech narsa qolmaydi. Sen bu ma'niga xiloflik qilma!

Inson zotida shunday sharaf mujassam etilganki, agar u o'zidagi yomon axloqni bartaraf etib, Fir'avnlikka⁷⁶ taqlid etmasa, unda Musoga o'xshash eng yaxshi sifatlardan o'zga sifat qolmaydi. Yoki sharaf xasinasiga egalik qilib, o'zidagi Abu Jahllik xislatini yo'qotsa, Habibullohdek⁷⁷ yuksak sharafga erishadi hamda borlik va yo'qlikdan ogoh bo'ladi. Vahdat me'rojiga chiqib, poklik siridan unga xabar yetadi. Ko'zi vasl nuridan shunday yorishib ketadiki, bu paytda oradan "menlik" va "senlik" yo'qoladi.

Haq vujudi dengiz mavjlarini yuzaga keltiradi. Mavj naqshidan dengizga ne ziyon yetadi? Dengiz, xoh u mavjli bo'lsin, xoh mavjsiz, o'zidagi suv bilan dengiz sanaladi. Suvsiz mavj hosil bo'lmaydi. Mavjning boru yo'qligi dengizga bog'liqdir.

Agar sen buni chuqur o'ylab ko'rsang yoki ishq sirlarini diqqat bilan mulohaza qilsang, Alloh sifati bilan birlashib ketganingda, ogoh xotiring bilan shu so'zlarni aytishga jur'at etasan: ya'ni, yaratilgan hamma narsadan asosiy maqsad sening o'zingsan! Sendan tashqarida hech narsa mavjud emas! Sen o'zing Zotning muxtasar tafsilisan hamda borliq mushkullarini tushunib yetuvchisan! Shuning uchun o'z vujudingga tafakkur qilib, nimani istamoqchi bo'lsang, faqat o'zingdan istagil!

⁷⁶ Fir'avnlilik – zolimlik, zo'raonlik, takabburlik. Fir'avn Sharq adabiyotida yomonlik va zo'raonlik timsoli hisoblangan. Unga yaxshilik va pokizalik timsoli bo'lgan Muso obrazi qarama-qarshi qo'yilgan.

⁷⁷ Muhammad Payg'ambarning sifatlaridan biri "Allohning sevimli do'sti" demakdir.

Sen jannat bog'chasidagi ajib bir qushsan va sharaf bo'stonida pokdomonsan. Semurg'ni istagan u qushlar galasi tariqatda riyozat bilan sayr qilib, bu yo'lda o'zlarini qobil etdilar va bu talabdan vasl hosil qildilar. Senda ham u imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, agar yomon fe'lingni tuzatsang, maqsadga erishasan! Agar bu yo'lda o'zingni qobil etmay, pastu baland so'z aytsang, dorga osilishing turgan gap.

Kimki bu ma'nidan ogoh bo'lsa, bilgilki, bunday so'zlarni aytishga til qisqalik qiladi. Bunda so'z o'zgachayu ma'no o'zgachadir. So'z bilan mashg'ul kishi undagi ma'noni anglamaydi.

Menga ayon bo'lgan ma'noni qush tili bilan bayon qildim. Aytgan so'zlarim faqat o'z zohiriy ma'nosida tushunilmasin, undagi chuqur ma'nolarning yuzlari yopilmasin. Bu so'zlarimni faqat qush tilini bilganlargina fahmlay oladilar. Fahmlagach, undagi mazmundan qattiq vahimaga tushadilar.

Ammo ziyrak qush bu so'z tagida nimalar borligini darhol anglaydi. Bu so'z barcha so'zlar ichida eng mushkulidir, u tilsiz kishilarning tilidir. Shart shuki, uni anglagan kishi mabodo o'zgalarga sharh qilib o'tirmasin, chunki tilidan boshiga biror ofat yetishi mumkin.

Ey, Alloh! Men bu so'zlarni aytib, senga tavba qilaman. Aytib bo'lmas so'zlarim uchun sening o'zingdan panoh istayman. Bu fikrlarni o'zimcha rejalamadim, balki Attor so'zlarini sharh qilib berdim. So'zimga ofat tushishidan o'zing asra, kimga izdoshlik qilayotganimni nazarga ol. Agar men xatoga yo'l qo'ysam, u nuqsonsizdir, chunki u kamol varaqlariga ko'p xatlar yozgan. So'zda agar tab'im g'alat aytishga moyillik ko'rsatgan bo'lsa, uni komil boshliq so'zlari tufayli deb bil. Men unga izdosh bo'lib, sen haqingda so'zlar aytdim, uzrimni qabul et, gunohimdan o't.

O'z mulohazasi qusuri uzriga misol

Bir parishon tabiatli devona bo'lar edi. U birov savdosidan ko'p zor ahvolga tushgan edi. U ko'ngil qo'ygan jonona davronga ofat soluvchi, balki ishvasi bilan barcha jonlilarga qiron keltiruvchi edi. Husn bobida hur va parilar ham unga mag'lub bo'lgan, oy va quyosh ham uning oldida chiroylni ko'rinmas edi. Olamni uning husni g'avg'osi tutgan, turli shaharlar va mamlakatlarga uning shov-shuvi tarqalgan edi. Husnining latofati garchi cheksiz bo'lsa-da, lekin u ikki ish bilan mashhur edi. Birinchisi, u bilimdonlik va zukkolikda kamolot sohibasi bo'lsa, ikkinchisi, shiddat bilan jafu ko'rsatishga ham mohir edi.

Bir kun ishqda majnuntabiat bo'lib qolgan oshiq ma'shuqasini yodga olib, uning yuzini gulga, qaddini sarvga, ko'rinishini tovusga, yurishini qirg'ovulga qiyos qildi. Devona o'ziga xush yoqqan bu so'zlarni aytib turganida, oy yuzli dilbar unga yaqin kelib, uning so'zlarini pana joydan turib eshitdi. So'ngra yurib uning qoshiga keldi va shunday dedi:

- Sen aytgan bu ta'riflar men uchun kinoyadan boshqa narsalar emas. Men ulardan nihoyatda or qilaman. Qomatimni sarv deb ayting, ammo sarv mening qaddim kabi chiroyli yura oladimi?! Yuzimni gul deding, lekin qaysi gulda mendagi kabi yuz balolik ko'z va qosh bo'ladi?! Ko'rinishimni tovusga qiyos qilding, qachon tovus elning aqlu hushini olibdi?! Yurishimni tustovuqqa o'xshatding, ammo qay bir qirg'ovul kishilar qatliga sabab bo'la olgan?!

Oy yuzli go'zal g'azab bilan bu so'zlarni aytib, unga xitob etdi. Oshiq unga javob qaytarishdan ojiz bir holga tushdi:



– Men xato qilib qo'ydim, bundan nihoyatda sharmandaman, shunday bo'lsa-da, seni vasf etuvchi bir gunohkor bandaman!

Oy ko'rinishli bu so'zlarni eshitib, shu zahotiyoq:

– Jahondan vujudingni yo'q qilib yuboraman! – deya unga g'azab qildi.

Devona o'zini yerga tashlagancha zor yolvorib, shunday dedi:

– Ey, husni bilan parilar va hurlarga oriyat keltirgan. Men sen to'g'ringda nima so'z aytgan bo'lsam, ularning barchasi senga bo'lgan muhabbatim tufaylidir, ixlosim va do'stligim tufaylidir. Ularda hech qanday shikoyat, o'rinsiz ta'na-dashnomlar va kinoyalardan asar ham yo'q.

Ammo seni maqtab, vasf etishda kamchilikka yo'l qo'yibman, buni tan olaman. Endi o'zing marhamat ko'rsatmasang, holim xarob bo'ladi. Men aytgan bu so'zlarni nodonlikka yo'ygin, ularning barchasini jaholat va bilmaslikdan deb hisoblagin. Chunki uyat men telbani halok qilmoqda, agar sen ham o'ldirmoqchi bo'lsang, bu endi menga og'ir zahmat bo'lib tushadi!

Telba o'z nuqsonini bo'yniga olib, uzrxohlik qilgach, parivash ham lutf ko'rgazib, uning qonidan kechdi.

CLXXI

Hikoya

Tariqat ahliga yetakchilik qilganlardan biri Xoja Abdulloh Ansoriy shunday degan edi:

– Kishi sozini rud ohangiga moslab, bu ohang ichra bir yoqimli qo'shiq aytayu bu kuyi va qo'shig'idan maqsad Tangrini yodga olish bo'lsa, ey, pok e'tiqodli, bilgilki, uning bu ishi g'aflat ohangi bilan Qur'on tilovat qilishdan yaxshiroqdir.

Agar qo'shiq va nag'mada ogohlik mavjud bo'lsa, bu toat vaqtidagi gumrohlikdan yaxshiroq sanaladi.

CLXXI

O'z kamchiliklarini afv etishni yolvorib so'ramoq

va gunohlaridan o'tishni iltimos etmoq

Ey, g'oyibdan barchani yaratgan saxiy Haq! Barcha saxovat ahlining mavjudligi Sen tufaylidir. Sening lutf va ehsoningga poyonu had yo'q, muruvvat va in'omlaring son-sanoqsizdir. Seni vasf etib har neki yozgan bo'lsam, ular sehrli bo'lsalar ham, xato qilaman. Faqat men emas, balki buyuk allomalar vasfingda yillar qalam sursalar, ular ham insofga kelsalar o'z ojizliklarini bo'yinlariga oladilar.

Mendek bir oshuftahol devona Foniyy agar Sen haqingda bir necha so'z aytgan bo'lsa, uning xato va nuqsonlarini karam yuzasidan afv qil. Amallarim qog'ozidan o'sha gunohlarimni o'chir. Men nima haqida qalam surgan bo'lsam, Sendan yozdim, Sendan o'zga haqida so'z yuritmadim, menga shuning o'zi yetarlidir. Ortiq yoki kam degan bo'lsam ham Sendan dedim, chin yoki yolg'on aytgan bo'lsam ham Sendan aytdim. Sening sirlaring menga qanchalik ayon bo'lgan bo'lsa, ularni qush tili bilan bayon qilib berdim.

Bu dam xuddi chala so'yilgan qushdek o'zimni yo'qotib, qush tili bilan senga yolvormoqdaman. Chunki barcha qush ham shirin so'z aytish, nozik ma'no va chechanlikka ega bo'lavermaydi. Agar bulbul lutf bilan ajoyib dostonlar aytsa, qarg'a yoqimsiz kuylarni haddan oshiradi. Bas, shunday ekan, barcha qushning kuylashi dilga xush kelavermaydi, barcha qushning nag'masi dilkash bo'lavermaydi.

Men ular tilidan so'z aytdim, albatta, barcha qushning sayrashi bir maqomda bo'lmagan. To'ti va mayna



odamga o'xshash gapira olsalar-da, har birining nutqi o'zgachadir. Ular sayrashida tafovut mavjud bo'lib, biri Haq haqida so'z aytsa, ikkinchisi but haqida so'z deydi. Birida shubha-gumon bo'lsa, yana birida din mavjud.

Ammo Foniyning kufru din bilan ishi yo'q. Chunki u har nima degan bo'lsa, Sen tufayli aytgan! Sen uning xatolariga parda yopgin, toki u ham fano bazmida bir qultum may icha olsin! Unga fano jomini nasib etganingda, baqo iqbolini bermoqlikni ham unutm!

CLXXII

Shayxning vasfi va o'zining unga izdoshlik qilgani bayoni

Ey Foniy! Yana bir go'zal asar yozib, qushlar tilini ajoyib yo'sinda sharhlab berding.

Qushlar tiliga yo'l topganlardan biri Sulaymon payg'ambar edi. Keyin vaziri Osaf undan ta'lim olib, qushlar tilini o'rgandi, ammo bu tildan u hech kimni xabardor etmadi. Bu ikkalasidan o'zga kishi buning uddasidan chiqmadi, boshqa odamlar qush tilini bilmaganliklari uchun uning fahmiga yetmas edilar.

Tez aylanuvchi falak shitob bilan oradan bir necha ming yilni o'tkazib yubordi. Shundan so'ng chaqqon sayr etuvchi, chechan nutq so'zlovchi va o'tkir aqlli omadi yurishgan bir qush⁷⁸ maydonga chiqdi. Uni qush dema, balki fano Qofining anqosi de, barcha qushlar tilining donosi degin! U bu yo'lning boshlovchisi va avliyolar qiblasini bo'lib, ko'ngli to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun ziyolangandir. U haqiqat sirlarini kashf etishda yagona va tengi yo'qdir, nutqidan haqiqat ahli bahramand bo'ladi. Bu kishi irfon ahlining yo'l ko'rsatuvchisi, ma'rifat bozorining Attoridir.⁷⁹

⁷⁸ Farididdin Attor ko'zda tutilgan.

⁷⁹ Bu so'z ham taxallus, ham o'z ma'nosida ishlatilib, nozik so'z o'yini hosil qilgan.

U bu gulshan ichra paydo bo'lganida go'yo qushlar ham nutqni undan o'rgangandek bo'ldilar. Uning qush tili bilan gapirishi Osafdan ham, hatto Sulaymondan ham ortiqroq edi. Chunki ular qush tilini bilgan bo'lsalar-da, lekin bundan elga biron-bir naf yetmadi. Haq Attor tilini biyron qilgani uchun "Mantiq ut-tayr" dostoni oshkor bo'ldi. Bu til izohini to'la-to'kis bayon etib, ilohiy sirlarni sharhlab berdi. Yaratish va tugallanish haqida chiroyli so'zlar xazinasidan ko'plab gavharlar sochdi. Bu gavharlar bilan zamona cho'ntagini to'ldirdi, barcha kishilar undan bahramand bo'ldilar. Xazinadagi tilsim ochilgach, har gadoga bu gavharlardan muayyan ulush tegdi. Asarini ko'pchilikka quyosh kabi oshkor etib, so'zlaridan Jamshid jomi kabi sado chiqardi. Kimki chanqoq bo'lsa, bu maydan unga ichirdi. O'zgalar bu haqda so'z aytishdan ojiz qoldilar. Qush tili bilan shunday kalom surdiki, uning bu so'zlari xuddi so'zlovchi to'ti so'zlari kabi barchaga manzur va ma'qul bo'ldi.

U yozgan asarni forsiy tilni biluvchi xalqlar fahm etib, undagi barcha yashirin nozikliklardan xabardor bo'ldilar. Ammo idroki kuchlilari kam bo'lgan sodda, bechora turklar bu tilni bilmaganliklari sababli qush tili bilan forscha yozilgan bu asarni tushunish iqbolidan mahrum qoldilar. Ulardan ko'pchiligining qo'li qushdan xoli bo'lmasada, lekin ularga qush tili tushunarli emas edi.

Men yozu qish Attor do'konidan qand va shakar olish bilan shug'ullandim, balki bu do'konda to'ti kabi makon tutib, shakar ushatar edim. U qush tili bilan menga neki xitob qilgan bo'lsa, men unga xuddi to'ti kabi javob qaytarar edim. Yo'q, balki uning pok ruhining gapga chechan qushi Arsh bog'idan kelib, mening ko'nglimga o'rnashib olgandek edi. U menga qush tili mushkullarini hal etib, bu takallumda meni ustodlik darajasiga



yetkizgan edi. Shu tariqa men u so'z ichra kamolotga erishib, asarimni turkiy tilda yozdim. Go'yo mastligidan yoqimli sayrayotgan qush kabi ko'p kuylarimni turkona sozga hamohang qildim.

Qaysi bir qush, balki uni ming xil doston kuylovchi bulbul deb aytgin, uning har bir dostonida yangi bir fig'on ohangi mavjuddir. Lekin uning bu dostonlari gul shavqidan bitilgan bo'lib, undagi nolayu afg'onlar ham shuni vasf etishga bag'ishlangan edi. Men o'sha ming xil nola chekuvchi bulbuldirman. Har bir fig'onimni bir dostonimda jo qilganman. Ushbu gulshan ichra mastona qadam qo'yib, kuylarimni baland pardalarda ijro etdim. Mening bu kuylarimni eshitgan har qanday sayroqi qushlar ham ulardan qusur topa olmas edi. Shayx ruhidan menga madad yetishib, bu bulbul sayrashi cheksiz bo'ldi. Har bir kishi bu mutanosiblikka ko'z tashlasa, unga Qaqnus qushi ishini o'xshatgan bo'lar edi.

CLXXIII

*O'zining shayx ruhi madadidan unga o'xshatma
qilganligiga Qaqnus misoli*

Qaqnus⁸⁰ degan bir ajoyib qush bor emish. U Hindiston mamlakatida makon tutgan bo'lib, o'sha yerda sayr qilar ekan. Bu qushning shakli xushbichim, gavidasi ham baquvvatdir. Uning har bir parida o'zgacha naqshlar va ranglar jilva qiladi. U shunday ajoyib ko'rinishi bilan birga, ajib bir tumshuqqa ham ega. Tumshug'ida bir talay teshiklar bor. Agar u jonga huzur baxsh etuvchi dilkash bir navo tuzmoqchi bo'lsa, tumshug'idagi har bir teshikdan yangi bir ohang taraladi. Agar u bir sayrasa, bu kuyni eshitgan kishi hushidan ajraladi. U juftsiz holda o'zi tanho yashaydi. Hech bir qush unga o'xshamaydi. U olis bir o'rmonda maskan tutib, bir daraxt boshida qo'nalg'a

⁸⁰ G'arb adabiyotida "Feniks" nomi bilan mashhur afsonaviy qush.

qilgan. Bir kun Fisog'urs⁸¹ o'sha yerdan o'tayotganida, uning unlari qulog'iga chalinibdi. U bu kuydagi turli sadolarni eshitib, ularni ajratgan holda musiqa fanini kashf etibdi.

Qaqnus o'rmonda juda uzoq yillar hayot kechirib, umrini o'tin yig'ish bilan o'tkazar ekan. Bu o'tinlardan, ular xoh ho'l, xoh quruq bo'lsin, behad ulkan bir xirmon hosil bo'larkan. Umri poyoniga yetgach, u necha yillardan buyon jamlangan xirmoni ustiga chiqib, bir xushnavo kuy boshlarkan. Nihoyatda hazin ohangda dilkash bir navo bilan sayrarmish. Bu kuyni eshitgan o'rmondagi barcha qushlar va vahshiy hayvonlar uning atrofida yig'ilar ekanlar. Uning mungli nolasi ularga qattiq ta'sir etib, ko'pchiligi xastahol bo'lgancha halok bo'lar ekan. Uning bu kuylari nihoyasiga yetgach, oxirida bir ajib o'tli navo tortarmish. Bu navodan o'zi yiqqan ulkan xirmonga o't tutashib, u turgan manzil va maskan olov ichida qolar, bu o't falakka bayroq tortgancha osmonu falakka ko'tarilib, xirmon go'yo xashakka chaqmoq tushgandek lovillab yona boshlar ekan. Bu o'tinlar yongan sari Qaqnusning o'zi ham ular bilan birga yonib, parlari xuddi yaproqlardek o'rtanadi. Nihoyat, uning ham o'zi, ham yiqqan o'tinlari kulga aylanarmish. Bu yong'indan yuz tuman parcha bir butunlik bo'lib birlashar ekan.

Bu kullar bir tog' bo'lib uyulgach, uning ichida bir Qaqnus bolasi bekinib yotarmish. U asta-sekin qimirlab kul ichidan bosh ko'tarar ekan. Keyinchalik turli-tuman ziynatlarga ega bo'lgan qanotlar chiqararmish. Havoga ko'tarilib, atrofga nazar tashlar ekan va o'rmonni ko'rar hamda o'tin yig'a boshlashga kirishar ekan. U ham umri davomida o'tin to'plab, bu ish oxirida bir dilkash un

⁸¹ Fisog'urs – qadimgi yunon faylasufi va matematigi Pifagor (eramizdan oldingi 571 – 497). Rivoyatlarga ko'ra kuy va musiqa asboblarni u ixtiro qilgan emish.

tortarkan. Uning umri poyoniga yetgach, u ham o'z otasi nima ish qilgan bo'lsa, o'sha ishni qaytararmish.

Shayx Farididdin Attor go'yo o'sha avvalgi qushga o'xshaydi. U ham umrini kuy aytish bilan o'tkazdi. U shunday ajoyib dilkash navo bilan sayradiki, uning kuyi barcha vahshiy hayvonlar va qushlarni o'ziga maftun etdi. Barcha uning bu ofat yetkazuvchi navosidan nobud bo'lib, xirmon va uning egasi kabi kulga aylandi. Ammo o'sha kul ichidan cho'g'dek yaltirab, balki cho'g' ichidan samandar kabi chiqib kelgan bir qush bolasi bor edi. Avvalgi qush qanday holatda kun kechirgan bo'lsa, bunda ham o'sha holat zohir bo'ldi. Bu ham yana o'shancha o'tin yig'di va uning ham umri nihoyasiga yetdi. Gulshan va davrondagi har xil qushlar, faqatgina qushlar emas, balki vahshiy hayvonlarni ham o'z atrofida yig'di. Tumshug'idan yuz xil navo chiqardi. Bu navolarning barchasi Haqning yashirin sirlari haqida edi. U ham o'ziga, ham xirmonga o't solib, o'zini va o'zgalarni kuydirdi.

Men uni ota, o'zimni o'g'il deb atamay, u bir oliy sifatli shoh bo'lsa, men uning bandasi, quliman.

Uning o'zi avval u bu olovda kuyib, barcha olamga o't soldi. So'ngra bu o'tdan bironta kimsa menchalik kuyib-yonmadi, olamni o'rtovchi va dunyoni yorituvchi shu'la bo'lib porlamadi. Qush tili vositasida shu'lalar paydo qilib, ham o'zimni, ham elning kul bo'lishini bildim. Bu dunyo otamdan nimaiki ko'rgan bo'lsa, menga ham u nasib bo'ldi. Olam elini ham, o'zimni ham o'rtadim. So'zni ham qush tilidan o'zgacha qilmadim. Umidim shuki, bu fano yolqini barcha kuyganlarga abadiylik ato etsin.

CLXXIV

Talab yo'li xususida munojot

Yo Tangri! Barcha mavjudot senga intiladi, sen ularga matlubsan ham muhabbat ahliga mahbubsan! Ikki

olamdagi barcha mavjudot seni axtaradi, senga moyil bo'lganlar boshqa narsaga xohish qilishdan o'zlarini chetga tortadilar. Sendan o'zga, garchi u malak yoki pari bo'lsa-da, tolib bo'lib izlashga arzimaydi. Jannat va kavsar bulog'ini ham, jannatdagi to'bi daraxtiyu hurlarni ham sensiz istash talabdagi qusurdandir.

Jonu ko'nglimni o'zingga tolib et! Dard ila ishqingga shavqimni g'olib et! Ham menga talab zavqini vosil qil! Ham yana tilab topmoqni hosil qil! O'zingdan boshqani ko'nglimdan chiqarib tashla! Unda Seni eslashni qalbim huzuriga aylantir!

CLXXV

Tamsil

Bir tolib murid Ka'bani ziyorat qilish uchun yo'lga chiqdi. Bistom shahrida uni Boyazid uchratdi. U shayx bilan uchrashuvga musharraf bo'ldi. U yerdan o'tib, yana Ka'ba tomon yo'l oldi.

Bu xom kishiga haj qilish muyassar bo'lgach, u orqasiga qaytdi va yana Bistom shahriga yetib keldi. G'ofil solik salom bajo keltirib, pir xizmatiga muyassar bo'ldi.

Shayx uni ko'rgach, shunday dedi:

– Ey, yo'lovchi! Vasl istab qancha vodiy va dargohlarni bosib o'tding. Allohning uyi haqida bizga biron nishona aytib ber!

Ogoh murshid shu so'zlarni aytgach, u:

– Ko'rgan uy nihoyatda oliy bo'lsa-da, ammo uy egasidan bo'sh edi! – deb javob qaytardi.

Shunda ogoh shayx hojiga dedi:

– Ey, talabdan aslo xabar topmagan kishi! Axir uy egasi yo'lda sening hamrohing, har qadam qo'ygan yo'lingda ogohing edi-ku! Seni o'z uyiga yetkazgan ham – o'sha! Olib borgan va qaytarib kelgan ham uning o'zi! Senda

buni fahmlash uchun farosat yetishmas edi. Shuning uchun garchi tolib bo'lsang ham, sening bu harakating nuqsonlidir.

Yo Rab! Meni bu talabda komil etgil! Matlubimdan sira g'ofil qilmagil! Intilishimda kimki hamrohlik qilsa, u hamrohdan menga ogohlik bergil!

CLXXVI

Ishq yo'li haqida munojot

Ey, ko'ngilni ishqidan ravshan qilib, hajr tikanzorini gulshan etgan! Ishqing o'tidan oy va quyoshga yorug'lik yetishadi, shuning uchun ham ulardan tunu kun nur yog'ilib turadi. Ishqing chaqmog'i jonlarga o't soladi, shu'lasidan obodu vayronalarga o't tushadi. Ishqing jonni o'rtaguvchi bir otashin yulduz bo'lsa, uning siri pok bir gavhardir. Jonimga o'sha yulduzdan nur yetkaz! Ko'nglimga bu gavhardan surur yetkaz! Ko'nglimni ishqing mayi bilan mast qil, bundan men xuddi mayparast kabi mast bo'lay! Bu may bilan meni behush ayla! Aqlim o'rtadan ko'tarilgach, meni vaslingga vosil et!

CLXXVII

Hikoya

Omir qabilasidagi Qaysni ishq mag'lub etgach, uning aqlu hushi ishq aro jinnilikka yuz tutdi. U Layli ishqida shunchalik mag'lub ediki, go'yo talabgor uyu, bu esa istalgandek edi. U bu ishqqa shunchalik qorishib ketgan ediki, bunda u xuddi mutlaq Laylining o'zginasi edi, ya'ni ishqda Layli bilan bir butunlikka erishgan edi.

Kunlardan bir kun birov undan: "Oting nima?" – deb so'radi. U: "Layli", – deb javob qildi.

– Buni qanday isbot qilasan? – debdi boyagi kishi.

– Kimningki zoti Layli bo'lsa, buni isbotlab o'tirishga hojat yo'q! Garchi bu senga gum'on bo'lib tuyulsa ham, menga aniqdir! – deb javob berdi u.

Bunday oshiqlikka yuz ming ofarin bo'lsin!

Meni ham ishq o'tiga yondirgil! Ishq vahdati – birligi ichra meni ham ma'shuq etgil! Unda ishqqa cho'mishni menga qismat etki, o'zligimga bo'lgan munosabatim butkul uzilsin! Ishq aro Foniyni nobud qil, so'ngra ishqing birla mavjud ayla!

CLXXVIII

Ma'rifat yo'li bayonlarida munojot

Ey, insonni ma'rifat koni qilib, uning ko'nglini ma'rifat jahoni aylagan! Ma'rifatni kimga nasib etgan bo'lsang, jahonda unga orif – biluvchi deya ism qo'yding. Kimlarni ma'rifatga muyassar etgan bo'lsang, ularning holatini turlicha qilding. Bunda har bir kishining sayr etishini o'z kamoliga moslashtirding. Har bir kishining yaqinligini uning turmushiga yarasha qilib berding. Xuddi yo'lovchilari son-sanoqsizligidek bu biyobon yo'lini behisob etding.

Yo Rab! Bu yo'llardan qaysi biriga solik ma'rifat istab kirsa, u Senga olib boradi! Ovora Foniyni ham shu yo'lga sol! Yo'lni bosib o'tgach, visol nasib etgil.

CLXXIX

Tamsil

Bir darvesh shoh oldidan o'tib bormoqda edi. Shoh bu ogoh kishiga qarab: "Kel, yonimda bir nafas o'tir, nimaiki orzu qilsang, muhayyo etay!" – deya iltimos qildi.

Darvesh unga shunday dedi:

– Tangrini taniganimdan buyon undan boshqa hamma narsaga ma'yus ko'z bilan qarayman. Bu o'tkinchi dunyoda Uni tilab topishdan boshqa yana bir narsa bormi o'zi? Agar kerakli biron narsa so'rasam, uni ham menga Haq beradi. Bu sohada men senga muhtoj emasman!



Yo Rab! O'sha darveshda qanday sifat mavjud bo'lsa, Foniya ham o'shanday ma'rifatni nasib et! Uning dodiga yetib, nodonlik, jabr va zulmdan qutqar! Uni ham o'ziga, ham O'zingga orif et!

CLXXX

Istig'no yo'li bayonida munojot

Ey, dargohing yuz falakdan ham kengroq bo'lgan! Ostonang ming Zuhaldan⁸² ham yuksakroq turgan! Osmon va yulduzlar sening oldingda qanday vujudga ega bo'lsin? Ularning borligi yo'qlik bilan tengdir! Olamni yo'q qilish yoki bor qilish Sen uchun xamirdan qil sug'urgandek gap. Alloh-Alloh! Bu ne qadar ulug' martaba, bu ne ehtiyojsizlikdir: Sening huzuringda bir cho'loq chumoli va o'rmon sheri bo'lsa ham, bo'lmasa ham birdek hisob!

Men o'rmon sheri emas, balki cho'loq chumoliman. Shunchalik ojizmanki, hatto u chumoli ham mendan yuz marta or qiladi. Boshqalarga men zorni ehtiyojsiz et! Faryodimga yetib, kishilarga meni muhtoj etma!

CLXXXI

Tamsil

Namrud Haq-taolo do'sti - Ibrohim Xalilni o'tda kuydirish uchun o'z palaxmonini sozladi. Tog'-tog' qilib taxlangan o'tinga olov yoqishib, uning alangasini ko'kka yetkardilar. Ishq ko'chasida Alloh dalili hisoblangan Halilillohni bu o't tomon palahmonga solib otishdi.

Shu payt yuqoridan hukm bo'lib, uning oldiga Jabrail yetib keldi. Halil o'tga yetishgan chog'ida Jabrail unga shunday dedi:

- Ey, Halil! Sen bu payt o'zingda nimaga ehtiyoj sezyapsan? Qanday lutf-ehson ko'rsatilishini xohlaysan?

⁸² Zuhul - Saturn sayyorasi. O'rta asr kosmologiyasida u eng baland sayyora hisoblangan.

Sen nima desang, o'shani muhayyo qilay, nimani istasang,
shuni amalga oshiray.

Halil unga shunday dedi:

- Menga o'tni qismat etgan ehtiyojim nima ekanligini
ham o'zi biladi. Hozir senga iltimos qiladigan hech
qanday ehtiyojim yo'q!

Barcha holatda ham O'zingga muhtoj et! Mening
nasibamni kishilarga ehtiyojsiz qil!

CLXXXII

Hayrat yo'li bayonida munojot

Ey, dargohingda aql hayron qolib, hayrat vodiysida
sargardon bo'lgan! Nimaiki Sendan bo'lsa, u Senga
hayron, hayratobod ichra volayu sargardon. Sening
zoting bobida barkamol aql ham hayratga tushadi.
Zotinggina emas, balki har bir sifatlaring bobida u
lol qoladi. Dastgohingdagi har bir eshilgan ip aqlning
bo'yniga hayrat arqoni bo'lib bog'lanadi. Ilm va aql
egalari yaratuvchilik qudratingga lol, ulardan har
birining har dam hayrati ortadi.

Ushbu hayrat maslagida qo'limdan tutib, bu
hayratlanish ichra yo'limni ko'rsatgin! Hayrat ichra meni
sargardon qo'ymasdan, osongina o'z vasling sari tortgil!

CLXXXIII

Tamsil

Bir kamtar va xoksor oshiq bor edi. U bir toshmeh
ishqiga muhtalo bo'ldi. Bu g'amda qanchalik o'rtanmasin,
unga diydor ko'rishmoq davlati nasib etmas edi. O'z
vaqtini hijron g'amida vasl yodidan ko'p armon chekish
bilan o'tkazar edi. Uning ranj tortishi va zorligi haddan
oshib, jismiga bemorlik yuzlandi. Chunki uning ko'ngli
endi sevimli yoridan butunlay umidini uzgan, shu tufayli



jonida qayg'u o'ti mahkam o'rnashib olgan edi. U o'ziga o'zi shunday der edi:

– Yo Rab! Mening murodim shuki, navnihol hursifatli sarvim qoshimga kelsayu men uning yuzini bir ko'rsam, unga ko'nglimdagi g'amimdan bir-ikki og'iz so'z aytsam!

Xalqniig oshiq holiga rahmi kelar, kishilar uning mehrsiz dilbarini zulm qilmaslikka chorlab, ko'p nasihat qilishar edi.

Nihoyat, ma'shuqani g'amgin oshiq yoniga keltirdilar, bu bilan go'yo uning huzuriga umrini boshlab kelgandek bo'ldilar. Nozanin oshiq ko'nglini talon-toroj qilganча kirib keldi va xastaning hojatini chiqarmoqchi bo'lib:

– Ko'nglingda qanday gaping bo'lsa, aytgin, – dedi.

Oshiq uning yuziga hayrat bilan ko'z tikkanча qoldi. Uning tili hayronlikdan lol bo'lib, tani zaiflikdan behollikka yuzlandi. Hayrat uning hushini boshidan uchirib yubordi. O'z dardini aytmoqchi bo'lgan oshiq shu tarzda gung bo'lib, xomush qoldi.

Hushiga kelganda yori allaqachon ketib bo'lgan edi. Bundan oshiqning kasalmand taniga mushkul holat yuzlandi. Hayratdan bu notavon zaif bir so'z ayta olmasdan jonini topshirdi.

CLXXXIV

Tavhid yo'li bayonida munojot

Ey, zotingga pok vahdat (birlik) xos bo'lgan! Vahdat ahli sening otingni zavq bilan tilga oladilar. Har kishini azaldan yakka qilib yaratding, ajralish va yolg'izlanishni bunga bois qilding. Kimki agar o'zligidan butkul qutulgan bo'lsa, o'z oldingda o'shaning tavidini yaxshi sanading. Kimgakim tavidni ochib bergan bo'lsang, uni madh etib, hatto kufr bilan ham do'stlashtirding. Kimni vahdat sari boshlagan bo'lsang, unda faqat Sen qolib "u" va "bu"larni inkor qilding.



Yo Rab! "Men" va "o'zlik" shirkatini mendan yo'qot va meni sof birliging sari yetkiz! Menda "menlik"dan nishon qo'yma, meni hamma narsadan etak silkitib, o'zligingda yo'qotib yubor!..

CLXXXV

Tamsil

Bir kecha chin oshiq shoh Mahmud G'aznaviy o'rnidan turib, Ayozn⁸³ nima bilan mashg'ul ekanligini bilmoqchi bo'ldi. Garchi bu fursatda Ayoz uyg'oq bo'lsa-da, ko'zlarini yumub, hiyla bilan o'zini uxlaganga solib, taxt poyiga yostiq qo'yib yotar edi. Shoh Mahmud uning boshiga yetib keldi. U bir dam uning husniga nazar tashlab, o'zidagi shavq o'tiga chora topmoqchi bo'ldi. U behad zavq-shavq bilan unga boqdi, ishq uni boshqacha tusga kiritdi. Shoh mahvashning oyoqlariga o'zini tashlab, shavqqa to'lgan holda ko'zlarini Ayozn⁸³ tovoniga surta boshladi. Ayoz esa uzrxohlik bilan oyog'ini tortib olmas edi.

Shoh nozanin uyg'oq ekanligini bildi. Unga shunday dedi:

– Ey Ayoz, sendan jonimda dog' hosil bo'lmoqda! Mendagi senga bo'lgan shunday muhtojlikni ko'rib, nega bunchalik beandoza noz qilding? Nega oyog'ingni yig'ib, o'rningdan turib o'tirmading? Bizga mehr izhor aylab, biron so'z demading?

Shunda gulyuzli Ayoz dedi:

– Ey, sohibnazar shoh! Menda u dam "menlik"dan asar bormidi? Menda u dam "menlik" batamom yo'qolgan bo'lib, biron kishiga uzr aytish uchun majol ham qolmagan edi. U dam Ayoz yo'q edi, faqat shoh bor edi, ham unga oshiq, ham unga suyakli edi.

⁸³ Ayoz – Sulton Mahmud G'aznaviyning quli so'ngra xos mahrami Abu Najm (1057-yilda vafot etgan).



Vahdat kimga bunday g'avg'o solsa, unda Sultondan Ayozning farqi bo'lmaydi. U birlik olamidan xabar topadi.

“Menlik” va “senlik” dan unda asar ham qolmaydi.

CLXXXVI

Faqr u fano yo'li bayonida munajat

Ey, fano ahli sening vaslingga erishgan bo'lib, ular vasl ishratgohiga mansubdirlar! Kimki Sendan abadiylikka erishmoqchi bo'lsa, u o'zini foniyl qilsa, bunga yetishadi. Har bir kishi o'zligini yo'q qilmasdan turib, bu fanoning fanosini bilmaydi. Bunday kishi visoling maqsadiga imkon topa olmay, bu fanolardan baqo nihoyasiga erisha olmaydi.

Yo Rab! Foniylga shunday yo'qlikni nasib etki, bundan u abadiyat xazinasidan o'ziga tegishli boyluk topsin! Avval uning borlig'ini O'zingda yo'qot, so'ngra bu yo'qlik ichra borliq yarat. Bu borliqda uning ishi tamom bo'lib, Sening visolingni topsin, vassalom!

CLXXXVII

Tamsil

Bir komil kishi hojatini chiqarmoqni so'rab, Tangriga shunday munajat qildi:

- Iloho, pok zotingga shunday borliq mujassam bo'lganki, unga fanoni ko'rish imkoni yo'qdek. Sening zotingga qadimiylilik xos. Vujudimni yo'qlikka chiqarsang. Unda vujudlik rangi sira yo'l topmasdan, Sening vaslingni mushohada etishdan o'zga hech narsa qolmasin! Mening bu foniyl vujudimdan asar istagan uni boqiy vujudidan topa olsin. “Menlik” va “senlik” oramizdan ketib, oradan “men” yo'qolib, faqat “Sen” qolgin. O'zaro “sen”-“men” deb nisbat berish yo'q bo'lgach, men Sendan visol topayin!



Bu kitobni nazmga solishda o'z munosabatini bildirish

Bu hodisa hamon yodimdan ko'tarilmaydi: bolalik chog'imda maktabga qatnab yurgan kezlarim edi. Bolalar yerga muk tushganlaricha, har tarafdian bir saboqni egallash uchun un chekar edilar. Ular saboq og'irligidan qiynalar, "Kalomulloh"ni takrorlashdan ozor tortar edilar. Ustod xotirani mustahkamlash, zehnni o'tkirlash va savodimiz ravon bo'lsin uchun she'r o'qitar edi. Ba'zan nasrdan "Guliston"ni mutolaa qilsak, goho "Bo'ston"⁸⁴ kabi she'riy asarlarni o'qir edik.

Bu paytda mening qiziquvchan ta'bim Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga ko'ngil qo'ygan edi. Men bu asarni takror-takror o'qir, yosh ko'nglim undan bahra topmoqda edi. Ta'b unda yozilgan so'zlarga oshno bo'lgach, boshqa asarlarni o'qishga mayl ko'rsatmadi. Undagi ajoyib hikoyalarga o'rganib qoldim, qush tilidan aytilgan kinoya va majoziy fikrlar menga oshno bo'lib qoldi. U yerdagi biron fikrga zehnim qiziqib, uning nima maqsadda aytilganini bilishga harakat etar edim. Bundan oladigan zavq meni ko'p xushhol etib, bu so'zlarning sharhlari meni lol etar edi.

Shu ahvolda ko'p vaqt u bilan mashg'ul bo'lib, bu kitobga e'tiqodim tobora ortar edi.

Shundan so'ng men kishilar bilan ulfat bo'lishdan qochdim. Bu kitob xilvatdagi eng qadrdon sirdoshim bo'lib qoldi. Natijada kishilarning yashash tarzlari va harakatlari ta'bimga malol kela boshladi. Oqibat bu kitobga bo'lgan ishqim meni shu xil shaydolik sari yetakladi. Bu savdo meni devona bir holga solib, men, uzlat eshigini ochay va bu olamning bema'ni elidan qochay, dedim.

⁸⁴ "Guliston" va "Bo'ston" – Shayx Sa'diyning mashhur asarlari nomlari.



Bolalar mendagi bu holatni anglagach, g'avg'oto'polon ko'targancha uni ota-onamga yetkazishdi. Ota-onam mening bu holatimdan vahimaga tushdilar. Ular: "Bu otashin so'zni uning yosh, xom tab'i ko'tara olmaydi. Bu asar unga og'irlik qilib, u jinni bo'lib qolishi mumkin. Keyin uni tuzatib bo'lmaydi", degan xayolga bordilar. Ular bu kitobni qo'limdan tortib olib, uni bir joyga yashirdilar va ko'nglimni u bilan mashg'ul bo'lishdan mahrum etdilar. Menga uni o'qishni qat'iy man' qilishib, "Mantiq ut-tayr" ustida fikrlashni taqiqlab qo'ydilar. Ota-onam, shoyad tez fursatda o'g'limiz bu ahvoldan qutulib, o'ziga kelib qolar, degan umidda edilar.

Lekin bu asar menga yod bo'lib qolgan edi. Uni doimo yashirincha takrorlab yurar edim. Ko'nglim qush tili bilan sirdosh bo'lib, undan boshqa so'zga maylim oz edi.

Men turk she'riyatida bayroq ko'tarib, bu mamlakatni bir adabiy tilga birlashtirdim. To'rt devon⁸⁵ bilan "Panj ganj"⁸⁶ hech bir qiyinchiliksiz, g'am va mashaqqat chekmagan holda qo'lga kirdi. Agar taxmin etuvchi kotib nazm va nasrimdagi she'riyatimni chamalab ko'rsa, uni yuz ming bayt atrofida chamalar edi.

She'riyat sohasida shunchalik muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan bo'lsam-da, lekin bir xayol sira yodimdan ko'tarilmas edi. Ya'ni Haq madad bersa-yu, men tarjima yo'li bilan shu asarni yozsam. Biroq bu asarni yozish juda qiyin bo'lib, bu ishni bajarishdan ojiz edim. Qalamni ravon yurgizishga qo'lim bormas edi. Oqibat ko'rdimki, umrim tez o'tib ketmoqda. Men o'lib, bu kitob yozilmay qoladiganga o'xshaydi. Bundan men u dunyoga armon bilan ketib, bu armon o'ti qalbidam umidsizlik dog'ini qoldiradimi, deb o'yladim.

⁸⁵ "Xazoyin ul - maoniy" devonlari ko'zda tutilgan.

⁸⁶ "Panj ganj" ("Besh xazina") "Xamsa" dostonlariga ishora qilingan.

Shundan so'ng bu ishga kirishib, unga birmuncha vaqtimni sarf etdim. Oltmish yoshga qadam qo'yganimda qush tilini sharhlash uchun qalamim uchini yo'ndim. Bu ishda Shayx ruhidan madad so'radim, u menga yordam qo'lini cho'zdi. Kechalari bu ruh menga yor bo'lib, ta'bim bu ma'noga mashg'ul bo'lgan paytda doimo qo'llab turdi. Qalamimni tez yugurtirib, yarim kechaga qadar qirq-ellik baytni yozmaguncha to'xtamas, ajib bir ilhom bilan betinim ishlar edim. Shayx ruhidan ko'p shijoat yetib, asarimni oz fursatda tugalladim. O'z-o'zimni qanchalik qiynamayin, bu asarni yozish men uchun og'ir bo'lib, undagi ma'no ko'zdan yashiringan edi. Ammo Shayx ruhidan mushkulim oson bo'lib, mendek bir baxtsiz o'z murodigaga erishdi.

Agar bir g'avvos ko'p mashaqqat chekib, o'zini bu dengizga oshno qilsa, uning qo'liga garchi durlar ilinmasa ham, bu dengiz mavjlarida suzib yurgan xas-xashaklarni yig'ib olsa, so'ngra ularni quritib, o'tin qilsa va bu o'tindan uning vayrona kulbasi bir zum tutunsiz yorisa, degan umidim bor.

Men bu dengiz ichra pok durlarni topa olmay, xas-xashaklarni yig'ib oldim. Nima qilay, qo'limdan faqat shu ishgina keldi, xolos! Hijronda qolgan tab'im shu bilan ham qanoatlanadi! Oliyimakon she'r bituvchi olam ahliga o'z dengizidagi kondan naqd gavharlar sochgan bo'lsayu mening undan oshirishga haddim sig'armidi! Undan olgan ehsonlarni vasf qilsam ham menga kifoya qiladi.

Umidim shuki, har kim bu kitobga ko'z solib o'qisa va undagi so'zlardan ko'ngliga harorat yetsa, uni Shayx nafasiga yo'ysin va bu asardan fayz topib, o'z murodu maqsadiga erishsin. Bunda bizni ham u bilan bir qatorda ko'rib, ko'ngli ikkilik sari mayl qilmasin.

Bir tolib kishi ko'ngliga ishtiyoq tushgan holda qiynalib shahar oralab ketib bormoqda edi. Ko'chada yiqilib yotgan devorni ko'rdi. Uning atrofida kishilar to'planib, mojaro qilmoqda edilar. Chunki odamlar bu katta ko'chadan o'tib qaytishar, bugun esa devor yiqilib, ular o'tadigan yo'lni berkitib qo'ygan edi. Odamlar:

– Yo Rab! Endi qaysi tomondan o'tamiz? E voh, buni endi kim tiklaydi? Kim bu devorni qaytadan urishga kirishadi?! – deyishardi.

Shu tariqa birmuncha muddat yo'l tamoman bekilib qolib, barcha kishilar yo'ldan o'ta olmay, ojiz qolishdi.

El ichida ana shu xil iztirob va chorasizlik bo'lib turgan paytda ular qoshiga umidvor tolib yetib keldi. Bu holatni ko'rgach, ko'ngliga xush yoqib, faryod chekkancha, hayajon bilan o'zidan ketdi. El uning bu holatidan taajjubga tushib: “U bekordan-bekorga, asossiz ravishda chinqirib, o'zidan ketdi”, – dedilar.

U hushiga kelgach, istak va maqsad dashtida ovora bo'lgan bu bechoradan hol-ahvol so'radilar. U shunday dedi:

– Men bu yerda to'planib turgan kishilarni ko'rdim, ammo ularning nima uchun yig'ilganliklarini bilmadim. Lekin avvallari bu tomondan o'tayotganimda devorga bir nazar tashlab o'tar edim. U doim bu tomonga qiyshayib borar edi. Mana bugun u yiqilib ham tushibdi. Bu oddiy jonsiz tuproq bu xil sifat ko'rsatib, oqibatda o'zi istagan tomonga yiqilib tushibdi. Men esa o'zimdan noumid bir holdaman, istagan maqsadimdan ham behad yiroqdaman. Devor menga bu ramzni oshkor etgach, men umidsizga ham umid yuzlandi: Haq meni qayoqqa boshlasa, o'sha yoqqa mutlaq yo'!!asin! Mening asosiy

murodim faqru fanoga erishmoq edi, bu mushkulni menga Haqning o'zi oson qildi.

Bugun menga shunday baxt yor bo'lib, beixtiyor shu holatga tushdim.

CXC

Bu kitobda taxallus o'zgartirishning uzrini aytish

Kichik yoshligimdanoq menga she'r yozish sohasida ajib xayollarga berilish nasib etgan. She'rning qaysi bir turida asar yozgan bo'lsam, ular turkiy tilda nihoyasiga yetar edi.

Har bir kishi biron ish qilgan bo'lsa, u bajargan ba'zi ishlarda o'zining bir belgisi bo'ladi. Qo'yiladigan shu belgi yo muhr, yo yorliq, yoki tamg'a shaklida bo'lishi mumkin. Sahifalarni ziynatlovchilar yoki she'r yozuvchilar uchun taxallus qo'yish yozuvchining tamg'asi vazifasini o'taydi. Sir ahli qaysi varaqqa she'r bitgan bo'lsa, u o'sha nishon (taxallus) bilan imtiyoz topadi. O'qigan kishilar ularni bir-biridan ajratib, bu Sa'diyniki yoki Nizomiy qalamiga mansub va yo buni Xusrav Dehlaviy yozgan, bu Jomiy asaridir, deyishadi.

Men esa turk tilida asar yozishga kirishib, shu tilda iste'dodim va qalamim tufayli she'rlar bunyod etdim. Iste'dodim buluti o'zidan durlar sochganida she'rlarimda "Navoiy" taxallusini qo'lladim. Jahon bo'stonida o'z maqsadimga erishdim, baxtiyor kishilar she'riyatimdan kuy, navo topib, bahramand bo'lishdi. Forsiy she'riyatda ham qalam surib, nazmning turli nav'larida asarlar yozdim. U ma'nolardan menga fayz yetgach, she'riyatim "Foniy" taxallusi bilan belgi topdi.

Mana endi "Lison ut-tayr"ni yaratib, unda har xil qushlar bilan birgalikda parvoz qildim. Bunda shunday navo tuzdimki, uni ham "Navoiy" taxallusi bilan tugatsam maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki navo qilish qushlar

tilining sayrashiga xosdir. Bu ularning dilkash afg'oni va hazin dostonlaridir. Yana, bu doston ham turkiy uslubda edi, shu sababli unda "Navoiy" taxallusi qo'llansa o'rinli bo'lar edi.

Bu asarda nima uchun "Foniy" taxallusi qo'llaganimni bilmoqchi bo'lganlar uchun sababini aytaman: mening bu asarni yozishdan ko'zlagan maqsadim asl manbaga qaytib borishni tasvirlashdan iborat edi. Bunda esa foniy bo'lmasdan turib, ish nihoyasiga yetmaydi, shu sababli ushbu asarim ham "Foniy" taxallusi bilan tugallandi.

Ikkinchi sabab shuki, ma'nolar egasi bo'lgan Shayx Farididdin Attor qushlar tilidan doston aytib, qushlarni sayr ettirdi va ularga yetti vodiyaning uchib o'tishni belgilab berdi. O'z asarida qushlarga ko'p azob-uqubat chektirtirib, ularni eng so'nggi – Fano vodiysiga qo'ndirdi.

Men keltirgan bu ikki tanosib bir-biriga mos bo'lib, she'rimda bu taxallusni qo'llaganimning sababi ham shundandir. Agar bunda "Foniy" taxallusini qo'ygan bo'lsam, yuqoridagi tanosiblar asosida ish ko'rdim. Agar biron sabab istab, so'ragudek bo'lsa, sharh qilgan so'zlarim unga javob uchun yetarlidir. Bunday ishlarni niyat qilgan kishi uchun zamona dorilomon bo'lmog'i kerak. Zamon Dorosi adolati joriy bo'lmasa, zamon tinch bo'ladi, deb xayolingga ham keltirma.

Kimki bunday ishlarni amalga oshirmoqni niyat qilsa, zamona tinchimas ekan, o'z maqsadiga erisha olmaydi. Sen zamon Dorosining adolati barqaror bo'lgandagina zamona tinch bo'lishi mumkin deb gumon qil.

CXCI

Islom podshosining duosi va kechirim so'rash ifodasi

U shunday bir kishiki, uning borlig'idan zamonaga tinchlik yog'ilib turadi. Xalq doimo uning saxovat va

ehsoniga shukr aytib kelgan. Bu kishi sharq va g'arbning hukmdori shoh Abulg'oziy Sulton Husayndir, uning ehsoni abadiy bo'lsin!

Men uning sifatlarini, xulqini va marhamatini, adolat va insofini qanday qilib maqtay olaman?! Agar men kabi yuz ming she'r yozuvchi ming yil davomida qog'oz sahifalarini uning sifatleri bilan to'ldirsa, shunda ham uning vasfining mingdan biri aytilmagan, balki yuz mingdan biri yozilmagan bo'ladi.

Uning madhiyasi va duosini shu bilan tamomlab, qolgan gaplarimni qush tili bilan davom etayin. U davron bog'idagi shunday bir qushki, uning hamrohi doimo saodat bo'lsin! U saltanatning yuksak osmonida sayr qilib yursin va baxt bog'ida o'ziga oshyon qursin! Bu baxt, izzat va davlat uning boshi uzra doimo hashamatli soyabon bo'lib tursin! Uning adolatli bo'stonida yuz tuman qush hech qachon zulm toshidan ozor chekmasin! Hukmi to abad davron aro barqaror bo'lsin! Barcha insonlar va jonzotlar uning amriga bo'ysunsin! Davlatining dushmanlari unga tobe' bo'lishsin! U hammaning gunohidan o'tib, xalqqa himoyachi bo'lsin!

CXCII

*Bu nazm tarixini aytish va tavba qilib,
kechirim so'rash*

Men xilvat bir joyda qalamimni yo'nib, o'zimning bu dilkash yozuvlarimni naqsh qildim. Payg'ambarlar boshlig'i Muhammad alayhissalom Makka tarafdin Madina tomon yo'lga tushgandan so'ng to'qqiz yuz to'rt yil o'tganda ulusning ko'ngliga o't soluvchi ushbu asar maydonga keldi.

Men bu dostonni xuddi shu yil boshlab, shu yil nihoyasiga yetkazdim. To'g'rirog'i, bir-ikki oy bu ish bilan yaxshiroq shug'ullanib, yuqoridagi sharhni vujudga



keltirdim. Kechalari turli mashg'ulotlardan bo'shagan paytlarimda bir-ikki soat vaqtimni bu asarni yozishga bag'ishladim. Doim shu tarzda g'ayrat bilan ish tutib, boshlaganlarimni tugallashga muvaffaq bo'ldim.

Xudoyo! Ushbu ajoyib, dilni sehvlovchi sho'xning vaslini menga nasib etding! Endi uni el ko'ziga ham sevimli qil, barcha ko'ngillarga yoqimli et! Garchi unda ifoda etilgan maqsadni bilib olish qiyin bo'lsa-da, lekin qush tilini el ko'ngliga ayon qilgil! Kimki undan muddao hosil qilib, marhamat yuzasidan Foniyni ham duo qilsa, uning duosini ham inobatga olgin va ikkalamiz o'rtamizda turgan pardani olib tashlagil!

Agar tab'imga bir oz xato yoki nuqson yuzlangan bo'lsa va undan qalamimga sahv yoki xalal yetgan bo'lsa, yo Rab, o'zing muruvvat ko'rsatib, barchasining gunohidan o't, yomon yozuvlarim uchun o'zing yorlaqagin! Ey, karam egasi! Qanday parishon so'z aytgan bo'lsam, barchasi uchun tavba qilib, Sendan ulug' ezgulik tilayman.



ALISHER NAVOIY

LISON UT-TAYR

(QUSH TILI)



Hozirgi o'zbek tiliga nasriy bayon qiluvchilar:
Sharafiddin SHARIPOV, *Filologiya fanlari nomzodi*
Vahob RAHMON, *O'zbekiston Respublikasida xizmat*
ko'rsatgan madaniyat xodimi

NASHR UCHUN MAS'UL: A. MUXTOROV

MUHARRIR: O. ЖУМАБОЕВ

ТЕХНИК МУХARRIR: O. MUXTOROV

МУСАХХИХ: В. ИБРАГИМОВА

САНИФАЛОВЧИ: Н. САФАРАЛИЙЕВ

DIZAYNER: I. ADILOVA

Nashriyot lisenziyasi AI № 231. 16.11.12.
Boshig'a ruxsat etildi 01.02.2021 da berildi.
Bichimi 84x108 ¹/₃₂. Ofset qog'oz.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14. Adadi 3000 nusxa.


«Tafakkur» nashriyoti: Toshkent viloyati, Toshkent tumani,
qizg'aldoq, Bunyodkor MFY, Ko'l 17-tor ko'cha,
9-uy. Indeks: 111109.

Tel.: (71) 244-75-88, (94) 664-40-03.

Pochta manzili: Toshkent shaxri, Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.

Email: tafakkurmaktub@mail.ru

Original maket «Tafakkur» nashriyotida tayyorlandi.
«ADAD PLUS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.



ISBN: 9789943242210



9 789943 242210